

**Ernazarova Gulnora Oblaqulovna,
Islamova Maftuna Sharofiddinovna**



PEDAGOGIK MAHORAT



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Ernazarova Gulnora Oblaqllovna,
Islamova Maftuna Sharofiddinovna

PEDAGOGIK MAHORAT

O'quv qo'llanma

*O'zbekiston Respublikasi Oliv va o'rt maxsus ta'lim
vazirligining 2020 yil 30 iyundagi 359-sonli buyrug'iga
asosan nashrga ruxsat berilgan*

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TALIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

TOSHKENT
«MALIK PRINT CO»
2021

UO'K: 37.091.12(075.8)

KBK: 74ya73

E 81

Ernazarova G.O., Islamova M.Sh.

Pedagogik mahorat [Matn]: o'quv qo'llanma / G.O. Ernazarova, M.Sh. Islamova. - Toshkent: «MALIK PRINT CO», 2021. - 220 b.

Mulliflar:

G.O. Ernazarova – Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti, “Pedagogika va menejment” kafedrası professori, p.f.d;
M.Sh. Islamova – Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti, ilmiy-tadqiqotchi.

Tagrizchilar:

M.Tojiyev – O'ZR OO'MTV huzuridagi OTRTITTEM;
U.Mahkamov – Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti, professori.

Ushbu o'quv qo'llanma Pedagogik mahorat fanidan ilmiy-amaliy bilim, konikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirish masalasiga bag'ishlangan bo'lib, undan pedagogika fanlari o'qituvchilari, malaka oshirish kursi tinglovchilari, bakalavriatning pedagogika yo'nalishlari talabalari foydalanishlari mumkin.

Ushbu o'quv qo'llanma Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika institutining ilmiy Kengashining 2019 yil “09.01” da bo'lib o'tgan 6 - sonli majlisida ko'rib chiqildi va chop etishga tavsiya etildi.

ISBN 978-9943-7652-1-4

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida o'qituvchi kadrlarning ma'naviy qiyofasiga, aqliy salohiyatiga hamda kasbiy mahoratiga nisbatan alohida mas'uliyatlar yuklangan. Bugungi kun o'qituvchisiga nisbatan qo'yilayotgan talablarning mazmun va mohiyati angallanadi.

Hozirgi zamon fan va texnikasi jadal sur'atda rivojlanayotgan, zamonaviy axborot texnologiyalarining salmog'i keskin oshayotgan bir davrda o'qituvchi pedagogik mahoratini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

“Pedagogik mahorat” fani, mahorati o'qituvchilarni tayyorlashga xizmat qiladi, o'qituvchilar va tarbiyachilarning kasbiy faoliyati sirlarini, mohiriligini o'rgatuvchi va uni takomillashtirish to'g'risida ma'lumotlar berib boruvchi fan bo'lib, o'qituvchilarda pedagogik mahoratning mohiyat mazmunini, hozirgi zamon talablari doirasida kasbiy faoliyatini rivojlantirishning yo'llarini, vositalarini, shakllarini o'rganadi.

Pedagogik mahorat o'qituvchilar va tarbiyachilarga pedagogik ijodkorlik, pedagogik texnika, ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligi, mulqot olib borish taktikasi, mulq madaniyati, tafakkuri, tarbiyachining ma'naviy – ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarini tashkil etish va amalga oshirish, bu jarayonda xulq-atvorni va hissiyotni jilovlay olish xususiyatlarini o'rgatadi va o'z kasbini rivojlantirib boruvchi pedagogik faoliyatlar tizimi to'g'risida ma'lumotlar beradi. Pedagogik mahorat o'qituvchilarning pedagogik faoliyati zaminida takomillashib boradi.

Pedagogik mahoratni egallashda kasbga oid nazariy va amaliy bilimlarni egallash, pedagogik jamoa bilan doimiy mulqotda bo'lish ijobiy natijalar beradi. Binobarin, bunday muhitda o'zaro fikr almashish, shaxsiy mulohazalarni boshqalar tomonidan bildirilayotgan qarashlar bilan taqqoslab, ularning to'g'riligi, haqoniyatiga ishonch hosil qilish, mavjud bilimlarni yanada boyitish, xato yoki kamchiliklarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish yo'llarini topish imkoniyati mavjud.

O'qituvchining mahorati pedagogika oliy ta'lim muassasalarida bilim va malakalarni egallash davridayoq, shakllanib boradi. Kasbga oid malakalarni egallash, pedagogik kadrlarni tayyorlash, ularning

malakasini oshirishda va qayta tayyorlash tizimida, tanlangan kasb ichida uzluksiz taraqqiyotga moslasha olishida, keng ma'nodagi yuksak kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan, pedagogik-psixologik bilimlarni mukammal egallagan o'qituvchini shakllantirish kerak.

O'qituvchilik sharafti, lekin juda murakkab kasb. Yaxshi o'qituvchi bo'lish uchun pedagogik nazariyani egallashning o'ziga yetarli emas. Chunki pedagogik nazariyada bolalarni o'qitish va tarbiyalash haqida umumiy qonun qoidalar, umumlashtirilgan uslubiy g'oyalar bayon etiladi. O'quv yurti hayoti- amaliy pedagogik jarayon esa juda xilma-xildir. Pedagogik nazariyaga mos kelmaydigan vaziyatlar uchray turadi. Bu esa o'qituvchidan keng bilimdonlikni, puxta amaliy tayyorgarlikni, yuksak pedagogik mahorat va ijodkorlikni talab etadi.

Hozirgi kun o'qituvchisi chuqur bilimli, mutaxassislik fanini to'liq egallagan bo'lishi bilan birga buyuk insoniy fazilatlarga ega bo'lgan, bolalar va kattalar bilan qiyalmasdan muomalaga kirisha oladigan, ularning ruhiyatini, holatini tushuna oladigan haqiqiy mohir pedagog bo'lishi lozim.

Bunday mutaxassis pedagog-psixolog-amaliyotchi o'qituvchi uchun kerak bo'ladigan yuksak pedagogik mahorat va texnika ko'nikmalarini egallagan shaxs bo'lishi kerak.

Pedagogik mahorat, pedagogik texnika va madaniyati nazariyasi hamda amaliyoti bo'yicha bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishni ta'minlash pedagogik mahorat fanining asosiy maqsadlaridan biridir. Chunki, hozirgi zamon o'qituvchisi, avvalo hayotimizda ro'y berayotgan tub o'zgarishlarning asosiy mohiyatini anglashi va har tomonlama yetuk, chuqur bilimli mutaxassis, Vatani va xalqiga sodiq, kasbiy mahorat va layoqatga ega bo'lgan shaxs bo'lishi zarur.

"Pedagogik mahorat" fanini o'rganish jarayonida:

- o'qituvchi shaxsi va uning jamiyada tutgan o'rini bilishi;
- barkamol avlodni ma'naviy va ma'rifiy jihatdan tarbiyalashda milliy uyg'unlash ma'krasining hamda umuminsoniy qadriyatlarining mohiyatini;
- yoshlarni mamlakatimizning mustaqillik g'oyalariga sadoqatli, vatandorlik ruhida tarbiyalashi, o'z Vatanga, tabiatga va oilasiga bo'lgan mehr muxabbati;
- o'quvchilarni seva olishi, o'z mehrini, his-tuyg'ularini har

lahzada o'quvchilar ichki dunyosi bilan bog'lay olishi, ularning ham mehriga, hurmatiga sazovor bo'lishni;

- jamiyatning ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning asl mohiyatini chuqur anglab yetish va ularga xolisona baho berib, bu borada to'g'ri, asosli ma'lumotlarni doimiy bilishi hamda yosh avlod ongiga singdirishi;

• ilm-fan, texnika va axborot-kommunikatsion texnologiyalar haqidagi eng so'nggi yangiliklardan va yutuqlardan muntazam xabardor bo'lib borishi;

- o'quvchilarning yoshi va ularning psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim-tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishni bilishi;

• o'z pedagogik mahoratini muntazam oshirib borishda pedagogik refleksiya qonuniyatlariga muntazam rioya qilishni;

- o'qituvchining pedagogik qobiliyati to'g'risida mukammal ma'lumotga ega bo'lishi;

• bo'lajak o'qituvchining muloqot madaniyati va psixologiyasini muntazam o'rganib borishni;

- kasbga oid bilimlarni o'rganish jarayonida yuksak darajadagi pedagogik mahorat, kommunikativ layoqat, pedagogik texnika (nutq, chehra, qo'l-oyoq va gavda harakatlari, mimika, pantomimika, pedagogik takt) qoidalarini mukammal o'zlashtirib borishga doir tushunchalarni bilishi kerak.

Ushbu vazifalarning hal etilishi bo'lajak o'qituvchilar va tarbiyachilarni zamon bilan hamnafas bo'lishga, yoshlarni tarbiyalash dardi bilan yashash va kelajakni aniq ko'ra olishga o'rgatadi.

Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahorat ko'nikmalari bilan qurollantirishda "Pedagogik mahorat" kursining, ayniqsa, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarining o'rni beqiyos kattadir.

"Pedagogik mahorat" fani talabalarga bo'lajak o'qituvchi ixtisosligi bo'yicha bilimlarni egallashlari davomida o'qituvchi shaxsidagi ma'naviy-axloqiy tarbiyani; o'z kasbi doirasida odob va axloq normalariga rioya qilish xususiyatini, uning mohiyatini; muallim - ustoz odobining bola shaxsiga ta'sirini anglab, turli vaziyatlarda o'z xulqini idora qilishning zaruriyatini; bo'lajak o'qituvchilarga pedagogik mahoratni, ko'nikma va malakalarni, pedagogik texnika

elementlarini o'zlashtirib, egallab borishlarini o'rgatadi.

«Pedagogik mahorat» fanidan o'qiladigan ma'ruzalar talabalarini o'qituvchi mahoratiga doir dolzarb muammolar bilan tanishtiradi, bu borada olib borilishi zarur bo'lgan tadqiqot va izlanishlar, uning asoslari, kasbdoshlar, ota-onalar va o'quvchilar bilan muloqotga kirisha bilish usullari, o'qituvchi ishidagi texnika uning asrori bilan tanishtiradi.

Fanni o'qitish davomida talabalar bilan olib boriladigan amaliy mashg'ulotlar va laboratoriya ishlarida o'rganilgan bilimlarga muvofiq pedagogik mashqlar o'tkaziladi. Bu bo'lajak o'qituvchi shaxsida amaliy ko'nikmalarning shakllanib borishini ta'minlab, pedagogik mahorat va pedagogik texnika asoslarini egallab olishga xizmat qiladi.

1-MAVZU. PEDAGOGIK MAHORAT HAQIDA TUSHUNCHA, UNING O'QITUVCHI FAOLİYATIDA TUTGAN O'RNI

Respublika Prezidenti ta'kidlaganidek: «Biz iqtisodiy o'nglanish, iqtisodiy tiklanish, iqtisodiy rivojlanishni ma'naviy o'nglash, ma'naviy poklanish, ma'naviy yuksalish harakatlari bilan tamomila uyg'un bo'lishni» - istayotgan bir davrda yashayapmiz. Bu istak esa yoshlar ta'lim - tarbiyasi bilan shug'ullanayotgan kasb egalarini yuksak kasbiy tayyorgarlikka, g'oyaviy-siyosiy e'tiqodga, tashkilotchilik va boshqaruvchilik malakalariga ega bo'lish lozimligini talab etmoqda. Chunonchi, bugungi kunda har davrdagidan ham ko'proq pedagogika fani oldida yangicha fikr yuritadigan yuksak ma'naviy - ahloqiy salohiyat, aqliy zakovatga ega bo'lgan o'qituvchi - tarbiyachini tayyorlash, uning kasb mahorati va malakasini uzluksiz takomillashtirish uchun ta'lim va tarbiyaning zamonaviy mazmun, shakl, usul hamda vositalarini ishlab chiqish muammosi dolzarblashmoqda.

Darhaqiqat, barcha kasblar tizimida o'qituvchilik kasbi muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Zero, o'qituvchi yosh qalblar kamolotining me'moridir. Bugun u yoshlarni g'oyaviy - siyosiy jihatdan chiniquitib, tabiat, jamiyat, tafakkur taraqqiyoti, qonuniyatlarini o'rgatib ekan, avvalo, u yosh avlodni kelajak mehnat faoliyatiga tayyorlashi, kasb - hunar egallashlariga ko'maklashishi va jamiyat uchun muhim bo'lgan ijtimoiy - iqtisodiy vazifani hal etishga chog'lamog'i darkor. Ana shu ma'suliyat o'qituvchidan o'z kasbining mohir ustasi bo'lishni, o'quvchi - yoshlarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatib, ularning qiziqishi, qobiliyati, iste'dodi, e'tiqodi va amaliy ko'nikmalarini har tomonlama rivojlantirishning optimal yo'llarini izlab topadigan kasb egasi bo'lishni talab etadi.

Buning uchun pedagogik mahorat fani o'qituvchidan doimo kasbiy mahorati ustida izlanish uchun, unga turli shart - sharoitlar yaratish, kerakli moddiy va ilmiy - metodik yordam ko'rsatishi hamda o'qituvchining ijodiy tashabbuskorligini oshirishiga ko'maklashadi. Bu pedagogik mahorat fanining muhim vazifalaridan biridir.

Ma'lumki, har bir fan mustaqil o'quv maqsadi, mazmuni va o'zining o'rganish mavzusi (predmeti) va metodiga ega. Zero, o'quv

fanining mavzusi u o'rganadigan, tadqiq qiladigan masalalarning majmuidir. Shunga asosan, "Pedagogik mahorat" fani, o'qituvchi – tarbiyachining kasbiy faoliyati, mohirligini o'rganuvchi va uni takomillashtirish to'g'risida ma'lumotlar beruvchi fan hisoblanadi. Pedagogik mahoratning mohiyat – mazmunini, kasb malakalarini shakllantirish va rivojlantirishning yo'llari, vositalari, shakllari tashkil etadi.

Chunonchi, pedagogik mahorat mazmunidan o'qituvchi – tarbiyachiga pedagogik ijodi, pedagogik texnikasi, ta'lim – tarbiya jarayonini tashkil etish qobiliyati o'qituvchi – talaba hamkorligi, muomalasi, kasb madaniyati, tafakkuri, tarbiyachining ma'naviy – ma'rifiy tarbiya ishlarini tashkil etish madaniyati va uni amalga oshirishi va bu jarayonda o'z xulq – atvorini, hissiyatini tartibga solish va rivojlantirish kabi masalalar o'rin olgan.

Shuningdek, mazkur fan tarkibida mazmunidan kasbga doir topshiriq va vazifalarni yechish uchun o'quv – tarbiya jarayonini boshqarish hamda unga rahbarlik qilish, pedagogik – psixologik ta'limot nuqtai – nazaridan yondoshish, ta'lim – tarbiyani modellashtrish, o'quv – tarbiya jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish to'g'risidagi ma'lumotlar va ularni takomillashtiruvchi ish tizimlari mujassamlashgan.

"Pedagogik mahorat" fani – bo'lajak pedagoglarga kasb malakalari va mohirligini egallash va shaxsiy mahoratni shakllantirish, ijodkorlikni tarbiyalash, pedagogik mahoratning, ko'nikma, malakalarini qo'lga kiritish uchun, pedagogik texnika, pedagogik qobiliyat, pedagogik hamkorlik, pedagogik nazokatni egallash to'g'risida atroficha ma'lumot berishni maqsad qilib qo'yadi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun o'quv predmeti oldida quyidagi vazifalarni yechish bosh masala qilib qo'yilgan:

1. Talaba yoshlarni pedagogik mahoratning nazariy – metodologik asoslari bilan qurallantirish.

2. Bo'lajak o'qituvchi-tarbiyachilarga pedagogik mahoratning pedagogik texnika, pedagogik hamkorlik (mulqot), pedagogik nazokat, pedagogik qobiliyat, pedagogik nazokat tarkibiy qismlari, pedagogik jarayonda tarbiyachi mahorati, o'quv – tarbiya jarayonini boshqarishda pedagogik mahorat, pedagogik odob, pedagogik ijod kabi masalalari to'g'risidagi bilimlar tizimi bo'yicha tushuncha berish.

3. Pedagogik mahoratni mustaqil egallashga ehtiyoj va havasni uyg'atish.

4. Egallangan pedagogik – psixologik va metodik bilimlarini, ko'nikma va malakalarga aylantirish uchun har bir talabada shaxsiy pedagogik mahoratni shakllantirish.

5. O'quv – tarbiya jarayonini tashkil etish, boshqarish va amalga oshirishning nazariy – amaliy asoslari bilan talabalarni yaqindan tanishtirish.

6. O'z kasbiy mahoratini takomillashtirish maqsadida talabalarga shaxsiy – ijodiy malaka oshirishning shakl, usul va vositalari haqida tasavvurlar hosil qilish.

7. Tarbiyachi mahoratining mohiyati, funksiyasi, tuzilishi to'g'risida talabalarga ma'lumot berish.

Bu maqsad va vazifalar o'qituvchi – tarbiyachini zamon bilan hamnafas bo'lish, yoshlarni tarbiyalash dardi bilan yashash va kelajakni aniq ko'rishga o'rgatadi. Har bir pedagog shaxsida jamiyatning dolzarb muammolarini, maqsad va vazifalarini tasavvur qilish, ularni vijdon elagidan o'tkazib, aniq bajarish uchun bor imkoniyati, bilimi, tajribalarini ishga solishga yo'llaydi hamda o'z faoliyatiga ijodiy yondoshish malakalarini hosil qiladi.

Shunday qilib, pedagogik mahorat fanining maqsad va vazifalarini to'la amalga oshirish uchun, avvalo, pedagogik mahorat tushunchasining mohiyat-mazmunini bilish, uning barcha komponentlari to'g'risida ma'lumotga ega bo'lib, ularning birligi, izchilligini ta'minlash lozim. Chunki ularning birligi o'zgarishi, tabiiy holda ikkinchisining o'zgarishiga olib keladi. Natijada pedagogik mahorat to'laqonli mazmunga ega bo'lmay, uni egallash qiyin bo'lib qolishi mumkin.

Xo'sh pedagogik mahoratning o'zi nima? Uni qanday egallash mumkin? Pedagogik mahorat – bu o'qituvchi – tarbiyachining shunday shaxsiy (bo'lajonligi, xayrihohligi, insonparvarligi, mehribonligi va h.k.) va kasbiy (bilimdonligi, zakkoligi, fidoyiligi, ijodkorligi, eruditsiyasi va h.k.) fazilatlarini belgilaydigan xususiyatki, u o'z o'quv fanini chuqur va atroficha bilishda, pedagogik – psixologik va metodik tayyorgarligida, talaba – yoshlarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning optimal yo'llarini izlab topib, amaliy faoliyatga qo'llashda namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, pedagogik mahorat egasi bo'lish uchun o'qituvchi o'z o'quv predmetini davr talablari asosida bilishi, pedagogika, psixologiya, metodika fanlarini mukammal o'zlashtirishi hamda insoniylik, mehnatsevarlik va fidoyilik kabi ma'naviy – axloqiy fazilatlarni o'zida tarkib topitirishi lozim. Shuni alohida qayd qilib o'timoq zarurki, o'qituvchilik kasbi murakkab va ma'suliyati kasbdir.

Ushbu kasbning sharafliligi va murakkabligi shu bilan belgilanadiki, u doimo ongning yagona sohibi bo'lgan inson bilan muloqotda bo'ladi. Ongli va tirik jonzor esa aqliy, ruhiy, hamda jismoniy jihatdan doimo rivojlanishda bo'ladi. Shuning uchun, o'qituvchi bilan doimo muloqotda bo'lganda, unga ta'sir ko'rsatish uchun muntazam ravishda psixologiya, tarbiya nazariyasi kabi fanlarni mukammal o'rganib, o'z kasbiy mahorati ustida mutasil ish olib borishi kerak. Bu o'qituvchidan pedagogik – psixologik va metodik tayyorgarlikni talab qiladi.

Pedagogik mahorat - pedagogik jarayonda tarkib topadi. Pedagogik jarayon esa kasbiy va shaxsiy tayyorgarlikni yo'lga qo'yib, bo'lajak mutaxassisni mehnatga, hayotga tayyorlash uchun davlat, jamiyat, millat va kelajak avlod oldida javob beradigan mutaxassislarini tayyorlashga xizmat qiladi. Shuning uchun, pedagog shaxsiy va kasbiy fazilatlarni egasi bo'lishi lozim.

Pedagogning shaxsiy fazilatlari sirasiga iymon – e'tiqodi, dunyoqarashi, ijtimoiy ehtiyoj va faolligi, odob – axloq, fuqarolik burchlarini his qilishi, ma'naviyati, dilkashligi, talabchanligi, qat'iyligi va maqsadga intilishi, insonparvarligi, huquqiy bilimdonligi va h.k.lar kiradi. Bular o'qituvchiga kasbiy xususiyatlarni o'zida tarbiyalab borishga ko'maklashadi.

Yuqorida qayd etib o'tilgan va pedagogik mahoratga berilgan ta'rif, hamda o'qituvchi-tarbiyachining professiogrammasi xususiyatlari va o'qituvchiga qo'yiladigan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy talablardan kelib chiqib pedagogika nazariyasi pedagogik mahoratni quyidagi asosiy komponent (tarkibiy qism)lardan iborat bo'lishi lozimligini ifodalaydi. Bularning barchasi xususiy mohiyat-mazmun kasb etsada, ular yaxlit holda o'qituvchi-tarbiyachi(pedagog)ning kasbiy malakalarining mazmunini ifodalaydi.

Zero, pedagogik texnika – o'qitish, ta'sir ko'rsatish, ta'lim tar-

biya oluvchilarga o'z his-tuyg'ulari, bilimlari, axloqiy fazilatlarni uzatish texnologiyasini ifodalasa, pedagogik muomala – o'qituvchi kasbiy faolligining bir ko'rinishi bo'lib, ta'lim - tarbiyada shu jarayon ishtirokchilarining o'zaro ta'sir va hamkorligini aks ettiradi.

Pedagogik ijod – o'qituvchining mahorat piliyalaridan ko'tarilishda yaratuvchanlikni, tashabbuskorlikni, pedagogik uddaburonlikni va tadbirkorlikka eltuvchi yo'lni, bu yo'ldagi qiyinchiliklardan qo'rqmaslikni anglatadi. O'z navbatida bu sohada o'qituvchining pedagogik qobiliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki u pedagogik jarayonda o'qituvchining aqliy, emosional – irodaviy jihatlarni, tashkilotchiligini, bilimdonligini va ularning bir-biriga bog'liqligini hamda yaxlit bir butunlik kasb etishini ifodalaydi.

Pedagogik madaniyat o'qituvchi-tarbiyachilik burchi, mas'uliyati, qadr-qimmat, vijdoni, axloqiy e'tiqodini nazarda tutib, o'qituvchining talabchanligi, adolati, komilligi, rostgo'yligi, to'g'riligini anglatadi. Pedagogik mahorat tizimida pedagogik nazokat (takt) – o'qituvchining pedagogik maqsadga muvofiq, foydali, qimmatli harakatlarning o'leho'i, me'yori va ta'sir vositasining chegarasiz sifatida xarakterlanadi. Pedagogik mahoratning qayd qilingan tarkibiy qismlari o'qituvchining kasbiy xususiyatlarini boyitadi va uni mohirlik sari yetaklaydi va o'qituvchi - tarbiyachida pedagogik mahorat malakalarining tarkib topishiga yordam beradi. Ammo, o'z kasbining mohir ustosi bo'lish uchun faqatgina ularga tayyanib, ish tutish kutilgan natijani bermasligi mumkin. Buning uchun muntazam ravishda pedagogik fikrlash, pedagogik o'ylash, pedagogik ish tutish lozim bo'ladi. Bu deganimiz, o'z faoliyatini pedagogik hodisalarni, vaziyatlarni tahlil qilish, ularning har bir bog'lanish joylarini anglashga intilish, kunlik natijalarni mustaqil ravishda tahlil qilishi va yangi ta'lim-tarbiyaga doir g'oyalarni avvalgilari bilan taqqoslay olishga odatlanishi ham lozim bo'ladi.

Pedagogik mahorat tizimida uning asosiy komponentlaridan tashqari kasbiy xususiyatlar ham mavjud. Pedagogning kasbiy xususiyatlariga: o'z kasbini, talabalarni sevishi, ziyrakligi, hozirjavobliligi, vazminligi, pedagogik salohiyati, tasavvuri, iqtidori, tashkilotchiligi, chuqur va keng ilmiy saviyasi, kasbiy layoqatligi, ma'naviy ehtiyoji va qiziqishi, intellekti, yangilikni angalay va qo'llay olishi, kasbiy ma'lumotni muntazam oshirishga intilishi va boshqa fazilat-

lari kiradi.

Yuqorida qayd etilgan fikrlarga asoslanib, kasbiy pedagogik mahoratni muayyan tayyorgarlik jarayonlaridan iborat deb aytish mumkin. Bu tayyorgarlikni shartli ravishda quyidagi yo'nalishlarga bo'lish mumkin:

- 1) pedagogning shaxsiy fazilatlar bo'yicha tayyorgarligi;
- 2) pedagogning ruhiy – pedagogik tayyorgarligi;
- 3) pedagogning ijtimoiy - pedagogik va ilmiy – nazariy tayyorgarligi;
- 4) pedagogning maxsus va ixtisosga oid uslubiy tayyorgarligi.

Ta'rifda qayd etilganidek pedagogik mahorat – o'qituvchi – tarbiyachining shaxsiy va kasbiy sifatlari yig'indisi xisoblanib, u pedagogik – psixologik, metodik bilimlar majmuasidan iborat bo'ladi. Buning uchun, avvalo:

a) ixtisoslik bo'yicha zamon, ilm – fan, texnika taraqqiyoti darajasida mukammal ma'lumotga ega bo'lishi, o'z o'quv fanining ke-sishadigan o'quv fanlari bilan bog'liqligini ta'minlash malakasiga ega bo'lishi;

b) o'quv – tarbiya jarayonini aniq tashkil qila olish va buning uchun muayyan pedagogik – psixologik, metodik ma'lumotga ega bo'lishi;

v) talabani, jamoani «ko'ra bilish», ularning qiziqishi, intilish-larini tushuna olish va o'quvchilar faoliyatida uchraydigan qiyin-chiliklarni tushunish va ularni o'z vaqtida ang'lay olish, zukkolk bilan har bir bolaning xarakter xususiyati, qobiliyati, irodasini an-g'lay bilish hamda ularga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning shakl, usul, vositalaridan xabardor bo'lish;

g) o'z shaxsiy sifatlari (madaniyati, tashkilotchilik qobiliyati, badiiy ehtiyoji, didi va h.k.) ni takomillashtirish malakasiga ega bo'lish kerak.

Mustaqil Respublikamizning o'qituvchisi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da qayd etilganidek yuksak ma'naviy – axloqiy fazilat, xulq madaniyati va milliy istiqbol mafkurasini mukammal egallashi kerak bo'ladi. Zero, o'qituvchi – tarbiyachi yuksak ma'naviyat, axloq – odob, xulq madaniyatiga ega bo'lsadagina, talabalarga insoniy nuqtai - nazardan mehribon, saxovatli bo'la oladi, uni ham-ma hurmat qiladi. Buning uchun aql – zakovatli, saxiy, qat'iy, iro-dali, ko'ngli ochiq bo'lishi, o'ziga va talabalarga nisbatan talabchan,

mehribon va xayrixoh, o'z shaxsiga tanqidiy nuqtai nazardan yon-dasha oladigan bo'lishi talab etiladi.

Mashhur Naqshband tariqatida shunday hikmat bor "... Adeb bu xulqni chiroqli qilish, so'zni va fe'lni soz qilishdir. Xizmat odobi ulug' baxtdan yaxshiroq, uning belgisi amahning qabuli, tug'yon esa amahning buzuligidir. Adabni saqlash – muhabbat samarasi, yana muhabbat daraxti, yana muhabbat urug'i hamdir".

Yurtdoshimiz Abu Nasr Forobiy o'zining "Fozil shahar kishi-larining axloqiy qarashlari", "Ruh madaniyati haqida risola" kabi tarbiyaviy qudratga ega bo'lgan pedagogik asarlarni qoldirgan allo-ma hisoblanadi. U: "... Tabiiy bog'lang'ichlar ta'siri ostida komil insonga aylanishgina kifoya qilmaydi, chunki, inson bo'lib, insoniy kamolotga erishuvi uchun so'zlash va kasb hunarga muhtojdir", - deganida haq edi. Shuningdek, jahon fani va madaniyatiga o'zini-ing boy ilmiy merosi, ko'p qirrali ilmiy faoliyati bilan ma'lum va mashhur bo'lgan Abu Rayhon Beruniyning ijodida ham insonning ta'lim-tarbiyasi, kamoloti bosh masala bo'lgan. U "O'quvchini ham-ma narsaga o'rgatish" nomli risolasida, ustoz shogirdni san'atga, tabiat ko'rsatmalariga asoslanishga, uning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishi lozim deb, ta'kidlagan.

Ibn Sino "Tib qonunlari" asarining birinchi kitobida yoshlar ta'lim-tarbiyasida alohida guruhlar bilan subbat usulini tavsiya qila-di. Ibn Sino shu va shunga o'xshash usullar haqida fikr yuritir ekan o'qituvchilik – tarbiyachilik kasbining imkoniyatlarini ochib beradi.

O'qituvchilik kasbining pedagogik, psixologik qirralarini tadqiq qilgan F.N. Gonobolin o'zining "O'qituvchi haqida qissa" risolasida o'qituvchi Vera Aleksandrova Raus nomidan fikr yuritib mahorat-li o'qituvchini quyidagicha ta'riflaydi. "Menimcha yaxshi o'qituvchi bo'lib yetishish uchun eng avval haqiqiy hayot kechirish, muayyan maqsadga yo'naltirilgan, to'la qonli hayotga intilish kerak. Tabiatni o'rganib, uning qonuniyatlarini kuzatib borish, kitob mutoala qilish, musiqa tinglash, teatrlarga borish, sayyohatga chiqish singari ish-lar bilan shug'ullanish kerak.

Keyinchalik boshqalarga ulashish uchun pedagogning qalbi juda ko'p narsani o'zida singdirishi zarur. Shuning uchun men uzluksiz ravishda kitobga murojaat qilaman, tabiatdan o'rganaman, doimo o'qiyman, astoydil o'qiyman."

Demak, o'z kasbining mohir egasi bo'lish uchun o'qituvchi muntazam o'z ustida ishlashi, tabiatdan, san'atdan, hayotdan, fandan bahra olib, rivojlanib, mukammallashtirib borandagina maqsadga erishadi. Inson psixologiyasining mohir ustasi F.N. Gonobolin ta'kidlaganidek, o'qituvchi o'zining butun kuch — quvvatini, irodasini, bilimini, o'zida bor hamma yaxshi narsalarini o'z shogirdlariga, xalqqa beradi. Ammo, u o'zida bor narsalarining hammasini bugun, ertaga, indinga bersa-yu, o'z bilimini, kuchini, quvvatini yana va yana to'ldirib bormasa, u holda o'zida hech narsa qolmaydi. O'qituvchi bir tomondan o'zida borini berishi, ikkinchi tomondan butun singari, hayotdan, fandan, nimaiki yaxshi narsalar bo'lsa olishga odatlanmog'i, xalqning eng ilg'or kishilari bilan hamkorlikda ishlamog'i lozim. Ana shunday bo'lganda, u o'z talabalariga qancha ko'p narsa bermasin, agar xalqdan, hayotdan, fandan oziqlanib, eng yaxshi xislatlarni o'qiy olsa, u holda, unda o'z talabalari uchun bunday rizqli shiralarni hamisha ortig'i bilan mavjud bo'ladi.

Binobarin, buyuk nemis pedagogi Adol'f Disterverg o'qituvchining muntazam ravishda fan bilan shug'ullanishi haqida gapirib, shunday yozgan edi: "O'qituvchi muntazam ravishda fan bilan shug'ullanmog'i lozim. Aks holda u qurigan daraxt va toshga o'xshab qoladi. Qurigan daraxt va tosh meva bera olmagandek, ke-lajakda bu o'qituvchidan hech natija kutib bo'lmaydi".

Hozirgi fan va texnika jadal ravishda rivojlanayotgan, axborotlar keskin oshib borayotgan bir davrda o'qituvchi pedagogik mahoratini tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Agar, ilgari fanning biror sohasida ro'y berayotgan yirik kashfiyot qariyb o'n, o'n besh yillik samarali va kishi zo'rg'a ishonadigan voqea hisoblangan bo'lsa, hozirgi vaqtda har yili, hatto har oy ichida fan, texnika sohasida shunday yangi — yangi kashfiyotlar ro'y bermoqdaki, bilimlarning ilgari noma'lum bo'lgan yangi yo'nalishlari maydonga kelmoqdaki, buning uchun har bir kasb egasi, jumladan o'qituvchi o'z mahorati ustida muntazam ishlash kerak bo'ladi.

Kishilarda, eng avval yoshlarda, bilimga bo'lgan intilish beqiyos darajada o'sib borayotir. Shuning uchun hozir o'qituvchi faqat o'z fani bo'yicha emas, balki o'z faniga yaqin bo'lgan sohalaridagi yangiliklarni bilishi ham lozim bo'ladi. Chunki, adabiyot darslarida talabalarni — nisbiylik nazariyasi, molekulyar biologiya, kibernetika

aga doir masalalar qiziqitirib qoladi.

O'qituvchan o'quvchi — yoshlarni fanning bu sohalarini bo'yicha savollariga javob bera oladigan o'qituvchigina ularning sevimli o'qituvchisi bo'la oladi. Buning uchun mahorat zarur. Shunday vaqtlarda o'qituvchi va yosh o'qituvchilarga: "Izlaning, o'qing, iloji boricha yana ko'proq o'qing!", deging keladi.

O'qituvchi faoliyatining pedagogik qobiliyatlar tizimida tadqiq qilgan N.V. Kuzmina shunday yozadi: — "Ta'lim — tarbiyada ro'y beradigan ko'pgina kamchiliklar o'qituvchi — tarbiyachining pedagogik qobiliyatining amaliy yo'nalishini yaxshi bilmaslik, iste'dodning o'qituvchida yo'qligidir".

O'qituvchi ishi uchun iste'dod zarurmi? Uning o'zi nima va u qanday paydo bo'ladi? Iste'dod — insonning muayyan bir faoliyat turi bilan shug'ullanib, muvaffaqiyatga erishish imkoniyatidir.

Faoliyatga intilish har bir kishida juda barvaqt paydo bo'ladi va hayot davomida takomillashib boradi, insonga qoniqish, mamnuniyat bag'ishlab, kasbning haqiqiy egasi va matunkori bo'lishga zamin yaratadi. Iste'dodning faoliyatga bo'lgan yo'nalishi uchun motiv va maqsad zarur. Zero, iste'dod motiv va maqsad asosida shakllanadi. Motiv — insonni harakatga, intilishga undovchi holat. Maqsad esa ana shu harakat, intilish orqali erishilgan natijadir.

Motiv inson ehtiyojlari bilan bog'liq bo'ladi. Ehtiyoj motivning paydo bo'lishi uchun turtkidir. Ma'lumki, motivlar ehtiyojni ro'yog'iga chiqarishga ko'mak bo'ladi. Ehtiyojlar moddiy, ma'naviy, madaniy (san'atga bo'lgan ehtiyoj) va mehnatga bo'lgan ehtiyojlar kabi turlarga ajratiladi.

Mehnat ehtiyoji ma'lum faoliyat yuzasidan iste'dodni namoyish qilishda asosiy omil bo'lib hisoblanadi. Muayyan mehnatga bo'lgan ehtiyoj asosida tarkib topgan motiv insonni o'z oldiga aniq maqsad qo'yish va unga intilishini ta'minlaydi. Masalan, o'qituvchilik kasbiga bo'lgan ehtiyoj, uni talabalar bilan ishlash uchun, muayyan ma'lumotlarni egallash maqsadi sari yetaklaydi. O'qituvchi faoliyatining maqsadi shu kasb uchun zarur bo'lgan ilmiy-nazariy, amaliy — metodik, ma'lumotlarni egallash motiviga asoslanadi. Motiv, maqsad o'qituvchini mahorat sari yetaklaydi.

Pedagogik mahoratni tarbiyalashning ilmiy — nazariy asoslari yana bir rus pedagogi V.A. Slastyonin tomonidan tadqiq qilingan.

Kasbiy – pedagogik tayyorgarlik jarayonida o'qituvchining shaxsi va kasbiy shakllanishi yo'naltirishdagi ilmiy maqolalarida V.A.Slatyonin pedagogik mahorat to'g'risida so'z yuritib, shunday yozadi: - "O'qituvchi muntazam ravishda pedagogik nazariyalarga tayangan, o'qituvchilik mahoratini egallaydi. Chunki, pedagogik amaliyot doimiy ravishda pedagogik nazariyaga murojaat qilishni taqozo etadi. Biri-chidan, ilmiy nazariyalar – taraqqiyotning umumiy qonuniyatlari, tamoyillarini, qoidalarini aks ettiruvchi ilmiy bilimlardir. Amaliyot bo'lsa, doimo aniq vaziyatga asoslanadi. Ikkinchidan, pedagogik faoliyat – falsafa, pedagogika, psixologiyaga oid bilimlar sinteziga asoslanuvchi yaxlit jarayondir. Bu bilimlar sintezsiz pedagogik amaliyotni maqsadli qurish juda mushkul". Demak, pedagogik mahorat egasi bo'lib, pedagogik amaliyotni to'g'ri va maqsadli tashkil qilish uchun ilmiy – nazariy ma'lumotlarga ega bo'lish talab qilinarkan, o'qituvchi doimo uni qo'lga kiritishga harakat qilmoqchi dardor.

Pedagogik mahoratning ilmiy – nazariy asoslarini o'qituvchilar malakasini oshirish tizimida tadqiq qilgan pedagog K. Zaripov, kasbiy pedagogik mahoratning mazmunini "Ilg'or pedagog", "Ijodkor o'qituvchi", "Novator pedagog" kesimida ko'rib chiqadi va ularning mazmun-mohiyatini shunday ta'riflaydi. "Ilg'or pedagog" avvalo boshqa o'qituvchilarga qaraganda o'z ishiga ma'suliyat bilan qaraydi. Shu sohadagi ijodiy tajribalarni o'rganib, o'z darslarida, ta'lim muassasasidan va guruhdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarda qo'llaydi. Shu orqali u o'qituvchilarning ta'lim va tarbiyasida muayyan yutuqlarni qo'lga kiritadi.

"Novator pedagog", bizningcha, o'zining yaxlit pedagogik vosita va usullari mavjudligi bilan farqlanib turadi. Shu bilan birga novator o'qituvchilarda ilmiy tahlil, o'ziga tanqidiy ko'z bilan qaray bilish xususiyatlari ham bo'ladi. Ularning ko'pchiligida g'oyat murakkab, boshqalar o'ziga ishonmaydigan sharoitlarda ham o'z ishlarining to'g'ri ekanligiga ishonch bo'ladi.

"Ijodkor o'qituvchi"da ham "Ilg'or pedagog"dagi xususiyatlar bo'lishi mumkin. Ularning jiddiy farqi shundaki, ilg'or pedagog mavjud manbalarni o'rganib, shular asosida ta'lim – tarbiya bo'yicha muayyan ishlarni amalga oshirsa, ijodkor o'qituvchi bor manbalarga tanqidiy ko'z bilan qaraydi. Ko'p hollarda mavjud metodik yo'l – yo'riqlarga o'z munosabatini bildirib, sharoit va vaziyat taqozosiga,

o'zining imkoniyatlariga qarab mavjud tartiblardan farqli metodik usullardan foydalanadi.

Demak, pedagogik mahorat egasi bo'lish uchun o'qituvchi o'zida ham ilg'orlikni, ham novatorlikni (bunyodkorlikni), ham ijodkorlikni (tadqiqotchilikni) tarbiyalashi lozim.

Ma'lumki, pedagogik mahorat tizimida o'qituvchining pedagogik nazokati (odobi) muhim o'rin tutadi. O'qituvchi nazokatsiz, kasb odobisiz yuksak cho'qqilar sari odimlay olmaydi.

Pedagogik mahoratning o'ziga xos xususiyatlaridan biri, uning o'qituvchi shaxsi va kasbiy fazilatlarining o'zaro bog'liqligidir. O'qituvchi inson sifatida shaxsiy fazilatlariga ega bo'lishi bilan birga, kasbiy, ya'ni ixtisoslik fazilatlariga ega bo'lishi lozimligini ta'jriba ko'rsatmoqda.

Hususan, shaxsiy sifatlar tizimida: milliy mafkuraviy onglik, milliy odoblik, farosat, nozik didlik, o'z kasbiga sadoqat va vijdoniylik, tashabbuskorlik, bolajonlik, talabchanlik, adolatparvarlik, pedagogik odob, tadbirkorlik, qat'iylilik, har qanday vaziyatda o'zini idora qila olish, millatlararo mulqot madaniyati, kuzatuvchanlik, samimiylik, topqirlik, kelajakka ishonch, xushnuomalilik va h.k.lar kabi fazilatlar misolida ifodalangan bo'lsa, kasbiy sifatlar tizimida: pedagogik ziyraklik, O'zbekistonning o'z istiqbol va taraqqiyot yo'lining mohiyatini, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining besh tamoyilini, ma'naviy – axloqiy yangilanishning negizlarini bilishi, milliy tarbiyaning mohiyati va mazmunini chuqur anglashi, mukammal ilmiy-nazariy salohiyat, pedagogik ijod, o'z fanining tarbiyaviy imkoniyatlaridan xabardorlik, pedagogik bilimlarni ta'komillashtirishga intilish, o'zbek xalqining an'analari, qadriyatlari, urf – odatlarini yaxshi anglash, siyosat, tarix, madaniyat, ma'naviyat, adabiyot va san'at, axloqshunoslik, dinshunoslik, huquqshunoslik, o'lkashunoslik, texnikaga oid ma'lumotlardan xabardorlik, etnopedagogika, etnopsixologiyaga oid bilimlarga ega bo'lish va h.k. tarzida o'z yechimini topgan.

Bo'lajak pedagoglarda qayd qilingan milliy pedagogikaning faoliyatiga tayyorlovchi yuqoridagi shaxsiy va kasbiy sifatlarga ega qilish, uning pedagogik mahoratini tarkib topitirishdir. Bu kadrlar tayyorlashning milliy dasturi talablarini bajarishga amaliy ko'rsatmadir.

2-MAVZU.O'QITUVCHI FAOLIYATIDA PEDAGOGIK QOBILYAT

Qobiliyatlar - odamning shunday psixologik xususiyatlaridiki, bilim, malaka, ko'nikma orttirish shu xususiyatlarga bog'liq bo'ladi, lekin bu xususiyatlarning o'zi bu bilim, malaka va ko'nikmalarga taalluqli bo'lmaydi. Qobiliyatlar bilim, malaka, va ko'nikmalarni egallashda namayon bo'lsa ham ular bilim, ko'nikmalarga taalluqli bo'lmaydilar. Qobiliyatlar bilim, malaka, ko'nikmalarning o'zida ko'rinnmaydi, balki ularni egallash dinamikasida namayon bo'ladi, ya'ni boshqacha aytganda mazkur faoliyat uchun muhim bo'lgan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayoni turli sharoitlarda qanchalik tez va chuqur, yengil va mustahkam amalga oshirishingizda namayon bo'ladi.

Demak, "Qobiliyatlar shaxsning faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan va bilim, ko'nikma hamda malakalarni egallash dinamikasida yuzaga chiqadigan farqlarda namayon bo'ladigan individual — psixologik xususiyatidir".¹

O'qituvchining talabalar bilan bo'lgan muomalasining muvaffaqiyati bo'lishi, ko'p jihatdan unda pedagogik qobiliyatning mavjudligiga va pedagogik nazokat (odob)ni egallaganiga bog'liq bo'ladi.

Psixologiyada pedagogik qobiliyatlar deganda insonning muayyan psixologik xususiyatlarini tushunish qabul qilingan. Bu xususiyatlar uning o'qituvchi vazifasida talabalarni o'qitish va talabalarga ta'lim berishda yuksak natijalarni qo'lga kiritishining sharti hisoblanadi.

Ma'lumki, shaxsning u yoki bu qobiliyatlarini hosil qiluvchi xislatlar va xususiyatlar orasida bir xillari yetakchi rol o'ynasa, boshqalari yordamchi rol o'ynaydi. Pedagogik faoliyatda shaxsning o'zaro fikr almashuvi bilan bog'liq xususiyatlari yetakchi rol o'ynaydi. Birinchi navborda pertseptiv, ya'ni idrok qilish sohasiga taalluqli bo'lgan xususiyatlar (ulardan eng muhimrog'i kuzatuvchanlikdir) yetakchi rol unaydi, o'qituvchiga talabani psixologiyasini, uning psixik holatini o'xshash tarzda idrok etish, muayyan holda umuman guruh, jamoaning ahvoriga va xususan mazkur pedagogik

vaziyatdagi ahvoriga to'g'ri baho berish imkonini beradi. O'qituvchi shaxsning o'zaro fikr almashuvi bilan bog'liq xususiyatlari tarkibiy qism sifatida **empatiya**, ya'ni talabalarning psixik holatini tushunishga va ularga achinishga tayyorgarlikni hisoblash mumkin. Buning zarur sharti talabalarga bo'lgan muhabbadir.

Nihoyat, o'qituvchi shaxsning o'zaro fikr almashuvi bilan bog'liq xususiyatlarining uchinchi tarkibiy qismi deb ijtimoiy o'zaro harakatga bo'lgan yuksak rivojlangan ehtiyojini hisoblash mumkin. U bilimlarni boshqalarga berishda, talabalar bilan muomala qilishga intilishda, talabalar jamoasini tashkil etish istagida namoyon bo'ladi.

Tashkil etish qobiliyati ham pedagogik qobiliyatning tarkibiy qismidir. U barcha talabalarining har xil faoliyat turlariga jalb qilinishida, jamoaning har bir talabaga ta'sir ko'rsatish quriliga aylanishida, har bir talabaga faol vaziyatni ta'minlab berishda namoyon bo'ladi. O'qituvchida ijtimoiy o'zaro harakatga bo'lgan ehtiyojini muvaffaqiyatli amalga oshirishining sharti bo'lib, unda mavjud bo'lgan pedagogik nazokat maydonga chiqadi.

Endi pedagogik qobiliyatlar strukturasi qiradigan yordamchi xislatlar va xususiyatlardan ayrimlarini qarab chiqamiz. Bu avvalo, aql-idrokning muayyan xislatlari: hozirjavoblik, tanqid ko'zi bilan qarash, sobitqadamlik va boshqa bir qator xislatlardir. O'qituvchining nuqti, notiqlik qobiliyatining mavjudligi, so'z boyligi va hokazolalar ham muhim rol o'ynaydi.

Tabiatida bir qadar artistlik qobiliyatiga ega bo'lish (xayol, fantaziya ishlata bilish) ham talabalar bilan muomalada muvaffaqiyatga erishishda muayyan rol o'ynaydi.

Pedagogik qobiliyatlar faqat pedagogik faoliyat samarali bo'lishining shartigina emas, balki ko'p jihatdan o'qituvchining muvaffaqiyatli ishlashining natijasi hamdir. Shu munosabat bilan o'qituvchining o'zida pedagogik qobiliyatlarining aniq maqsadni ko'zlab tarkib topishi va rivojlanishi katta rol o'ynaydi.

Masalan, shaxs pertseptiv xususiyatlarining eng muhim elementi bo'lgan kuzatuvchanlik o'qituvchining pedagogik tajriba hosil qilish jarayonida ham, uning maxsus kuch-g'ayrati natijasida ham rivojlanadi, takomillashadi. O'qituvchi o'zining ijtimoiy-psixologik kuzatuvchanligini, ya'ni talabalarda turli xarakter xususiyatlari va mayllarni payqab olish qobiliyati bilan birga ularning paydo bo'lish

¹ Umumiy psixologiya. A.V. Petrovskiy taqdiri ostida. T., «O'qituvchi», 1994 y. 451 b.

sabablarini bilib olish va bu sabablarning paydo bo'lish vaziyatiga muvofiq baho berish mahoratini va hokazolarni rivojlantirishga qo'yiladi.

O'qituvchining muhim ijtimoiy yo'l-yuridlaridan biri dikkashlikdir. An'anaviy dikkashlik yoki odamlarga aralashtirish shaxsning o'ziga xos xususiyatlari deb qaraladi, bu butunlay qonuniy holdir. Lekin bunday yondashuv bir tomonlamadir. Dikkashlik, odamlarga aralashtirish shaxsning o'ziga xos xususiyatlariga bo'lib qolmay, shu bilan birga odamning u yoki bu vaziyatdagi muayyan hulq-at-vori hamdir, ya'ni ijtimoiy yo'l-yurididir.

Pedagogik qobiliyat. Pedagogik jarayonning qanchalik samarali, muvaffaqiyatli tashkil etilishi o'qituvchining pedagogik qobiliyatiga egaligiga bog'liq. Manbalardan birida "qobiliyat" tushunchasi shunday shartlanadi: shaxsning osonlik bilan biron faoliyatni egallay olishini ta'minlaydigan individual psixologik xususiyat.

Qobiliyat umumiy va maxsus qobiliyatlar tarzida ikki guruhga ajratiladi. "Umumiy qobiliyatlar shaxs faoliyatining asosiy turlarida namoyon bo'lsa, kasbiy faoliyatning ayrim turlarida namoyon bo'ladigan qobiliyatlar (matematik, texnik, musiqa, tasviriy san'at, adabiyot (poeziya va proza), jismoniy tayyorgarlik va boshqalar) maxsus qobiliyatlar deb yuritiladi... Qobiliyatning yetakchi xususiyatlaridan biri – narsa va hodisalar mohiyatini ijodiy tasavvur qilishdir".

Pedagogik qobiliyat – pedagog tomonidan pedagogik faoliyatni oqilona tashkil etilishi va olib borilishini, amaliy vazifalarning samarali bajarilishini ta'minlashda ahamiyatli bo'lgan xususiyatlar.

Pedagogik qobiliyatga xos ustuvor xususiyatlar quyidagilar sanaladi:

- pedagogik takt (pedagogning talabalar bilan turli faoliyat shakllari bo'yicha tashkil etiladigan mulqotda mavjud axloqiy tamoyillar, hulq-atvor qoidalariga rioya qilishi,
- ularga to'g'ri yondashish malakalariga egaligi);
- pedagogik kuzatuvchanlik (pedagogning talabalarga xos bo'lgan hatto eng oddiy xususiyatlarni ham payqab olish qobiliyatiga egaligi);
- talabalarga bo'lgan muhabbat (ularga mehr qo'yish, mehribonlik ko'rsatish, ichki kechinnamali, his-tuyg'ulari, orzu-umidlari, ha-

yo'y intilishlari bilan o'rtog'lashish, ular uchun qiyin bo'lgan vaziyatlarda g'amxo'rlik qilish);

- bilimlarni uzatishga bo'lgan ehtiyoj (pedagog sifatida o'zidagi mavjud bilimlarni talabalarga berishga intilish).

F.N.Gonobolin pedagog shaxsida quyidagi qobiliyatlarining namoyon bo'lishini muhim deb hisoblaydi:

Pedagog shaxsida namoyon bo'lishi zarur bo'lgan qobiliyat ko'rinishlari (F.N.Gonobolin):

- o'quvchini tushuna olish qobiliyati;
 - yosh, psixologik jihatdan barcha o'quvchilar o'zlashtira oladigan materiallarni taqdim eta olish qobiliyati;
 - o'quvchilarning qiziqishlarini rivojlantirish qobiliyati;
 - tashkilotchilik qobiliyati;
 - pedagogik takt;
 - o'z ishining natijalarini ko'ra olish va b.
- V.A.Krutevskiy pedagogga xos qobiliyatlarini umumlashtirib, ularning turlari quyidagi ekanligini ko'rsatib o'tadi.

Pedagogik qobiliyatlarini asosiy turlari:

Didaktik qobiliyatlar – o'quv materiallarini aniq, ravshan, oson tushuntirish, talabalarda fanlarga qiziqishni uyg'otish, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantiruvchi qobiliyat.

Akademik qobiliyatlar – matematika, fizika, biologiya, kimyo, ona tili, adabiyot, tarix va b. fanlar asoslarini puxta o'zlashtirishga imkon beradigan qobiliyat.

Pertseptiv qobiliyatlar – shaxsning ichki dunyosiga kira bilish, psixologik kuzatuvchanlik, talabaning vaqtinchalik psixik holatlari bilan bog'liq nozik jihatlarni tushuna olish qobiliyati.

Nutq qobiliyati – shaxsning o'z his-tuyg'ularini nutq, shuningdek, mimika, pantomimika yordamida aniq va ravshan ifodalab berish qobiliyati

Tashkilotchilik qobiliyati – talabalar jamoasini uyushtira bilish, jamoani jipslashtira olish, pedagogik faoliyatni to'g'ri tashkillashtirish qobiliyati.

Avtoritar qobiliyat – talabalarga hissiy-irodaviy ta'sir etish orqali ular o'rtasida obro' qozonish imkoniyatini yaratuvchi qobiliyat.

Kommunikativ qobiliyat – talabalar bilan mulqotda bo'lish, ularga to'g'ri yondashishning samarali yo'lini topish, birgalikda

maqsadga muvofiq o'zaro pedagogik aloqa bog'lovchi pedagogik takting mavjudligini ifodalovchi qobiliyat

Pedagogik xayol – pedagogning talabalar shaxsini tarbiyaviy jihatdan loyihalashtirishda o'z xatti-harakatlari natijalarini oldindan ko'ra olishni ta'minlovchi qobiliyat.

Diqatni taqsimlay olish qobiliyati – pedagogning bir vaqtda o'z diqqatini bir qancha jarayonga qarata olishini tavsiflovchi qobiliyat.

Zamonaviy sharoitda har bir o'qituvchi o'zida quyidagi pedagogik qobiliyatlarni tarbiyalay olishi kerak:

- 1) mulqotga kirishuvchanlik;
- 2) hissiy sezgirlik (kasbiy ziyraklik, boshqalarga hamdard bo'la olish, ichki sezgiga ega bo'lish);
- 3) harakatchanlik, ta'lim jarayoni ishtirokchilariga irodaviy ta'sir ko'rsatish va ishlantirish qobiliyatiga egalik;
- 4) hissiy barqarorlik (o'z-o'zini tuta bilish, o'z-o'zini boshqarish, o'z-o'zini nazorat qilish);
- 5) kelajakni maqbul holda bashoratlay bilish;
- 6) kasbiy mustaqillik, ijodiy qobiliyatga egalik.

Qobiliyati pedagoglarda quyidagi noyob qobiliyalar ham ko'zga tashlanadi:

- bir vaqtning o'zida bir nechta faoliyatni bajara olish (m: eshitish, ko'rish, o'qish, yozish, fikr yuritish, mulqot qilish va b.);
- atrofida kechayotgan ikki yoki bir nechta voqelikni birdek qabul qilish (bir talabning ma'ruzasini eshitgani holda, boshqa talabning faoliyatlarini kuzata olish);
- o'z qiziquvchanlik (tabiat va jamiyada kechayotgan har bir voqea-hodisa (garchi ular eng ahamiyatsiz, e'tiborga tashlanmaydigan bo'lsa-da) mohiyatini bilishga intilish, haddan ziyod ko'p savollarga javob topishga intilish);
- miya faoliyatining biokimyoviy va elektrik faolligi (miya deyarli to'xtovsiz faoliyat ko'rsatib, nihoyatda kam vaqt "dam oladi", bilish jarayonida noaniqliklar ko'zga tashlansa, ular tezda bartaraf etiladi; uyquchanlik qobiliyati pedagoglarga xos xususiyat emas);
- nutqi va fantaziyasining boyligi (qobiliyati o'qituvchilarning

fikslariyati nihoyatda boy nutqqa ega, ularda fantaziya (tasavvur qilish) qobiliyati beqiyos darajada kuchli);

- kuchli xotira (yirik hajmdagi matn, masalan: dostonlarni bir marta o'qish bilan to'laigiga yodlab olib, uni so'zma-so'z qayta hikoya qilib berish qobiliyati)ga egalik kabilar alohida o'rin tutadi.

3-MAVZU. O'QITUVCHINING KOMMUNIKATIV QOBILIYATI

O'qituvchi faoliyatida tarbiyalanuvchilar bilan pedagogik aloqalarning uzluksizligi tarbiyaning asosiy qonuniyatlaridan biridir.

O'quvchilar bilan ta'lim-tarbiyaviy jarayonda ijobiy aloqalar o'rnatish, ijobiy iqlim yaratish, o'ziga ishlantirish olish va jalb qilish -o'qituvchi kommunikativ qobiliyatining asosiy mohiyati bo'lib, bunda bevosita o'qituvchi bilan bog'liq bo'lgan minglarcha ruhiy jarayonlar, ma'lum bir qolipdan chiqishi mumkin bo'lmagan muomala turlari va shartlari mavjud.

Tarbiyaning samaradorligi, pirovard natijada o'quvchilar bilan aloqa o'rnatishning shakli va uslublariga qag'iy rioya qilgan holda amalga oshirilishi bilan belgilanadi. Asosiy maqsad, o'qituvchi va o'quvchi munosabatida majburiy itoatkorlik o'rini ongli intizom egallashi, o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat. O'qituvchi tarbiya usullari tizimini belgilab olgandan keyin bir qator aloqa o'rnatish vazifalarini rejalashtirishi kerak.

Albatta, bu nihoyatda qiyin jarayon, zero tarbiyaning har bir usuli, tarkibiy qismi va tashkil etuvchi usullari muomala orqali aloqa o'rnatishning samaradorligiga bog'liq. Ushbu jarayon bevosita o'qituvchining fikr almashuvi (refleksiya) bilan bog'liq xususiyatlariga, o'quvchi ruhiy holatini fikr tezligi bilan uqib olish san'atiga va pedagogik ta'sir ko'rsatishning turli usullarini bir biri bilan o'zaro aloqadorligi qo'llay bilishiga taalluqli bo'lib, ular uzluksiz shakllanadi.

O'qituvchining fikr almashuvi bilan bog'liq kommunikativ qobiliyatini shakllantiruvchi asosiy xususiyatlari o'quvchi ongiga qaratilgan faoliyat bo'lib, nihoyatda, murakkab jarayonda takomillashadi.

O'zaro fikr almashish omillari bilan bevosita bog'liq bo'lgan kommunikativ qobiliyatning quyidagi yo'nalishlari mavjud:

- o'quvchini ishonitirish;
- o'quvchi ongiga ta'sir etish;
- o'zgararga taqdim qilish.

O'quvchini ishonitirish tarbiyalmuvchining ongiga saratilgan bo'lib, o'quvchi fikr - mulohazalarini ta'sirchan nutq orqali o'quvchining bilimlar tizimiga, dunyoqarashiga, xulq-atvoriga, xatti-harakatiga ta'sir etadi va uni sistman o'zgartiradi. Ishonitirish o'quvchining kasb faoliyatiga taalluqli bo'lgan murakkab faoliyatida asosiy ta'sir qo'rsatish vositasi bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonida gaitlatiladigan usullardan biri hisoblanadi. O'quvchi ongiga ta'sir ko'rsatish bilan

bog'liq bo'lgan ishonitirish usuli o'quvchidan bahs, munozara asosida dalillar keltirishni, isbot va mantiqqa tayanishni talab qiladi. Ayniqsa, o'quvchi bilan

o'quvchilar orasida o'rganilayotgan mavzuga taalluqli muqobilik mavjud bo'lganda, tanqid va fikrlar kurashigatayatilganda samarali bo'ladi.

Ishonitirish tarbiyalanuvchining ongiga qaratilgan ekan, o'quvchining his-tuyg'usi, nutqi va ishonitirish olish san'ati bunda muhim ahamiyatga ega. U pedagogik ta'sir ko'rsatish usuli sifatida darslarda yangi mavzuni tushuntirishda, o'quv-tarbiyaviy soatlarda, turli uchrashuvlar va ijodiy suhbatlarda munozaralar shaklida qo'llaniladi.

Tarbiyaviy tadbirlarda ishonitirish usuli sinf jamoasi bilan hamda alohida o'quvchi bilan individual suhbatlar o'tkazish, siyosiy mavzulardagi darslarda keng qo'llaniladi. Ishonitirish usuli yordamida o'quvchilarning dunyoqarashi shakllantiradi. U o'quvchi ongini begona mafkuraviy goyalardan himoya qiladi, ishonitirish asosida o'quvchiga ideal va mustaqil fikr qayta quriladi, ularni ba'zi psixik ta'sirlar tufayli sodir bo'ladigan tushkunlik holatidan asraydi, ularda erkinlikni hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stiradi, o'ziga va kelajagiga ishonchini uyg'otadi, o'z-o'zini tarbiyalashga undaydi.

O'quvchi ongiga ta'sir o'zaro fikr almashish jarayonida shakllanadigan murakkab psixologik xususiyat bo'lib, o'quvchi kommunikativ qobiliyatining universal omili hisoblanadi.

O'quvchisharning o'zaro suhbat va faoliyati jarayonida tarbiyalanuvchi

ongiga ta'sir etishning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u o'quvchisharning psixikasi va xulq-atvoriga sezilarli ravishda ta'sir ko'rsatadi.

Onga ta'sir — shunday bir psixik jarayonki, o'quvchi o'quvchining yoki biror shaxsning ta'siri ostida, o'z ongining yetarli nazoratsiz voqelikni idrok etadi. Agar o'quvchi bunda pedagogik mahoratga, psixologik tajriba va bilimlarga ega bo'lmasa, o'quvchi ongiga ta'sir qila olmaydi, natijada ta'lim-tarbiya jarayoni jio-biy natijalar bermaydi, o'quvchi o'quvchilarning hurmat e'tiboriga sazovor bo'lmaydi.

O'quvchi o'z tarbiyalanuvchilari ongini tashqi muhitning salbiy ta'sir laridan, sinf jamoasi norasmiy yetakchilarning turli yashirin buzg'unchi g'oyalaridan himoya qilishga mas'ul shaxsdir. O'quvchi ongiga ta'sir o'tkazishda o'quvchi yetakchilikni o'z qo'lga kiritishi uchun:

- o'quvchilarning salbiy xatgi-harakatlari tufayli sodir bo'ladigan emosional his tuyg'ularga berilmasligi;
- har bir o'quvchining psixologik va ruhiy holatini puxta o'rganmasdan uning ongiga tarbiyaviy ta'sir o'tkazishga harakat qilmasligi;
- har bir o'quvchiga alohida shaxs sifatida hurmat e'tibor bilan munosabada bo'lishi;
- sinf jamoasining norasmiy yetakchisini sezdirmasdan aniqlab olishi va uning xatgi harakatidan doimo ogoh bo'lishi;
- pedagogik mahoratning muhim jihatlari uzluksiz o'zida ta-komillashtirib borishi;
- o'ylamay aytilgan har bir so'z, noo'rin fikr mulohazaning oqibatini hech qachon tuzatib bo'lmasilgini o'quvchi doimo his etishi lozim.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, hozirgi kunda axborot texnologiyalari maydonining nihoyatda kengligi tufayli o'quvchilar ongi keraksiz goya va mafkuralar bilan band bo'lishi tabiiy hol. O'quvchilar yosh avlodni tarbiyalashda onga ta'sir qilishning keng imkoniyatlarini o'z o'rni qo'llay olsalar, o'quvchilar ongini turli keraksiz g'oyalar va mafkuralaridan himoya qila oladilar. Shuni unutmastik kerakki, o'quvchilar o'zlarining yosh xususiyatlari va psixologik ta'sirga moyilligi tufayli har qanday ta'sirga nihoyatda beriluvchan bo'ladilar.

Taqlid qilish shaxsning psixologik xususiyati bo'lib, o'zi sevgan biror namunaga, ibratga amal qilishdir. O'quvchi o'zi uchun ideal deb bilgan kishining xulq-atvor namunalariga ongiz ravishda taqlid qiladi.

O'quvchi o'zgalar xulq-atvoridan andoza olib, taqlid qilish yo'li bilan ulardan o'zining muhitida foydalanadi. Taqlid qilishning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, o'quvchi o'z xatti-harakati va muomalasi jarayonida o'zi ko'rgan, kattalar bajaragan harakatlarni takrorlashga intiladi. Taqlid qilishning yana bir xususiyati o'quvchi badiiy asarlarda o'qigan, kinofilmlarda ko'rgan sevimli idealidagi qahramon obraziga, xarakteriga, jasoratiga, imo-ishora, nutq, kiyinish uslublariga beixtiyor taqlid qiladi, o'z faoliyatida takrorlaydi.

Beixtiyor taqlid qilish o'quvchi shaxsi shakllanishining ilk bosqichlarida muhim ahamiyatga ega. O'quvchi taqlid qilish yo'li bilan nutqni, buyumlarni, turli harakatlarni o'rganadi, xulq-atvori shakllanadi, ruhiyatidagi ushbu jarayon asta-sekin va ko'r-ko'rona davom etadi.

O'quvchi kommunikativ qobiliyati bilan pedagogik faoliyatni olib borish jarayonida o'zaro fikr almashish yo'li bilan ta'sir ko'rsatishning ko'rib chiqilgan asosiy turlari - o'quvchini ishonitirish, o'quvchi ongiga ta'sir etish, taqlid qilish - bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan psixologik xususiyatlardir va ayni vaqtda o'ziga xos farqlarga ega.

Ishonitirish va ongga ta'sirning o'zaro bog'liqligi shundan iboratki, biz ta'sir ko'rsatish usulining unisidan ham, bunisidan ham foydalananda ko'pincha notiqlik san'atini namoyish etamiz. O'quvchining so'z boyligi va notiqlik malakasi ishonitirish va ongga ta'sirning muhim manbaidir.

Pedagogik ta'sir ko'rsatish - kommunikativ qobiliyatni asosiy usuli sifatida

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida tub islohotlar olib borilib ulkan o'zgarishlar ro'y bermogda. Islohotlar respublikaning

rivojlanish va taraqqiyot yo'li deb e'tirof etilgan demokratik, insonparvar, huquqiy jamiyatni barpo etish uchun xizmat qiladi. Demokratik, insonparvar, huquqiy jamiyatni barpo etish vazifasi o'sib kelayotgan yosh avlod zimmasiga yuklanadi.

Pedagogik ta'sir ko'rsatish o'quvchining muhim kommunikativ qobiliyatlardan biri bo'lib, avvalo o'quvchining tashqi qiyofasini ifodalovchi madaniyati, munosabatga kirishishi va nutq madaniyati asosida o'quvchilar bilan muntazam tarbiyaviy faoliyat olib borish jarayonida namoyon bo'ladi.

Pedagogik ta'sir ko'rsatish - tarbiyalanuvchiga ongli intizom va mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilish, tarbiyani ma'lum bir maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun shaxsga muntazam va tizimli ta'sir ko'rsatish, jamiyatning ijtimoiy-tarixiy tajribalariga yondashib shaxsni har tomonlama kamol toptirish, uning xulq-atvori va dunyovqarashini takomillashtirish, yosh avlodni muayyan maqsad asosida tarbiyalash, ijtimoiy ong va xulq-atvorni xalqimizning boy makruralari asosida shakllantirishga yo'naltirilgan faoliyat jarayonidir.

Pedagogik ta'sir ko'rsatish asosida tarbiyalanuvchining ongi shakllanadi, ma'naviy boyligi va his-tuygulari rivojlanadi, unda ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan ijtimoiy aloqalarni tashkil etishga xizmat qiladigan xulqiy odatlar hosil bo'ladi.

Pedagogik ta'sir ko'rsatish bilan jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlari hosil qilinadi. Bunga erishish uchun o'quvchining ongi, hissiyoti va irodasiga ta'sir etib boriladi. Agar bularning birotasi e'tibordan chetda qolsa, o'quvchining ta'lim va tarbiyaviy maqsadlarga erishishi qiyinlashadi.

Tarbiya jarayoniga o'quvchi rahbarlik qiladi. U o'quvchilar faoliyatini belgilaydi, ularning pedagogik jarayonda idrok etishlari uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Pedagogik ta'sir ko'rsatish mazmunida tarbiya mohiyati ifodalangan bo'lib, uning mazmuni mamlakatning ijtimoiy maqsadlaridan kelib chiqib asoslanadi. Tarbiya mohiyati turli davrlarda har xil ifodlangan bo'lsa ham, ammo yo'naltiruvchanlik xususiyatiga ko'ra bir-biriga o'xshash g'oyalarni ifodalaydi. Zero, har bir xalqning taraqqiy etishi, davlatlarning qudrati bo'lishi avlodlar tarbiyasiga

ko'p jihatdan bog'liqligi qadimdan o'z isbotini topgan.

Har qanday ijtimoiy jamiyatda yosh avlod tarbiyasi muayyan maqsad asosida tashkil etiladi. Tarbiyaning maqsadi ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti, uning rivojlanish yo'nalishi, ijtimoiy munosabatlarning mazmunidan kelib chiqib belgilanadi. Bugungi kunda Uzbekiston Respublikasida tashkil etilayotgan tarbiyaning asosiy maqsadi komil insonni tarbiyalab kamolotga yetkazishdan iborat.

Pedagogik ta'sir ko'rsatishning asosiy tarbiyaviy usullari hayotdan, millatning yashash tarzidan, milliy an'ana va urf-odatlardan kelib chiqib tanlanadi. Ular o'quvchilarning tarbiyasini pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tarzda tashkil etish nuqtai nazaridan tanlab oladi.

Pedagogik ta'sir ko'rsatish o'quvchilarning ijtimoiy foydali mehnat faoliyatini pedagogik jihatdan ma'lum bir maqsadga muvofiq tarzda tashkil etish uchun foydalaniladigan vositalar tizimidan iborat.

Ushbu vositalar tarbiyalanuvchi shaxsiga qaratilgan bo'lib, o'quvchilarning xulq-atvorini shakllantiradi.

Ta'lim va tarbiya jarayonida o'qituvchi tomonidan pedagogik ta'sir ko'rsatishning asosiy usullari: **talab, istiqbol, rag'batlantirish va jazolash, jamoatchilik fikri**.

Talab - ta'lim va tarbiya jarayonida o'qituvchining tarbiyalanuvchiga nisbatan shaxsiy munosabatlarida namoyon bo'ladi. U quvchining u yoki bu xatti-harakati o'qituvchi nazarida bo'lib, ijrobij jihatlarini rag'batlantirib boriladi yoki aksincha nojo'ya xatti-harakati to'xtatib qo'yiladi.

Istiqbol - ta'sirchan pedagogik usul bo'lib, o'quvchilarda mustaqil fikr yuritishni, ma'lum bir maqsadga, orzuga erkin intilish his-sini takomillashtiradi. Bu maqsadlar ularning shaxsiy intilishlarida, qiziqish va muddaolarida namoyon bo'ladi. Ushbu usul maktab o'quvchilarini shaxs sifatida eng muhim insoniy fazilatlaridan biri bo'lgan maqsadga intiluvchanlikni rivojlantiradi.

Rag'batlantirish va jazolash - tarbiya ta'sirining eng an'anaviy usuli bo'lib, o'quvchilarning xulq-atvoriga ijobiy ta'sir etishdan iborat. Yaxshi xulq, foydali mehnat va xatti-harakat, axloqiy xislat, topshiriqlarning so'zsiz bajarilishi uchun o'quvchi rag'batlantiriladi.

Nomqbul xatti-harakat, tartibbuzarlik, o'z burchini bajarmaslik

jazolash orqali bartaraf etiladi. Ushbu usul axloqiy ta'sir ko'rsatishni ta'minlaydi, uni qo'llash jarayonida o'qituvchidan nihoyatda ehtiyotkorlik, sezgirlik va xushyorlik talab etiladi.

Jamoatchilik fikri - tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning eng muhim usuli bo'lib, o'quvchilarning ijtimoiy foydali faoliyatini bajarilish natijalariga qarab munozam rag'batlantirib borishda namoyon bo'ladi. Jamoaning tarbiyaviy vazifalarini ma'lum bir yo'nalishda amalga oshirilishini ta'minlaydi, o'quvchilarning bir-birlariga do'stona munosabatini shakllantiradi.

Pedagogik ta'sir ko'rsatish usullaridan samarali foydalanishning eng muhim sharti o'qituvchining insonparvarlik nuqqai nazaridan yondashishini talab etadi.

Pedagogik ta'sir qilish o'quvchilarning psixikasining anglamaydigan sohasiga qaratilgan bo'lib, tarbiyachi bilan tarbiyalanuvchining yaqindan aloqada bo'lishini, ularning o'zaro bir-birlariga ishonishini, o'zaro tushunishini, ta'sir qilish mazmuni, shaxsning bir butun holatiga amaliy ta'sir qilishini nazarda tutadi. Shunday qilib, ta'sir qilish ta'lim-tarbiya samaradorligini hozirgi zamon talablari darajasida takomillashtirib borishda yo'l-yo'riq yaratib, o'quvchilarning faolligini rag'batlantiradi.

Tarbiya jarayonining kommunikativ munosabatlar jarayonida o'ziga xos qator qoidalar ham mavjud bo'lib, o'qituvchi o'quvchilarga pedagogik ta'sir ko'rsatishda ularni mukammal bilishi lozim:

- tarbiyaning aniq bir maqsadga qaratilganligi;
- tarbiyaning hayotiy faoliyat bilan bog'liq hodisa ekanligi;
- shaxsni jamoada tarbiyalanishida o'ziga xos xususiyatlari;
- tarbiyalanuvchi shaxsiga nisbatan talabchan bo'lish va uning shaxsini hurmat qilish;
- tarbiyalanuvchining yosh va o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishi;
- tarbiyaviy ishlarning izchilligi va munozam olib borilishini ta'minlash.

So'z bilan og'zaki ta'sir o'tkazish o'qituvchining madaniy saviyasida va o'quvchi mulqotida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki insonning "aqlzakovati, fikr-tuyg'ulari, bilimi va madaniyat saviyasi, tafakkuri ma'lum darajada so'zda ifoda etiladi. Muomala madaniyatida so'z aqlidan kuch, tildan ixtyor oladi" (Aziz Yunusov). So'z bilan

og'zaki ta'sir o'tkazishni amalda o'z pedagogik faoliyatida qo'll-o'g'vchi o'z hissiyotlarini, ijodiy ta'sirlanishini boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lishi va o'z histuyg'ularini faqat ta'lim-tarbiyaviy maqsadni amalga oshirish uchun ifodalashi hamda o'quvchi qalbini noo'rin so'zlar bilan jarohatlab qo'ymasligi, so'zlarni aniq ifodalashda pedagogik takt normalaridan chiqib ketmasligi lozim.

So'z qudrati haqida R. Dekartning quyidagi fikrlari o'qituvchilarga ham bevosita taalluqlidir: "So'zlarning ma'nolarini, qudratini odamlarga aniq ifodalab tushuntirib bering, shunda siz insoniyat olamini barcha anglashilmovchiliklarning yarmidan xalos qilgan bo'lasiz".

O'qituvchining imo-ishoralar va yuz harakatlari so'z bilan og'zaki ta'sir qilishni kuchaytiradi. Yuz harakatlari va imo-ishoralar nutqda ovozning baland-pastligi bilan mos kelishi kerak. Ogohlantiruvchi so'zlar, notiqlik san'ati asosida ta'sir etish, vazifani jiro etishga undovchi buyruqlar, ta'qiqlangan iboralarini ishlatmaslik, hazil orqali fikrini anglatigi, o'quvchining erkin mulohazalarini ma'qullash yoki nojo'ya harakatlari uchun ayblash so'zining og'zaki ta'sir etuvchi

komponentlaridir. So'z bilan imo-ishoraning va yuz harakatlarning birligi ma'lum qilinayotgan axborot hajmdorligi va ta'sirchanligini kuchaytirishi lozim. Har qanday sharoitda o'qituvchi o'quvchilar bilan sinfda uchrashishga maxsus hozirlik ko'rish lozim.

4-MAVZU. O'QITUVCHI FAOLIYATIDA MULOQOT MADANIYATI VA PSIXOLOGIYASI

Pedagoglarning o'quvchilar bilan bevosita muomalasini ularga pedagogik ta'sir ko'rsatishning o'ziga xos vositasi deb qarash mumkin.

Muomala — axborot jarayonidir. Axborot ikki yo'nalishda: boshqarish sub'ektidan (pedagogdan) boshqarish ob'ektiga (o'quvchilarga) boradi va aksincha — ob'ektidan sub'ektga boradi.

Pedagog bevosita shaxslararo muomaladan, o'z tarbiyalanuvchilarga ham maqsadga qaratilgan axborotni, ham uning o'quvchilarga murojaat tarzida singib, kirib boradigan axborotni ma'lum qiladi.

Pedagog muomala vositasi orqali qanday axborot olishini qarab chiqar ekanmiz, o'quvchining shaxsi haqidagi axborotning muhimligini alohida ta'kidlab o'tish kerak. Bevosita muomala shaxsni g'oyat xilma-xil sharoitlarda va ko'rinishlarda o'rganishga imkon beradi. U shaxsning hulq-atvorida namoyon bo'ladigan yorqin va eng ta'sirchan tashqi belgilariga qayd etish imkonini beradi.

Pedagog o'quvchilar bilan muomala qilarg ekan, juda mayda detallarni ham anglab olishga qodir bo'ladi, bu detallar sirtidan qaraganda unchalik ahamiyatli bo'lmay, shaxsda sodir bo'layotgan, uni tushunish uchun juda muhim bo'lgan zarur ichki jarayonlarning ko'rinish alomatlari bo'lishi ham mumkin. Bu hol shaxsni chuqur tushunish imkonini berib, tashqi qatlam ostida boshqa usullar bilan aniqlab bo'lmaydigan narsalarni topish imkonini beradi.

O'quvchilar bilan bevosita muomala pedagogga jamoadagi, yoki ayrim o'quvchilardagi biron-bir voqeani rivojlanish jarayonini o'rganish zarur bo'lganda, ro'y berayotgan hodisalar va jarayonlarning sabab-oqibat aloqalarini payqab olishda, ularning tuzilishi, paydo bo'lishi va rivojlanishini kuzatish, bundan tashqari, bu hodisalar va jarayonlarning yanada takomillashishi to'g'riligini ma'lum darajada oldindan aytib berish kerak bo'lganda ham zarurdir.

Ayni bir xil hodisaning turli kishilar tomonidan zuhur qilinishidagi farq uning shaxs o'tmishidagi tajribasiga bog'liqligi bilan izohlanadi, bu tajribaning uch jihati bor:

- umumiy -hayotiy tajriba;

- pedagogik faoliyat tajribasi;

- real jamoa, muayyan o'quvchilar bilan muomalada bo'lish tajribasi. Pedagogning boshqa kishilar bilan muomalada bo'lish tajribasi, bu tajribaning boyligi va muntazamlik darajasi, pedagogning o'zi shaxs sifatida qay darajada shakllanganligi, uning voqelikni qay darajada idrok etishga va olingan axborotga baho berishga qodirligini aniqlab beradi.

Ikkinchi tomondan, pedagogik faoliyat kishini o'zi duch keladigan hodisalarni tahlil etish va umumlashtirish tajribasi bilan boyitadi. Bu esa uning o'z sheriklari ahvolidini fahmlab, bilib olish va ular haqida hukm yuritish qobiliyatini oshiradi.

Pedagogning o'quvchilar bilan kundalik muomalasi shunga olib keladiki, u o'quvchilarning hatti-harakatlaridagi chuqur ma'no va

haqiqiy sababni turli vaziyatlarda payqab oladi, buning uchun namuna sifatida u o'zi tez-tez qayd qilgan dalillardan va o'quvchilarning hulq-atvorini o'rganish usullaridan foydalanadi. Bu narsa pedagogik faoliyatida, ayniqsa, sezilib turadi. Bu g'urur bir holdir, chunki "Biz kundalik hayotda odamlar bilan muomala bo'lar ekanmiz, ularning hulq-atvorini bilib olamiz, chunki biz uni guyo o'qigan-day bo'lamiz, ya'ni xulq-atvorning tashqi ko'rinishlari ahamiyatini tushunib olamiz va shu tariqa kontekstda hosil bo'lgan, o'zining ichki psixologik rejasiga ega bo'lgan matning ma'nosini ochib beramiz. Bu "O'qish" yo'l-yo'lakay bo'ladi, chunki atrofdagilar bilan muomala jarayonida bizda ularning xulqiga doir ma'lum darajada avtomatik tarzda mavjud bo'lgan psixologik ma'no hosil bo'ladi.

O'quvchining o'quvchilar bilan muomalasi tarbiyani boshqarish vositasi sifatida qaralib, birlashtiruvchi, o'rni to'ldiruvchi vazifasini ham bajaradi. Shu munosabat bilan tarbiya diskret (uzlukli) jarayon ekanligini nazarda tutish kerak. O'quvchilar kiradigan turli jamoalar, unga nisbatan tarbiyaviy vazifani bajaruvchi katta yoshdagi kishilar, unga ta'sir qiluvchi tovarak atrofdagi voqelikning ko'pdan-ko'p omillari bir-biri bilan yetarli darajada aniq va puxta ishlab chiqilgan aloqa tizimiga ega emas. Har bir o'quvchiga har xil ta'sirlar oqimi yetib boradi, ular bir-birlari bilan unchalik mos kelmasligi va ma'lum darajada biri ikkinchisiga zid kelishi mumkin.

Shubhasiz, muomala cheklangan tarzda bo'ladi. Lekin pedagogning o'z tarbiyalanuvchilariga ko'rsatiladigan turli-tuman ta'sirlarning xususiyatidan xabardorligi, uning ana shu ta'sirni birlashtirish, o'rni to'ldirish va unga tuzatish kiritishga intilishi, uning shaxsiy sifatleri, o'quvchilarga munosabati va pedagogik mahoratiga qarab, boshqarish vositasi bo'lgan muomalaning samaradorligi ko'p yoki oz darajada bo'lishi mumkin.

Boshqarish vositasi bo'lgan muomala vazifasini amalga oshirish jamoadagi faoliyat muomala, munosabatlar tizimi doirasida sodir bo'ladi. Bunga sabab shuki, muomala pedagoglarning o'quvchilar faoliyatini tashkil etishi jarayonida ham va ular bilan bevosita muomala qilishda ham amalga oshiriladi. Boshqarish vositasi bo'lgan muomala faoliyatdan oldin bo'ladi, pedagoglar bu faoliyatga o'quvchilarni jalb qiladilar.

Bunday holda muomala orqali o'quvchilarning faoliyatini tash-

kil etish yuzasidan muayyan yo'l-yo'l beriladi va uni amalga oshirish jarayonida munosabat normalari kiritiladi. Boshqarish vositasi bo'lgan muomala o'quvchilarning faoliyatiga hamrohlik qiladi. U orqali pedagog faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish usullariga tuzatishlar kiritadi, ayrim o'quvchilarning, umuman jamoaning kuch-g'ayratini, faoliyat ishtirokchilari o'rtasida vujudga keladigan munosabatlarini muvofiqlashtiradi. Nihoyat, boshqarish vositasi bo'lgan muomala faoliyatdan keyin boradi. Bu faoliyatga yakun yasash, uni amalga oshirish, unda ayrim o'quvchilarning ishtirok etishi, faoliyat jarayonidagi munosabatlarini tartibga soluvchi normalarni tahlil qilish, qo'shimcha normalarni ishlab chiqish tarzida sodir bo'ladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, muomalaning yuqorida ko'rsatib o'tilgan barcha vazifalarini qulay tarzda amalga oshirish, uni pedagogik muomala, ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshiriladigan muomalaning yuqori darajasi deb ta'riflash imkonini beradi. Hozirgi zamon o'quvchisi xuddi shunday darajaga erishmogi lozim.

Pedagogik mulqot madaniyatining har jihatdan to'g'ri tanlangan, o'quvchining ma'naviy saviyasi, betakror xususiyatlariga muvofiq keluvchi uslubiy quyidagi vazifalar majmuini hal qilishga yordam beradi:

-birinchidan, mulqotda har bir o'quvchiga alohida e'tibor va diqqatlik, sinf jamoasi bilan umumiy mulqot jarayonini soddalashtiradi, o'quvchining erkin pedagogik faoliyati uchun zamin tayyorlaydi, ziddiyatli vaziyatlarni oson hal qiladi;

-ikkinchidan, har bir o'quvchi bilan o'zaro munosabatni erkin mulqot asosida tashkil qilish, ularning yosh xususiyatlariga monand pedagogik va psixologik mulqot uslublarini tanlash, uning ruhiyatini bilishga, ichki dunyosiga "kirib borish"ga yo'l ochadi;

-uchinchidan, pedagogik mulqotda o'quvchining ma'naviy-axloqiy normalari muvaffaqiyatlar kaiti bo'lib, ta'lim-tarbiya samaradorligini oshiradi, mulqotning barcha bosqichlarida o'quvchining o'z faoliyatidan qoniqish hissinin xotirjamligini ta'minlaydi.

O'quvchining o'quvchilar bilan mulqot madaniyati individual uslublarini shakllantirish metodikasi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. O'quvchilar bilan mulqot qilish madaniyatining individual

shaxsiy xususiyatlarini o'rganishi. O'quvchilar shaxsiy xususiyatlarini mustaqil tahlil qilish, har tomonlama tavsif berish, o'qituvchining mulogotini to'g'ri tashkil etishi asosida amalga oshadi.

2. Shaxsiy mulogotda ro'y beradigan kamchiliklarni aniqlash va darhol ularga barham berish choralarini izlab topish: mulogotda qo'pollik, mensimaslik va boshqa salbiy holatlarni yengish.

3. O'qituvchi o'zi uchun mulogot madaniyatining qulay bo'lgan uslublarini ishlab chiqishi va o'z-o'zini kuzatish bilan yutuq va kamchiliklarni taqoslash.

4. O'zining mulogot madaniyati uslublariga muvofiq keluvchi milliy an'ana va ma'naviyatimizga xos jihatlardan unumli foydalanish.

5. Mulogot madaniyatida pedagogik faoliyat qonuniyatlardan chetga chiqmaslik, bu uslubni mustahkamlash (pedagogik amaliyot va malaka oshirish jarayonida).


Pedagogik faoliyatni endigina boshlayotgan yosh o'qituvchilar o'z kasbiy mahoratlarini oshirish maqsadida o'quvchilar bilan mulogot madaniyatini shakllantirish ustida muntazam ish olib borishlari zarur.

Mulogot- pedagogik faoliyatning muhim kasbiy qurolidir. Pedagogik mulogot- o'qituvchi va o'quvchilarning qulay psixologik muhit yaratishga yo'naltirilgan dars va darsdan tashqari vaqtidagi professional mulogotdir.

Noto'g'ri pedagogik mulogot – qo'rqinch tug'dirishi, ishonchsizlik diqqatni, xotirani, ishchanlikni pasayishiga, nutqni rivojlantirishni buzilishiga, natijada steriotip (bir xil) fikrlashga, mustaqil fikrlashning pasayishiga olib kelishi mumkin. Oqibat natijada o'qituvchiga, keyin esa predmetlarga nisbatan salbiy munosabatlarni qaror toptirishi mumkin.

Pedagogik mulogot ijtimoiy-psixologik jarayon sifatida quyidagi funktsiyalar bilan xarakterlanadi: Shaxsni anglab yetish, axborot almashinuvi, faoliyatni tashkil etish, rollarni almashinuvi, hamdard bo'lishlik, o'z mavqei anglab yetish va boshqalar.

Mulogotning axborot funktsiyasi, ma'naviy fikrlar va materiallarni almashishni ta'minlagan holda, birgalikda izlanishga, o'ylashga, o'quv-tarbiya jarayonining ijobiy motivlarini yaratishga sharoit ochib beradi.



1-rasm. Pedagogik mulogot funktsiyalari

Shaxs faoliyati sharoitni yaratgan holda, shaxs tomonidan bajariladigan roli mulogot, undagi u yoki bu ijtimoiy xulq-atvor o'rni belgilaydi. Ijtimoiy rollarni almashinuvi shaxsning ko'p qirrali namoyon bo'lishini, «niqobni tashlash», kishini kishi tomonidan idrok qilish jarayoniga yordam bergan holda, boshqaning roliiga kirish imkoniyatini ta'minlaydi.


Pedagogik mulogotning tuzilishi.

Professional pedagogik jarayon tuzilishiga quyidagilar kiradi:

1. Sinf bilan bo'ladigan mulogotni oldindan modellashtrish (andozasini oldindan tayyorlash).

2. Boshlang'ich mulogot paytidayok bevosita mulogotni tashkil etish.

3. Pedagogik jarayon paytida mulogotni boshqarish.



2-rasm. Pedagogik mulogotning tuzilishi.

Muloqot o'z navbatida ikki xil tomonga ega: munosabat va o'zaro ta'sir. Bu xuddi aysbergning suv osti va suv usti qismlariga o'xshaydi. Bunda ko'rinadigan tomoni- nutq va nutqsiz xatti-harakatlar, ko'rinmaydigan ichki tomoni – ehtiyojlar, motivlar, qiziqishlar, hissiyot va h.k

Tekshirishlar shuni ko'rsatadiki pedagogning bolalarga doimo ijobiy munosabati o'quv ishidagi va xulq-atvordagi kamchiliklarga ishini bilgan holda yondoshish, xotirjam va tekis ohangda o'quvchilarga murojaat qilish o'quvchilarni erkin xushmuomala ishonuvchan bo'lishiga olib keladi. O'quvchilarga salbiy munosabada bo'lish («sinflarning jonimga tegdi»), o'quvchining tuturuqsiz pozitsiyasi (kayfiyatiga qarab o'zgarishi) unga bo'lgan ishonchsizlik, va oda-movilik, lagabardorlik kabi xususiyatlarni keltirib chiqaradi.

5-MAVZU. O'QITUVCHI VA O'QUVCHI O'RTASIDAGI MULOQOT

Talim-tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda pedagogik muloqot madaniyati o'quvchi va o'quvchilarning bevosita o'zaro munosabatini ma'lum bir maqsad sari hamjihatlikka yo'naltiruvchi kuchdir. Bu o'rinda o'quvchi quyidagi vaziyatlarni e'tiborga olishni alohida ta'kidlash lozim:

- o'quvchining ilk tarbiyaviy faoliyatidan boshlab muloqot madaniyatiga rioya qilishi, bu jarayonda o'quvchi va o'quvchilar jamoasi bilan har kungi muomalani vaziyatga qarab rejalashtirishi, har bir harakat, so'z ohangiga e'tibor, an'anaviy muloqotning eng yaxshi xususiyatlarini o'zlashtirishi;
- muloqot asosida sinf jamoasidagi turli vaziyatlarni qayd etish, o'quvchilar xatti-harakatining oldingi holati bilan, tarbiyaviy faoliyatdan keyingi holatini qiyoslab chiqib baho berish;
- o'z muloqot uslubini natijalarini tanqidiy nuqgai nazardan tahlil qilib, kamchiliklarni uzluksiz bartaraf etib borish. Zarur so'z, ovozdagii yozimmi ohang, xulq-atvorni vujudga keltirish;
- pedagogik muloqot madaniyatining samarali kechishi uchun uning shart-sharoitlarini bilib olishning o'zi kifoya qilmaydi, o'quvchilar bilan o'zaro muomalaning "ustoz-shogird" an'alariga xos

boshlanishi va o'zaro fikr almashish asosida muhim vazifalarni hal qilish bilan muomala ob'ekting diqqatini o'ziga jalb qilish;

- muloqot ob'ekti, ya'ni o'quvchining diqqatini o'ziga jalb qilish deganda nimani anglash kerak? Buning ma'nosi o'quvchi o'zining xushmuomalatigi, madaniyati, go'zal xulqi, muloqotda o'quvchilarga yozimmi topa olishi bilan o'z mahoratini namoyish qilib, muloqot madaniyatining tashkiliy shakllariga ijtimoiy-psixologik negizni asos qilib olishidir.

Pedagogik muloqot madaniyati. Pedagogga xos bo'lgan mahorat asosini

tashkil etuvchi pedagogik muloqot madaniyati uning talabalar jamoasi, ota-onalar, hamkasblar hamda rahbariyat bilan uyushtiriladigan muloqot jarayonida namoyon bo'ladi. Bunda, ayniqsa, pedagogning talabalar jamoasi bilan o'zaro muloqoti muhim ahamiyatga ega. Pedagog talabalar bilan muloqotga kirishish, uning samarali bo'lishiga intiladi.

Pedagogik muloqot madaniyati – pedagogning talabalar jamoasi, ota-onalar, hamkasblar, rahbariyat bilan pedagogik odob hamda muloqot talabalariga muvofiq holda uyushtiriladigan subbati.


Pedagogik muloqot ruhiy-psixologik ta'sir kuchiga ega. Shu sababli uni tashkil etishda muloqot jarayonining ijobiy bo'lishini ta'minlash pedagogning zimmasiga katta mas'uliyatni yuklaydi. To'g'ri tashkil etilmagan muloqot talabada pedagogga nisbatan ishonchsizlikning tug'ilishi, diqqat, xotira va ish qobiliyatining susayishi, nutq me'yoringning buzilishi kabilarga sabab bo'lsa, aksincha, nazariy pedagogik va amaliy jihatdan to'g'ri tashkil etilgan muloqot yuqoridagi holatlarning aksini keltirib chiqaradi. Natijada talabalar da o'qishga va mustaqil o'rganishga, fikrlashga bo'lgan qiziqish ortadi.

Pedagogik muloqot quyidagi yo'nalishlarda tashkil etiladi:

Pedagogik muloqot o'ziga xos ijtimoiy-psixologik jarayon ham sanaladi.

Mazkur jarayonda quyidagi vazifalar bajariladi.

- 1) shaxsni o'rganish (bilish);
- 2) axborot almashish;
- 3) faoliyatni tashkil etish;
- 4) hamdard bo'lish.



3-rasm. Pedagogik mulqot uslublari.

Mulqot jarayonida talaba tomonidan bildirilayotgan fikrlar, uning qarashlari shaxsni yaqindan o'rganish uchun imkoniyat yaratadi. Talaba shaxsini yaqindan bilish, uning ichki kechimalari, o'y-fikrlari, histuyg'ulari, orzu-umid, maqsad va hayotiy intilishlaridan xabardor bo'lish pedagogik jarayonning metodik, ruhiy jihatdan to'g'ri tashkil etilishini ta'minlaydi. Zero, bu jarayonda pedagogik talaba shaxsiga xos yosh, psixologik va shaxsiy xususiyatlarni inobatga olgan holda faoliyatni tashkil etadi.

Mulqot jarayonidagi axborot almashinuvi talabaning o'zaro ijtimoiy jarayonlar, shaxs kamolotining kechishiga doir ma'lumotlar almashinishini ta'minlaydi. Pedagog va talabalar o'rtasida hamkorlikni qarov toptirish esa har qanday vaziyatda ham ular o'rtasida o'zaro axborot almashinuvi samarali ro'y berishini uchun sharoit yaratadi. Bu jarayonda pedagog talabalarining eng yaqin maslahatchisi, yo'lboshchisi va rahbariga aylanadi.

Mulqot chog'ida talabalar tomonidan o'z shaxsini, "meni"ni, qadr qimmatini yetarli baho baho baho va o'z oldiga hayotiy maqsadlarini qo'ygan holda o'g'a intilishlarini ta'minlashga jiddiy e'tibor qaratish lozim.

Pedagogik mulqotni tashkil etishda, pedagog yordamiga muhtoj talabalarga alohida e'tibor berish, har bir talabada turli o'quv fanlari asoslarini o'zlashtirishga qiziqitirish usullarini, hamkorlik, ijodkorlikka asoslangan mehnatni tashkil etishni oldindan o'ylab qo'yish lozim.


Pedagogik amaliyot pedagog tomonidan tashkil etilayotgan mulqotni bir nechta turga ajratish mumkinligini ko'rsatadi. Pedagoglar o'z faoliyatlarida mulqotning quyidagi turlariga tayanib ish ko'radilar:

Pedagogik mulqot turlari:

- 1) o'zaro ijodiy faoliyatga qiziqitiradigan mulqot;
- 2) o'zaro do'stona munosabatga asoslangan mulqot;
- 3) muayyan masofani saqlagan holda tashkil etiladigan mulqot;
- 4) qo'rqitish, tahdid qidishga asoslangan mulqot;
- 5) hazil-mutoyibaga, yumorga asoslangan mulqot.

Pedagog tomonidan jamoa bilan mulqotni uyushtirish texnikasini doimiy ravishda tahlil qilib borish maqsadga muvofiqdir. Ma'lum vaziyatlarda pedagog rahbar sifatida talabalar faoliyatlarini boshqaradi. Bu jarayonda ham mulqot yetakchi omil hisoblanadi. Biroq, mulqotning samaradorligi rahbar sifatida namoyon bo'layotgan pedagog tomonidan qanday mulqot uslubining tanlanganligi bilan belgilanadi. Odatda, pedagogning rahbar sifatidagi mulqot usullari quyidagi uch turga ajratiladi:

1. Avtoritar uslub. Bunga ko'ra talabalar tomonidan barcha turdagi faoliyatning tashkil etilishi, mazmuni, shakli, metod va vositalarining barchasi faqat pedagog tomonidan belgilanadi. Talabalarining har qanday tashabbuslari rag'batlantirilmaydi, aksincha, buyruq, ko'rsatma, yo'llanma berish, shuningdek, jazolash choralari ko'rish orgali talabalarga ta'sir etiladi. Hatto talabalarining faoliyatlari ijobiy baholangan vaqtda ham ularga bo'lgan ta'sir turli kesatidlar bilan bayon etiladi. Ya'ni: "Sendan ijobiy xatti-harakatni kutmagan edim?!", "Buni qara-ya, nahotki o'zgaragan bo'lsang?!", "Qara-ya, birgina a'lo baho olish bilan o'zingni yaxshi inson bo'lib qolgan deb hisoblaysanmi?" va h.k. mazmundagi rag'batlar, ular asli ijobiy holatni e'tirof etishga yo'naltirilgan bo'lsa-da, talabani yangi yutuqlariga ilhomlantirmaydi. Aksincha, unda ta'lim olishga, ta'lim muassasasiga va pedagoglarga nisbatan sovuqqonlikni yuzaga keltiradi.



4-rasm. Pedagogik muloqot uslublari

2. Demokratik uslub. Unga ko'ra pedagog pedagogik faoliyatni tashkil etishda jamoaning fikriga tayanib ish ko'radi. O'quv mashg'ulotlari va tarbiyaviy ishlarni tashkillashtirishda har bir talabani fikrini inobatga olishga, ularni umumlashtirgan holda eng samaralisini tanlab olishga intiladi. Muhokamalar chog'ida barcha talabalarning ishtiroklari ta'minlanadi. Talabalar tomonidan bildirilayotgan tashabbuslar qo'llabquvvatlanadi, mavjud imkoniyatlardan kelib chiqqan holda bu tashabbuslar amaliyotga tatbiq etiladi. Bu uslubdan foydalanayotgan pedagog zimmasidagi vazifa faqatgina talabalarning faoliyatini nazorat qilish, tuzatishlar kiritishdan iborat emasligini anglatiradi. Asosiy e'tiborni talabalarning yutuqlarini e'tirof etgan holda yoki ularning xatolarini o'zlariga aylatgan holda samarali tarbiya chorasini ko'rishga qaratadi. Har bir talabaning yutuqi alohida e'tirof etiladi, bu esa ularni yangi zafarlarga erishishga ruhlanitiradi. Ushbu uslubga asoslanib ish ko'radigan pedagog har bir talabaning qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda bajariladigan ishlarni to'g'ri taqsimlashga harakat qiladi, faol talabalarni taqdirlab borishni faoliyatining asosiy yo'nalishi sifatida belgilaydi. Pedagog talabalar bilan muloqotni o'rnatishda ittimos, maslahatga tayanib ish ko'radi.

3. Liberal uslub. Odatda bu uslub pedagog va talaba munosabatlarning kelishuvchanlikka asoslanishini ta'minlaydigan uslub sifatida e'tirof etiladi. Bu uslubga ko'ra ish yuritadigan pedagog talabalar

tomonidan sodir etilayotgan salbiy holatlarga ham e'tibor bermaslikka intiladi. Talabalarni tartibga chiqirish, vaziyatdan kelib chiqqan holda ularning faoliyatini to'g'ri baholash, jazolash zarur bo'lgan vaziyatlarda ham indamlikni odat qilib oladi. Bu esa talabalarning odobsiz, yalqov, mas'uliyatsiz bo'lishlariga olib keladi. Liberal uslubni ma'qul ko'radigan pedagog talabalar hayoti bilan mutlaqo qiziqmaydi, ularning faoliyatlariga aralashmaydi, hal qituvchi vaziyatlarda mas'uliyatni o'z zimmasidan soqit qiladi. Ayrim holatlarda bir-biriga zid bo'lgan fikrlarni ham birdek ma'qullaydi. Bu tahlilda ish ko'radigan pedagog obro'ga ega bo'lmaydi. Chunki unga ishonish mumkin emas.

Pedagogik faoliyatni tashkil etishda pedagogning nafaqat o'zi, balki uning ijodiy ta'siri asosida talabalar ham muloqot madaniyatini o'zlashtirib borishlari lozim.

Muloqot madaniyati – muloqot jarayonini axloqiy me'yorlar, jittimiy talabalar muvofiq tashkil etish asosida subbadoshni tushunish ehtiyoji va qobiliyatiga egalik.

Ta'lim amaliyoti pedagogik muloqot jarayonida pedagoglar tomonidan quyidagi kamchiliklarga yo'l qo'yilishdan dalolat beradi: ehtiyotsizlik, shaxsiyatparastlik, subbadoshni ortiqcha majburlash; sushtashlik, o'zini juda yuqori yoki past qo'yish; haddan tashqari jonbozlik ko'rsatish.

Pedagogik muloqot madaniyati o'qituvchi faoliyatini muvaffaqiyatga yo'naltiruvchi eng muhim vosita, bunda o'qituvchining muhim fazilati, uning muloqot madaniyatiga asoslangan muomalasidir.

Muomala barcha falsafiy va psixologik fanlarda o'ziga xos ta'rifi ega. Pedagogikning kategoriyasi sifatida muomala o'qituvchilar qalbiga yo'l topa olish, ularga yondashish uchun mehri qozonish, pedagogik nuqtai nazardan ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchilar bilan o'zaro aloqa bog'lashga qaratilgan o'qituvchining pedagogik qobiliyatidir.

O'qituvchi o'quvchilar bilan muomalaga kirishish asosida:

1. O'z ijodkorligini va pedagogik mahoratini namoyish qiladi.
2. Yosh avlodni milliy mafkuramiz va milliy madaniyatimiz ruhida tarbiyalaydi.
3. Sharqona udum va urf-odatlarimiz asosida barkamol shaxsni shakllantiradi.

4. O'zining ta'lim-tarbiyaviy imkoniyatlarini namoyish etgan holda, har bir o'quvchi qalbiga yo'l topadi.

Muomala o'quvchi faoliyatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, o'zida ulkan pedagogik imkoniyatlarni mujassamlashtiradi. Pedagogik muomalada o'quvchi quyidagi faoliyatga qat'iy amal qilishi lozim:

- o'quvchida tarbiyalash mahoratlashg shakllanganligi. Uning tarbiyaviy jarayonga oid so'z va ohangni tanlay bilishi va ta'sir o'tkaza olish;

- muomala ob'ekti bo'lmish o'quvchi diqqatini jalb qiluvchi nutq, pauza, harakat, imo-ishoralarni o'z o'rnida ishlatisi, tarbiyaviy ta'sirni bilishi;

- o'quvchining ichki ruhiyatini, psixologik xususiyatlarini bilgan holda muomalaga jalb etishi, darsni boshlashdan oldin o'quvchilarni ta'lim va tarbiyaviy mulqotga tayyorlashi;

- o'quvchiga og'zaki, o'zaro ta'sir ko'rsatishning tarbiyaviy usullarini bilishi. O'quvchining nutqi ravon, o'quvchi ongiga ijobiy ta'sir qiladigan bo'lishi.

6-MAVZU. PEDAGOGIK NAZOKAT VA ODOB-AXLOQ

O'quvchining o'quvchilar muhitiga uzviy ravishda qo'shib keta olishi nihoyatda qiyin jarayon. Lekin uning pedagogik faoliyati bevosita o'quvchilar orasida olib boriladi. O'zaro munosabatlarni ishonch va do'stlik tuyg'ulari bilan mustahkamlab borish o'quvchidan jiddiy psixologik tayyorgarlikni talab qiladi. Buning uchun o'quvchi, avvalo, turli xarakterdagi o'quvchilardan iborat bo'lgan, sinf jamoasida tez-tez o'zgarib turadigan pedagogik vaziyatlarga darhol o'z munosabatini bildirishi va unga odilona baho berishi kerak.

U o'quvchilar xatti-harakatini to'g'ri idrok etishi, vaziyatlarni oldindan ko'ra bilishi, tarbiyaviy metodlarni o'z o'rnida qo'llashi, o'quvchilar bilan muomalada bosqiklik, sabr, milliy an'ana va turmush tarzimizdan kelib chiqqan muruvvat va himmat, odamiylik va mehr-oqibat tuyg'ularini ko'rsata olishi shart. Bu vazifalar

o'quvchining zimmasiga yuklanadigan va u rioya qilishi lozim bo'lgan pedagogik nazokat deb atalmish faoliyatning zarur shartidir.

Pedagogik nazokat - o'quvchi axloqiy-ma'naviy qiyofasini namoyon etuvchi me'yor tuygusi yoki xulq va odob qoidalariga rioya qilishi demakdir. Pedagogik nazokat o'quvchining o'quvchilar bilan o'zaro munosabatini tashkil qilish vositasi. Psixologik til bilan aytilganda, nazokat insonning bir qolipdagi bargavor tasavvurlarida mujassamlashtirilgan shaxsiy insoniy xislatlarining yig'indisidir.

Pedagogik nazokat me'yorlari o'quvchidan, avvalo, komil insonga xos xislatlarga ega bo'lishni talab qiladi. Zero, ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilishning asosiy maqsadlaridan biri komil inson tarbiyasi bo'lib, u davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi deb e'lon qilingan.

Ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgaralga iborat bo'ladigan bilimli, ma'rifati yoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazish o'quvchi zimmasida. Shunday ekan, hozirgi demokratik jamiyat o'quvchisining o'zi avvalo komil inson bo'lishi, mukammal bilimlar sohibi, yetuk insoniy fazilatlar egasi bo'lishi zarur. O'quvchi xulq-atvorida pedagogik nazokat ma'lum bir muddatda shakllanib tugaydigan jarayon emas, uning omillari ham jamiyat taraqqiyoti natijasida uzluksiz sayqallanib boradi:

* pedagogik nazokat o'quvchining butun pedagogik faoliyatida sayqallanib takomillashib boruvchi jarayon;

* pedagogik nazokat, odatda, tugallangan shaklga ega bo'lmay, insoniy fazilatlar evaziga uzluksiz boyib boradi;

* o'quvchi pedagogik nazokatning tarkibiy qismlarini ijtimoiy muhitiga va odamlarning yashash tarziga, urf-odatiga qarab o'zgaritishi mumkin;

* o'quvchi pedagogik nazokatning nozik qirralarini chuqur ega-lashga doimo intilishi talab etiladi;

* pedagogik nazokatni o'quvchi har bir o'quvchi bilan o'zaro munosabatda o'zi uchun eng qulay shaklga keltirib, ma'lum bir muvozanatda saqlashi lozim.

O'quvchi pedagogik nazokatga ta'lim va tarbiya jarayonidagi har bir vaziyatga adolatli baho berishi bilan, o'quvchilarning xatti-harakatini to'g'ri idrok etishi, sabot, o'zini tuta bilish, sabr-toqat, sezgirlilik, vijdon, oriyat kabi xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirishi bilan erishadi.

O'quvchining o'quvchilar bilan muomalasi, pedagogik faoli-

yatda o'z kasbini siddiqildan sevishi, halolligi, rostligi, axloqiy pokligi, odamiyligi, kamtarligi pedagogik nazokaning zarur talabidir.

O'z kasbini sevgan o'qituvchigina butun kuch - g'ayratini, qalb nuri va dil haroratini shu ishga bag'ishlaydi va o'z faoliyatida yaxshi natijalarga erishadi. Bolalarni sevish, ularga mehr-muhabbatli bo'lish o'qituvchi axloqiy qiyofasida muhim ahamiyatga ega. O'qituvchining mehribonligida talabchanlik va qattiqqo'llik xislatlari mujassamlashgan bo'lishi kerak.

O'qituvchi deyarli har kuni o'quvchilar bilan uchrashadi, savol-javob qiladi, ularning yaxshi xulq va euzu ishlarini ma'qullaydi, bilimlarini baholaydi, nojo'ya xatti-harakatlari uchun tanbeh berib, lozim bo'lganda tarbiyaviy metodlarni qo'llaydi.

Pedagogik nazokat doimiy izlanishni, ijodkorlikni talab qiladi. Doimiy ijodiy izlanishda bo'lgan o'qituvchi tadqiqotchilik ko'nikma va malakalariga ega bo'ladi, ilm-fan muammolari, tarbiya etikasi va psixologiyasi yuzasidan erkin fikr yuritadi. Xullas, bo'lajak o'qituvchi pedagogik odob va axloq qoidalarini o'zining dunyoga-rashi va axloqiy tajribasi bilan boyitib borishi zarur.

O'qituvchi o'quvchilarning kattalar bilan mulotoqga kirishish tizimiga ma'lum darajada kirib borib, ularning ichki qoidalarini o'rganishga harakat qilishi kerak. Bu narsa o'quvchilar bilan suhbatlashish orqali, fe'l-atvorini o'rganish, tengdoshlari va kattalar bilan munosabatlarini kuzatish, ular hayotdagi turli voqealar va muammolarni birgalikda tahlil qilish, ular muhitida ro'y berayotgan hodisalarga nisbatan fikr-mulohazalarini bilish asosida amalga oshadi. Bunda u

o'quvchilar jamoasida ro'y berib turadigan, tashqi tomondan kuzatganda aslo bilib bo'lmaydigan yashirin hodisalar va voqeparini o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi. Natijada o'qituvchi ta'lim-tarbiyaviy jarayonda o'z oldida turgan vazifalarni hal etishda o'quvchilarning o'zlarini ham jalb qila oladi.

Ijodiy natijalarga erishish uchun, o'qituvchi o'quvchilarning ishonchini qozona olishi shart. Yosh o'qituvchi "Do'stlar" ishonchini qozonish yoki ishonchiga kirishi uchun o'qituvchi pedagogik nazokat imkoniyatlarini o'z o'rni qo'llay olishi lozim. O'zaro ishonch munosabatlari o'rnatilgach, o'quvchilar og'ir damlarda

o'qituvchidan yordam so'rab murojaat qiladilar, o'z mulohazalarini u bilan baham ko'radilar. O'zaro ishonch norasmiy munosabatlarda ham o'qituvchiga o'quvchilarning ba'zan anglab bo'lmaydigan ichki dunyosini ko'rish imkoniyatini beradi. O'quvchilar bilan munosabatlarda pedagogik nazokatni qo'llash natijasida:

- * o'qituvchi o'quvchilarning xarakterini, ichki dunyosini yaxshi bilib oladi, shundagina o'quvchilar bilan munosabatda xushmuomallik bo'lish imkoniyatlari paydo bo'ladi;

- * o'qituvchi o'quvchilar bilan chin ko'ngildan bir-biriga yaqin bo'ladi, ba'zi daqiqalarda eshitmasligi kerak bo'lgan ularning gaplarini eshitmasdan o'tib ketishi mumkin, negaki o'zgarlar gapini tinglash odobsizlikdir;

- * o'qituvchi ba'zan o'quvchilar jamoasining kundalik ishlariga aralashmasligi, jamoada ro'y beradigan ba'zi ko'ngilsiz hodisalarni ijobiy hal etishni ular zimmasiga havola etishi mumkin.

Bularning hammasi o'qituvchining o'quvchilar bilan bo'ladigan kechik ixtiloflarga, kelishmovchiliklarga barham beradi.

Har qanday mutaxassis odob va axloq namunalari ega bo'lishi tabiiy, lekin pedagogik nazokat va odoblilik mutlaqo o'zgacha harakatni va muomalani talab qiladigan mahoratdir. Chunki bu xislatlar faqatgina pedagogik qobiliyat va iste'dodga ega bo'lgan o'qituvchida yillar davomida shakllanadi.

O'qituvchining pedagogik nazokat mohiyatida, avvalo, etnopedagogik tuygular, milliy qadriyatlar, urf-odat va an'analar, o'zbekona tavsife va muomala madaniyati, o'quvchilar jamoasiga singib keta oladigan har qanday ijtimoiy muhitga moslashuvchi individual qobiliyatlar, kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar mujassamlashgan bo'ladi.

Hozirgi kunda informatsion jarayonning jadal rivojlanishi o'quvchi ruhiyatiga keskin ta'sir qiladi. Ularning psixologik xususiyatlarini, ruhiy holatini bir maromda ushlab turish uchun o'qituvchidan kuchli iroda, muomala madaniyati bo'lish va bosqilik, pedagogik mahoratning keng imkoniyatlaridan foydalanish tapab qilinadi. Yosh avlod tarbiyasida o'qituvchi eng qiyin vaziyatlarda ham pedagogik mahoratning quyidagi holatlariga rioya qilishi va ushbu faoliyatga o'zini moslashtirishi lozim:

- * emosional his - tuyg'ular va kechimmalarda, stress va affect

holatlarida o'zini boshqara olish qoidalariga rioya qilish;

- o'zining xulq-atvor xususiyatlarini doimiy bir muvozanatda saqlagan holda qo'llash;

- bachkana qiliqlar, ortiqcha xatgi-harakatlar, pedagogik etikaga to'g'ri kelmaydigan bema'ni so'zlardan o'zini qat'iy tiyish;

- o'qituvchiga xos notiqchilik san'ati sirlarini puxta egallash, o'quvchi shaxsiga og'ir ta'sir etadigan, uning ruhiyatini jarohatlaydigan iboralarini ishlatmaslik, muomalada, jazo metodlaridan foydalanishda ko'pol va dag'al so'zlar qo'llamaslik;

- dars jarayonida hissiy, akdiy bilim berishda belgilangan muayyan psixologik va fiziologik me'yorlarga asoslanish, mamnallikka yo'l qo'ymaslik, o'z holatidan boshqa holatga o'tishdan saqlanish;

- o'qituvchilar jamoasi va o'quvchilar bilan, ota - onalar hamda notanish kishilar bilan munosabatda kommunikativ qobiliyatining rasmiy va qat'iy muomala hamda ishblarmonlik uslublariga asoslanish.

Pedagogik nazokatni egallash malakalari

Pedagogik nazokat pedagogik mahorat bilan birga yillar davomida ustozlar tajribasini o'rgangan holda va o'z hayotiy hamda kasbiy faoliyati tajribalaridan kelib chiqib shakllantirilib boriladi. O'qituvchining ma'naviy yetuklik darajasi, nazokat sirlarini o'rganishda o'quvchilar bilan mulqot qilish ko'nikma va malakalarini egallashi, maxsus psixologik bilimlarga ega bo'lishida, o'z ustida tinimsiz mehnat qilishi natijasida erishiladi.

Avvalo, bu bilimlar o'quvchilar yosh xususiyati psixologiyasini va bolalarning individual xarakterini bilish bilan bog'liq. Axloq asoslarini bilish, xatti-harakatlarda axloqiy ma'noni kasb ettirish ham katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga, o'quvchi ruhiyatiga ijodiy-tarbiyaviy ta'sir etish yo'llarini bilish o'qituvchilarning kundalik faoliyatiga aylanishi lozim:

- o'quvchilarni chin ko'ngildan sevisish, o'z muhabbatini o'zaro munosabatda ko'rsata olish;
- o'quvchilar xulqi va ruhiyatidagi yashirin ichki tuyg'ularni anglashga harakat qilish, ko'rish va kuzatish;
- sinf jamoasidagi har qanday sharoit va muhitga moslashish;

- sinf jamoasi bilan o'zaro hamkorlikni ta'lim-tarbiyaviy maqsadga muvofiq yo'llini tanlash;

- o'quvchilar bilan norasmiy suhbatlarda o'z ichki hissiyotini sezdirmaslik, aksincha, ular ishonchini qozonish.

Pedagogik nazokatning asosiy xususiyati shundan iboratki, o'qituvchiga mulqotni ijobiy hissiyotlar asosida qurishga, bolalar bilan psixologik kontaktkga kirishish uslublarini saqlashga yordam beradi. Pedagogik nazokat xususiyatlari hozirgi kunda quyidagi vaziyatlarda muvaffaqiyat poydevori hisoblanadi:

- o'qituvchi pedagogik nazokat talablariga amal qilib, o'zida mulqotning erkin demokratik asosini shakllantiradi;
- sinf jamoasida ongli intizomni vujudga keltiradi;
- o'quvchilar bilan haqiqiy mulqot madaniyatiga erishadi;
- o'qituvchi sinfda yakka (avtoritar) hukmronlikdan, erkin mulqotga o'tib, demokratik printsiplar asosida pedagogik faoliyatga kirishish shaklini qo'llaydi;
- o'quvchilarni ongli ravishda tartib-intizomga mulqot asosida o'rgatadi.

Pedagogik nazokat asosida o'qituvchi o'quvchilar bilan mulqotda qurama-qarshilikka yo'l qo'ymasligi o'zaro munosabatni to'g'ri tushirib olishga yordam beradi. Bizga ma'lumki, o'qituvchining fikrmulohazalarida nisbiylik va sub'ektivlik alomatlar ham mavjud. U hammaga birdek, to'g'ri munosabatda bo'la olmasligi tabiiy holdir, lekin u mohiyatan barcha o'quvchilarga xolis niyatli, yaxshilik qilishga intiluvchi, adolati kishi ekanligiga ishonch uyg'otishi kerak. Bu holat pedagogik nazokatning muhim xususiyatidir.

Hozirgi kunda ta'lim-tarbiyaning insomparvar, demokratik xarakterda ekanligi, o'quvchilarni erkin, mustaqil fikr yuritishga va ongli intizomga o'rgatish, intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, o'qituvchidan chukur bilimga, kasbiy malaka va ko'nikmalarga, yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo'lishni talab qiladi. Shu jihatdan o'qituvchining o'quvchilar bilan munosabatida "Pedagogik tukt" muhim pedagogik qobiliyat sifatida e'tirof etiladi.

Tukt so'zi azaldan pedagogikada tarbiyaviy ta'sir etish ma'nosini bildiradi va o'quvchilar bilan o'zaro munosabatni boshqarishga yordam beruvchi axloqiy kategoriya sifatida ta'riflanadi. O'quvchilar bilan mulqot jarayonida ro'y beradigan eng og'ir vaziyatlarda ham

pedagogik takt o'qituvchidan mutlaqo bosiqlikni, subbardsosni nisbatan xurnat va ehtromni talab qiladi.

Pedagogik takt - o'qituvchi kasbiy mahorati asosida pedagogik ta'sir o'quvchilarga barcha demokratik talablar asosida pedagogik ta'sir o'lkazish, mulqotni insonparvarlik tuyg'ulari asosida o'rnatish o'lkovni, o'quvchilarda mustaqil fikr yuritishni hamda ongli intizomni tarkib topirish ko'nikmalarini hosil qilish shaklidir.

Pedagogikda o'qituvchining o'quvchilar bilan munosabati ularning yosh xususiyatlariga qarab belgilanishi va bu qonuniyatga amal qilinishi qat'iy talab qilinadi.

O'qituvchining taktik mahorati birdaniga shakllanib qolmaydi, u yillar davomida pedagogik faoliyatda, ustozlar tajribasini o'rganishda, dars jarayonida, sinfdan tashqari faoliyatda va tarbiyaviy soatlarda o'quvchilar bilan mulqotda takomillapshb boradi. Dars jarayonida pedagogik mahorati asosi bo'lmish pedagogik taktga ega bo'lish o'qituvchi uchun juda zarurdir.

Pedagogik nazokat (takt). Yuqorida aytib o'tilganidek, mahorati pedagog faoliyatida pedagogik takt ham o'ziga xos o'rin tutadi:

Pedagogik (nazokat) takt - pedagogning talabalar bilan turli faoliyat shakllari bo'yicha tashkil etiladigan mulqotda mavjud axloqiy tamoyillar, hulq-atvor qoidalarga rioya qilishi, ularga to'g'ri yondashish malakalariga egaligi.

Pedagogik takt pedagog faoliyatiga g'oyaviy va amaliy jihatdan bir-biriga mos keladigan pedagogik axloqning bevosita tabiiq etishning shakli sifatida namoyon bo'ladi.

Takt (dahldorlik) - axloqiy hulq-atvor, xatti-harakat bo'lib, o'zida barcha ob'ektiv harakatlarning oqibati va ularning shaxs tomonidan sub'ektiv qabul qilishni avvaldan ko'ra olish, belgilangan maqsadga osonroq erishish yo'llarini izlashning namoyon bo'lishini ifodalaydi. Pedagogik takt o'z mohiyatiga ko'ra ijodiy izlanishni talab etadigan amaliy harakattir.

Pedagogga xos bo'lgan pedagog taktning asosiy tarkibiy elementlari sifatida quyidagilarni e'tirof etish mumkin:

- 1) shaxsga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lish;
- 2) yuksak talabchanlik;
- 3) subbardsosni qiziqish bilan tinglay olish va unga nisbatan qayg'urish malakasi;

- 4) ruhiy barqarorlik, dadillik va og'ir vazminlik;
- 5) munosabatlar jarayonida ishonch bilan so'zlay olish;
- 6) qat'iyatlik (qaysarlik emas);
- 7) talabalarga nisbatan e'tibori va xushyor bo'lish.

Talabalarga pedagogik mahorat asoslariga doir bilimlarni berishda ularni pedagogik taktning quyidagi elementlarini tarbiyalashga jiddiy e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir:

- talaba shaxsini hurmat qilish va unga nisbatan talabchanlik;
- turli faoliyat bo'yicha talabalarda mustaqillikni rivojlantirish va ularning ishlariga oqilona pedagogik rahbarlik qilish;
- talabning ruhiy holatiga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, unga nisbatan yuksak idrok bilan izchil talablar qo'yish;
- talabalarga ishonish va ularning faoliyatini nazorat qilib borish;
- ular bilan mulqotni tashkil etishda o'zini oqlagan ishtidan va hissiy xarakterga ega munosabatlarni qo'shib olib borish.

Pedagogning pedagogik taktga egaligi uning yuritish-turishi, vazminligi, o'zini tuta bilishida namoyon bo'ladi. Ushbu sifat talabga ishonch bilan qarashni nazarda tutadi. Talabga ishonchsizlik bilan qarash pedagogning pedagogik taktga ega emasligini ifodalaydi. Har qanday pedagogik nizo yoki ziddiyatlarning asosida pedagogning pedagogik taktga ega emasligi yotadi.

Har qanday qo'pollik, kesatq va koyishlar, talabalarni doimiy ravishda tanqid qilish, ularni ishonchsizlik bildirish pedagogik nizolarni keltirib chiqaradi. Pedagogik takt, shuningdek, pedagogning talaba javobini diqqat bilan tinglashida, javobning mazmuniga alohida e'tibor qaratishida, bordi-yu, talaba xatoga yo'l qo'yadigan bo'lsa, uni bosiqlik, vazminlik bilan to'g'rilashda, talaba faoliyatini haqqoniy, oqilona baholashda, qo'yilgan bahoning mohiyatini izohlashda namoyon bo'ladi. Bu jarayonda javob berayotgan talabga jilmayish, turli imo-ishoralar bilan, boshni qimirlatish, yuz ifodalari, qo'l harakatlari bilan uning javoblarini ma'qullab turish pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Mahorati pedagog talabalar faoliyatini baholashda ehtiyotkor bo'lishi lozim. Zero, noto'g'ri qo'yilgan baho talaba shaxsiga salbiy ta'sir ko'rsatib qolmay, balki uning o'qishga bo'lgan qiziqishini so'ndiradi. Talabalar faoliyatini baholashda V.A. Suxomlinskiyning pedagogik tajribasiga tayanib ish ko'rish maqsadga muvofiqdir.

1. O'quvchiga amaliy yondashish ("O'quvchi bo'lgandan keyin o'qib kelish

kerak-da" tarzida emas), balki unga shaxs sifatida munosabatda bo'lish ("O'quvchim, eng avvalo, shaxs, bola, so'ngra esa o'quvchi. Men unga qo'yadigan baho uning bilimi o'lchovi emas, balki mening unga nisbatan insoniy munosabatimdir" tarzida yondashish).

2. Har bir baho o'quvchini kelajakka ishonch ruhida tarbiyalashi zarur; u o'quvchining mehnatini rag'batlantirishi, biroq, uning dangasaligi va qobiliyatsizligi uchun jazo vositasi bo'lmaydigan zarur.

Pedagogik mahorat negizida pedagogning kasbiy, ya'ni, pedagogik tajribaga ega bo'lishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik tajriba – kasbiy faoliyatni tashkil etish jarayonida pedagog tomonidan o'zlashtirilgan o'rtirilgan bilim, ko'nikma va malakalar majmuidi. U quyidagi yo'llar bilan hosil qilinadi:

Pedagogik tajribani hosil qilish yo'llari:

- 1) mustaqil o'qib-o'rganish;
- 2) ilg'or ish tajribalari bilan tanishish;
- 3) ilmiy anjumanlarda ishtirok etish;
- 4) o'zaro tajriba almashish;
- 5) hankorlikda pedagogik izlanishlarni olib borish;
- 6) tajribali shaxslardan maslahat olish va b.

Pedagogik jarayondagi muhim hodisalardan biri – nizo sanaladi. Nizo – qarama-qarshi, bir-biriga to'g'ri kelmaydigan kuchlar


to'qnashuvi, ikki yoki undan ko'p taraflar orasida o'zaro kelishuvning yo'qligini, manfaatlar to'qnashuvini ifodalovchi ziddiyat.

Pedagogik nizo –pedagog va talaba, ota-ona, hankasblar yoki rahbariyat o'rtasida pedagogik jarayonda yuzaga kelgan manfaatlar to'qnashuvi, o'zaro qarama-qarshiliklardir.

Pedagogik nizo bir qator belgilarga ega. Unga xos bo'lgan asosiy belgilari mavjud. Pedagogik nizoning asosiy belgilari:


- inqiroz;
- anglashilmovchilik;
- kutilmagan hodisa;
- zo'rqiqlik;
- noqulaylik, ichki yoki tashqi xavotir, bartaraf etish qiyin bo'lgan qo'rquv.

Pedagogik nizolarni keltirib chiqaruvchi omillar:



5-rasm. Pedagogik nizolarni keltirib chiqaruvchi omillar.


Pedagogik nizolar davomiyligiga ko'ra bir necha turli bo'ladi. Ularning asosiy turlari quyidagilar: tezda yakun topadigan, uzoq muddat davom etadigan, kuchsiz sust kechadigan va kuchli tez kechadigan nizolar.



6-rasm. Pedagogik nizolarning shakllari

Pedagogik nizolarda adolatsizliklarga, ijtimoiy munosabatlardagi yakkahokimlikka yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Pedagogik nizolarni hal etishning samarali usullari quyidagilar sanaladi:



7-rasm. Nizomni hal qilishning pedagogik va ma'muriy usullari.

Pedagogik nizolarni hal etishda bir qator yo'llar tutiladi. Ular orasida eng samarali yo'llar quyidagilar sanaladi:

Pedagogik nizolarni samarali hal etish yo'llari:

1. Nizoning ta'sir doirasini kengaytirmaslik.
 2. Qulay yechimlarni taklif qilish.
 3. Man etilgan usullarni qo'llamaslik, shakllardan foydalannaslik.
 4. Shikoyatlar sonini qisqartirish.
 5. Ikkinchi darajali masalalarni hamuzviy ravishda hal qilib borish.
 6. Nizoga kiritilgan sub'ektlar shaxsini kamitadigan so'zlardan foydalannaslik.
- Pedagogik nizolarni hal etishda bir qator usullar ham qo'llaniladi.

Nazorat uchun savollar:

1. "Mahorat" tushunchasi qanday ma'noni anglatadi?
2. Pedagogik mahorat nima?
3. Pedagogik mahorat qanday muhim tarkibiy qismlardan iborat?
4. Pedagogik bilimdonlik nima va unga qanday sifatlar xos?
5. "Pedagogik refleksiya" deganda nimani tushunasiz?
6. "Pedagogik odob" tushunchasi qanday ma'noni anglatadi?
7. Pedagogik odobning asosiy shakllari qaysilar?
8. Pedagogik deontologiya nima?
9. Pedagogik obro' qanday qozoniladi?
10. Pedagogik qobiliyat nima?
11. V.A.Krutetskiy pedagogik qobiliyatning qanday turlarini ko'rsatadi?
12. Qanday qobiliyatlar noyob qobiliyatlar sanaladi?
13. "Pedagogik mulqot madaniyati" deganda nimani tushunasiz?
14. Pedagogik empatiya nima?
15. Pedagogik mulqot qanday turlari va uslublari mavjud?
16. "Pedagogik relaksatsiya" deganda nimani tushunasiz?
17. Pedagogik nazokat (takt) nima?
18. Pedagogik tajriba nima va u qanday yo'llar bilan hosil qilinadi?
19. Pedagogik nizo nima va unga xos belgilar qaysilar?
20. Pedagogik nizo qanday yo'llar bilan hal etiladi?

7-MAVZU. PEDAGOGIK TEXNIKA HAQIDA TUSHUNCHA PEDAGOGIK TEXNIKANI SHAKLLANTIRISH USULBLARI

Pedagogik texnika - o'qituvchining nafaqat ta'lim-tarbiya jarayonida, balki butun kasbiy faoliyatida zarur bo'lgan umumiy pedagogik bilim va malakalari majmuidir. Pedagogik texnikaning muhim jihatlari — bu avvalo, o'qituvchining mahoratini belgilovchi kasbiy ko'nikmalari hisoblanadi, ya'ni uning savodli va ifodalil so'zlay olishi, o'z fikr-mulohazasini va bilimni tushunarli tilda ta'sirchan bayon qilishi, his-tuyg'usini jilovlay olishi, o'zining shaxsiy xususiyatlariga xos mimik va pantomimik qobiliyatlarga ega bo'lishi,

aniq imo-ishora, ma'noli karash, rag'batlantiruvchi yoki istehzoli tabassum, so'zning cheksiz qudrati orqali o'quvchilar ongiga va tafakkuriga ta'sir o'tkazishi, hozirjavoblik, psixologik bilimlarga ega bo'lishi kabildir.

Uqtuvchining pedagogik texnikasi qanday ko'nikma va malakalardan iborat ekanligi, pedagogik texnika o'qituvchining ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiyaviy faoliyatini zamonaviy talablar asosida tashkil qilishida, o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishida qanday rol o'ynaydi kabi muammolar hozirgi kungacha dunyo olimlarining diqqatini o'ziga jalb etib kelmogda.

Hozirgi kunda pedagogik texnika tushunchasi ikkita guruhga bo'lib o'rganiladi. Birinchi guruh komponentlari o'qituvchining shaxsiy axloqiy fazilatlar va xulqi bilan bog'liq bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonida o'zo'zini boshqarish malakalarida (refleksiya) namoyon bo'ladi:

- ta'lim-tarbiya jarayonida o'z xatti-harakatlarini boshqarishi, (mimika, pantomimika);
- ta'lim-tarbiya jarayonida o'z hissiyotini va kayfiyatini jilovlay olishi va turli nojo'ya ta'sirlarga berilmaslik;
- mukammal ijtimoiy perseptiv qobiliyatlarga (diqqat, kuzatuvchanlik, xayol) egaligi;
- nutq texnikasini (nafas olish, ovozi boshqarish, nutq tempi) bilish va o'z o'rnida qo'llay olishi.

Pedagogik texnikaning ikkinchi guruh komponentlari o'qituvchining shaxs va jamoaga ta'sir ko'rsatish malakalari bilan bog'liq bo'lib, bu guruh ta'lim-tarbiya jarayonining texnologik tomonini qamrab oladi:

- o'qituvchining didaktik, tashkilotchilik, konstruktiv, kommunikativ qobiliyatlari;
- ma'lum bir reja asosida o'z oldiga qo'yilgan talablarning bajarilishini nazorat qilishi;
- o'quvchilar jamoasida ta'lim-tarbiya bilan bog'liq bo'lgan ijodiy faoliyatni tashkil eta olish;
- o'quvchilar bilan pedagogik muloqot jarayonini bir muvozanatda saqlab boshqara olishi.

Uqtuvchining tarbiyalanuvchi ob'ektlar oldida o'z harakatlarini boshqarishda aktyorlik san'atiga xos bo'lgan xususiyatlari, ya'ni

mimik va pantomimik qobiliyatlari muhim rol o'ynaydi. Aktyor bir obrazni ma'lum bir muddatda tayyorlab, bir yoki bir necha marotaba bir xil ko'rinishda sahnada namoyish etsa, o'qituvchi butun o'quvchilarni davomida, har bir darsda yangi mavzuni o'tilgan mavzular bilan boglab, zamonaviy integratsion usullarda o'quvchilar ongiga yetkazish uchun chuqur tayyorgarlik ko'radi, sinf jamoasidagi o'ziga xos pedagogik va psixologik muhitni, har bir o'quvchining shaxsiy xususiyatlarini e'tiborga olib pedagogik faoliyat ko'rsatishga majbur. Bunday ulkan mas'uliyatni yuqori saviyada bajarish uchun o'qituvchidan yuksak pedagogik texnik tayyorgarlikka ega bo'lish talab etiladi.

Hozirgi zamon o'qituvchisi pedagogik mahorat tizimida pedagogik texnikaning rolini beqiyos deb biladi. Chunki u o'qituvchiga o'z g'aydasini tuta bilish (mimika, pantomimika), his-tuygularini (emotsiyasini) boshqara olishi, ishtiyot, qobiliyatlar, nutq texnikasini egallashi va ularni o'quv faoliyatida, o'qishdan tashqari ta'lim va tarbiyaviy faoliyatlar jarayonida qo'llash yo'lparini tushuntiradi. Demak, pedagogik texnika o'qituvchi kasbiy faoliyatida shunday kasbiy va shaxsiy malakalar yig'indisiki, u o'qituvchining pedagogik faoliyatiga ta'sir ko'rsatishi, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish va boshqarish ishlarida asosiy yo'l ko'rsatuvchi bo'lib xizmat qiladi.

Ilg'or va novator o'qituvchilarning texnik mahorati pedagogik faoliyat olib borishlarida, mimik va pantomimik harakatlarida, ovozi idora qila olish xususiyatlarida kuzatiladi. Bu shundan dalolat beradiki, o'qituvchilar pedagogik texnika san'atini mukammal egallaganlar, uning ko'nikma va malakalarini o'zlarida aniq shakllantirishgan va turli pedagogik vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatlariga egadirlar.

Pedagogikada o'qituvchi chuqur hissiyotga berilishini, shaxsiy hayotidagi turli ruhiy vaziyatlar tufayli kayfiyatining o'zgarib turishini o'zi qat'iy nazorat qilish talab qilindi. Nazoratni o'qituvchining o'zi boshqarib, bu jarayonning ijobiy natijalari o'qituvchining refleksiv qobiliyatlarida namoyon bo'ladi.

Pedagogik texnikaning yana bir muhim xususiyati pedagogik ta'sir ko'rsatishdagi o'qituvchining ma'naviy va estetik qiyofasi. Bu tarbiyalanuvchilarga yaqqol namoyon bo'ladigan xususiyatdir.

Agar o'qituvchi ma'naviy qashshoq bo'lsa, nutqi tartibsiz va mu- loqotda no'noq bo'ladi, didi past, o'z hissiyotlarini jilovlay olmay- digan qo'pol bo'lsa, uning ta'lim-tarbiya berishi haqida gap bo'lishi mumkin emas.

Pedagogik texnikaning sirlarini egallash yo'llari o'qituvchi rah- barligida olib boriladigan mashg'ulotlar va mustaqil ishlash ja- rayonidashakllanib boradi. Pedagogik texnika sirlarini mukammal egallashda va uni takomillashtirishda kasbiy jihatdan o'qituvchi o'z - o'zini doimiy shakllantirib borishi, ya'ni o'z oldiga qo'yil- gan talablar nuqtai nazaridan mohir o'quvchi shaxsiy fazilatlarini va kasbiy malakalarini shakllantirishga qaratilgan faoliyati muhim rol o'ynaydi.

Pedagogik texnika xususiyatlari

Pedagogik texnikaning muhim xususiyatlaridan biri o'quvchi- lar bilan bevosita muloqot jarayonida shakllanadigan kasbiy texnik ko'nikma va malakalaridir. Bunda pedagogik texnikaning ko'nikma va malakalari o'qituvchining pedagogik mahorati bilan aloqador- likda shakllanib boradi. Rivojlangan pedagogik texnika xususiyat- lari o'qituvchiga o'quvchilar bilan muloqot jarayonida zarur so'z va gap ohangi, qarash, imo-ishorani tez va aniq topish, kutilmagan pedagogik vaziyatlarda bosiqlik va osoyistalik, aniq fikr yuritish, vaziyatni fikran va tez tahlil qilish kabi qobiliyatlarini namoyish etish bilan ifodalanadi. Pedagogik texnikaning ushbu xususiyatlari o'qituvchi kasbiy mahoratida aniq ifodalangan individual shaxsiy shakl oladi, ya'ni o'qituvchining

psixologik-fiziologik xususiyatlari asosida uning shaxsiy pedagogik texnikasini tarkib topiradi.

Individual pedagogik texnikaning shakllanishi o'qituvchining yoshi, jinsi, mijosi, fe'l-atvori, salomatligi, anatomik-fiziologik xu- susiyatlariga bog'liq. O'qituvchida individual shaxsiy pedagogik texnika malakalarini shakllantirish muammolari, ayniqsa, psixolog olimlarning tadqiqot markazidan o'rin olgan.

Pedagogik mahorat nazariyasini o'rganuvchi va tadbiq qiluvchi olimlar (N.N. Tarasevich, N.V.Kuxarev)ning fikrlaricha pedagogik texnika malakalari ikki guruhga bo'linadi:

Birinchisi guruh malakalariga pedagogning nutq texnikasi o'z hatti-harakatini idora qilishi, mimik va pantomimik ifodalari, o'z hissiyoti, hamda kayfiyatini boshqarishi, aktyorlik va rejissyorlik mahorati kabilar kiradi.

Pedagogik texnikaning ikkinchi guruhidagi malakalari kasb-kor- malakalaridan iborat bo'lib, ularga gnostik malakalar, loyihalovchi malakalar, konstruktiv (jamoning ijodiy ishlarini tashkil eta oli- sh), o'quvchi - o'quvchilarni tarbiyalash, o'qitishdagi kasb-korlik malakalari kiradi (Buni 1.5-jadvalda ko'rish mumkin). Jadvalda keltirilgan pedagogik texnikaning malakalari o'quvchilar o'quv-bi- luv faoliyatini tashkil etish va ma'lumotlarni o'zlashtirishga aniq yo'llash, topshiriqlarni aniq qo'llash va nazorat qilish, jamoa va ayrim shaxslar bilan ishlash munosabatida bo'la olish, savollar qo'ya bilish, o'z kayfiyati, hatti-harakati, emotsiyasini boshqara olish kabi usullardan o'rinli foydalanishda amaliy yordam ko'rsatishidan dalo- lat bermoqda. Chunonchi, texnika - usullar yig'indisi bo'lgani kabi, pedagogik texnika ham o'qishni o'rgatish, ta'sir ko'rsatish, o'rgan- ish, munosabat bildirishning ta'lim va tarbiya usullari yig'indisidir.

Olimlarning fikriga ko'ra o'qituvchi professiogrammasi o'qitu- vchiga ko'yiladigan maxsus talablarni o'z ichiga oladi hamda har bir fan o'qituvchisining alohida ixtisoslashgan xarakteristikasini belgilab beradi. Jumladan, ular umumta'lim maktablarda pedagogik faoliyat olib boradigan "O'qituvchi-murabbiy professiogrammasi"- da quyidagi xislatlar, ya'ni "Pedagogik texnika" malakalari mujas- samlashgan bo'lishini ta'kidlaydilar:

1) **O'qituvchining shaxsiy xislatlari:** bolalarni sevishi, kamtar- ligi, dilkashligi, mehnatsevarligi.

2) **Kasbiga xos bilim:** ta'lim va tarbiya jarayoni mohiyatini bilishi, pedagogik va psixologik bilim asoslarini egallashi, o'qu- vchsharning yosh xususiyatlariga asosan psixologik imkoniyatlarini anglashi, tarbiyaviy ta'sir ettirishning samarali usullardan oqilona foydalana olishi, ota-onalar va jamoatchilik bilan olib boradigan faoliyat mazmunini puxta bilishi.

3) **Kasbiga xos xislatlari:** milliy mafkura, umuminsoniy qadri- yatlarni, milliy an'ana va urf-odatlarining asl mohiyatini tushunishi, kuzatuvchanligi, pedagogik sobiliyatga egaligi, o'zini qo'lga ola bil- ishi, o'zini anglay olishi, pedagogik takt, nutqiy madaniyati.

4) **Shaxsiy pedagogik uddaburonligi:** dars mashg'ulotlarida zarur materiallarni tanlay olishi, o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqarishi, ta'lim-tarbiya jarayonini istiqbolli rejalashtirishi, o'quvchilar jamosini boshqara olishi.

5) **Tashkilotchi malakalari:** o'quvchilar jamoasini uyushtira bilishi, turli vaziyatlarda ham o'quvchilar jamoasini boshqarishi, amaliy muammolarni hal etishda uddaburonligini namoyish eta olishi.

6) **Kommunikativ malakalari:** o'quvchilarni o'ziga jalb etishni bilishi, o'quvchilar va ota-onalar bilan maqsadga muvofiq pedagogik muloqotlarni tashkil qilishi, o'quvchilarning jamoada o'zaro munosabatlarida bir xil muvozanatni tartibga solishi.

7) **Gnostik malakalari:** o'quvchilarning asab psixik taraqqiyoti darajasini aniqlay olishi, o'z pedagogik faolshti natijalarini tanqidiy tahlil qila olishi, ustoz o'quvchilar mahoratini nazariy va amaliy jihatdan o'rganib borishi, psixologik va pedagogik adabiyotlardan to'g'ri foydalana bilishi, o'quvchilar xulq-atvorini mukammal o'rganishi.

8) **Ijodiy xislatlari:** o'z pedagogik mahoratini doimiy takomillashtirib borishi, o'quvchilarni tarbiyalashda o'z dasturini ishlab chiqishi va uni muvaffaqiyatli amalga oshirishi, o'quvchilar nazari bilan voqelikni tahlil qilish qobiliyati, o'quvchilarga pedagogik ta'siri, natijalarini oldindan ko'ra olinga intilishi.

Psixolog olimlarning fikricha, ushbu professiogramma yosh o'quvchilarga o'zlarining kelgusida o'quvchilik kasbini to'g'ri va ongli ravishda tanlab, kasbiy mahoratlarini takomillashtirib borishlariga yordam beradi. Demak, o'quvchi professiogrammasi ham pedagogik texnikani egallashning muhim xususiyatlaridan biri bo'lib, o'quvchining o'z kasbiy texikasini mukammal egallab, rivojlantirib

borishiga va o'z kasbiy faoliyatidan qanoatlanishni his etishga olib keladi. Bularning barchasi o'quvchining tinimsiz pedagogik mehnati tufayli yuzaga keladi.

O'quvchining pedagogik texnikasi – pedagogik faoliyatining tashkiliy shakli bo'lib, qo'l bilan tutib bo'lmaydigan, behad uzocq ijodiy izlanishlar va azob uqubatlari kechimmalar, tinimsiz pedagogik faoliyat, o'quvchining fahm-farosat, bilim va mahorati bi-

lan amalga oshiriladigan qizg'in ijodiy mehnatning mahsulidir.

Bir maromda olib boriladigan tizimli ijodiy mashg'ulot tufayli aktyor yuksak cho'qqilarni egallaydi. O'zgarlar obrazini mujassamlashtirishda u ma'lum bir qolipdan aslo chiqib keta olmaydi. Demak har qanday ijodkorlik, hatto pedagogik ijodkorlik ham ma'lum bir belgilangan qolipda shakllanishi kerak. U o'quvchining ichki kechimmalari, tuygulari va hissiy reaksiyalari asosida qurilishi aslo mumkin emas. Chunki, tarbiyalash san'atida o'quvchining pedagogik texnikasi, ya'ni "bir

qolipda"gi mehnat madaniyati borki, u boshqa biror kasbiy faoliyatga aslo o'xshamaydi. Shuning uchun, respublikamizda tarbiyaviy texnologiyalarni muntazam bilishga intilish, o'quvchi kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini uzluksiz oshirib borish o'quvchining bir qolipdagi mehnat madaniyatini shakllantirishga, pedagogik texnika malakalarini doimiy oshirib borishga qaratilgan. Ta'kidlash joizki, hali biror o'quvchi oliy ta'lim muassasasini tugatib yoki malaka oshirish kurslarida bilim olib birdaniga pedagogik texnika sirlerini mukammal biladigan tajribali o'quvchi bo'lib qolgan yoki yo'q. O'quvchida pedagogik texnika ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatish jarayonida, o'quvchilar bilan yakkama - yakkamuloqot jarayonida, pedagogik amaliyotda shakllanib boradi.

Hozirgi kun talablari nungai nazariydan, o'quvchiga qo'yilayotgan javobgarlik hissi kengayib murakkablashib bormoqda. Mam-lakatimizda ta'lim-tarbiya sohasida olib borilayotgan islohotlarning yuksak natijalari bevosita o'quvchining qizg'in mehnati samarasiga bog'liq.

Vatanimizning portloq kelajagi uchun yosh avlodni har tomon-lama yetuk, komil inson qilib voyaga yetkazishda o'quvchining kasbiy bilimi, faoliyat texnikasi mutlaqo yangilanib, hozirgi zamon talablariga javob bera oladigan darajada bo'lishi kerak.

Pedagogik texnikam namoyon etishda o'quvchining tashqi ko'rinishi

O'quvchining tashqi ko'rinishi pedagogik texikasini namoyon etuvchi muhim xususiyatlaridan biridir. Har qanday insonning tashqi ko'rinishi atrofdagilarga estetik ma'no va zavq kasb etib, do-

imiy e'tiborda bo'lishini unutmash kerak. O'qituvchining tashqi ko'rinishini asosan namoyish etuvchi muhim xususiyatlari uning chehrasidagi mehribonlik, jiddiylik, yurishda bosiqlik, tabiiylikdir. O'qituvchi sinfga kirishi bilan so'zsiz o'quvchilar e'tiborida bo'ladi, ular bilan mulqotga kirishadi.

Sinf sahnasida bajarilayotgan uning xoh ijobiy, xoh salbiy xatti-harakatlari o'quvchilarga ta'sir o'tkaza boshlaydi. Ayniqsa, yosh o'qituvchi ilk bor darsga kirishidan oldin his-hayajonini, qo'rquvni yengishi, o'zini erkin tutishi, birinchi dars paytida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday muvaffaqiyatsizlikdan o'zini yo'qotmasligi lozim. O'qituvchining tashqi ko'rinishida, pedagogik texnikasi tizimidagi mimik, pantomimik holatlar muhim ahamiyatga ega. O'qituvchining xatti-harakatini bevosita namoyish etuvchi mimik va pantomimik ifodasi, o'qituvchining imo-ishorasida, ma'noli qarashlarida, rag'batlantiruvchi yoki ishtirok tabassumida namoyon bo'ladi va ular o'qituvchi-tarbiyachining pedagogik ta'sir ko'rsatishida, mashg'ulotlarni samarali va mazmunli o'tishida puxta zamin tayyorlab beradi.

Pedagogning mimik va pantomimik ifodasi

O'qituvchining pedagogik texnikasi tizimida mimik va pantomimik ifodalari ham muhim o'rin tutadi. Pedagogning mimik va pantomimik ifodasi, o'qituvchining imo-ishorasida, ma'noli qarashlarida, rag'batlantiruvchi yoki kinoyali tabassumida namoyon bo'ladi va ular o'qituvchi-tarbiyachining pedagogik ta'sir ko'rsatishida, o'qituvchi-o'quvchilarga mashg'ulotlarni ta'sirchan, qiziqarli, samarali va mazmunli o'tish uchun puxta zamin tayyorlab beradi.

Mimika - bu o'z fikrlarini, kayfiyati, holati, hissiyotini o'quvchi - o'quvchilar bajarayotgan ishdan roziligi yoki noroziligini bildirish maqsadida uchun yuz, qosh, ko'z muskullarini harakatga keltira olish san'atidir. Ba'zan yuzning va nigohning ifodasi o'quvchi-o'quvchilarga katta tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. Mimik harakatlar, ifodalalar ma'lumotlarning hissiy ahamiyatini kuchaytirib, ularni chuqur o'zlashtirish uchun imkon yaratadi.

O'quvchi - o'quvchilar o'qituvchiga qarab uning kayfiyatini, munosabatini "o'qib" oladilar. Shuning uchun uydagi ba'zi noxush-

liklar o'quv mashg'ulotlariga ta'sir ko'rsatadi.

Mimik ifodalar o'quvchi - o'quvchilarning o'quv kayfiyatiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmasligi kerak. Yuz ifodasida, mimik belgilarida faqat dars mashg'ulotlariga xos ta'sirini ko'rsata bilishi talab etiladi. Bu o'quv - tarbiya topshiriqlarini yechish o'quvchi-o'quvchilar ta'limi va tarbiyasiga ijobiy yo'nalish bera oladigan ko'rinishlarni ifodalashi lozim.

Yuz ifodasi, esa o'z navbatida nutq va munosabat xarakteriga mos bo'lishi kerak. U ishonch, ma'qullash, ta'qirlash, norozilik, qovonch, faxrlanish, qiziquvchanlik, befarqlik, iktilanish kabi xususiyatlarda ifodalanishi mumkin. Mimik ifodaning asosiy detali sifatida qayd qilinganidek qosh, ko'z, yuz ko'rinishi va muskullari ishtirok etadi. Ko'z, qosh, yuz o'quvchi-o'quvchilar javobidan qoniqish, xursand bo'lish, faxrlanish yoki e'tirof, norozilik, qoniqmaslik, xafa bo'lish va boshqa belgilarni ifodalasa, ta'lim oluvchilar diqqatini bo'lmasdan, boshqalarga xalaqit bermasdan ta'lim - tarbiya ishlari olib borish muvaffaqiyati kechadi. Shuni ham alohida e'tirof etish joizki, mimik ifodalar namoyish qilinayotgan paytda o'qituvchining nigohi o'quvchi-o'quvchilarga, yoki ayrim o'quvchilarga qaratilgan bo'lishi zarur. Doskaga, eshikka, derazaga, ko'rgazma qurollarga yoki devorga nigoh tashlab mimik ifodalarni namoyish qilishdan qochish lozim.

Pantomimika - bu gavda, qo'l,oyoq harakatidir. O'qituvchi darsda o'quv ma'lumotlarini bayon qilgan ekan, gavda holati orqali ma'lumotlarning obrazini chizadi, o'quvchi-o'quvchilar bundan zavqlanadilar, ichki his-tuyg'ulari, ularning tashqi hissiyotlari bilan qo'shilib butun borliq ma'lumotlar mazmunini o'zlashtirishga qaratiladi. Gavgani rost tutib yura bilish, fikrlarini aniq va to'liq bayon qila turib qo'l, boshni turli harakatlarga keltirish o'qituvchining o'z bilimiga, kuchiga ishonchini anglatadi. Shuni ham unutmash kerakki, o'qituvchi o'quvchilar oldida o'zini tuta bilsa, harakatlarni tartibga keltira olsa, o'quv-tarbiya jarayoni samarali bo'ladi. Ma'ruzada oyoqlar 12-15 sm. oraliqda bir oyoq sal oldinga surilgan holda turish bu o'qituvchining fanini mukammal bo'lishi, uni tushuntira olishiga ishoratdir. O'qituvchining ishoratlari ma'noli bo'lib, u ortiqcha harakatlardan xoli bo'lmog'i darkor. Masalan, keraksiz holatlarda qo'llari bilan imo-ishoralar qilish, boshini uyog'-buyoqqa

tashlash, oyoqlarini kerib o'tirish va h.k. Bunday holatlar o'quvchi-o'quvchilarning g'ashini keltiradi va o'quv faniga, o'quvchiga nisbatan hurmatsizlik his-tuyg'ularini uyg'otadi.

O'quvchi auditoriya (sinf)da yurgan paytida fagat oldin va orqaga qarab yurishi tavsiya etiladi. Chunki, agar u yon tomonlarga, ya'ni, u yondan, bu yonga yursa o'quvchilar fikri bo'linadi va ular tez charchab qoladilar. Old tomonga yurayotganida, o'quvchi eng muhim voqealarni bayon qilishi lozim, chunki bunda o'quvchilar o'quvchini butun diqqatlari bilan eshitayotgan bo'ladi. Yuzi talabalarga teskari holda yurayotganda uncha ahamiyatga mo'lik bo'lmagan fikrlarni aytish, dalillar keltirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki, bu vaqtda o'quvchi-o'quvchilar bir oz erkin holatda o'zlarini his qilayotgan bo'ladi.

O'z hissiyatini boshqara olish malakasi. O'quvchining pedagogik texnikasi tizimida o'z hatti-harakati, hissiyatini idora qilishi va ruhiy (psixik) holatini boshqara olishi ta'lim-tarbiya jarayoni uchun muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchi ta'sir ko'rsatish vaqtida (darsda, darsdan tashqari mashg'ulotlar paytida, tarbiyaviy ishlar jarayonida) o'z hissiyatini boshqara olishi, jiddiy bo'lishi, umidbaxshlik, hayrixohlik kayfiyatda bo'la olishi ham pedagogik texnika tizimining muhim elementidir. Buyuk rus pedagogi A.S. Makarenko aytganidek: «Tarbiyachi tashkil etishni, yurishni, hazillashishni, quvnoq, yoki jahldor bo'lishni bilishi lozim, U o'zini shunday tutishi kerakki, uning har bir harakati tarbiyalasin va o'qitsin». Bunday malakaga ega bo'lgan pedagog o'z-o'zini nazorat qila oladi, pedagogik faoliyati davomida sog'lom asab tizimini o'zida tarbiyalay oladi, asabiylashishdan, hissiy va aqliy zo'rqlashlardan o'zini asraydi.

O'z xatti - harakati, hissiy holatini nazorat qilishda pedagog, avvalo, o'zida quyidagilarni shakllantirishi lozim:

- xayrixohlik va optimizm ruhida bo'lish;
- o'z hujini nazorat qilish, (muskul zo'rqlashini, harakatini, nutq tempini, nafas olishini tartibga solish);
- faoliyatni dam oldirish, ya'ni lirik, musiqaviy, yumoristik, jismoniy daqiqalarni yaratish;

- o'z - o'ziga salbiy ta'sir ko'rsatishning oldini olish va h. k.

O'quvchining aktyorlik va rejissyorlik malakalari. O'qitish sa-

maradorligini oshirish va ijobiy tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish uchun o'quvchi pedagogik texnikasi tizimidan o'rin olgan yana bir malaka - bu o'quvchining aktyorlik va rejissyorlik malakasidir. Xususan, adabiyot, odobnoma, ma'naviyat asoslari, tarix o'quvchilari uchun aktyorlik malakasi nihoyatda zarur.

Ma'lum mavzular, obrazlar, tarixiy qahramonlarni tavsiflayotganda aktyorlik, o'quv ma'lumotlarini so'rash, o'quvchi-o'quvchilar faoliyatini tashkil etishda esa, o'quvchiga rejissyorlik malakalari zarur. Bu malakalar o'quvchiga yoshlar bilan muomala qilishda tarbiyalanuvchi - o'quvchilarning aql - idrokina emas, balki ularning his-tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatish, ularga olamga nisbatan hissiy - qadriyatli munosabatda bo'lish tajribasini o'zlashtirishga yordamlashadi.

Shunday qilib, o'quvchida yuqorida qayd etib o'tilgan pedagogik texnika ko'nikmalarini tarbiyalangan bo'lsa, u yoshlarni o'qitish, tarbiyalash, va ularni shaxs sifatida kamol topirish sohasida muvaffaqiyatga erishadi.

Ta'kidlanganidek shaxsiy-kasbiy malakalar o'quvchining ijtimoiy - gumanitar, ixtisoslik hamda maxsus fanlar bo'yicha bilimlarini boyitadi pedagogik mahoratni egallashga intilishni kuchaytiradi, o'z kasbiga qiziqish va burch, hamda ma'suliyatni his qilishni rivojlantiradi, bu malakalar yoshlarni o'qitish, tarbiyalash, tashkil qilish, targ'ibot qilish, mustaqil bilim olish ishlariga yordam beradi.

O'qitish samaradorligini oshirish va ijobiy tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish uchun o'quvchining harakatlarida aktyorlik va rejissyorlik malakalari ham muassamlashgan bo'lishi lozim. Xususan, gumanitar fanlar o'quvchilari aktyorlik qobiliyatiga ega bo'lish lozim. Ma'lum mavzular, obrazlar, tarixiy qahramonlar haqida bo'lganda aktyorlik, rejissyorlik malakalari zarur. Ular o'quvchilarga o'quvchilarning histuygulariga ta'sir ko'rsatishda, mavzu qahramonlariga nisbatan hissiyqadriyatli munosabatda bo'lish tajribasini o'zlashtirishga yordamlashadi.

Pedagogik texnika malakalari o'quvchining maxsus fanlar bo'yicha bilimlarni egallash, pedagogik mahoratini takomillashtirishga intilish, o'z kasbiga qiziqish, burch hamda mas'uliyatni his qilish asosida oshiriladi. Va ular yoshlarni o'qitish, tarbiyalash, tashkil qilish, targ'ibot qilish, mustaqil bilim olish ishlariga yordam beradi.

O'qituvchining tashqi ko'rinishida nutq texnikasi, his-tuygularini boshqara olish, mimik va pantomimik malakalar bir qolipda mukammal olib borilganda ko'zlangan maqsadga, albatta, erishiladi. Bunda so'z, gap ohangi, qarash, imo-ishoralar, kutilmagan pedagogik vaziyatlarda uddaburonlik, osoyistalik bilan ziddiyatdan chiqish, voqelikni oldindan ko'ra olish va adolatli tahlil qilishga asoslanish maqsadga muvofiqdir. Bu xususiyatlar o'qituvchining shaxsiy, individual psixik, fiziologik fazilatlariga asosida tarkib topadi. Pantomimik harakatlarni boshqarishda ham o'qituvchining individual pedagogik texnikasi, yoshi, jinsi, mijosi, fe'l-atvori, sihat-salomatligi va anatomik-fiziologik xususiyatlari muhim ahamiyatga ega.

O'qituvchi, avvalo, tarbiyachi sifatida o'zida yuqoridagi malakalarni shakllantirishi, ularning mazmunini chuqur o'zlashtirib, pedagogik texnikani egallashning imkoniyatlaridan foydalanishi kerak. Shunda u o'qituvchini pedagogik mahorat sari yetaklaydi. Shunday qilib, o'qituvchining tashqi ko'rinishi ham pedagogik texnikaning muhim xususiyatlaridan biri bo'lib - tarbiyalanuvchilarga ko'rib, eshitib turgan narsalarini erkin fikrlash orqali, o'z mulohazalarini mustaqil, cho'chimasdan o'qituvchiga yetkazish imkoniyatini beradi. "Tarbiyachi tashkili etishni, yurishni, hazilashishni, quvnoq yoki jahldor bo'lishni bilishi lozim, u o'zini shunday tutishi kerak, uning har bir harakati, yurishturishi, kiyinishi bolalarni tarbiyalasin", - deb yozgan edi tanqili pedagog A.S.Makarenko.

Pedagogik texnikani egallash mahorati

O'qituvchi pedagogik faoliyatida pedagogik texnikaning ko'nikma va malakalarini mukammal takomillashtirgan holda o'z mahoratini oshirish uchun quyidagi jarayonlarni bilishi lozim:

1. **O'qituvchi o'zlashtirishi lozim bo'lgan pedagogik texnikaning muhim tarkibiy qismlaridan biri uning nutq texnikasidir** (Nutq tempi, diktsiyasi, tovush ohangini baland, o'rta, past qila olishi va hokazo).

Dars jarayonida o'quv materiallarini idrok qilishda o'qituvchining nutqi muhim rol o'ynaydi. Olimlarning fikricha, o'quvchilar tomonidan 1 / 2 foiz o'quv materialini tafakkur orqali idrok qilish va o'zlashtirish o'qituvchining nutqiga va uning so'zlarni to'g'ri talaf-

fuz qilishiga bog'liq. O'quvchilar o'qituvchining nutqini nihoyatda ko'zlaydan ko'rib va qiziqish bilan tinglaydilar. Past ohangda gapirilgan o'qituvchining darsi o'quvchilar uchun zerikarli bo'ladi, nihoyatda baland gapirish, oddiy suhbat chog'ida ovozi baland qilib so'zlashish o'quvchilarni darsdan bezdiradi va charchatadi. O'quvchilarning bunday o'qituvchi ta'limidan ko'ngillari soviydi. Shuning uchun o'qituvchi savodli gapirishi, o'z nutqini chiroyli va tushunarli, ta'sirchan qilib bayon qilishi, o'z fikr va his-tuyg'ularini so'zda aniq ifodalash malakalariga ega bo'lishi lozim.

Chiroyli, savodli, ta'sirchan gapiruvchi o'qituvchilarning fikrlari o'quvchilar ongiga tez yetib boradi, o'quv materiallarini o'zlashtirib olishiga katta imkoniyat yaratadi, o'quvchilar bunday o'qituvchilarning darslarini toqatsizlik bilan kutadilar. O'qituvchilar o'z nutqlari ustida tinimsiz ishlashlari, so'zlarning chiroyli, ma'noli, ta'sirchan bo'lishi ustida mashq qilishlari, ovoz diapazonlari kuchi, nutq tem-brining

harakatchanligi, diktsiyasini doimo mashq qilib borishlari lozim. Ovoz diapozoni chegarasi baland yoki past galirish toni bilan belgilanadi. Diapozonning qisqarishi tovushning past tonligiga olib keladi. Past ohangda so'zlashish o'qituvchining idrokini bo'shashtiradi va susaytiradi.

O'qituvchi tovush diapazonini, uning tembrini bilan bog'lab ishlash, gaplari chiroyli, mayin, jozibali chiqib, tinglovchilarni o'ziga jalb etadi va o'quv materiallari mazmuni yanada yaxshi idrok qilinadi.

O'qituvchining ovozida so'zlarni aniq, to'g'ri, tiniq eshitarli va tushunarli bayon qilishida namoyon bo'ladi. To'g'ri va mukammal ovoz diktsiyasiga ega bo'lgan o'qituvchi so'zlarni ifodalay bayon qiladi. Ifodali gapirishda til, lab, kichik tilcha, pastki jag' ishtirok etadi. O'qituvchi ifodali gapirishi, so'zlarni talaffuz qilishi uchun yuqoridagi organlarni doimo mashq qildirishi lozim. Shunday qilib, pedagogik texnikada nutq malakalari muhim ahamiyat kasb etar ekan, o'qituvchi doimo gapirish tempi, ritmi, diktsiyasi, ovoz kuchi, diapazoni, harakatchanligi ustida mashq qilishi zarur, ushbu jarayon alohida bir faslga ko'rib chiqiladi.

2. **Pedagogik texnika malakalarini mukammal egallash uchun, avvalo, o'qituvchi o'z fanini, o'qitadigan predmetining boshqa fanlar**

bilan o'zaro aloqadorlikda bilishi, pedagogik va axborot texnologiyalarini, pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini davr taraqqiyoti darajasida o'zlashtirishi, kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalay oladigan bo'lishi zarur. Chunki pedagogik texnika o'qituvchining individual shaxsiy xususiyatlariga ham bog'liq. Har bir o'qituvchi o'z tafakkuriga, fikrlash qobiliyatiga, o'zining kasbiy yo'nalishi, kasbiy laboratoriyasiga ega bo'lishi kerak. Bu yo'nalish va laboratoriyani o'qituvchining o'zi mustaqil fikr yuritish, mustaqil bilim olish, pedagogik mahoratini oshirib borish orqali qo'lga kiritadi va mohir o'qituvchiga xos fazilatlarini tarbiyalaydi hamda kasbiy ideal sari harakat qiladi.

3. **Pedagogik texnika sirlarini mukammal bilish** o'qituvchining tashkiliy - metodik malakalarni egallashiga ham bog'liq. Bu malakalar zarur bilimlar bo'yicha ma'ruzalarni tinglash, maxsus adabiyotlarni o'qish orqali qo'lga kiritiladi. Tashkiliy-metodik malakalar aytilgan yo'l-yo'riqlar, ko'rsatmalarni o'zining individual kasbiy tajribasida sinab, ko'nikma hosil qilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tashkiliy-metodik malakalarning individual xususiyatlari, jamoa va guruh bo'lib ishlash, o'qish, faoliyat ko'rsatish asosida qurilgani ma'qul. Chunki guruh yoki jamoa bo'lib o'qish, ishlash har bir o'qituvchiga refleksiv qobiliyatlari asosida, o'zini boshqalar ko'zi bilan ko'rishni va baho berishni, faoliyatidagi nuqsonlarni seza bilishni, muomala va xulqatvorning yangi shakllarini izlab topish va sinash imkoniyatini beradi.

Bu esa o'z-o'zini bilish, o'z-o'zini tarbiyalash uchun asos bo'ladi va pedagogik vazifalarning yangi usullarini tekshirib ko'rish, nazariy masalalarini hal qilish uchun tajriba maydonini tashkil qilishga zamin yaratadi.

Demak, tashkiliy - metodik malakalarni egallashda guruh, jamoa faoliyati, mashg'ulotlar pedagogik texnika asoslarini egallash imkoniyatini beradi.

4. **Pedagogik texnikani bir maromda egallashda**, har bir o'qituvchining o'z individual dasturini ishlab chiqishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday dasturni tuzishdan oldin o'qituvchi o'zida pedagogik texnika malakalarini shakllanganligining boshlang'ich darajasini aniqlab olish zarur. Ya'ni, o'qituvchining dastlabki o'quv-tarbiya ishlaridagi natijalarida, nutq madaniyatining to'g'ri yoki noto'g'ri

qo'yilishida, harakatidagi mimik va pantomimik holatlarda ro'y beradigan nuqsonlar e'tirof etiladi. Bunda natija yaxshi bo'lsa, kelajakda pedagogik texnikani egallash ancha oson bo'ladi.

Ushbu faoliyat natijasida ko'nikma va malakalar yanada rivojlaniriladi. Individual dastur pedagogik texnika malakalarini egallamaydigan jihatlarni to'ldirish uchun xizmat qiladi. Bu dastur ma'lum mashqlar yoki mashqlar majmuini o'z ichiga oladi.

5. Shuni ham unutmaslik lozimki, pedagogik texnikani namoyish etishda **o'qituvchining umumiy madaniyati**, ma'naviy va estetik dunyoqarashi muhim o'rin tutadi. Agar o'qituvchining tashqi ko'rinishi qashshoq, so'zlarni talaffuz qilish qobiliyati past, estetik jihatdan omi, bo'lar - bo'lmas vokalarga nisbatan o'z hissiyotiga e'la beradigan bo'lsa, tarbiyalanuvchilarning e'tiqodiga, aql-idrokiga, bilish va anglash tafakkuriga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Demak, o'qituvchi o'zidagi ana shu nuqsonlarni qayta tarbiyalashi lozim.

Ta'kidlash joizki, pedagogik texnikaning ko'nikma va malakalarini egallash yo'llari to'g'risida bildirilgan fikrlarga e'tibor bermaslik, pedagogik faoliyat jarayonida ularning beqiyos ahamiyatiga yetarlicha baho bermaslik, shuningdek, pedagogik texnika malakalarini tanqid, har bir o'qituvchining individual xususiyatlarini hisobga olmay ish yuritish pedagogik mahoratni egallashga salbiy ta'sir ko'rsatadi va o'quv-tarbiya jarayonida o'qituvchining ta'lim-tarbiyaviy faoliyatida nuqsonlarning ko'payishiga olib keladi.

Pedagogik texnikani egallashning asosiy yo'llari o'qituvchining malaka oshirish kurslariga ishtiroki, ustoz murabbiylar rahbarligidagi mashg'ulotlar (ulardan pedagogik texnika sirlarini o'rganish) va mustaqil (kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash) ishlashdir. Pedagogik texnika ko'nikma va malakalarini egallash individual-shaxsiy salohiyat ekanligini hisobga olib, pedagogik texnikani egallashda va uni takomillashtirishda kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash, ya'ni talabali yillarida o'zida mohir o'qituvchining shaxsiy fazilatlarini va kasbiy malakalarini shakllantirishga qaratilgan faoliyat yetakchi rol o'ynaydi.

Tashkiliy-metodik jihatdan pedagogik texnika mashg'ulotlari individual, guruh yoki ketma-ketlikda o'tkaziladi.

Tegishli ko'nikmalarni ishlab chiqish, individual ishlashni dastlab o'qituvchining nazorati va rahbarligida, keyin esa mustaqil ish-

lash talab qiladi.

Pedagogik texnika malakalarini shakllantirishda o'qituvchining jamoada faoliyat olib borishi va mashg'ulotlarda o'z-o'zini nazorat qilishi alohida rol o'ynaydi. Pedagogik texnika mashg'ulotlarining bu shaklini ancha batafsilroq ochib berish maqsadga muvofiqdir, chunki uhozirga qadar o'qituvchilar uchun mo'ljallangan o'quv va metodik adabiyotlarda ma'lum darajada ko'rsatib berilmagan.

Har qanday jamoada, xoh o'qituvchilar, xoh o'quvchilar jamoasi bo'lsin, o'qituvchi ular oldida o'zini boshqa kishilar ko'zi bilan ko'rish, xulq-atvor va muomalaning yangi shakllarini izlashi va sinab ko'rish, o'zining jamoa bilan birga bajaradigan ishi xususiyatlarini anglashi va pedagogik faoliyatining individual uslublarini ongli ravishda shakllantirishi kerak.

Psixologlar pedagogik texnikaning keng imkoniyatlarini jamoa bo'lib o'rganishni, o'qituvchilar orasida bunday jamoalarning eng qulay miqdorini 10—14 kishidan iborat etib belgilashni ta'kidlab o'tadilar.

Qatnashchilarning xuddi shunday miqdori ulardan har birining boshqa o'qituvchilar bilan birga faoliyat olib borishda individual psixologik muammolarini juda to'liq ravishda aniqlab hal etish, refleksiv va empatik darajasini jiddiy oshirish, kasbiy pedagogik fahm-farosatini rivojlantirish, boshqalarga ta'sir etish vositalarining kengaytirish imkoniyatlarini ochib beradi.

Shu narsa muhimki, guruh qatnashchilari, bo'lajak o'qituvchilar kasbiy jihatdan birga shinash malakalarini egallashga faol intilishlari, o'z-o'zini bilish va kasbiy jihatdan o'z-o'zini tartiblash bo'yicha muvaffaqiyatli ish olib borishga psixologik jihatdan tayyor bo'lishlari kerak.

Barcha hollarda ham individual, ham guruhiy mashg'ulotlar boshlanishidan oldin pedagogik texnikani egallashning individual dasturi tuzib chiqilishi lozim. Bunday dasturni tuzish uchun avvalo pedagogik texnika malakalari shakllanishining boshlang'ich darajasini aniqlab olish zarur. Biroq, tajribalarning ko'rsatishicha, odatda, mazkur bosqichda faqat malakalar haqidagina emas, shu bilan birga, dastlab avtomatlashtirilgan (ta'limni boshlash vaqtiga kelib) ko'nikmalar haqida ham mulohazalar olib borish mumkin. Masalan, nafas olish va

ovoqning tabiiy yo'lga qo'yilishi, to'g'ri talaffuz, bundan oldingi tarbiyaning natijasi bo'lgan savodli, ifodali nutq, mimik va pantomimik aniqlik va boshqalar bo'lishi mumkin.

Bunday ko'nikmalarning mavjudligi pedagogik texnika malakalarini shakllantirishni ancha osonlashtiradi. Shunga qaramasdan, barcha hollarda ana shu ko'nikmalarni tegishli malakalar tarkibiga kiritish yuzasidan muayyan faoliyat olib borilishi zarur. Pedagogik texnika malakalarini shakllantirishning boshlang'ich darajasiga qarab uni egallashning individual dasturi yetishmaydigan malakalarni shakllantirishga qaratilgan ayrim mashqlarni yoki ularning to'liq majmuasini ishlab chiqish lozim.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalaridagi kasbiy tayyorgarlik jarayonida pedagogik texnikani egallash bo'lajak o'qituvchiga o'zining kasbiy yo'natishining boshlanishidayoq ko'pgina xatolardan xoli bo'lishda, talabalarga ta'lim-tarbiya berishning yuksak samaradorligiga erishishda yordam beradi.

Pedagogik texnika-pedagogik mahoratning tarkibiy qismi sifatida

Hozirgi zamon pedagogika fani pedagogik mahorat tizimida pedagogik texnikaning roli beqiyos deb qayd etadi. Chunki u o'qituvchiga o'z gavdasini tuta bilish (mimika, pantomimika), his-tuyg'ularini (emotsiyasini) boshqara olish, ishtiroq, qobiliyatlar, nutq texnikasini egallash va ularni o'quv faoliyatida, o'qishdan tashqari ishlar jarayonida qo'llash yo'llarini tushuntirishda dasturamal bo'lib xizmat ko'rsatadi.

Demak, pedagogik texnika shunday kasbiy va shaxsiy malakalar yig'indisidirki, u o'qituvchining pedagogik faoliyatini yo'lga qo'yish, o'quvchi - yoshlarga ta'sir ko'rsatish, tashkil qilish va boshqarishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Ilg'or va novator pedagoglarning ish tajribalarini kuzatish ilg'or tajriba maktablari faoliyatini o'rganish shundan dalolat bermoqdaki, pedagogik texnikani to'liq egallash, uning malakalarini o'zida shakllantirish ta'lim - tarbiya samaradorligini oshirishga, o'quvchi-yoshlar tarbiyalanganligini yuksaltirishga va shu asosda pedagogik mahorat pillapoyalari sari ko'tarilishga sabab bo'ladi.

Respublikamiz va xorijda pedagogik - psixologik ta'limot tizimida pedagogik mahorat nazariyasini o'rganuvchi va tadqiq qiluvchi olimlarning fikriga ko'ra pedagogik texnika malakalari pedagogik mahoratni takomillashtirish uchun o'ta muhimdir.

O'qituvchining pedagogik faoliyat madaniyati tizimida pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari pedagogik texnika, pedagogik odob, pedagogik mulotot madaniyatining roli katta ekanligi e'tirof etilgan.

L.I. Ruvinskiy o'qituvchining pedagogik mahorati tizimida pedagogik texnikaning alohida ahamiyatga ega ekanligini qayd qilarkan, shunday yozadi: "O'qituvchining pedagogik texnikasi - bu shunday bir malakalar yig'indisidirki, u pedagogga tarbiyalanuvchilar ko'rib va eshitib turgan narsalar orqali ularga o'z fikrlari va qaribini yetkazish imkonini beradi".

N.N. Tarasevich esa o'zining "Pedagogicheskaya texnika - kak element" nomli risolasida pedagogik texnika to'g'risida fikr yuritarkan, shunday deydi: O'qituvchi faoliyatining ichki va tashqi ko'rinishlarini izohlaydigan usullar, hissiyotlar, psixik holatlar yig'indisi-dan iborat mahorat - pedagogik texnikadir".

Darhaqiqat usta pedagogik topshiriqlarni oliy darajada bajaradigan pedagoglar faoliyatini kuzatish shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar bilish faoliyatlarini tashkil etish va ularga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda pedagogik texnika muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, u o'qituvchiga o'z g'avdasini tuta bilish his-tuyg'ulari (emotsiyasi) ni boshqara olish, ishtiroq, qobiliyatlar, nutq texikasini egallash va ularni o'quv faoliyatida, ishlash jarayonida qo'llash yo'llarini o'rgatadi.

Shunday qilib, pedagogik texnika ma'lum kasbiy va shaxsiy malakalar yig'indisidirki, u o'qituvchining pedagogik faoliyati jarayonida ta'sir ko'rsatish, o'quv - tarbiya ishlarini tashkil qilish va boshqarishda yetakchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Pedagogik mahorat nazariyasini o'rganuvchi va tadqiq qiluvchi olimlar (N.N. Tarasevich, N.V. Kuxarev)ning fikrlaricha pedagogik texnika malakalari ikki guruhga bo'linadi:

Birinchi guruh malakalariga pedagogning nutq texikasi o'z hatti-harakatini idora qilishi, mimik va pantomimik ifodalari, o'z hissiyoti, hamda kayfiyatini boshqarishi, aktyorlik va rejissyorlik

mahorati kabilar kiradi.

Pedagogik texnikaning ikkinchi guruhidagi malakalari kasb-kor malakalaridan iborat bo'lib, ularga gnostik malakalar, loyihalovchi malakalar, konstruktiv (jamoaning ijodiy ishlarini tashkil eta olish), o'quvchi - o'quvchilarni tarbiyalash, o'qitishdagi kasb-korlik malakalari kiradi.

Pedagogik texnikaning malakalari o'quvchilar o'quv-biluv faoliyatini tashkil etish va ma'lumotlarni o'zlashtirishga aniq yo'llash, topshiriqlarni aniq qo'llash va nazorat qilish, jamoa va ayrim shaxslar bilan ishchi munosabatda bo'la olish, savollar qo'ya bilish, o'z kayfiyati, hatti-harakati, emotsiyasini boshqara olish kabi usullardan o'rindi foydalanishda amaliy yordam ko'rsatishdan dalolat bermoqda. Chunonchi, texnika - usullar yig'indisi bo'lgani kabi, pedagogik texnika ham o'qishni o'rgatish, ta'sir ko'rsatish, o'rganish, munosabat bildirishning ta'lim va tarbiya usullari yig'indisidir.

Ma'lumki, insonlar hayotida nutq katta ahamiyatga ega. Nutq kishilarning bir-birlariga ta'sir etishning qudratli vositasi sifatida insonni ishontirishi, mehnatga, g'alabaga chorlashi, yomon yo'ldan qaytarishi, quvontirishi yoki jabhni chiqarish va hatto o'ldirishi ham mumkin.

O'qituvchi faoliyatida ham nutq juda muhim ahamiyat kasb etib, u ta'limiy - tarbiyaviy funksiyalarni bajaradi. O'quvchilar o'qituvchi nutqi orqali bilim, fikr, ishonchga ega bo'ladi. Muayyan his-tuyg'ularni tushunib, o'z faoliyatlarini shu nutqda bayon ettirganlari asosida tashkil etadilar.

Nutqning fiziologik asoslari I.P. Pavlov tomonidan izohlab berilganligi sababli ham biz sezgilarimiz, idrokimiz va tasavvurimizni atrofmizdagi tashqi dunyoning birinchi signallari deb bilamiz; nutq va tafakkur esa, ikkinchi signal sistemasini tashkil etadi. So'z voqe-likdagi narsa va hodisalarni idrok qilish, ular to'g'risida tasavvurlar hosil qilishdan iborat bo'lgan bevosita signallarining signalidir.

"Insonda, - deb yozadi I.P. Pavlov, - talaffuz etiladigan, eshtiladigan va ko'rinadigan so'z sifatida ikkinchi darajali signallar paydo bo'ladi, tarqagiy etdi va takomillashadi. Bu yangi signallar sistemasi horib-borib insonlar tashqi va o'z ichki dunyosidan bevosita qabul qiladigan, butun taassurotlarni belgilaydigan bo'lib qoldi..."

Bilamizki, o'zgalarga qaratilgan nutq og'zaki va yozma bo'li-

shi mumkin. Nutqning bu ikkala ko'rinishi bir-biriga uzviy bog'liq bo'lib, biri ikkinchisini to'ldiradi. Ba'zan og'zaki nutqni yaxshi o'zlashtira olgan odam o'z fikrini yozma nutqda yomon bayon etishi yoki aksincha yozma nutqni yaxshi egallagan odam fikrini og'zaki nutqda aniq bayon eta olmasligi ham mumkin. O'qituvchining nutqi o'quvchilarga ma'lumotlarni qanday tarzda o'rgatishi bilan xarakterlanadi, shuning uchun u boshqa nutqlar kabi tuzilavermaydi. Ammo, faqat pedagogga xos nutgina muayyan belgilarga ega bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham har bir odam nutqining o'ziga xos xususiyatlari bo'ladi.

O'qituvchilarning o'quvchilarga o'quv materiallarini tushuntirishi, ular bilan subbatlar olib borishga qarab quyidagi xususiyatlarni ko'rsatish mumkin:

Tajribaning ko'rsatishicha o'quv materiallarini idrok qilishda o'qituvchining nutqi asosiy rol o'ynaydi. Olimlarning fikricha o'quv materialining 1/2 foizi o'qituvchi nutqining to'g'ri talaffuz qilishi orqali idrok qilinadi va o'zlashtiriladi. O'quvchilar o'qituvchining fikrlarini, nutqini nihoyatda kuzatuvchanlik bilan kuzatadilar. Mabodo, o'qituvchi so'zlarni noto'g'ri talaffuz etsa, o'quvchilar uning ustidan kulib, masxara qilib yuradilar. Ammo, past ohangda gapiradigan o'qituvchining darsi esa, o'quvchilar uchun hamma vaqt zerikari bo'ladi.

Nihoyatda baland gapirish, oddiy subbat chog'ida qichqirib so'zlashish, o'quvchilarni charchatadi va bezdiradi. O'quvchilarning bunday o'qituvchi ta'limidan ko'ngillari soviydi. Shuning uchun o'qituvchi savodli gapirishi, o'z nutqini chiroyli va tushunarli, ta'sirchan qilib bayon qilishi, fikr va his-tuyg'ularini so'zida aniq ifodalash malakalariga ega bo'lishi lozim.

Chiroyli, savodli, ta'sirchan gapiruvchi o'qituvchilarning fikrlari o'quvchi-o'quvchilar ongiga tez yetib boradi va o'quv materiallarini o'zlashtirib olishga katta imkoniyat yaratadi, o'quvchi-o'quvchilar bunday o'qituvchilar darslarini toqatsizlik bilan kutadilar.

Shuning uchun, o'qituvchilar o'z nutqlari ustida tinmay ishlashlari, so'zlarining chiroyli, ma'noli, ta'sirchan bo'lishi ustida mashq qilishlari, ovoz diapozonlari, kuchi, tembr, harakatchanligi, diktsiyasini doimo tarbiyalab borishlari lozim.

Ovoz diapozoni deganda biz tovush hajmini tushunamiz. Uning

chegarasi baland yoki past, gapirishi tovushning tez yoki sekinligi bilan belgilanadi. Diapozonning qisqarishi tovushning past tonliligi olib keladi. Past ohangda so'zlashish idrokni bo'shashtiradi va susaytiradi.

Tembr-tovushning go'zalligi, tiniqligi va chiroyliligidir. O'qituvchi tovush diapozonini, uning tembr bilan bog'lab ishlatsa, gaplari chiroyli, aniq, mayim, jozibali chiqib, ta'lim oluvchilarni o'ziga tortadi, oqibatda o'quv materiallari o'quvchilar tomonidan yaxshi idrok qilinadi.

O'qituvchining ovoz diktsiyasi esa nutqida so'zlari aniq, to'g'ri, eshitari va tushunari bayon qilishi bilan ifodalanadi. To'g'ri ovoz diktsiyasiga ega bo'lgan o'qituvchi so'zlarni aniq, to'g'ri va ifodali bayon qiladi. Ifodali gapirishda til, lab, kichik tilcha, pastki jag' ishtirok etadi. O'qituvchi ifodali gapirishi, so'zlarni talaffuz qilishi uchun yuqoridagi organlarni doimo mashq qildirishi lozim.

O'qituvchining nutqi muayyan mazmunga ega bo'lganligi sababli bolalarning his - tuyg'ularni uyg'otibgina qolmay, balki uni to'g'ri ifodalash, so'zlarni aniq, burro talaffuz qilishi bilan ham ta'sirchan bo'ladi. Lekin eng muhimi, bayon etiladigan ma'lumotga o'qituvchining o'zi yaxshi qiziqishi va uning o'zida ham samimiy his-tuyg'u hosil bo'lishi kerak.

Ayrim o'qituvchilarda esa nutq ancha ohista, ta'sirsiz, kam ifodali, qat'iy izchillikka rioya qilmagan holda, dalilsiz va mantiqsiz bo'ladi. Bunday nutqda bayon qilingan o'quv ma'lumoti o'quvchilar tomonidan past va bo'sh o'zlashtiriladi, uning tarbiyaviy ta'siri ham past bo'ladi.

Shunday qilib, pedagogik texnikada nutq malakalari muhim ahamiyat kasb etar ekan, o'qituvchi doimo gapirish tempi, ritmi, diktsiyasi, ovoz kuchi, diapozoni, harakatchanligi ustida mashq qilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Pedagogik ta'limning ta'kidlashicha, yuqorida qayd qilib va tashriflab o'tilgan pedagogik texnika malakalari yakka holda emas, yaxlit tarzda qo'llanilsa, kutilgan maqsadga erishiladi. Masalan, nutq texnikasi, his-tuyg'u, mimik, pantomimik malakalar bilan bog'liqlikda amalga oshirilsa bunda so'z, gap ohangi, qarash, imo-ishora bilan to'ldiriladi va kutilmagan pedagogik vaziyatda osoyishalik

bilan fikr yuritish, holatini erkin tahlil qilishga muvaffaq bo'linadi. Bu xususiyatlar pedagogning individual psixik, fiziologik fazilatlarini asosida tarkib topadi. Individual pedagogik texnika o'qituvchining yoshi, jinsi, mijosi, fe'l - atvori, sihat - salomatligi va anatomik - fiziologik xususiyatiga bog'liq holda rivojlanib boradi.

Shunday qilib, o'qituvchi-tarbiyachi o'zida shaxsiy-kasbiy malakalarni tarbiyalashi, ularning mazmunini mukammal o'zlashtirishi talab etiladi. Bu pedagogik texnikani egallashning muhim sharti bo'lib, u o'qituvchini pedagogik mahorat sari yetaklaydi.

Pedagogik mahorat tizimida pedagogik texnikaning yana bir malakalar tizimi shakllangan, ularsiz o'quv-tarbiya jarayonini qurish, amalga oshirish o'qitish va tarbiyalash samaradorligini oshirish mushkul. Bu malakalar pedagogik nazariya va amaliyotda kasb-kor malakalari nomini olgan. Tajribaning ko'rsatishiga kasb-korlik malakalari ta'lim oluvchilarning o'qish-o'rganish jarayonidagi faolligini oshirishga, mashg'ulotlarda o'quvchi-o'quvchilar uchun jonli, ishtidan muhimni yaratishga, axborotlarni o'qituvchi tomonidan jonli, ta'sirchan bayon etish mikromuhitini yaratishda, informatsiyalarni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirishni aniq prognoz qilishga ko'maklashadi. Pedagogika fanlari doktori, professor N.V.Kuxarevning yozishicha bu malakalar **konstruktiv-modellashiruvchi (konstruktiv-lotinch "konstruktis" so'zidan olingan bo'lib-qurish, tuzish degan ma'noni bildiradi)**, malakalar bo'lib, ular gnostik, loyihalovchi, konstruktiv malakalardan tarkib topgan.

I. Gnostik malakalar:

1. O'quv materialidan muhimini, asosiyalarini ajratish.

2. O'quv ma'lumotlarini tizimlashtirish.

3. O'quv qo'llanmasiga qo'shimcha manbalar (tushuntirish, javob berish jarayoni uchun) tanlash.

4. O'quv predmetiga doir ko'rsatma qurollarni mustaqil tayyorlash va bu ishga o'quvchilarni keng jalb qilish (o'quv materialining mantiqiy tarkibini tushunsin: ko'rsatmani qurol tayyorlash yo'llarini egallasin va h.k.)

5. Bayon qilingan dalillarga munosabat bildirgan holda mantiqiy bog'langan matn tuzish; asoslash uchun qo'shimcha ma'lumotlar keltirish, taqqoslash yo'li bilan ma'lumotning mazmunini ochib berish; xulosa chiqarish, dalil keltirish va voqea hodisalarga shaxsiy

munosabat bildirish.

II. **Loyihalovchi malakalar:**

6. Yangi ma'lumotlarni o'rganish bilan bog'liq savollarni ifodalash va ularga javob izlash rejasini tuzish.

7. Bilish xarakteridagi masalani mustaqil ifodalash va uni isbotlash uslubini topish.

8. Izlanish xarakteridagi masalani hal qilish jarayonida oddiy tadqiqot ishlarini olib borish: kuzatish, farazni ilgari surish, umumlashtirishni amalga oshirish va h.k.

III. **Konstruktiv malakalar:**

9. Ko'rsatmani vositalarda savollarni mustaqil ifodalash va o'quvchilarni bu savollarga javoblarni asoslashga undash.

10. O'rganilgan ma'lumotning amaliy tarkibiga doir malakalarni mustaqil ifodalash va ularni hal qilish.

Bu kasb-korlik malakalar o'qituvchining o'quv va maxsus fanlar bo'yicha bilimlari, pedagogik mahoratini egallashga intilishi, o'z kasbiga qiziqishi, burch va ma'suliyatni his qilishi asosida egallanadi. Ular yoshlarni o'qitish, tarbiyalash, tashkil qilish, targ'ibot qilish, mustaqil bilim olish ishlariga amaliy yordam beradi.

O'qituvchining kasb-kor malakalari shaxsiy-kasbiy malakalarini inobatga olgan holda, o'zaro bog'liqlik va yaxitlikda qo'llaniladi. Shunda o'qituvchi pedagogik texnikasining shakllanishi va takomillashuvi uchun sharoit yaratiladi. Bu malakalar hamkorlikda va hamohanglikda ta'lim-tarbiya ishlarini yaxshilash, o'quvchilarning bilimdonligi, kasbiy tayyorgarligini yuksaltirish, hamda barkamol inson shaxsini to'laqonli qilib tarbiyalash uchun imkon tug'diradi.

Shu o'rinda alohida qayd etib o'tish lozimki, o'qituvchi pedagogik malakalarni egallab, uning ustasi bo'lishi uchun pedagogik texnikani egallash yo'llarini bilishi ham kerak. Endi esa, pedagogik texnikani egallash yo'llarini ko'rib chiqamiz.

Pedagogik texnikani egallash yo'llari. Pedagogik texnikani egallash uchun avvalo, o'qituvchi o'z fanini, o'qitadigan predmetini, pedagogika (tarbiyashunoslik), psixologiya (ruhshunoslik), metodika fanlarini davr taraqqiyoti darajasida bilishi, muntazam ravishda ilg'or tajribalarni o'rganib borishi, kasbiy-pedagogik jihatdan o'z-o'zini tarbiyalashi zarur bo'ladi. Chunki, pedagogik texnika individual shaxsiy xususiyatga ega. Har bir o'qituvchi, har bir

pedagog o'zining kasbiy-pedagogik faoliyat yo'nalishi va kasbiy laboratoriyasiga egadir. Bu yo'nalish va laboratoriya o'qituvchiga mustaqil fikr yuritish, mustaqil bilim olish, o'z faoliyatini mustaqil tahlil qilib, o'z-o'ziga baho berishga undaydi. Mohir o'qituvchiga xos bo'lgan bu malakalar o'qituvchi – tarbiyachini kasbiy ideallik sari yetaklaydi. Pedagogik texnikani egallashning birinchi yo'li shudir.

Pedagogik texnikani egallashning ikkinchi yo'li o'qituvchining tashkiliy - metodik malakalarni egallashi bilan bog'liq. Bu malakalar zarur fanlar bo'yicha ma'ruzalar tinglash, axborot – kommunikativ texnologiyalar, jahon hamjihatligidagi ma'lumotlardan xabardorlikni va maxsus adabiyotlarni o'qishni taqozo qiladi. Tashkiliy-metodik malakalar aytilgan yo'l-yo'riqlar, ko'rsatmalarni o'zining individual kasbiy tajribasida sinab, ko'nikma hosil qilgan taqdirda maqsadga muvofiq bo'ladi. Tashkiliy-metodik malakalarning individual xususiyatlari, jamoa va guruh bo'lib ishlash, o'qish, faoliyat ko'rsatish asosida qurilgan ma'qul. Chunki, guruh yoki jamoa bo'lib o'qish, ishlash har bir pedagogga o'zini boshqalar ko'zi bilan ko'rishni, faoliyatidagi nuqsonlarni seza bilishni, muomala va hulq-atvorni yangi shakllarni izlab topish va sinash imkonini beradi. Bu esa o'z-o'zini bilish, o'z-o'zini tarbiyalash uchun asos bo'ladi va pedagogik g'oyalarning yangi usullarini tekshirib ko'rish, nazariy masalalarni hal qilish uchun tajriba maydoni bo'lib xizmat qiladi. Demak, tashkiliy - metodik malakalarni egallashda guruh, jamoa faoliyati, mustaqil ishlash mashg'ulotlari pedagogik texnika asoslarini egallash uchun imkon beradi.

Pedagogik texnikani egallashning uchinchi yo'li – bu har bir pedagogning individual-shaxsiy dasturini ishlab chiqish bilan bog'liq. Bunday dasturni tuzishdan oldin pedagogik texnika malakalari shakllanganligining boshlang'ich darajasini aniqlab olish zarur. Ya'ni pedagogning dastlabki o'quv-tarbiya ishlardagi natija, o'qituvchining nutq madaniyatining to'g'ri yoki noto'g'ri tashkil etilganligi, mimik va pantomimik aniqliklar va h. k. Bunda dastlabki tajribaning natijasi yaxshi bo'lsa, kelajakda pedagogik texnikani egallash ancha oson kechadi.

Chunki, individual dastur ko'nikma va malakalar faoliyat davomida rivojlaniradi, pedagogik texnika malakalarining yetishmav-

algan mexanizmlari to'ldiriladi. Shuning uchun bu dastur ma'lum mashqlar yoki mashqlar majmuidan iborat bo'ladi.

Shuni nazardan chiqarib o'tirib, pedagogik jarayonda pedagogning umumiy madaniyati, ma'naviy va estetik dunyoqarashi ham muhim o'rin tutadi. Agar o'qituvchining nutqi qashshoq, so'zlarni talaffuz qilish qobiliyati past, estetik jihatdan omi, jahldor bo'lar bo'lmagana hissiyotiga e'k beradigan bo'lsa tarbiyalanuvchilarning e'tiqodiga, aql-idrokiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Demak, o'qituvchi o'zidagi ana shu nuqsonlarni qayta tarbiyalashga to'g'ri keladi. Bu pedagogik texnikani egallashning to'rtinchi yo'lidir.

Shunday qilib, pedagogik texnika, uning shaxsiy-kasbiy, kasb-kor malakalari, uni egallash yo'llaridan xabarsizlik yoki ularga e'tiborsizlik, shuningdek pedagogik faoliyat jarayonida ularning mavqei ga yetarli baho bermaslik shuningdek, pedagogik texnika malakalarini tanqid, har bir pedagogning individual xususiyatlarini inobatga olmay ish yuritish pedagogik mahorati egallashga salbiy ta'sir ko'rsatadi va o'quv-tarbiya ishidagi nuqsonlarning ko'payishiga olib keladi.

Pedagogik texnikani egallashning asosiy yo'llari mutaxassis rahbarligidagi mashg'ulotlar (pedagogik texnikani o'rganish) va mustaqil ishlash (kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash)dan iborat. Pedagogik texnika malakalarining individual-shaxsiy ko'rinishda ekanligini hisobga olib, pedagogik texnikani egallashda va uni takomillashtirishda kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash, ya'ni bo'lajak o'qituvchi o'quvchining o'zida mohir pedagog shaxsiy fazilatlarini va kasbiy malakalarini shakllantirishga qaratilgan faoliyat yetakchi rol o'ynaydi, deb aytish mumkin. Kasbiy ideal sari intilayotgan har bir o'qituvchi – tarbiyachiga bu harakatda ham pedagogik texnikani egallash muhim omil bo'lib qolaveradi.

Tashkiliy-metodik jihatdan tashkil etiladigan pedagogik texnikani egallash mashg'ulotlari individual, guruh yoki ketma-ketlikda o'tkazilishi ham mumkin. Masalan, zarur bilimlar ma'ruzalarda yoki tegishli adabiyotni (xususan, muayyan qo'llanmani) mustaqil o'qish orqali egallanadi. Avtomatlashtirishga doir ayrim oddiy harakatlarni (turli artikulyatsiya, fonetik nafas olish usullari, relaksatsiya usullari va shu kabilar) ketma-ket ko'rsatilishi darkor.

Pedagogik texnika malakalarini shakllantirishda guruhviy ish olib

borish alohida ahamiyatga ega. Xuddi shunday faoliyat jarayonida pedagog oldida o'zini boshqa kishilar ko'zi bilan ko'rish, hulq-atvor va muomalaning yangi shakllarini izlab topish va sinab ko'rish, o'zining o'ziga kasbdoshlar bilan birga amalga oshiradigan faoliyat xususiyatlarini anglash va pedagogik ishning individual uslubini o'ngi ravishda shakllantirish imkoniyati paydo bo'ladi. Guruhiy faoliyatda shaxsning o'z-o'zini bilishi va o'z-o'zini tarbiyalash laboratoriyasi, pedagogik vazifalarni hal qilishning yangi usullari tekshirib ko'riladigan, nazariy masalalar muhokama qilinadigan tajriba maydoni uchun shart-sharoitlar yaratiladi.

Psixologlar pedagogik texnikani guruh bo'lib o'rgatish, rahbarlarning tajriba ishida bunday guruhlarning eng qulay miqdori 10—14 kishidan iborat bo'lishi kerak deb ta'kidlaydilar.

Qatnashchilarning xuddi shunday miqdori ularning har biriga boshqa kishilar bilan birga ishlashning individual psixologik muammolarini to'liq ravishda aniqlab, hal etish, refleksiya va empatiya darajasini jiddiy oshirish, pedagogik fahm-farosatni rivojlantirish, boshqalarga ta'sir etish vositalarini kengaytirish imkonini beradi.

Shu narsa muhimki, guruh qatnashchilari, bo'lajak pedagoglar kasbiy jihatdan birga ishlash malakalarini egallashga faol intilishlari, o'z-o'zini bilish va kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash bo'yicha mukammal ish olib borishga psixologik jihatdan tayyor bo'lishlari kerak.

Barcha hollarda, chunonchi ham individual, ham guruhiy mashg'ulotlar boshlanishidan oldin pedagogik texnikani egallashning individual dasturi tuzib chiqilishi maqsadga muvofiq. Bunday dasturni tuzish uchun avvalo pedagogik texnika malakalari shakllanishining boshlang'ich daraja-sini aniqlab olish darkor. Biroq, tajribaning ko'rsatishicha, odatda, mazkur bosqichda faqat malakalar haqidagina emas, balki avtomatlashirilgan (ta'limni boshlash vaqtiga kelib) ko'nikmalar haqida ham fikr yuritish kerak. Bular, masalan, nafas olish va ovoznining tabiiy yo'lga qo'yilishi, to'g'ri talaffuz, savodli, ifodali nutq, mimik va pantomimik aniqlik va boshqalardan iborat bo'lishi mumkin. Bunday ko'nikmalarning mavjudligi pedagogik texnika malakalarini shakllantirishni ancha osonlashtiradi. Shunga qaramasdan barcha hollarda ana shu ko'nikmalarni tegishli malakalar tarkibiga kiritish yuzasidan muayyan ish

olib borilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda pedagogik texnika malakalarini shakllantirishning boshlang'ich darajasiga qarab uni egallashning individual dasturi yetishmaydigan malakalarni shakllantirishga qaratilgan ayrim mashqlarni yoki ularning to'liq majmuidi ishlab chiqish mumkin bo'ladi.

Pedagogik texnika shakllantirish va takomillashtirish to'g'risida aytilgan fikrlarga e'tibor qilmalik, shuningdek pedagogik faoliyatda ularning mazmuniga yetarli baho bermaslik pedagogik texnikani egallashni qiyinlashtiradi va buning oqibatida individual pedagogik texnikani tanqidiy tahlil qilish uni takomillashtirish yuzasidan aniq maqsadga qaratilgan ishning yo'qligidan dalolat beradi.

Oliy o'quv yurtidagi kasbiy tayyorgarlik jarayonida pedagogik texnikani egallash bo'lajak o'qituvchiga o'zining kasb yo'nalishining boshlanishidayoq ko'pgina xatolardan holi bo'lishda, o'quvchi o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishning yuksak samaradorligiga erishishda yordam beradi.

Muammoli savollar:

1. Pedagogik mahorat nima?
2. Pedagogik mahoratni oshirishda bilim va ma'lumotlarning mazmuni nimalardan iborat?
3. Fanning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
4. Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari nimalardan iborat?
5. Pedagogik texnika qanday malakalarni o'z ichiga oladi?
6. Pedagogik texnika o'quvchi faoliyatida qanday rol o'ynaydi?
7. Pedagogik mahorat va pedagogik faoliyatning mazmuni nimalardan iborat?
8. Pedagogik mahoratni takomillashtirish tamoyillariga izoh berilg.
9. Ijtimoiy pedagogik mahorat deganda nimani tushunasiz?
10. Pedagogik mahoratning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
11. Agar tarbiya-san'at bo'lsa, uni o'rganish va o'rgatish mumkinmi?
12. Pedagogik mahorat — tajribami? Malakami? Yoki boshqa narsami?
13. Pedagogik texnika bilan pedagogik mahorat qanday nisbatda

bo'ladimi?

14. Mohir o'qituvchilarning tarbiyaviy ish tajribasi nimalarda yordam berishi mumkin?

15. Har qanday holda ham yaroqli bo'lgan hammabop tarbiyaviy vositalar bormi? Agar yo'q bo'lsa, nima uchun?

16. O'qituvchi nima sababdan tadqiqot ishi bilan shug'ullanishi kerak?

17. Pedagogik texnikani egallashda aynan guruhda ish olib borishning roli nima uchun katta?

Mustaqil ish uchun topshiriqlar

1. "Pedagogik mahorat" fanini boshqa turdagi fanlar bilan taxlil qilib, uning mazmuni va mohiyatini dalillar orqali ochib bering.
2. "Pedagogik mahorat" fanini o'qitish - davr talabi deganda nimaning tushunasiz? Misollar bilan izohlab bering.
3. Guruhlarga bo'linib, o'qituvchining kasbiy sifatlariga birma-bir tavsif bering.
4. "Pedagogik mahorat"ning tarkibiy qismlarini ochib bering.
5. O'qituvchi pedagogik texnikasining har bir qismlariga izoh bering.
6. O'zingiz xoxlagan pedagogik vaziyatni tanlab, mimika va pantomimika orqali tushuntiring.

8-MAVZU. NUTQ TEXNIKASI VA NOTIQLIK MADANIYATI

Muloqot jarayonida axborot almashish vazifasining hal qilinishi quyidagi

vositalar asosida ro'y beradi:

- 1) nutq;
- 2) paralingvistik (yun. "para" - "yaqin", muloqot tarkibida so'z, g'oyaviy ma'lumotlarni so'zsiz vositalar bilan birgalikda uzatilishi) va ekstralingvistik (ing. "exterior" - "tashqarida", nemischa "linguistik" - gapirayotgan shaxsning ijtimoiy vazifalari bilan bevosita bog'liq holda nutqning tashkil etilishi - nutqiy tanaffuslar, kulgu,

yo'talish, nafas olish, yig'lash, tutilish va b.) tizimlar;

3) muloqotning tashkiliy ko'lam va vaqti;

4) ko'z qarashlar yordamida tashkil etiladigan aloqa;

5) belgilarning optik-kinetik tizimi (mimika, pantomimika, jestlar - qo'l va oyoq harakatlari).

Nutqning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish uchun, nutq texnikasiga oid talablarni bilish lozim. Bu talablar nutqning mantiq jihatidan to'g'ri, aniq, chiroyli, yorqin va maqsadga muvofiq bo'lishidir. Nutqning asosiy xususiyatlari ushbu talablardan kelib chiqadi:

1. Nutqning to'g'riligi va ravonligi.
 2. Nutqning aniqdigi va ta'sirchanligi.
 3. Nutqning mantiqliligi.
 4. Nutqning tozaligi va ifodaliligi.
- Nutqning to'g'riligi va ravonligi uning adabiy til normalariga to'g'ri kelishidir. Bunda **ikkita jihatga** e'tibor beriladi:

- urg'u

- grammatik normalarga amal qilinishi lozim.

Urg'u - so'zlarning to'g'ri talaffuz etilishini ta'minlaydi.

Grammatik norma - nutqning mazmunderligini, ma'noli ekanligini bildirib, nutq oqimidagi so'zlarning o'zgarishi, mazmungan bir-biriga birikishini ifodalovchi xilma-xil qoidalar yig'indisidir.

Nutqning aniqdigi va ta'sirchanligi - mazmunder nutqning tinchlovchiga ta'sir etish omilidir. O'qituvchi so'z va tining ravonligi, notiqlik qobiliyati bilan aniq faktlar asosida o'quvchilarga bilim beradi, ularning ko'nikma va malakalarini rivojlantiradi. O'qituvchi nutqning aniq bo'lishi, o'z mas'uliyatini chuqur his etish shartidir.

Aniqlik, o'rganilayotgan mavzuning o'qituvchi tomonidan ifodalanayotgan

vogelikka, faktlarga muvofiq kelishidir. Aniqlikning chegarasini belgilashda o'qituvchi so'zlarni to'g'ri qo'llay olishi, o'zbek tili grammatikasini mukammal bilishi, to'g'ri talaffuz eta olishi talab qilinadi.

Nutqning mantiqliligi - nutqning mantiqiy bo'lishi, eng avvalo, o'qituvchining so'z boyligi, tafakkur yuritish qobiliyati, idrok etish mahoratiga bog'liq. O'qituvchi tili juda yaxshi bilishi, so'z boyligi keng bo'lishi mumkin. Ammo o'zi fikr yuritayotgan mavzuga nisbatan chuqur bilimga ega bo'lmasa, bilimlarini o'z tafakkuri doirasida

da tahlil qila olmasa notiqlik san'ati natija bermaydi. So'zlarning o'qituvchi ifodalayotgan mavzuga mos ravishda to'g'ri ifodalanishi, so'z birkimlarining, gaplarning, matnlarning bir-biriga to'g'ri kelishi, fikrni izchil bayon etish uchun bo'ysundirilishi nutqning mantiqiy boy ekanligini bildiradi. O'quvchilarga aytlayotgan fikr mantiqan bir-biriga bog'langan bo'lishi kerak. Gaplar o'rtasida fikrni bog'lanish, izchillik yo'qolishi bilan o'qituvchi nutqning mantiqiyligiga putur yetadi.

O'rganilayotgan mavzu matnlari o'rtasida mantiqiy bog'lanish bo'lish uchun, matnlar boshlanma bilan ajratiladi (masalan, xulosa qilib aytganda; shu bilan birga; ta'kidlash lozimki va hokazo). Demak, o'qituvchi nutqning mantiqiyligi deyilganda, yaxlit bir tizim asosida tuzilgan, fikr va mulohazalar rivoji izchil bo'lgan, har bir so'z, ibora aniq maqsadga muvofiq ishlatiladigan nutq tushuniladi.

Nutqning tozaligi va ifodaliligi - O'qituvchi nutqning tozaligi, avvalo, uning adabiy til isoniy normalariga muvofiq ifodalanishi bilan belgilanadi. O'qituvchining chiroyli va mazmunan boy nutqi hozirgi o'zbek adabiy tili talablariga mos ravishda tuzilgan bo'lishi, g'ayriadabiy til unsurlaridan xoli bo'lishiga qarab baholanadi.

Nutqning toza bo'lishiga halqit beruvchi unsur: dialektizm va varvarizmdir. Zero, ushbu unsurlar adabiyotda ma'lum bir badiiy - estetik vazifani bajarsada, o'qituvchining dars jarayonidagi va tarbiyaviy faoliyatidagi nutqida ishlatilmasligi kerak. O'qituvchi doimiy ravishda idoraviy atamalarni, rasmiy so'z va iboralarni noo'rin ishlatishi o'z nutqining notabiiyligiga, ishonchsiz chiqishiga sabab bo'ladi. Natijada o'quvchilar ta'lim-tarbiyasida o'qituvchi tomonidan ishonitirish metodi orqali qo'llaniladigan fikrlarni bayon etishga putur yetadi.

Nutqning tozaligi, uning turli sheva so'zlaridan xoli bo'lib, faqat abadiy tilda ifoda etilishidir. Til vositalari vaziyatga qarab ishlatilgan, siyqa so'z va iboralarsiz hosil bo'lgan o'qituvchi nutqi tabiiy va samimiy bo'ladi, tinglovchi va o'quvchining qalbiga tez borib yetadi.

Jargon (muayyan kasb yoki soha mutaxassisliklariga xos bo'lgan so'zlar);

varvarizm (muayyan millat tilida bayon etilayotgan nutqda o'zga millatlarga xos so'zlarning noo'rin qo'llanilishi);

vulgarizm (haqorat qilish, qo'pollikda qo'llaniladigan so'zlar); **kontselyarizm** (o'rni bo'lmagan vaziyatlarda rasmiy so'zlardan foydalanish);

parazit (ortiqcha) so'zlarning ishlatilishi kabilar nutq tozaligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Til va nutq.

Nutq madaniyati - til normalarini egallamoq, talaffuz, urg'u, so'z ishlatish, gap tuzish qonuniyatlarini chuqur bilmog'dir. Shunday bo'lsa, tilning tasviriy vositalari har xil sharoitlarga mos, maqsadga muvofiq bo'lishi kerak.

Nutqda til - fikr almashish quroli, o'qituvchi qalbining oyna-si, o'qituvchining dars berish uslubini, pedagogik mahoratini to'liq namoyon qiluvchi vositadir. Nutqda:

- tildagi rang-barang vositalar o'z ifodasini topsa, bunday nutq - boy nutqdur. Til va nutq azaldan bir-biri bilan chambarchas bog'langan vositalardir. Nutq qaysi tilda aytilmasin, o'sha millat tilining qonun-qoidalariga asosida ro'yobga chiqadi. Biroq ular bir-biridan farqlanadi.

Til nutq uchun moddiy material. Shu material asosida nutq tashkil topadi.

Nutq - tildagi mavjud ifoda vositalaridan foydalangan holda reallikka aylangan fikr bo'lib ikki xilda namoyon bo'ladi:

- ichki nutq;

- tashqi nutq.

O'qituvchi ongida hosil bo'ladigan, hali amalga oshmagan til elementlaridan tashkil topgan, kishining og'iz ochmasdan fikrlashi, mulohaza yuritishi, o'ylashi **ichki nutqdur**.

O'qituvchi mulohazasi va fikrining til vositasida nutq organlariga ta'siri va harakati bilan real tovushlar sifatida yuzaga keladigan nutq **tashqi nutq**, bo'lib, u ijtimoiy hodisadir.

O'qituvchi nutqiy faoliyati: so'zlash, mulohaza va eshitishdan iborat.

Til hodisasi fonemalar tizimida, morfemalarda, sinonimiya, omimonimiyalarda, mavjud grammatik qoidalarda, murakkab terminlar va frazeologik iboralarda namoyon bo'ladi.

Til va nutq quyidagicha qiyoslanadi:

1. Til aloqa materiali, nutq aloqa shaklidir.

2. Tilni xalq yaratadi, nutqni esa har bir shaxs yaratadi.
3. Tilning hayoti uzoq xalq hayoti bilan bog'likdir; nutqning hayoti esa qisqa bo'lib, u aytilgan paytdagina mavjuddir.

4. Ayrim shaxs, ayni zamonda, bir nechta tili bilishi mumkin, chunki u vaqt va o'rin bilan bevosita bog'lanmagan. Ayrim shaxsning nutqi ayni zamonda faqat bitta bo'ladi, chunki u ma'lum vaqtda va ma'lum o'rinda yuz beradi.

5. Tilning xajmi noaniqdir; nutqning hajmi esa aniq: nutq monolog, dialog, polilog, deklamatsiya hamda ayrim tekst va kitob shaklida bo'lishi mumkin. Nutq maxsus belgilangan tartibda o'zining hajmi bilan notiqqa havola etiladi.

6. Til - turg'un statik hodisa, nutq esa harakalda bo'luvchi, dinamik hodisadir.

Til xatosida so'zning ma'nosi keskin buzilishi mumkin (Masalan: sof-sop, tif-tip, fan-pan, dil-til, nufus-nufuz, servis-serviz, xo'b-xo'p).

Nutq xatosidagi buzilishlar, ko'pincha, faqat akustik tomondan o'zgaradi (fikr-pikr, fabrika-pabrik, safar-sapar kabilar).

Til va nutq hodisalarining qonun-qoidalarini mukammal bilish, uning qoidalariga doimo rioya qilish, ob'ektiv sharoitda tinimsiz mashg'ulotlar olib borish - o'qituvchining til sofligi, nutq madaniyati va odobi masalalariga oqilona yondashiga olib keladi.

Nutq madaniyati va notiqlik tushunchalari orasida ba'zi o'xshashlik, umumiy tomonlar bor. Bu har ikkala sohaning pirovard maqsadi, ish faoliyatining mustarakligida ko'rinadi. Ammo shunga qaramasdan, nutq madaniyati tushunchasi bilan notiqlik tushunchasi aynan bir xil narsa emas. O'qituvchi nutq madaniyati va notiqlik orasidagi ba'zi muhim farqli tomonlarni va belgilarni bilishi lozim. Bular quyidagilar:

1. **Nutq madaniyati**, chinakam ma'noda adabiy til bilan bog'liq hodisadir. Uning paydo bo'lishi, lisoniy asosi, talab va mezonlari adabiy til va uning normalari bilan bog'liq. Notiqlik san'ati uchun bular asosiy belgilar emas. Notiqlar orasida adabiy til talablariga to'la amal qilmaydiganlar, ma'lum vaqtgacha, shevada ham chinakam notiqlik san'atini namoyish qilib kishilar qalbiga ta'sir qiluvchilar uchraydi. So'zga chechanlik, notiqlik, til materialining xarakteriga qarab emas, notiqning chinakam so'z ustasi ekanligiga,

tinglovchilarni o'ziga jalb etishida, ta'sirchan nutqiy san'atiga qarab belgilanadi.

2. **Notiqlik** — bu nutqning og'zaki shakli. Notiqlik san'ati og'zaki nutq san'atidir. Nutq madaniyati esa nutqning ham og'zaki, ham yozma shakli uchun taalluqli bo'lgan tushunchalardir.

3. **Nutq madaniyati** jamiyat a'zolarining umumiy nutqiy faoliyatini nazarda tutadi. Nutq madaniyati sohasining maqsadi va pirovard orzusi yosh avlod nutqini madaniylashtirishni mo'ljallaydi. Chin ma'nodagi notiqlik san'ati esa, alohida shaxslarning nutqiy mahoratini va san'atini ifodalaydi. Notiqlik, asosan nutq vositasida o'qituvchilar jamiyat talablari asosida yosh avlodga muayyan ta'lim va tarbiya beradi, yuqori malakali, raqobatbardosh, o'zining mustaqil fikriga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlaydi.

4. **San'atkor notiq nutqi**, asosan, ko'pchilik tinglovchilarga, keng auditoriyalarga mo'ljallangan bo'ladi. Notiqni bir kishidan ortiq shaxslar tinglaydi. Nutq madaniyati mana shunday tinglovchilardan tashqari kishilar orasida odatiy suhbatlarni, yakka kishiga qaratilgan nutqlarni ham o'z ichiga qamrab oladi.

5. O'qituvchi **adabiy tilning keng imkoniyatlari** va boyliklarini yaxshi egallagan, nutq madaniyati talablariga javob beradigan talibdori notiq bo'lishi mumkin. Biroq hamma o'qituvchi ham san'atkor ma'nosidagimukammal notiq bo'la olmaydi. Lekin adabiy tilidan foydalanuvchi har bir o'qituvchi nutq madaniyatidan xabardor bo'lishi shart.

6. **Nutq madaniyati** ko'pchilikka mo'ljallangan, ma'lum bir maqsadni ko'zda tutib ish ko'ruvchi soha. Bu ma'noda u keng omma uchun mo'ljallangan talabdir, ammo notiqlik - shaxsiy qobiliyattir.

7. **Nutq madaniyati** - bu faqat nutq haqidagi nutqiy faoliyatga tegishli tushuncha va soha emas, u til madaniyati bilan ham, ya'ni adabiy tilni va uning normalarini o'rganish va bu normalarni qayta bahslash ishi bilan ham shugullanadi. Notiqlik san'ati esa bunday ilmiy - normativ faoliyatni ko'zda tutmaydi.

8. **Notiqlik**, ko'proq nutqning mazmunini, mantiqiy asoslarini, mundarijaviy tuzilishini e'tiborga oladi, nutq madaniyati esa, nutqning til qurilishi — leksik tuzilishiga e'tibor qiladi.

9. **Notiqlik san'ati** notiq uchun oldindan qanday so'zlash tizimi va rejasini bermaydi. Nutq madaniyati sohasi esa jamiyat a'zolarini

ona tili, ya'ni adabiy tili bo'yliklari va vositalaridan maqsadga muvofiq sharoit va uslub taqozasi talabiga ko'ra o'rinni foydalana olish ko'nikmasini beradi. Bunday ko'nikma, aslida har qanday san'atkor notiq uchun ham zarur.

10. **Notiqlik san'ati** haqidagi fan ancha qadimiy tarixga ega, notiq madaniyati ilmiy muammo va ilmiy soha sifatida muntazam yangilanib boradi.

O'qituvchi nutqining ta'sirchanligi va ifodaliligi. O'qituvchi nutqining ta'sirchanligi nutqning asosiy sifatlaridan biri sanaladi va nutqdagi jo'shqinlik va aniqlik, mantiqiylik va tozalik tinglovchiga ta'sir etish uchun yo'naltirilgan bo'ladi.

Nutqning ta'sirchanligi deganda, asosan, o'qituvchining og'zaki nutq jarayoni nazarda tutiladi va o'quvchilar tomonidan qabul qilinishida paydo bo'ladigan ruhiy vaziyat e'tiborga olinadi. Ya'ni notiq-o'qituvchi o'quvchilarni hisobga olishi, ularning bilim darajasidan tortib, hatto yosh xususiyatlarigacha, nutq ijro etilayotgan paytdagi kayfiyatlarigacha kuzatib turishi, o'z nutqining o'quvchilarg' tomonidan qanday qabul qilinayotganini nazorat qilishi lozim. Professional bilimga ega bo'lgan o'qituvchilar jo'n, soddada tilda gapirishlari maqsadga muvofiq emas, oddiy, yetarli darajada notiqlik ma'lumotiga ega bo'lmagan o'qituvchilar ham ilmiy va rasmiy tilda gapirishga harakat qilishlari kerak emas.

Xullas, notiq-o'qituvchidan vaziyatga qarab ish tutish talab qilinadi va ifodalamoqchi bo'lgan har qanday fikrini to'liqig'icha o'quvchilarga yetkazishga harakat qilishni vazifa qilib qo'yiladi.

O'quvchilar tushuna oladigan tilda gapirish, ularni ishonтира olish o'qituvchi oldiga ko'yiladigan asosiy shartlardan biri hisoblanadi. Buning uchun esa, o'qituvchida yuqorida aytilganidek, mavzuni yaxshi bilishdan tashqari, uni bayon etishning aniq belgilangan rejasini bo'lishi kerak. Nutqdagi fikrlarni birinchi va ikkinchi darajali tarzda tuzib, ularni o'zaro bog'lab, o'quvchilarni, avvalo, nutq rejasini bilan tanishtirib, so'zni boshlash lozim.

Vaqtini hisobga olish, notiqlik fazilatlaridan biridir. Chunki so'zlash muddati oldin e'lon qilinib, shunga rioya qilinsa, agar iloji bo'lsa, sal oldinroq tugatilsa, o'quvchilar zerikishmaydi.

Nutqning ta'sirchanligi va ifodaliligi haqidagi gap ma'lum ma'noda nutq sifatlarini haqida aytilgan gaplarga yakun yasashdir. Chunki

yaxshi nutqning fazilatlarini ko'rsatib o'tish, nutqda uchraydigan ayrim tipik xatoliklarni tahlil qilish, pirovard natijada ta'sirchan bir notiqni shakllantirishga xizmat qiladi. Nutqdagi fikrlarni o'quvchilarga mazmunli yetkazishning xilma-xil yo'llari va vositalari mavjud. Ularni yordamchi vositalar deb ham atash mumkin. Masalan, yumor yoki biron hikoyatni olaylik. Nutqdagi uzluksiz ilmiy-ommalop fikr oqimi, uning bir maromda bayon qilinishi o'quvchini ham, har qanday tinglovchini ham

zeriktirib qo'yishi mumkin. Shunday paytda, yumor, hikoyat, qiziqarli voqealar haqida gapirish o'qituvchiga juda qo'l keladi. Yumorning nutq mazmuniga mos holda keltirilishi yana ham yaxshidir. Shunday qilinsa, o'quvchi ham dam oladi, ham o'rganilayotgan mavzuga nisbatan qiziqish paydo bo'ladi.

Nutqda mavzu doirasida ba'zi fikr va mulohazalarni keltirish ham maqsadga muvofiqdir. Bunday fikrlar notiq fikrining to'g'riligi, haqqoniy ekanligini isbotlash uchun foydalaniladi, faqat ular dan foydalanishni suiste'mol qilmaslik kerak. Badiiy adabiyot namunalardan, hikmatli so'zlardan, tildagi ifoda - tasvir vositalaridan nutqda o'rni bilan foydalanish ham foydadan xoli bo'lmaydi.

Nutqning o'quvchilarga qanday ta'sir qilishida va ularda qanday tasvurot qoldirishida o'qituvchining nutqiy jarayon davomida o'zini qanday tuta bilishi, imo-ishoralari, hatto kiyinishi kabi omillar ham o'rni bor. Samimiylik, xushmuomalalik, odoblilik, o'quvchilarga hurmat bilan qarash kabi fazilatlar nutqning o'quvchilar tomonidan e'tibor bilan tinglanishiga sabab bo'ladi.

O'qituvchining pedagogik faoliyatida nutq texnikasi eng murakkab va doimiy munozaralarga sabab bo'ladigan jarayon. Psixologik tili bilan ayig'anda nutq texnikasi, notiq nutqning o'rini yoki o'rinish ekanligini belgilashda namoyon bo'ladi. O'qituvchi har xil vaziyatlarda, turli xarakterdagi o'quvchilar bilan mulog'otda bo'ladi. Demak u o'z nutqini ana shu vaziyatlar asosida, o'quvchilar holatiga qarab tuzishi, o'zgartirishi, doimo nutqning ta'sirchan chiqishiga e'tibor berishi, o'quvchilarni zeriktirib qo'ymasligi uchun tilning mavzuviy vositalari bo'lmish metonimiya, metafora kabilardan foydalanishi lozim.

O'quvchilarni diqqatini jalb etish, o'rganilayotgan mavzuga ularni qiziqitirib olish o'qituvchi nutq texnikasining asosiy xususiyatlaridan

dandir.

O'quvchi hayoti davomida o'qituvchining nutqi xususiyatlari ni, o'quvchilarga murojaat qilish, savollarga javob berish usullarini xotirasida saqlaydi. O'qituvchi nutqi o'quvchilarga ta'lim - tarbiya berish vazifasini bajarishi kerak. Shuning uchun unga faqat umum-madaniy emas, balki kasbiy va pedagogik talablar ham qo'yiladi. O'qituvchi o'z so'zining mazmuni, sifati va oqibati uchun jamiyat oldida jihatimoy javobgar shaxsdir. Shuning uchun ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi nutqi pedagogik mahoratning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

O'qituvchi nutqi deyilganda, o'qituvchining og'zaki va yozma nutqi nazarda tutiladi. Yozma nutq o'quvchilar tomonidan ma'lum bir o'rganilayotgan materialni yozib o'zlashtirilishi. Og'zaki nutq - bu o'qituvchining gapirish vaqtida tuziladigan nutqi bo'lib, o'quvchilar ongiga, istak va motivlariga, his-tuyg'ulariga ta'sir etuvchi muhim omildir. O'qituvchi og'zaki nutq asosida zarur bo'lganda o'z kamchiliklarini tuzatib, korektsiyalab boradi.

Tajribali o'qituvchining nutqi quyidagilarni ta'minlashi kerak:

- o'qituvchi va uniig tarbiyalanuvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabati va mahsuldor mulqotini;
- ta'lim jarayonida bilimni to'la qabul qilinishini, anglanishi va mustahkamlanishini;
- o'quvchilar faoliyatiga, ulardagi qobiliyat va iqtidor instinkitini shakllantirish maqsadida ongi va hissiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatish;
- o'quvchilarning o'quv va amaliy faoliyatini maqsadga muvofiq tashkil etish.

"Pedagogik nutq" tushunchasi o'qituvchining kommunikativ xulqi tushunchasi bilan uzviy bog'liq.

O'qituvchining kommunikativ xulqi deyilganda, faqat uning gapirish va axborot berish jarayonigina emas, balki, o'qituvchi va o'quvchi mulqoti uchun emotsional psixologik muhit yaratishga ular o'rtasidagi munosabat va ish uslubiga ta'sir ko'rsatuvchi nutqni tashkil etish va unga mos o'qituvchining nutqi nazokatini ham ko'zda tutiladi.

O'qituvchining pedagogik faoliyatidagi og'zaki nutqi monologik va dialogik shaklda bo'ladi.

Monologik nutqning keng tarqalgan shakli hikoya, maktab

ma'ruzasini, shart kabildir.

Dialogik nutq turlari suhbat, savol - javob shaklda bo'ladi.

Pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli olib borishi uchun, o'qituvchining nutqi ma'lum talablarga javob berishi, ya'ni notiqlik mahoratini shakllantirish uchun lozim bo'lgan kommunikativ sifatlarga javob berishi hamda nutqi bir nechta adabiy normalarga mos kelishi lozim: chunonchi, zamonaviy, ifodali, adabiy til normalariga.

Pedagogik nutqning to'g'rilik, aniqlik, moslik, leksik boylik, ifodalilik va tozalik kabi kommunikativ sifatlari o'qituvchi **nutqning modaniyatini** belgilaydi.

Maqsadga muvofiq keladigan pedagogik nutq o'zining mantiqligini, ishonchligini, kuzatuvchanligi bilan xarakterlanadi.

Pedagogik nutqning birinchi funksiyasi - o'rganilayotgan bilimlarni to'liq holda berilishini ta'minlashdan iboratdir. O'qituvchi nutqning kommunikativ o'ziga xosligi bilan bilimni o'quvchilar tomonidan qabul qilinishi va esda qolishi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqa mavjud. Nutq buni ta'minlashi yoki qiyinlashtirishi mumkin. O'qituvchining nutqi faqat axborot berib qolmay, o'quvchining ongi, sezgisiga ta'sir qilishi, ularni o'ylash faoliyatiga undashi kerak.

O'qituvchi nutqning ikkinchi funksiyasi - o'quvchining o'quv faoliyati jarayonida o'qituvchi nutqi asosida, darsda o'rganilayotgan bilimlarni samarali o'zlashtirilishini ta'minlashdan iborat.

O'quvchi, o'qituvchi nutqini eshita turib qator operatsiyalarni bajaradi: berilayotgan axborotni ko'rgazmali shaklda aniqlashtiradi, o'zidagi bilim bilan unga nisbatan munosabat bildiradi, eslab qoladi, nutq mantiqini, fikrlar rivojini kuzatib boradi.

Ovoz tonining balandligi, tovushning yuqoriligi, bir xilda gapirish o'quvchilarni charchatadi. O'quv — biluv jarayonining samarali bo'lishiga darsda o'qituvchi tanlagan kommunikativ xulq uslubini ham ta'sir qiladi. O'qituvchi ko'pincha pedagogik taktaga xos bo'lmagan gaplarni ishlatadi, bu o'qituvchi bilan o'quvchi orasidagi munosabatning buzilishiga, aqliy faolligini pasayishiga olib keladi.

Pedagogik nutqning uchinchi funksiyasi — o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi mahsuldor o'zaro munosabatni to'g'ri ta'minlashdan iborat.

O'qituvchi nutqi - o'qituvchi va o'quvchi munosabatini boshqa-

rish rolini ham bajaradi. Bu yerda hamma narsa ahamiyatli: o'qituvchi o'quvchilarga qanday murojaat qiladi, salomlashadi, talablarni qanday qo'yadi, qanday ogohlantiradi, xohishini qanday bayon qiladi, nutq impotentsiyasi, yuz ifodasi, qarashi ham o'quvchiga ta'sir ko'rsatadi.

Darsdan tashqari muloqotda bularning ahamiyati yanada ulkan bo'ladi. Ko'p narsa o'qituvchining individual muloqot uslubiga ham (qo'rguvga asoslangan, o'yinga, do'stona aloqaga asoslangan), muloqot doirasidagi ijtimoiy xarakteriga ham bog'liq.

O'qituvchi nutqining xususiyati, u avvalo, o'quvchilarga qaratilgan va yo'natirilgan bo'ladi. O'qituvchi monologi ham o'quvchilar bilan ichki dialog shaklida bo'ladi.

O'qituvchi og'zaki nutqining asosiy xususiyati, uning mazmunini o'quvchilar tomonidan ikkita kanal orqali tovush va vizual yo'l bilan qabul qilinishidadir. Vizual harakatlar o'qituvchi nutqining ta'sirchanligi, ifodaliligini oshiradi, u o'qituvchining kayfiyati haqida ham o'quvchilarga axborot beradi. Shuning uchun yosh o'qituvchi muloqotda o'zining tashqi ko'rinishini boshqara olish ko'nikmasini shakllantirishi kerak.

O'qituvchi og'zaki nutqining yana bir xususiyati, uning improvizatsion (hech qanday tayyorgariksiz) xarakterda ega ekanligidir. Tajribali o'qituvchi matnga yoki konspektga qaramasdan, u yga maxsus tayyorlanmasdan gapiradi, o'quvchi uni tinglab turib, so'z va ifodalarda tutilayotganligini, ba'zan nutqiy kamchiliklarini ko'ra oladi. Shunday holat vujudga keladiki, g'uyoki o'qituvchi notiq sifatida o'zligi haqidagi haqiqatni, fikrlarini birinchi marta o'quvchilar bilan ochayotgandek bo'ladi.

Kommunikativ nutqning muvaffaqiyati bo'lishi uchun, o'qituvchi o'zida notiqlik san'atiga xos, qator maxsus qobiliyatlarni rivojlantirishi talab qilinadi:

1. ijtimoiy pertseptiv qobiliyat;
 2. ijtimoiy tasavvur qobiliyati;
 3. o'zini boshqara olish qobiliyati;
 4. muloqotda o'zining ruhiy holatini boshqara olish qobiliyati;
 5. irodaviy ta'sir ko'rsatish qobiliyati;
 6. ishonitra olish qobiliyati.
- Nutq malakalari va ko'nikmalarini muvaffaqiyatli egallash uchun

sharoit yaratuvchi notiqning umumiy ruhiy, jismoniy xususiyatlarini rivojlantirish, bunda tasavvurni, obrazli xotira va fantaziyani rivojlantirish ko'zda tutiladi. Bunday faoliyatda tovush, diapazon, tembr, diktsiya, ritmika muhim rol o'ynaydi.

Tovush. Ba'zi o'qituvchilarga tovush tugma qobiliyat sifatida berilgan, lekin bu ham mashq qilib turilmasa buziladi. O'qituvchi o'z tovushini kuchli, egiluvchan, emosional ta'sirchan qila olishi mumkin.

O'qituvchi tovushining o'ziga xosligi nimada?

Avvalo, tovushining balandligida hamda uning kuchli nutq apparati organlarining faolligiga bog'liq. Tovush eshitilishining uchuvchanligi, (polyotnost') bu ovozni masofaga moslay olish, tovushni boshqara olishidir.

Tovushning egiluvchanligi va harakatchanligi tovushni yengil boshqarish va tinglovchilarga moslashtira olishidir.

Diapazon - tovushning hajmi. Uning chegarasi juda yuqori va past ton bilan aniqlanadi.

Tembr - tovush bo'yogi, yorqinligini namoyon qilib, shu bilan birga, nutqning chiroyli, mayin, jozibali, o'ziga xosligini ta'minlaydi.

O'qituvchida kasbiy kasallik kelib chiqmasligi uchun, tovush egilmasiga amal qilish kerak. O'qituvchi ish vaqtining 50 foizi davomida gapirib turadi. O'qituvchi ish vaqti tugagach, 2-3 soat davomida uzoq vaqt kishilar bilan so'zlashishdan qochishi talab qilinadi. Zarur bo'lib qolsa qisqa va sekin gapirishi kerak.

Dars jadvali qo'yilishida shunga e'tibor berish kerak. 3-4 soat darsdan so'ng nutq apparati charchaydi, shundan so'ng 1 soat tovush dam olishi kerak. Tajribali, ko'p yillar ishlagan o'qituvchi 2-3 soatda charchaydi va 2 soat dam olishi kerak. Yuqori nafas yo'llari, masb tizimlari, ovqatlanish rejimiga e'tibor berish kerak.

O'qituvchi nutqining tezligi, individual sifatiga, uning nutq mazmunini va muloqot holatiga bog'liq. Turli millatlarda nutq tempi turlicha bo'ladi. Ruslarda minutiga 120 ta so'z atrofida, inglizlarda 120-150 ta so'zga cha. Tadqiqotlarga ko'ra 5-6 sinflarda o'qituvchi minutiga 60 ta so'z, 9 - 11 sinflarda 75 tagacha so'z gapirishi to'g'ri bo'ladi.

Materialning murakkab qismini o'qituvchi past tempda, keyin esa tezroq gapirishi kerak. Mavzuga oid qoidalar va qonuniyatlari

aytilganda, xulosa qilinganda nutq sekinlashadi.

So'zlayotganda to'g'ri nafas olish, ovozi yo'lga qo'yish va uning tovlanishi, so'zlarni xatosiz talaffuz qilish, notiqlik san'atini takomillashitirib borish o'qituvchining nutq texnikasini shakllantiruvchi xususiyatlardir. Ovoz o'zgarishi, to'g'ri nafas olish, diktsiya, ritmika asosida nutqning ko'nikma va malakalari yig'indisini mukammal rivojlantirish o'qituvchining nutq texnikasida takomillashadi.

O'quv vaqtining ko'p qismi ($1/4$, $1/2$) o'qituvchining nutqi bilan bog'liq bo'ladi. Shuning uchun o'quv materialini o'quvchilar tushinishi o'qituvchi nutqining mukammalligi bilan bog'likdir.

Ba'zilar tovush va uning tembriga tug'ma deb bilishadi. Lekin hozirgi eksperimental fiziologiya tovushni to'liq qayta qurish mumkinligini isbotlab bergan.

Tarixdan ham ma'lumki, ba'zi kishilar o'zlarining nutq tovushlarini takomillashitirib borganlar. Chunonchi, Demosten o'zining bu sohada kamchiliklarini tugatib borib, qadimgi Yunonistonning siyosiy oratorlaridan biriga aylangan. Yoki Vladimir Mayakovskiy ham 20 yoshidan boshlab rasmiy chiqishlar uchun og'ziga toshchalar olib, Rion daryosi bo'yida nutq so'zlashni mashq qilgan.

Nutqiy nafas organizm uchun muhim hayotiy manba bo'lishi bilan birga u nutqning energiya bazasi sifatida ham faoliyat ko'rsatadi. Nutqiy nafas fonotsional nafas deyiladi (fono-tovush).

Kundalik hayotda nutqimiz dialogik tarzda bo'lib, nafas qiyinchilik tug'dirmaydi. Lekin darsda o'qituvchi ko'p gapirgan, ma'ruza o'qigan vaqtlarida o'zgaragan nafas, mashq qilimasa qiyinchilik tug'diradi: yuz qizarib ketishi, nafasni tez-tez olish holati paydo bo'lishi mumkin.

Nafas olish jarayonida qaysi muskullar inggirik etishiga qarab, nafas olishning quyidagi funktsiyalari ajratiladi:

1. Yelka va ko'krak qafasining yuqori qismini ko'taruvchi muskullar ishtirokida nafas olish. Bunda kuchsiz, yuqori nafas olinib, o'pkaning faqat yuqori qismi faol ishlaydi.
2. Ko'krak orqali nafas olishni qovurg'alar orasidagi muskullar amalga oshiradi, diafragma kam harakatda bo'lib, nafas chiqarish kuchsiz bo'ladi.
3. Diafragmali nafas olish ko'krak hajmining o'zgarish, diafragma qisqarishi hisobiga harakatlanadi.

4. Diafragma va qovurg'a orqali nafas olishda - diafragmaning har tomonlama hajmi o'zgarishi, qovurg'alar orasidagi va qorindagi nafas muskullari ham qatnashadi. Shu nafas to'g'ri bo'lib, bu nutqiy nafas uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Bo'lajak o'qituvchi nutqini takomillashitirish. Ta'lim va tarbiya jarayonida o'qituvchi nutqini takomillashitirishning quyidagi yo'nalishlarini ko'rsatib o'tish mumkin:

- o'z-o'zini nazorat qilish;
- nutq madaniyatini rivojlantirish;
- nutqiy mulohazalarni barcha holatlarida adabiy nutq qoidalarini egallash uchun o'ziga sharoit yaratish.

Tajribali bir maktab rahbari yosh o'qituvchilarga: "O'quvchilarga tarixiy voqealarni shunday hikoya qilinki, qattiq ta'sirlanganingiz bilinib tursun. Birinchi sayohat haqida shunday kayfiyat bilan gapiringki, bu sayohatda o'zingiz ham ishtirok etgandek tuyulsin", deyishi bejiz emas edi.

Ayrim o'qituvchilar esa nutq ancha ohista, ta'sirsiz, kam ifodali, qat'iy izchillikka rioya qilmagan holda, dalilsiz va mantiqsiz bo'ladi. Bunday nutqda bayon qilingan o'quv ma'lumoti o'quvchilar tomonidan past va bo'sh o'zlashtiriladi, uning tarbiyaviy ta'siri ham sust bo'ladi.

Shunday qilib, pedagogik texnikada nutq malakalari muhim ahamiyat kasb etar ekan, o'qituvchi doimo gapirish tempi, ritmi, diktsiyasi, ovoz kuchi, diapozoni, harakatchanligi ustida mashq qilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

9-MAVZU. O'QITUVCHINING TA'LIM JARAYONIDAGI MAHORATI

O'qituvchi - pedagogik va psixologik jihatdan o'z ixtisosligi bo'yicha maxsus ma'lumotga ega, kasbiy tayyorgarlikka va yuksak axloqiy fazilatlarga boy ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxsdir.

O'qituvchi ta'lim jarayonida o'qitish shakllarini optimal darajada tashkil etishni, barkamol shaxsni shakllantirish nazariyasini turli yung'i goyalar bilan boyitishni puxta bilishi lozim. Hozirgi kunda

o'qituvchining pedagogik mahoratida "Bilish, tushunish, qo'llash, tahlil qilish, sintez qilish, baholash" kabi didaktik qonuniyatlarni ta'lim berishning muhim kategoriyalari sifatida e'tirof etilgan. Shaxsga ta'lim-tarbiya berish nihoyatda murakkab jarayon, qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk kishilari jalb etilgan. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uni tashkiliy etish mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilovchi muhim ahamiyatga molik bo'lgan omil ekanligi ta'kidlanadi.

O'zbekiston Respublikasida o'qituvchi kadrlarning ma'naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo'yilgan. Chunonchi, bu borada O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov quyidagilarni qayd etadi: "Tarbiya - ustoz bo'lish uchun, boshqalarning aql-idrokini o'stirishi, ma'rifat ziyosidan bahramand qilishi, haqiqiy vatangparvar, haqiqiy fuqaro etib yetishtirishi uchun, eng avvalo, tarbiyachining o'zi ana shunday yuksak tapablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo'lishi kerak".

Bugungi kun o'qituvchisiga nisbatan qo'yilayotgan talablar mazmuni yil sayin yangilanib, zamon talablariga moslashib bormoqta. Zamonaviy o'qituvchi qanday bo'lishi zarur?

- Avvalo u o'z mutaxassisligi bo'yicha ta'lim beradigan fanlardan pedagogik texnologiyalarga asoslangan ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini mazmunan yaxlitligini ta'minlashi.
- Pedagogik va axborot texnologiyalari hamda o'quvchilar o'quv faoliyatini faollashtiruvchi metodlarni qo'llashi, o'quv mapulotlarida pedagogik va axborot texnologiyalarining so'ngi yutuqlarini uyg'unlashtirish malakasiga ega bo'lishi.
- Ta'lim muassasalarida fanlarni o'qitish mazmuniga mos ravishda pedagogik tizimni loyihalay olishi.
- Ta'lim beradigan fanlar turkumini rivojlantirish istiqbollari o'chib bershga qaratilgan ilmiy izlanishlarni muntazam amalga oshira olishi.
- Ta'lim-tarbiyaviy faoliyatda jahonning rivojlangan mamlakatlari pedagogika va psixologiya sohasida erishilayotgan ilg'or ta'lim-jiribalarini amalda modernizatsiya qilgan holda qo'llashi.
- O'rta Osiyo mutafakkirlarining pedagogik qarashlari va ma'naviy meroslaridan ta'lim-tarbiyaviy faoliyatda foydalana olishi.

• Darsning barcha turlarida, mashg'ulotlarda zamonaviy axborot texnologiyalari asosida o'qitish metodlaridan foydalanishi.

• O'qitadigan fan turkumi bo'yicha avtomatlashtirilgan ta'lim tizimi uchun amaliy dasturlar paketini yaratishi lozim.

Bizning nazrimizda, zamonaviy o'qituvchi qiyofasidagi shaxs pedagogik-psixologik jihatdan yuksak tayyorgarlikka ega bo'lishi uchun, unda quyidagi fazilatlar namoyon bo'lishi kerak (so'z yuritish hayotiga sifatlarni mohiyatan o'qituvchi tomonidan amalga oshirishi zarur bo'lgan vazifa, burch va mas'uliyatlarni ifodalaydi):

1. O'qituvchi jamiyat ijtimoiy va siyosiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab yetishi hamda bu borada o'quvchilarga to'g'ri, asosli ma'lumotlarni bera olishi lozim.

2. Zamonaviy o'qituvchining ilm-fan, texnika va texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo'lishi talab etiladi.

3. O'qituvchi o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur, puxta bilimga ega bo'lishi, o'z ustida tinimsiz izlanishi shart.

4. O'qituvchi pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilishi, ta'lim-tarbiyaviy faoliyatda o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda o'z faoliyatini tashkil etishi kerak.

5. O'qituvchi ta'lim-tarbiyaviy faoliyatda pedagogik va axborot texnologiyalarining eng samarali shakl, metod va vositalaridan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lmog'i lozim.

6. O'qituvchi ijodkor, tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lishi davr talabidir.

7. O'qituvchi yuksak darajadagi pedagogik mahorat, chunonchi, kommunikativ layoqatni, pedagogik texnika sirlarini (nutq, yuz, qo'l-oyoq va gavda harakatlari, mimika, pantomimika, jest) chuqur o'zlashtirib olishga erishishi lozim.

Dars-ta'lim jarayonining asosiy shakli

Dars - ta'lim jarayonining asosiy tashkiliy usuli bo'lib, unda sinf dars tizimining barcha xususiyatlari aks etadi. Darsda o'qituvchi tashkiliy tartibni va o'quv ishlarning muntazamligini ta'minlaydi. Dars bevosita o'qituvchi rahbarligida aniq belgilangan vaqt davom-

ida muayyan o'quvchilar guruhli bilan olib boriladigan ta'lim jarayonining asosiy shaklidir. O'qituvchining o'quvchilarga pedagogik ta'sir ko'rsatish mahorati dars jarayonida namoyon bo'ladi.

O'qituvchi darsda bir xildagi muayyan tayyorgarlikka ega o'quvchilar sinfi bilan faoliyat olib boradi. Darsda o'qituvchi o'ziga tegishli mutaxassislik fanining ma'lum bir reja asosida belgilangan mavzusi bo'yicha ishlaydi. Bilimlarni ta'lim metodlari asosida o'quvchilar ongiga singdiradi, o'quvchilarning olgan bilimni muntazam ravishda baholab boradi. Dars doirasida ommaviy, guruhli va individual ta'lim shakllarini birlashtirish imkoniyatlari paydo bo'ladi.

Darsda o'qituvchi rahbarligida har bir o'quvchining bilim olish xususiyatlari hisobga olinadi, o'quvchilarning mashg'ulot jarayonidagi o'rganilayotgan fan asoslarini egallab olishlari, ularning idrok etish qobiliyatlarini rivojlantirish va ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalash hamda shakllantirish uchun qulay sharoitlar yaratiladi.

Darsning tuzilishi oddiy va ancha murakkab bo'lishi mumkin. Bu o'quv materialining mazmuniga, darsning didaktik maqsadiga, o'quvchilar va sinf jamoasining xususiyatlariga bog'liq.

Zamonaviy didaktikada darsning quyidagi turlarni ajratib ko'rsatilgan:

- aralash darslar;
- yangi materiallar bilan tanishish darslari;
- bilimlarni mustahkamlash va takrorlash darslari;
- o'rganilganlarni umumlashtirish va tizimlashtirish darslari;
- ko'nikma va malakalarni ishpab chiqish va mustahkamlash darslari;

- bilimlarni tekshirish darslari;

Aralash (kombinatsiyalashgan) darslar yoki murakkab tuzilishga ega bo'lgan ushbu dars jarayonida o'qituvchi quyidagi kombinatsiyani qo'llash mumkin:

uy vazifalarini tekshirish yoki o'quvchilar bilan savol-javob, yangi materialni o'rganish, bilimlarni mustahkamlash, o'quvchilar bilimlarini tekshirish va baholash, uyga vazifa berish.

O'quvchilarning yangi materiallarni bilan tanishish daosi yoki yangi bilimlarni berish (o'rganish) darsida o'qituvchi rahbarligida o'quvchilarning mustaqil ishlari olib boriladi, o'qituvchi darsning tuzilishi va olib borilishini quyidagicha ta'minlaydi: yangi mate-

riallarni o'rganish uchun asos bo'lgan avvalgi materialni takrorlash, o'qituvchining yangi materialni va darslik bilan ishlashni tushuntirish, bilimlarni tekshirish va mustahkamlash, uyga vazifa berish. Bilimlarni mustahkamlash va takrorlash darsida o'qituvchi darsning asosiy mazmunini ilgari o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlashga qaratadi. O'qituvchi asosiy e'tiborni o'rganilgan mavzularni takrorlash tarzida mashg'ulot olib borishga qaratadi.

Tuzilishi bo'yicha bunday darslarni o'qituvchi quyidagi bosqichda tashkil etadi:

o'quvchilarning bilish qobiliyatini va tafakkurini tekshirish; -og'zaki va yozma mashtslarni bajarish, topshiriqni bajarishini nazorat qilish, uyga vazifa berish.

O'rganilganlarni umumlashtirish va tizimlashtirish darslarida bevosita o'qituvchi rahbarligida o'rganilgan o'quv materiallaridan murakkab savollarni takrorlash va tizimlashtirish asosida o'quvchilar tomonidan o'zlashtirgan bilimlarning mavjud kamchiliklari to'ldiriladi va o'rganishayotgan yangi mavzuning muhim goylari ochib beriladi.

O'rganilganlarni umumlashtirish va tizimlashtirish darslarini o'qituvchi o'rganilgan mavzuning, bo'lim yoki o'quv kurslarining yakunida o'tkazadi.

Ko'nikma va malakalarni nshlab chikish va mustahkamlash darsi egallangan bilimlarni o'quvchilar tomonidan mustahkamlash hamda umumlashtirishda qo'llay olish bog'liqdir. Bu jarayon bir necha maxsus darslarda amalga oshiriladi. Yangi mavzularni o'rganishda davom ettiriladi. Bunda o'qituvchining vazifasi o'quvchilarning nazariy bilimlar asosida egallagan malaka va ko'nikmalarini, hayotiy amaliyotlarida turli vaziyatlarda qo'llashni o'zlashtirib olisharini nazorat qipishdan iborat.

Bilimlarni tekshirish (nazorat darsida o'qituvchi o'quvchilarning fanlar yuzasidan o'zlashtirgan bilimlarini egallash, ko'nikma va malakalarning shakllanganlik darajasini, o'quv materiallarining o'zlashtirishdagi kamchiliklarini aniqlash, shuningdek, navbatdagi topshiriqlarni bajarish yo'llarini belgilab olishiga yordam beradi.

Yuqorida ifodalangan barcha darslarning samaradorligiga erishish o'qituvchining pedagogik mahoratiga, pedagogik-psixologik metodlarni qo'llay olish tajribasiga bog'liq. Darslarning majburiy

elementi tashkiliy va yakuniy bosqich hisoblanadi. Tashkiliy bosqich maqsadlarni qo'yish va ularni o'quvchilar tomonidan qabul qilish sharoitlarini ta'minlash, bilimlarni idrok etish, anglash, eslab qolish yuzasidan beriladigan ko'rsatmalarni shakllantirish ko'zda tutiladi. Darsga yakun yasash bosqichida maqsadlarga erishish qayd etiladi. Shu bilan birga, o'qituvchi yangi, zamonaviy, odatdan tashqari dars berishning **dars-ma'ruza, dars-seminar, dars-munozara, dars - konferentsiya, dars-sayohat, darsmusobaqa, mustaqil ish darslari** kabi noan'anaviy metodlaridan foydalanishi mumkin.

O'qituvchi o'z tajribalaridan va kasbiy mahoratidan kelib chiqqan holda, sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlarini e'tiborga olib zamonaviy darslarning quyidagi kombinatsiyalariga alohida e'tibor berish lozim:

- integral fanlarning ilg'or yutuqlari, komp'yuter, pedagogik texnologiyalar va axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan keng foydalanish, darsni hozirgi zamon o'quv-tarbiyaviy jarayon qonuniyatlarini asosida tashkil etish;
- darsda barcha didaktik tamoyil va qoidalarining optimal nisbatlarini ta'minlash;
- o'quvchilarning qiziqishlari, iqtidori va talablarini e'tiborga olgan holda, ular tomonidan bilimlarning puxta o'zlashtirilishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;
- o'quvchilarda fanlarning o'zaro aloqadorligi asosida bilishga qiziqishni rivojlantirish;
- o'quvchilar tomonidan egallangan bilim va malakalarga, shuningdek, ular ongi va tafakkurini rivojlantirish darajasiga tayanish;
- o'quvchining o'zi qiziqqan, orzu qilgan kasbi bo'yicha mahoratini har tomonlama shakllantirishni motivatsiyalash va faollashtirish;
- o'quv-tarbiyaviy faoliyatning barcha bosqichlarida mantiqiylik va emotsionallikni ta'minlash;
- pedagogik texnologiyalarning eng so'nggi yutuqlaridan o'z o'rnida samarali foydalanishni bilish;
- zarur bilim, ko'nikma va malakalar, fikrlash va faoliyatning ratsional usullarini shakllantirish;
- mavjud bilimlarni dunyoviy bilimlar bilan doimo boyitib boorish va o'z ehtiyoji darajasida foydalanish;
- har bir darsni yuksak mahorat bilan puxta loyihalashtirish, re-

jalashtirish, tashxislash va taxmin qilish.

O'qituvchi darsga tayyorgarlik ko'rarkan, quyidagi uchta asosiy maqsadga erishish uchun o'z imkoniyatlaridan foydalanishi lozim:

- ta'limiy;
- tarbiyaviy;
- rivojlantiruvchi.

Ta'limiy oquv maqsadlariga har bir darsning ta'limiy vazifalarini aniq belgilash, darsni turli axborot vositalari bilan boyitish, yangi o'rganilayotgan mavzuni ijtimoiy hayot bilan, turmush tarzi bilan bog'lab mazmunan boyitish va optimallashtirish, so'nggi pedagogik texnologiya yutuqlaridan oqilona foydalanish, turli ta'lim shakli, metodlari va ko'rinishlarini qo'llash, dars tuzilishini shakllantirishga ijodiy yondashish, darsni yuksak pedagogik mahorat talablari asosida o'tkazishni ta'minlash kabilar kiradi.

Tarbiyaviy oquv maqsadlaridan asosiy maqsad, dars jarayonida o'qituvchi tomonidan yangi o'quv materiallari asosida egallangan bilimlardan tashqari uning tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlash, o'quvchilarni umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularda tirishqoqlik, tartiblilik, mas'uliyatni his etish, intizomlilik, erkin fikr yuritish, qobiliyatlilik, e'tiborlilik, halollikni shakllantirishdir.

Rivojlantiruvchi oquv maqsadlari dars jarayonida o'qituvchi o'z imkoniyatlarini o'quvchilarda o'quv-bilish faoliyatining ijodiy sifatlariga nisbatan qiziqishni oshirishga, ijodiy tashabbuskorlik va faollikni rivojlantirishga hamda o'quvchilarning mudroq qobiliyatlarini uyg'otishga, ong va tafakkurlarini dars jarayonida shakllantirishga qaratadi.

Shu bilan birga, ta'kidlash joizki, ta'limning yordamchi shakllari ham mavjud bo'lib, ular asosan o'qituvchining pedagogik tashabbuskorligi natijasida tashkil etiladi. Ta'limning yordamchi shakllari quyidagilar:

turli to'garaklar, praktikum, seminar, konferentsiya, maslahat (konsultatsiya), fakultativ mashg'ulotlar, o'quv sayohatlari, o'quvchilarning mustaqil uy vazifalari.

Ta'lim jarayonida o'qituvchiga qo'yiladigan talablar va ijodiy kayfiyatni boshqarish

Ta'lim jarayoni o'qituvchi ijodiy qobiliyatini namoyish etuvchi sahnavdir. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan o'qituvchilik mahorati hech qachon bir yo'nalishda qotib qolmasligi kerak. O'qituvchining ta'lim jarayonidagi mahorati jamiyatda fan olamida ro'y berayotgan yangiliklar, hodisalar bilan doimo chambarchas bog'langan holda shakllanib boradi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy - siyosiy o'zgarishlar ta'lim sohasida o'qituvchi oldiga yuksak vazifalarni qo'ymoqda. Zamonaviy ta'lim o'qituvchidan quyidagi vazifalarni e'tiborga olishni talab qiladi:

- o'z mutaxassisligi bo'yicha eng so'nggi bilimlardan xabardor bo'lib borish, ta'limni pedagogik texnologiyalar hamda axborot texnologiyalaridan foydalanib amaldagi o'quv tarbiyaviy jarayon qonuniyatlari asosida tashkil etishi;

- ta'limda o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini e'tiborga olib o'z mahoratini, bilimni va qobiliyatini namoyish etishi;

- o'quvchilarning qiziqishlari, layoqati va talablarini hisobga olgan holda, ular tomonidan bilimlarni puxta o'zlashtirishiga sharoit yaratish;

- o'quvchilar tomonidan o'rganilayotgan o'quv fanlarining o'zaro aloqadorligini ta'minlash;

- ta'limni tarbiyaviy jarayon bilan o'zaro aloqadorligi asosida shaxsni har tomonlama kamol topishini faollashtirish;

- o'quv tarbiyaviy faoliyatining barcha bosqichlarida ta'limning emotsionalligini ta'minlash;

- komp'yuter va axborot texnologiyalari asosida fanning eng so'nggi yutuqparidan xabardor bo'lib borish;

- ta'limda o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari, fikrlash va faoliyat turlarini boyitish maqsadida ular ruhini doimiy o'rganib borish;

- har bir darsni puxta loyihalashtirish, rejalashtirish, tashxis va taxmin qilish.

Ta'lim jarayonida o'qituvchi erishishi lozim bo'lgan yutuqlar

ko'p jihatdan uning ijodiy kayfiyatini boshqara olishi bilan bog'liq.

Ijodiy kayfiyat o'qituvchi kasbida muhim ahamiyatga ega bo'lgan xususiyatlardan biridir. Ijodiy kayfiyat, o'qituvchi aql - idrokini namoyon etuvchi pedagogik mahoratning muhim qirasi hisoblanadi.

Ijodiy kayfiyat - o'qituvchining ruhiy holatini bir maromda ushlab turuvchi, kasbiy jihatdan ijodkorligini ta'minlovchi, kasbiy xususiyatlarining o'ziga xos jihatlari ko'rsatuvchi, o'quvchilar jamoasiga tez kiritish ketishini ta'minlovchi vositadir. O'qituvchi o'z ijodiy kayfiyatini vujudga keltirish uchun psixologik yo'nalishlarning xilma-xil usullarini bilish kerak. Bu, darsni fikran xayoldan o'tkazish va loyihalash, har bir o'quvchi qalbiga oson yo'l topa olish mahorati, mulqot madaniyati. O'qituvchi ijodiy kayfiyatini, avvalo, o'zi yaratadi, bu uning xarakter xususiyatidan, o'z kasbiga nisbatan munosabatidan paydo bo'ladi. Quyida tajribali ustozlar sinovidan o'tgan, ijodiy kayfiyatni ta'lim jarayonida shakllantirishning ba'zi vositalarini havola etamiz:

• Yangi o'rganilayotgan o'quv mavzusidan o'z ijodiy kayfiyati uchun vositalar qidirish.

• Sinf o'quvchilari bilan bo'layotgan har bir mulqotdan ijodiy kayfiyat uchun motivlar topa olish.

• His - tuyg'u va kechimmalarini yaxshilikka, ijodiy kayfiyatga yo'naltira olish.

• O'quvchilarning nojo'ya xatgi-harakatlariga doimiy e'tibor bermaslik va qulay vaziyatda rasmiy, ta'sirchan tanbeh berish.

• Dars jarayonida aslo g'azablanmaslik, o'quvchilar kulgisini uchchiq so'z bilan to'xtatmaslik, aksincha, to'g'ri qabul qila olish.

• Dars jarayonida muloyimlik, mehr shafqati bo'lish ulkan pedagogik yutuqlar kaliti ekanligini unutmaslik.

• Doimiy jiddiylik va asabiylashtirish, asab yurak tizimini tez charchatishini unutmaslik.

Bolalar bilan bo'lajak muomala oldidan o'qituvchining ijodiy kayfiyatini hosil qilishda uning o'rganilishi lozim bo'lgan o'quv materialiga o'z hissiy munosabatini ifodalashning tashqi shakllarini oldindan topishga intilishi muhim rol o'ynaydi: bular tegishli imoishoralar, yuz harakatlari, gapirish ohangidir.

Muomalada ijodiy kayfiyatni vujudga keltirish va saqlashning

muhim vazifasi o'qituvchining o'rganilayotgan yangi o'quv materialiga nisbatan o'z hissiy munosabatini ifodalashda topgan tashqi shakllarni mustahkamlashdir, u o'qituvchi tomonidan quyidagi yo'llar orqali amalga oshiriladi:

- darsning borishini, tadbirni fikran yodga tushirish;
- ko'zga oldida takrorlash;
- namuna sifatida san'at (adabiyot, kino, rangtasvir) asarlaridagi vaziyatlardan foydalanish.

Ijodiy kayfiyatni boshqarish—o'qituvchi mehnatining eng muhim kasbiy jihatdan talabi bo'lib, u o'qituvchining sinfda, bo'lalar bilan muomalada erkin bo'lishini, xulq-atvorining samarali bo'lishini ta'minlaydi. Pedagogik ijodkorlikning asosiy bosqichlariga nisbatan o'qituvchining ijodiy kayfiyatiga muomala ta'sirining quyidagi jihatlari ajratib ko'rsatish mumkin:

1) O'qituvchi sinf jamoasi bilan bo'ladigan dastlabki muomalani oldindan payqashi, uning ijodiy kayfiyatini saqlovchi omil ekanligi.

2) Sinf jamoasi bilan dastlabki aloqa bevosita muomala paytida sodir bo'lishi, o'qituvchi ijodiy kayfiyatini rag'batlantiruvchi omil sifatida.

3) O'qituvchining sinf jamoasi bilan mulqoti tizimi, pedagogik faoliyat jarayonida o'qituvchining ijodiy kayfiyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlaydi va rag'batlantiradi.

4) O'quvchilar bilan muomaladan qanoat hosil qilish, keying pedagogik faoliyatda o'qituvchining ijodiy kayfiyatini rag'batlantiruvchi omil ekanligi.

Pedagogik ijodkorlik va muomala jarayonida vujudga keladigan har qanday zo'rliqlarni, shuningdek, boshqa noxush holatlarni yengish uchun o'qituvchi o'z-o'zini tarbiyalash yuzasidan doimiy faoliyat olib borishi zarur. O'z-o'ziga ta'sir qilishning bir qator usullari mavjud bo'lib ularidan eng muhimlari quyidagilardir:

- o'z-o'zini ishonlantirish,
- o'z-o'ziga buyruq berishi,
- o'z-o'zini majbur qilish,
- o'z-o'ziga majburiyat yuklash,
- o'z-o'zini rag'batlantirish,
- o'z-o'zini jazolash,
- o'z-o'zini mashq qildirish,

- o'z-o'ziga ta'sir qilish.

O'qituvchining o'z-o'ziga ta'sir qilishi va uning samarali jihatlari alohida mavzu asosida o'rganiladi.

Kayfiyatni boshqarishda pedagogik mahorat. Pedagogning muomala jarayonidagi ruhiy holati va uni boshqarish yo'llari

O'quvchilar bilan bo'lajak muomala oldidan pedagogning ijodiy kayfiyatini hosil qilishda uning o'quv materialiga hissiy munosabatini ifodalashning tashqi shakllarini oldindan topishga intilishi muhim rol o'ynaydi: bular tegishli imo-ishoralar, yuz harakatlari, gapirish ohangidir.

O'quv materialiga o'z munosabatini ifodalashning tashqi shakllarini o'ylab olish, tabiiyki, darsga, tadbirga shunday psixologik tayyorgarlik ko'rishga tayanadiki, uning tarkibiy qismlari sanab o'tilgan. Darsda, tadbirlarda o'z fikrlari, his-tuyg'ularini qanday qilib yaxshiroq va erkinroq gavdalantirish ustida mulohaza yuritish ekan, pedagog bo'lajak faoliyat vaziyatiga kirib boradi, unga chorlanadi, uning shakllarini his qiladi, faoliyatga bo'lgan o'zining hissiy munosabatini yetkazish vositalarini izlaydi, izlaganda ham faqat shakl hosil qiluvchi vositalarni (intonatsiya, yuz harakatlari va shu kabi) emas, balki mazmunli vositalarni

qildiradi, bu ayniqsa muhimdir. Mazmunli axborotda faqat mantiq va dalil-isbotlarni o'ylab o'tirish bilan cheklanmasdan, hissiy o'zakni alohida ajratib ko'rsatish zarur.

Muomalada ijodiy kayfiyatni vujudga keltirish va saqlashning muhim vazifasi pedagogning materialga o'z hissiy munosabatini ifodalashda topgan tashqi shakllarini mustahkamlashdir, u pedagog tomonidan quyidagi yo'llar orqali amalga oshiriladi: darsning borishini, tadbirni fikran esga tushirish; ko'zga oldida takrorlash; namuna sifatida san'at (adabiyot, kino, rang tasvir) asarlaridagi vaziyatlardan foydalanish.

O'zining materialga bo'lgan hissiy munosabatini ifodalashning punkta shakllari (ularga hamisha bu shakllarni gavdalantirishning bevosita vaziyati tuzatish kiritadi) pedagogga faoliyat va muomalaning o'zgarib borayotgan sharoitida jadal va samarali harakat qilish va (bunisi ayniqsa muhim) darsga tez va samarali chorlanish

imkonini beradi, chunki o'zining hissiy munosabatini ifodalashning puxta shakllarini (ularni pedagog g'ayrat bilan esga tushiradi) unda ularni izlashning jo'shqin jarayoni to'g'risida xotiralar uyg'otadi, bu bilan uning ijodiy kayfiyatini rag'batlantiradi.

Ijodiy kayfiyatni boshqarish jarayonining g'oyat marakkab bo'g'ini guruh bilan bo'ladigan bevosita muomaladan oldingi paytidir. Ijodiy holatni tashkil etish yuzasidan ilgari amalga oshirilgan butun ish o'z ta'sirini ko'rsatadi. Pedagog bo'lajak ishning maqsadiy muhimligini anglash orqali bu ishga o'zini ijtihodlantiradi. O'zi uchun yangi maqsadlar va bog'lanishlarni belgilab olishni lozim, bundan ko'zda tutilgan maqsad - o'quv-tarbiyaviy material asosidagi bo'lajak faoliyatning o'zi uchun yangiligi, maroqliligini sezishdan, bo'lajak ishning ijodiy xarakterini his qilish va anglab yetishdan, startoldi tayyorgarligining sharti bo'lgan bundan oldingi holatni boshqarishdan, tetik kayfiyatga erishishdan iboratdir. Pedagogning startoldi tayyorgarligi uning auditoriya bilan o'zaro fikr almashuv faoliyatiga bevosita qo'shilishi bosqichida ijodiy kayfiyatning o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishidir.

O'qituvchi mazkur dars oldidan darsda eng muhim narsa nima ekanligini yaxshi biladi. U banniso o'z oldida guruhni ko'rib turadi va dars mavzusiga muvofiq ravishda o'ziga darsning vazifasini aniqlab oladi, darsda belgilangan mantiqni takrorlaydi, belgilangan narsalarning so'zsiz bajarilishi uchun yo'l-yurag beradi, o'zi nazorat qiladigan, tayanadigan va ish doirasiga tortadigan o'quvchilarning nomlarini aniqlaydi. Ko'pincha dars ishlamlarini ruxiy jihatdan ko'rib chiqish yoki tajriba, eksperimentning tayyorligini tekshirish yordam beradi, o'z-o'zini tezda tekshirib ko'radi: mendagi ham-ma narsa tayyormi? Psixologik yo'l sizning ongingizdan (mazkur dars uchun ortiqcha, aslida bo'lmagan narsalarni chiqarib tashlaydi; u fikr ufqini yoritib, uning asosida faqat darsning silueti loyihalashtiriladi, shunda sizni sabrsizlik qamrab oladi:

- uddasidan chiqarmikanman va uddasidan chiqishni istayman! —degan aniq tilak paydo bo'ladi.

Darsda biror narsa unchalik chiqmasligi ham mumkin, lekin psixologik yo'l sizning ana shunday ish kayfiyatingizni boshlab bergan bo'lib, na unda darsning tarkibiy qismlarini qayta guruhlashni amalga oshirishni uddalaydiz, ular o'rtasidagi mantiqiy bog'lanishni

yo'qotmaydiz.

O'quvchilar bilan muomala kishi o'zini boshqara bilishi nihoyatda zarurdir. O'qituvchining darsdagi yomon, noijodiy kayfiyati darhol umumiy guruhning ijodiy kayfiyatiga ta'sir qiladi, birgalikdagi faoliyatning samaradorligini pasaytiradi. Ijodiy kayfiyatni boshqarishning taklif etilgan tizimi individual o'zlashtirishni, o'z ustida mustazam yo'naltirilgan ish olib borishni talab qiladi.

O'quvchilar bilan muomala jarayonida va bevosita undan oldin ijodiy kayfiyatni boshqarish pedagog mehnatining eng muhim kasb-korlik talabi bo'lib, u pedagogning guruhda, o'quvchilar bilan muomala va shu kabillarda erkin bo'lishini, hujjatlarining samarali bo'lishini ta'minlaydi. Pedagogik ijodkorlikning asosiy bosqichlariga nisbatan pedagogning ijodiy kayfiyatiga muomala ta'sirining quyidagi jihatlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- 1) pedagogning guruh bilan bo'ladigan muomalani oldindan payqashi uning ijodiy kayfiyatini safarbar qiluvchi omil ekanligi;
- 2) guruh bilan bevosita dastlabki aloqa, bevosita muomala paytida pedagog ijodiy kayfiyatining rag'batlantiruvchi omili sifatida;
- 3) pedagogning guruh bilan muomalasi tizimini, u faoliyati jarayonida pedagogning ijodiy kayfiyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlaydi va rag'batlantiradi;
- 4) muomaladan qanoat hosil qilish shundan keyingi faoliyatta pedagogning ijodiy kayfiyatini rag'batlantiruvchi omil sifatida.

Pedagogik muomala jarayoni o'zi kechadigan bir qator shart-sharoitlar bilan murakkablashadi, muomala shart-sharoitlari uning xarakteriga umuman ancha-muncha ta'sir qilmaydi, aslida ular muomalaning kasbiy yo'nalishini ko'p jihatdan belgilab beradi.

K. S. Stanislavskiy tizimi asosida pedagogning ijodiy jarayonini o'rganish shunga ishonch hosil qildiradiki, ijodiy kayfiyatni, ayniqsa, bevosita "Insonni muomala bilan bog'langan ijodiy faoliyat turlarida safarbar qilish uchun «jismaniy harakatlar» usulini qo'llash juda iqtibolli bo'lib, u haqda alohida gapirib o'tish kerak. Bu usulning mohiyati "Muayyan hissiy holatga xos bo'lgan, kishida bu hissiyotlarning o'zi keltirib chiqarishga qodir bo'lgan jismaniy harakatlarni bajarishdan iborat bo'lib, mazkur hissiyotlarni ana shu harakatlarni ifodalaydi". (Shu narsani esga olaylik: biz hayajonimizni yengimogchi bo'lsak, birmuncha to'xtab, nafasimizni rostdashga, sekinroq

harakat qilishga intilamiz, ya'ni shunday harakat qilamizki, xuddi mutlaqo xotirjam paytimizda qanday bo'lsak, o'zimizni shunday tutamiz, natijada hayajonlanish asta-sekin o'tib ketadi.)

Harakatlar hamisha ham, bizning nazorat qilishimizga bardosh beravermaydi va sekin-asta diqqatni ishga jalb qiladi, begona ta'sirlardan chalg'itadi, bizni zarur his-tuyg'uga, bu o'rinda ijodiy kayfiyatga olib keladi.

"Jismoniy harakatlar" usulidan foydalanishda bordiyu vaziyatida taklif etiladigan holatlarning yangiligi, hissiy reaksiyalarning qudrati vositasidir. Bir vaqtlar qabul qilingan "bordi-yu" so'zini har gal takrorlayverish kerak emas, balki uni yangi vazifalar, nozik farqlar, tovlanishlar bilan ochib berishga harakat qilish, har gal jozibadorlik qilish kerak. Tabiiyki, "jismoniy harakatlar" materialni, guruhni yaxshi bilishga, darsni tayyorlash sohasidagi butun dastlabki ishga, xususan maroqli vazifalar qo'yishga ta'sir qilishi lozim.

Pedagogik ijodkorlikda K.S.Stanislavskiyning «jismoniy harakatlar» usulini ro'yobga chiqarishning o'ziga xosligi shundan iboratki, u pedagogga faqat bevosita ijodkorlik (odamlar bilan muomala) boshlanishidan oldin o'zining ijodiy tabiatini safarbar qilishning vositasi sifatidagina zarurdir, keyin esa "bordi-yu" holatidagi "jismoniy harakatlar" mantiqiy ijodkorlik vaziyati bilan chinakamiga ma'naviy moyillikka sekin asta o'tib o'tadi, endi "bordi-yu" holatida emas, balki guruh bilan haqiqiy muomalada bo'ladi.

Muomalada ijodiy kayfiyatni shakllantirish murakkab jarayondir. Bu yerda ko'pincha pedagog zo'rliq (umumiy hissiy zo'rliqning bir turi) tuyg'usini boshdan kechiradi, buni pedagogik ijodkorlikning omma o'rtasidagi faoliyat, o'zgarib boruvchi ijodkorlik holati, o'zining psixik holatlarini operativ ravishda boshqarish zarurligi, mehnatning o'zaro fikr almashish jihatidan boyligini ko'rsatadi.

Pedagogik muomala madaniyati. Pedagogik muomala usullari

O'qituvchi shaxsini shakllantirish muammosi har qaysi kishilik jamiyatining ehtiyojlari va talablaridan kelib chiqqan holda hal qilinadi. Shu boisdan hozirgi davrda "Ta'lim to'g'risida"gi qonunlar, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da kasb tanlash motivlari,

kasbiy tayyorgarlik, kasbiy layoqat va kasbiy mahorat bilan cheklanginib qolmaslikni, balki bo'lg'usi pedagogik kadrlarda shaxsiyatga yo'nalganlikni tarkib topitirish mutlaqo zaruriy shart ekanligi ta'kidlanadi. Respublikamizda o'qituvchilik kasbining o'ziga xos etnopedagogik fazilatlar, xislatlari, qobiliyatlari ish uslublari mahoratga erishishning yo'llari, shaxslararo muomala maromlari yuzasidan har xil davrlarda bir muncha ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Muomalaning tarbiyalovchi imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish ko'p jihatdan o'qituvchining shaxsiy sifatлари bilan belgilanishini aytilib o'tish kerak. Pedagogik muomalaning to'g'ri tanlangan, pedagogning betakror individualligiga muvofiq keluvchi uslubiy quyidagi vazifalar majmuini hal qilishga yordam beradi:

birinchidan, pedagogik ta'sir ko'rsatish pedagog shaxsi bilan ayvul bir narsa bo'lib qoladi, auditoriya bilan muomalada bo'lish jarayonining o'zi soddalashtadi, u pedagogning o'zi uchun yoqimli, uzoq bo'lib qoladi;

ikkinchidan, o'quvchilar bilan o'zaro munosabatlarni yo'lga qo'yish jarayoni ancha yengillashadi;

uchinchidan, pedagogik muomalaning barcha eng muhim vazifalarining samaradorligi ortadi, shu bilan birga bularning hammasi muomalaning barcha bosqichlarida pedagogning hissiy xotirjamligining ijobiy negizida ro'y beradi.

O'quvchilarda muomalalarning individual uslubini shakllantirish metodikasi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. O'quvchilar muomalasi individual uslubining xaqiqiy shaxsiy xususiyatlarini o'rganish va ularni o'quvchilarning anglab yetishi. O'quvchilarning mustaqil tahlil qilishi, o'zaro har tomonlama tavsifnomalari, o'qituvchilarning kuzatishlari asosida amalga oshadi. O'quvchilar shu maqsadda «Men boshqa kishilar bilan muomalada qandayman?» mavzuida insho yozadilar, bir-birlariga shunga o'xshash mazmunda tavsifnoma tayyorlaydilar va hokazo.

2. Shaxsiy muomaladagi kamchiliklarni aniqlash va ularni barham topitirish yuzasidan qilinadigan ishlar: uyatchanlikni, tortinchoqlikni, muomala uslubidagi salbiy holatlarni yengish.

3. Pedagog uchun muomalaning hissiy jihatdan qulay bo'lgan uslubini ishlab chiqishga doir topshiriqlar va ularni o'z-o'zini kuza-

4. Muomalada o'z individual uslubi asosida pedagogik muomala tarkibiy qismlarini egallash (maxsus mashg'ulotlarda) sohasidagi ishlar.

5. O'z muomala uslubiga muvofiq ravishda pedagogik muomaladan iborat yaxlit hodisani bilib olish borasidagi ishlar va muomala uslubiga aniqliklar kiritish (maxsus mashg'ulotlarda).

6. Haqiqiy pedagogik faoliyat individual uslub asosida o'quvchilar bilan muomala qilish, bu uslubni mustakamlash (pedagogik amaliyot va stajirovka jarayonida).

Ishni endi boshlayotgan o'quvchi individual muomala uslubini shakllantirish ustida muntazam ish olib borishi zarur.

Tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda pedagogik muomalaning jihatlari muhim rol o'ynaydi, ular pedagog bilan o'quvchilarning bevosita o'zaro harakati bilan bog'liqdir. Bu o'rinda bir necha bosqichlar ajratib ko'rsatiladi.

Birinchi bosqich - bu tarbiyachining tarbiyaviy jarayon vaziyatidan xabardorligidir, bu jarayon o'ziga pedagogning xotirasida guruh bilan muomalaning oldingi xususiyatlarini tiklashni, muomala vaziyatini qayd etishni, uni o'zaro harakatning oldingi vaziyati bilan, bu harakatning ilgari rejalashtirilgan andazasi bilan tezda qiyoslab chiqishni, o'z muomala uslubiga aniqlik kiritishni qamrab oladi. Shuni nazarda tutish kerakki, bu bosqich juda tez kechadi va xuddi shu bosqichda zarur so'z, ohang, hujjatvor vujudga kelishi lozim.

Ikkinchi bosqich: Pedagogik muomalaning samarali jarayoni uchun uning shart-sharoitlarini bilib olishning o'zi kifoya qilmaydi. O'quvchilar bilan o'zaro harakatning boshlanishi o'zaro fikr almashishga doir yana bir muhim vazifani hal qilish bilan muomala ob'ekting diqqatini o'ziga jalb qilish bilan bog'liqdir. Muomala ob'ekting, ya'ni o'quvchining diqqatini o'ziga jalb qilish deganda nimani anglash kerak? Buning ma'nosi bo'lajak o'zaro harakatga, ta'limning rejalashtirilgan usullariga, tashkiliy shakllariga ijtimoiy-psixologik negizni asos qilib olish, darsni o'tkazish uchun zarur bo'ladigan o'quvchilar diqqatini jalb qilishdir. Ko'pincha yosh pedagoglar, o'quvchilar har doim o'quvchiga o'z diqqatlarini qaratishlari lozim deb hisoblaydilar va o'zaro fikr almashishga doir bu muhim vazifalarni sobit qadamlik bilan hal qilmaydilar.

Ko'rsatib o'tilgan bevosita muomala bosqichlari pedagogik ta'sir ko'rsatishning nisbatan mustaqil, har bir ko'rinishida vaqti-vaqti bilan takrorlanib turadi, tarbiyaviy jarayonni tashkil etganda ularni nazarda tutish kerak bo'ladi.

Tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishni tashkil etishda muomalaning ahamiyati bilan bog'liq ravishda pedagogik muomala madaniyatiga, tarbiyachining dilkashligiga alohida talablar qo'yiladi, dilkashlik unda kasbkorlik fazilati sifatida namoyon bo'ladi. Tarbiyachi jamoa, guruh va individual ish olib borish jarayonida odamlar bilan muomala qila bilishi, uni o'quvchilar bilan aniq maqsadni ko'zlagan holda tashkil eta olishi va ularni boshqara bilishi lozim. Kasbkorlik o'ld pedagogik dilkashlikning yosh o'quvchi amal qiladigan quyidagi mezonlarini alohida ajratib ko'rsatish mumkin: o'quvchilar bilan turli sohalarida muntazam muomala qilishda barqaror ehtiyojning mavjudligi, muomalaning barcha bosqichlarida hissiy osoyishtalarning namoyon bo'lishi, o'zaro fikr almashishga doir sifatlar, ko'nikmalar va malakalarning mavjudligi.

Mamlakatimizning o'quvchisi quyidagi tomonlari bilan keskin darajada ajralib turishi lozim:

- mustaqil respublikamizning talablari va ehtiyojlariga mos tushuvchi yuksak ma'naviyat darajasidagi qarashlar, kuchli va barqaror e'tiqod, buyuk davlatimiz ideallari, milliy g'oya va istiqbol makuratsiga sodiqlik, vatandparvarlik, fidoyilik tuyg'ulari shakllanganligi, jamoaviylik hissiini mukammal aks ettiruvchi, ijtimoiy-siyosiy faol shaxs ekanligi;

- bolalarga, o'quvchilarga, hattoki jamiyatimizning barcha a'zolariga ham otash, ham samimiy mehr - muhabbat, ularning har qanday ehtiyojlari, qiziqishlari, hatti-harakatlari motivlari, xulq-atvorlarini tushunish ko'nikmasi, malakasi va uquvining mavjudligi;
- jamiyat hodisalari, holatlari, tabiat va voqealari, borliqqa, shaxslararo, guruhlararo, millatlararo munosabatlarga nisbatan pedagogik kuzatuvchanlik, ya'ni perseptiv (idrokka nisbatan sezgirlik) qobiliyatiga egaligi;

- hayot va faoliyatining u yoki bu jabhalarida odamlarning hatti-harakatlari, munosabatlari xususiyatlarini oqilona tushunish ularni identifikatsiyaga, refleksiyaga yo'llashga qobiliyati;
- faqulotdagi vaziyatlarda, o'zgaruvchan shart - sharoitlarda

omilkorlik bilan mo'ljall olish, maqsad qo'yish, reja tuzish, bevosita nazorat qilish, boshqarish va o'z-o'zini namoyon etishga qobiliyat-
liligi;

- pedagogik faoliyatda, jamoatchilik tizimida muvaqqat gu-
ruhiy munosabatlarda ommaviy harakatlarda tashkilotchilik va
boshqaruvchanlik qobiliyatini egallanganligi;

- umumiy qiziqishi qo'lamining kengligi, bilishga oid qiziq-
ishlarning serqirraligi, ilmiy izlanishlarga layoqatligi, muayyan sa-
lohiyat, mahorat darajalariga erishganligi;

- muomala maromi, nutq madaniyati, mantiqan ixcham,
ma'nosi kuchli, ta'sirchan fikr uzatish, ta'sir o'tkazish uquvi bilan
qurallanganligi;

Fikrimizcha, zamonaviy o'qituvchi muomaladoshiga to'g'ri,
omilkor axborot uzatishi va unga subdoshini ishonitra bilishi
kasbiy zaruriyat hisoblanadi.

Tarbiyalashning o'zaro fikr almashish aloqasiga doir quyidagi
dasturini tavsiya etish mumkin.

1. Kasbkor jihatidan o'z-o'zini anglashni (muomalada o'zining
o'zaro fikr almashishga doir sifatlarini, ijobiy va zaif tomonlarini
aniqlashni) amalga oshirish va shu asosda o'zaro fikr almashish yo'li
bilan o'z-o'zini tarbiyalashning dasturini ishlab chiqish. Bu o'rinda
o'z shaxsiga quyidagi yo'nalishlarda baho berish, tajribani tahlil qil-
ish, o'quvchilar bilan maqsadga muvofiqdir, kishilar bilan bo'lgan
muomalada olingan sezgilar tajribasini tahlil qilish, kishilar bilan
bo'lgan mulqotda oldingi muomalaning hozirgi darajasini tahlil
qilish, muomala haqida o'zining ideal tasavvurlarini tahlil qilish,
sizing muomaladagi imkoniyatlaringizni boshqalar (o'quvchilar,
o'qituvchilar) qanday baholashi haqidagi tasavvurlarni tahlil qilish.

2. O'zida dalkashlikning asosiy xususiyatlarini rivojlantirish yu-
zasidan ixtisoslashtirilgan mashqlar asosida ishlash.

O'quvchilar bilan xilma-xil jamoat ishlari olib borish, bunda
o'zaro fikr almashish faoliyatining tajribasi (ma'ruzalar, subhatlar)
hosil bo'ladi.

4. Muomalada salbiy kayfiyatlarni yengish tajribasini shakllanti-
radigan va dalkashlikni rivojlantiradigan vaziyatlar tizimini yaratish.
Taklif etilgan bu tizimga tayanib ish ko'rish pedagogning kasb-
korga oid shaxsiy fazilati bo'lgan dalkashlikni shakllantirishni te-

zlashtiradi.

5. Pedagogik mahorat tizimida ishonitirish va ta'sir ko'rsatish
usullari.

Subhada vazminlik va o'rinni gapirish, gapga chechanlikdan
yugori turadi F. Bekon, Inson dunyoga to'liq shakllangan fe'l-atvor,
axloqiy xususiyatlar dasturi bilan tug'ilmasligi, unga xos fazilatlar,
axloqiy me'yorlar ijtimoiy hayot va oilaviy tarbiya mahsuli ekani
barchaga ma'lum. Barcha zamonlarda xalqlar markaziy ko'cha,
maydon va xiyobonlarni millatning jasoratli farzandlari nomi bilan
atab kelgan.

Ular orasida mardlik namunalarini ko'rsatgan sarkardalariga
emas, ilm-fan, madaniyat, san'at, adabiyot kabi sohalarida jasoratli
mehnat qilganlar ham oz emas. Demak, jasorat kasb tanlamaydi.
U ijtimoiy-ma'naviy muhit, maqsadli va izchil tarbiya mahsulidir.
Shunday ekan, oila va o'quv maskanlaridagi muhitni yanada tako-
millashtirish orqali farzandlarimizni ishonitirib va ta'sir qilib tarbi-
yalash mumkin.

Avvalo, o'g'il - qizlardagi qo'rquv, iktilanish va jur'atsizlikni
yengishga o'rgatish lozim. Chunki, bolani suvga tushirmay suzishga
o'rgatib bo'lmaydi. Darhaqiqat, bolalarni dadilik va jasorat talab
etadigan vaziyatlarda sinamasdan ulardagi qo'rquv va jur'atsizlikni
yengish mushkul.

Agar biz yoshlarimizni jasur, mard, qo'rqmas etib tarbiya qilmo-
qchi bo'lsak, bu ishga boshqacha yondashuv kerak bo'ladi. Chunki
tarbiya tarixining, demak, jasorat tarbiyasining romantik bosqichi
ortda qolgan. Taraqqiy etgan davlatlar allaqachon uning texnologik
bosqichiga o'tib olgan.

Farzandlarimizni oqil va dono, faol va uddaburon, mard va
jasur etib tarbiyalash, avvalo, ota-onaga bog'liq. Biz ularni eng
zamonaviy ilg'or bilimlar bilan qurollantirishga harakat qilamiz.
Endi tarbiyaning yangi tamoyili - shaxs, davlat, millat manfaatlariga
xizmat qiladigan eng muhim fazilatlarini shakllantirish texnologiyasi
yaratilmog'i lozim. Chunki bilim - masallig bo'lsa, fazilat - olovdir.
Olovsiz ovqat pishmaganidek, yoniq qalb, buklimas iroda, tetik ruh,
cheksiz jasorat va sog'lom aql bo'lmasa, zamonaviy bilim va tex-
nologiyalarni hayotga tadbiq etish ham, yangi kashfiyotlar yaratish
ham amimanol.

Ishonishning otasi — aql, onasi — yurak. Ishonch insonning fikrida sodir bo'ladi, so'ngra til va xatti-harakat orqali amalga ko'chadi. Shuning uchun o'zbek milliy pedagogikasi darg'alari aql tarbiyasini muallimlar vijdoniga yuklangan muqaddas vazifa, deb ta'kidlab kelgan. Buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy fikr tarbiyasi haqida bunday degan edi:

Fikr, agar yaxshi tarbiya topsa,
Xanjar, olmosdan bo'lur o'tkir.

Fikrning oynasi olursa zang,

Ruhi ravshan zamir o'lur benur.

Bu yo'lda qanchalik ko'p pedagog yelkadosh bo'lsa, usul va vositalar qanchalik turlicha qo'llanilsa maqsadga erishish shunchalik tezlashadi.

Pedagogika o'z usullarini yo'q narsadan yaratmaydi, ularni o'ylab topmaydi. U hayotdan kishilar hulq-atvorining real omillarini, o'quvchilar hayotini pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tarzda tashkil etish vazifalariga javob beradiganlarini tanlab oladi, tarbiyaviy ishda pedagogik ta'sir ko'rsatish usullari sifatida foydalanadi.

Pedagogik ta'sir ko'rsatish metodikasi o'quvchilarning ijtimoiy-foydali faoliyatini pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tarzda tashkil etish uchun foydalaniladigan vositalar tizimidan iboratdir. Bu vositalar tarbiyalanuvchi shaxsiga qaratilgan bo'lib, o'quvchilarning hulq-atvorini rag'batlantiradi, ularning qiyin va murakkab vazifalarini quvonch ijodiy zavq-shavq manbaiga, ularning shaxsiy muddaolariga aylanadi.

O'qituvchi o'quvchilar bilan ishlab, ularning faoliyatini tashkil etar ekan, o'z ko'rsatmalari bilan o'quvchilarning ayrim harakatlari rag'batlantiradi. Ish jarayonida ularga muayyan mulohazalar bildiradi, tanbeh beradi yoki rag'batlantiradi, yakun yasaydi. Uning ayrim buyruqlari qisqa va lo'nda bo'lib, sezilar-sezilmas majbur qilish rolini o'ynasa, boshqalari ancha keng tushuntirish yo'l-yo'riqlar shakliga ega bo'ladi. Ayrimlari o'quvchilarni faqat ishga jabr qilish zarurati tufayli, boshqalari o'quvchilarning ayrim ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishiga tuzatish kiritish ehtiyoji bilan vujudga kelgan; bir xillari o'quvchilarning keraksiz va noto'g'ri harakatlarini to'xtatib, boshqalari muvaffaqiyatli harakatlarini mustahkamlaydi va qo'llab-quvvatlaydi. O'qituvchi tomonidan berilgan barcha ko'rsat-

malar va tushuntirishlar, mulohaza va tanbehlar pedagogik ta'sir ko'rsatishning ana shu eng muhim usuli bo'lgan talab qilishning turli shakllariga aytildi. Shuning uchun ham muvofiq qilibdan qo'rqmay aytish mumkin, pedagogning talabsiz o'quvchilarning o'quv va ijtimoiy foydali faoliyatini tashkil etishni tasavvur etib bo'lmaydi.

Tajribali pedagog o'quvchilar huzuriga keng harakatlar dasturi bilan birga boradi, o'z tarbiyalanuvchilaridan har biri qachon nima qilishini aniq va muayyan tarzda biladi. Zero, talablar ana shu dasturi ularning ishlari va xatti-harakatlarida amalga oshirish vositasidir, xolos.

Talablar - o'quvchilar jamoasi bilan ishlashning boshlang'ich davrida, dastlabki darslarda ayniqsa, muhim rol o'ynaydi. Ana shu bosqichda guruhda ishlarning qanday borishi, u yoki bu harakatlarning o'quvchilar tomonidan qanchalik aniq bajarilishi ham, o'qituvchining o'quvchi bilan munosabatlari qanday yo'lga qo'yila boshlashi ham, o'quvchilar uni obro'li o'rtoq — o'z rahbarlari deb e'tirof qiladilar yoki yo'qmi, — ularning hammasi tarbiyachining talablariga chambarchas bog'liqdir.

Shunday qilib, o'quvchilar bilan ishlashning boshlang'ich davrida va ular faoliyatining yangi-yangi turlarini tashkil etishda pedagogning talablari o'quvchilarning zarur xatti-harakatlarini rag'batlantirishning muhim vositasi hisoblanadi, shuningdek noma'qul va foydasiz harakatlarning oldini olish va to'xtatish vositasi ham bo'ladi. Talabning asosiy guruhlari va shakllarini qarab chiqamiz.

Pedagogning talablari bevosita talablar bo'lishi mumkin, bunda ular shunday o'quvchilarga qaratilgan bo'ladiki, tarbiyachi ulardan muayyan harakatlarga erishishni kutadi yoki pedagogning talablari vositali talablar bo'ladi, bunda o'qituvchi o'z talablari bilan o'quvchilarda o'z o'rtoqlariga nisbatan navbatdagi talablarni keltirib chiqaradi.

Biz avvalo talabning asosiy shakllarini ta'riflashga o'tamiz, bu usulning u yoki bu shaklini tanlash pedagogik vaziyatni hisobga olish bilan bog'liqdir. Bevosita talablar uchun pedagogik vaziyat ikkita asosiy shartdan, ikki omildan vujudga keladi. Birinchi omil — kimdan talab qilinsa, o'shanning talab qiluvchiga bo'lgan munosabatidir. Ikkinchi omil - bu tarbiyalanuvchining pedagog rag'batlan-

tiradigan faoliyatiga munosabatidir. Umuman olganda bu munosabatlarni biz ijobiy, betaraf va salbiy munosabatlar deb ta'riflaymiz, holbuki amalda bu munosabatlarning juda ko'pdan-ko'p ko'rinishlari ham bo'lishi mumkin.

Endi talab shakllariga to'xtalib o'tamiz. Talab to'ppa-to'g'ri bo'lishi mumkin, bunda o'quvchining murojaati "Shunday va faqat shunday qil" formulasi bo'yicha qat'iy, dadil ohangda ifodalangan aniq ko'rsatmaga ega bo'ladi. Bunday holda o'quvchilarni harakatlarga undovchi omil talabning o'zi hisoblanadi.

To'ppa-to'g'ri talab jamoa bilan ishlashning birinchi bosqichida ayniqsa ta'sirchan bo'ladi. Buni bir adib ko'rsatib o'tgan edi: "Samimiy, oshkora, ishonarli, qizg'in va qat'iy talab bo'lmasa, jamoani tarbiyalashni boshlab bo'lmaydi, binobarin, kindakim ikkilanuvchilardan, berrigan va dalarni shuvab ketuvchilardan ish boshlashni o'ylasa, u xato qilgan bo'ladi".

Pedagog o'quvchilar uchun yangi bo'lgan faoliyatni tashkil etayotgan joyda ham to'ppa-to'g'ri talab zarurdir. Bu yerda to'ppa-to'g'ri talab ta'limning boshlang'ich usuli bo'lgan yo'l-yo'riq berishga o'xshab ketishi, o'ziga e'tiborni jalb qiladi. Shuni ham aytib o'tamizki, to'ppa-to'g'ri talab ko'pincha o'quvchining pedagogga yoki u boshlagan faoliyatga betaraf munosabatda bo'lishi sharoitida ishlatiladi. Bunday vaziyatda to'ppa-to'g'ri, bevosita talabning quyidagi qoidalariga rioya qilish ayniqsa muhimdir.

Birinchi qoida: odatda, talab ijobiy bo'lishi, ya'ni mutlaqo muayyan xatti-harakatni keltirib chiqarishi, o'quvchilarning u yoki bu harakatlarni shunchaki ta'qiqlamasligi, to'xtatmasligi lozim.

Albatta, o'quvchining ta'qiqlashlaridan ayniqsa, o'quvchilar belgilangan hulq-atvor qoidalarini har xil tarzda bo'lgan hollarda foydalaniladi. Biroq pedagoglar talablarining asosiy mazmunini ta'qiqlashlar tashkil etmaydi. Talablardagi asosiy narsa o'quvchilar hulq-atvori va faoliyatining ijobiy dasturidir.

Ikkinchi qoida: to'ppa-to'g'ri talab yo'l-yo'riq tarzida, ya'ni bir xil ma'noli, aniq va tushunarli, konkret bo'lishi lozim. Dastlabki paytlarda o'quvchilarning yangi harakatlarni rag'batlantirganda talab yo'l-yo'riq berish bilan qo'shib ketganday bo'ladi, bu harakatlarni detallashtirib, ularni aniq ta'riflab beradi.

Uchinchi qoida: pedagogning harqanday og'lona, aniq va tayyor-

langan to'ppa-to'g'ri talabi albatta bajarilishi, oxiriga yetkazilishi kerak.

Shuni esda tutish kerakki, o'xshash pedagogik harakat qonunining namoyon bo'lishi natijasida har bir yangi talabning bajarilishi pedagogning keyingi talablari ning kuchi va ta'sirchanligini oshiradi o'quvchi - tarbiyachiga aql-idrok bilan aniq bo'yusinish odatini shakllantiradi. Va aksincha, har bir bajarilmagan talab shundan keyingi talablarning samaradorligini pasaytiradi.

To'ppa-to'g'ri talablarning texnik ijrosi haqida gapirganda, ularni qo'yishning qat'iy, ishonarli ohangini ta'kidlab o'tish kerak. U o'ylashtir, vaziyatga qarab, jiddiy bo'lishi, lekin hech vaqt baqirishga, bolani haqorat qilishga aylanib qolmasligi kerak.

Talab-maslahat tarbiyalanuvchi ongiga ishonchsizlik bildirishdan iborat bo'lib, u yoki bu xatti-harakat, amaliy vazifani turli usulda yechishning maqsadga muvofiqdigi to'g'risida o'quvchining mustaqil ravishda qaror qabul qilish uchun tarbiyachining tavsiyasini o'z ichiga oladi.

Ilmos singari, maslahatni ham majbur qilib tiqishtirmaydilar, tamlash huquqi bolaning o'zida qoladi. Bu shakl ishga ogli munosabatni rivojlantiradi va bundan tashqari, pedagogni katta yoshdagi o'rtiq deb bilishga o'rgatadi, uning obro'si keng bilimlarda, katta hayotiy tajribada, mahoratda yashirilib yotganligiga asoslanadi. Shu bilan birga maslahat — bu hamma narsani ipidan ignasigacha tasvirlab beradigan yo'l-yo'riq emas, balki ko'pincha yechimlarni mustaqil izlashga undashdan iboratdir.

Bevosita talabning bu shakli yana shunisi bilan foydaliki, u o'quvchilarni muayyan vaziyatlarda, ayniqsa paydo bo'ladigan qiyinchiliklarda o'rtiq, o'quvchilar bilan maslahatlashishga o'rgatadi. O'z navbatida pedagoglar o'zlariga o'quvchilar maslahat uchun murojaat qilishni qadrlashni, o'zining javob reaksiyasini shunchaki aytib berish emas, balki kichik yoshdagi o'rtiq, tabiiy yordam ko'rsatishni o'rgatishlari lozim.

Talab-sha'ma o'quvchilarni muayyan hatti-harakatlarga ilhomlantirishning yashirin shakli va eng nozik vositalaridan biridir. Sha'ma ilgari ishlatilgan, yaxshi tanish bo'lgan talablarni, ma'nosi ochib berilmaydigan talablarni o'ziga xos sharti qisqartirishdir. Tajribali pedagogga ba'zan o'quvchilarning zarur harakatlarni ba-

jarishini ta'minlash uchun ko'z tikib qarash, qoshlarning harakati, ritorik savolning berilishi kifoza qiladi. Muayyan sharoitda shama talabning «yashirin» shakli rolini o'ynaydi, u faqat ikki kishiga tushunarli bo'lib, atrofdagilarning diqqatini jalb qilmaydi.

Shartli talab shundan iboratki, bola uchun yoqimni bo'lgan biror faoliyat turi yoqimsiz yoki qiyin faoliyat uchun rag'batlantiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

“Darslarningni qilsang—o'ynagani borasan” - bu bevosita talabning ana shu shakliga eng oddiy misol bo'ladi. Shartli talabdan foydalanganda bajarilishi shart bo'lgan faoliyat bilan sarflangan kuch-g'ayrat uchun o'ziga xos mukofot bo'lgan faoliyat o'rtasidagi aloqa tabiiy edi.

Aks holda o'quvchilarda o'z manfaati yo'lida foydalanish kayfiyati paydo bo'lishi mumkin, bunda shartli talabga endi pedagog amal qilmaydi, o'quvchilar esa uning oldiga o'z shartlarini qo'yadilar: “Bizning futbol o'ynashimizga ruxsat etsangiz, guruhni yig'ishtirib chiqamiz” va hokazo.

Umuman talabning bu shaklini qo'llanishi o'quvchilarni, ularning qiziqishlari va mayllarini yaxshi bilishni, ularning individual qobiliyatlarini va me'yoriy tuyg'usini hisobga olishni nazarda tutadi. Bu usulni (xullas, boshqa har qanday usul kabi) suv iste'mol qilmaslik kerak.

O'yin shaklidagi talabdan odatda qiziqarli bo'lmagan va ba'zan zerikarli mashg'ulotlarni tashkil etish haqida gap boradigan joyda, biror ishni, ayniqsa kichik yoshdagi o'quvchilar bilan ishlashni jonlantirish uchun foydalaniladi.

Misol keltiramiz: Ta'lim muassasasi-internet tarbiyalanuvchilaridan bir guruhi odatda uxlashga yotish uchun juda uzoq, hozirlik ko'rishardi. O'quvchilar tez yechinishni bilmas, o'z buyumlarini tartibsiz qilib tashlayvertshardi. Shunda tarbiyachi kechqurunlari “Kim tezroq?” o'yinlarini o'tkaza boshladi, har kimning vaqtini sekundomer bilan qayd qilib qo'ydi, o'yin hammamini jalb qildi, hatto o'z rekordchilari paydo bo'ldi.

O'quvchilar jamoani tashkil qilishda o'yinga singib ketishi lozim, degan edi bir adib. Bevosita talabning bu shakli nihoyatda ta'sirchan bo'lishi mumkin, chunki o'quvchilarni qiziqitib, ularga quvonch bag'ishlaydi, birinchi qarashda eng yoqimsiz bo'lib ko'rini-

gan ishlarni bajarishdan qoniqish hosil qilishga imkon beradi.

Qorolovchi talabdan pedagog shunday hollarda foydalanadiki, bunda bolaning u yoki bu harakatlarga salbiy baho berish uning yoqimsiz xatti-harakatlarini to'xtatishda rol o'ynaydi va foydali harakatlarni rag'batlantiradi.

Muammoli savollar:

1. Shaxsning o'zaro fikr almashish xususiyatlariga ta'rif bering. Bu xususiyatlar bizda bormi? O'rtog'larimizdachi?
2. Pedagogik muomala bir qolipdagi usullar hamisha ham ijrobiy rol o'ynaydimi? Pedagogik tajriba Sizni qanday xulosalar qilishga undaydi?
3. O'qituvchining rahbarlik kilishda individual uslubni tanlashi nimalariga bog'liq? Aytib o'tilgan hamma uslublarni egallash kerakmi?
4. O'quvchilar bilan muomala qilish metodikasini egallash nima ni bildiradi? Uning tarkibiga kiradigan makalar nimalaridan iborat?
5. O'quvchi shaxsining shakllanishida muomala qanday rol o'ynaydi?
6. Jamoa faoliyati maqsadini belgilashda o'quvchilarni qanday qilib jalb etish kerak? Pedagogik amaliyot vaqtida olingan o'z ta-jribangizni dalil qilib keltiring.
7. Jamoaning o'z-o'zini tashkil etishida ko'rsatiladigan pedagogik yordam qanday bo'lishi mumkin?
8. Turli yoshdagi o'quvchilar muomalasini tashkil etish xususiyatlari nimalaridan iborat? Yoshlar o'rtasidagi muomalani tashkil etish metodikasi qanday bo'lishi mumkin?
9. Individual muomala uslubiga qo'yiladigan metodik talablar nimalaridan iborat?
10. Individual muomala uslubini mashq qildirish bilan hosil qilish mumkinmi?
11. Kasbiy-pedagogik muomala jarayonida ijodiy kayfiyatni boshqarish muammolari nimadan iborat?
12. Ijodiy kayfiyatda muomala ta'siri haqida nima deya olasiz?
13. Pedagogik mahorat tizimida psixologik ta'sir usullariga izoh bering.
14. «Ismoniy harakatlarni» usuli deganda nimani tushunasiz?

15. Ijodiy kayfiyatni shakllantirish degani nima?
16. Pedagogni o'quvchilar bilan muomalasining mohiyati nimadan iborat?
17. Muomala uslubining pedagogik faoliyat uslubi bilan boqililigi nimada?
18. Avtoritar, demokratik va liberal uslublariga izoh bering.
19. O'quvchilar faoliyatini tashkil etishda muomala qanday rol o'ynaydi?
20. O'quvchi muomalasini yaxshilashda nimaga e'tibor berish lozim?
21. O'quvchilar ta'sir ko'rsatish vositalarining hammasini ham tarbiyaviy vositalar deb hisoblash mumkinmi?
22. Pedagogik ta'sir ko'rsatish metodikasidan samarali foydalalanish shartlari qanday?
23. Pedagogik tajriba qanday xulosalar chiqarishga imkon beradi?
24. O'quvchilarga metodik jihatdan qanday qilib to'g'ri talab qo'yish kerak?
25. Pedagogik mahorat tizimida ishonitirish usuli nimadan iborat?
26. Qanday sharoitda ishonitirish tarbiyaviy vosita bo'lib qolishi mumkin?
27. Nima uchun o'qituvchi o'z ishida psixik holatning anglab bo'lmaydigan tarkibiy qismlarini hisobga olishi kerak?

Mustaqil ishlar uchun topshiriqlar

1. Guruhlarga (o'qituvchi-o'quvchi) bo'linib, o'qituvchining kommunikativ qobiliyatlarini ochib bering.
2. Yoshlar o'rtasidagi muomalani tashkil etish metodikasi deganda nimani tushunasiz?
3. Mashq qildirish yo'li orqali individual muomala uslubini takomillash tirish mumkinmi?
4. K.S.Stanislavskiyning "Jismoniy harakatlar" usuli bo'yicha o'yin o'tkazing.
5. Pedagogik boshqaruv va muomalaning avtoritar, demokratik va liberal uslublari misolida namunalar keltiring.

10-MAVZU. 0 'QITUVCHINING TARBIIYACHI SIFATIDAGI MAHORATI

Pedagogika tarbiya ilmi hisoblanadi. Tarbiya - o'sib kelayotgan yosh avlodni mazkur muhit, jamiyat talablari asosida hayotga tayyorlashdan iborat. Tarbiya jarayonida o'sib kelayotgan yosh avlod o'zidan oldingi avlod tomonidan to'plangan bilim, urf - odat, madaniyat va mehnat ko'nikmalarini o'zlashtiradi, jamiyada o'zining munosib o'rni egallash va hayotiy tajribaga ega bo'lish uchun o'z saviyasi va dunyog'arashini shakllantiradi. Demak, tarbiya yosh avlodni hayotga va mehnatga tayyorlaydi. Bu faoliyat bilan tarbiyachilar shug'ullanadi.

Tarbiyalanuvchilar yoshiga ko'ra maktabgacha yoshdagi, maktab yoshdagi va katta yoshdagilar deb guruhlarga ajratish qabul qilingan.

Har bir guruhlarga tarbiyachilar rahbarlik qilgan ekan ulardan mahorat talab qilinadi. Tarbiyachilar qanday xislatlarga ega bo'lishlari lozim? Bu savolga buyuk pedagog A.S.Makarenkoning quyidagi so'zlari bilan javob bermoqchimiz: "Yuz xarakatlarini yaxshi egallamagan, o'z yuziga zarur ma'nolarini berib bilmaydigan yoki kayfiyatini ushlab tutolmaydigan kishi yaxshi tarbiyachi bo'lishi mumkin emas".

Tarbiyachi tashkil qila bilishi, yura bilishi, hazillasha bilishi, quruvnoq, jahldor bo'la olishi lozim. Tarbiyachi o'zini shunday tutishi lozimki, uning har bir harakati tarbiyalansin. U ayni vaqtda nimani istashini va nimani istamasligini har doim bilishi kerak.

Tarbiyachilardan quyidagilar talab qilinadi: o'z - o'zini tarbiyalash, dunyog'arashining kengligi, o'zini tarbiyalashi uchun ko'proq ilim olishi, intellektual qobiliyatini rivojlantirishi, estetik jihatdan tarbiyalanganligi, mehnatsevarligi va mehnatga layoqatligi. Tarbiyachilar har qanday muammoli vaziyatdan chiqqa olishi, tarbiyalanuvchilar bilan samimiy munosabatda bo'lishi lozim. Tarbiyachi tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini, ularning har biridagi o'ziga xos xarakterini doimo hisobga olishi kerak. Tarbiyachi mehnatining mashqqa shundaki, u maktabdagi ishlarni tashkil etishda albat ta uning uy sharoiti, uni mahallasida, ko'chasida qurshab turgan muhitni yaxshilab o'rganmog'i lozim.

Tarbiyachi sinf o'quvchilari bilan muomala qilganda o'ta ehtiyot bo'lishi va samimiy bo'lishi lozim. Tarbiyachi va o'quvchining muomalasi muammosini ham dolzarb muammo deysiz mumkin.

Ko'p hollarda muomala madaniyatiga ega bo'lmashlik tarbiyachi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Tarbiyachilarning o'z o'quvchilari: ularning fe'l - atvori, tengdoshlari va kattalar bilan munosabatlari, turi voqealarga, muammolarga va hokazolarga munosabatlari doimo o'rganib va bilib borishga intilishi muhimdir.

Tarbiyachi bolalarni qanchalik yaxshi bilib olsa, unda bolalar bilan munosabatlarda xushmuomala bo'lish imkoniyatlari shu qadar ko'proq bo'ladi. Lekin tarbiyachi o'z tarbiyalanuvchilari bilan yaqinroq bo'lishga harakat qilar ekan, ba'zan tegishli daqiqalarda o'zi eshitmasligi lozim bo'lgan narsalarni eshitmasdan o'tib ketishni bilishi lozim. Bunga sabab eshitish odoisizlik bo'lishi mumkinligi, yoki vaziyat noaniq bo'lib turganda, eshitish darhol aniqlik kiritish zarurligini taqozo qilishidir.

Tarbiyalanuvchilar bilan o'z muomalasini baqirig va mayda - chuyda narsalarga aralashishga aylantirib yubormaslik uchun kundalik ishlarda nimanidir sezmay qolishni o'rganish muhimdir.

Nihoyat, ba'zan biror iarsani tushunmay qolish ham foydali bo'ladi. Bularning hammasi tarbiyachining tarbiyalanuvchi bilan bo'ladigan kichik ixtiloflariga barham beradi, unga o'quvchilar bilan bo'ladigan kelishmovchiliklarga tegishli darajaga o'dob bilan aralashuviga yordam beradi. Bu keyingi holatda ayniqsa muhim va murakkabdir. V.A. Suxomlinskiy ta'kidlab o'tganidek, pedagog, bolalar ayniqsa katta yoshdagi tarbiyalanuvchilar o'rtasidagi ziddiyatlarga juda ehtiyotkorlik bilan aralashuvi lozim. U shuningdek, ziddiyatlarning shunday sohasi borki, unda pedagogning aralashuvi nihoyatda cheklangan bo'lishi, hamma kelishmovchiliklar va ziddiyatlar ham kollektivda muvokama qilish ob'ekti bo'lmashligi mumkin va lozim deb hisoblagan edi.

Aftidan, yirik pedagogning bu fikri tarbiyachining yo'l - yo'riqlaridan biri bo'lib qolishi u tarbiyachiga pedagogik nazokat muammosini hal qilishda yordam berishi lozim.

Tarbiyachining muhim ijtimoiy yo'l - yo'riqlaridan biri dalkashlikdir. An'anaviy dalkashlik yoki odamlarga aralashmaslik shaxsning

o'ziga xos xususiyatlari deb qaraladi, bu butunlay konuniy holdir. U dalkashlik odamlarga aralashmaslik shaxsning o'ziga xos xususiyatlariga bo'lib qolmay, shu bilan birga odamning u yoki bu vaziyatdagi muayyan xulq - atvori hamdir, ya'ni ijtimoiy yo'l - yo'rig'idir.

Shaxsning xususiyatiga bo'lgan dalkashlikni atrofdagilar bilan barqaror, kuchli rivojlangan aloqalarga intilish sifatida ta'rifiash mumkin, bu intilish odamlar bilan tez aloqa o'rnatish bilan birga qo'shib olib boriladi. Dalkashlik va odamlarga aralashmaslikni shaxs xususiyatlari sifatida qarab chiqish ektra va introversiya tushunchalari bilan bog'liq ravishda samarali bo'ladi.

Ekstravert shaxslarga umumiy faollik, osoyishtalik, ta'sirlariga moyillik xosdir.

Introvertlar ichki olamga berilgan, odamlarga aralashmaydigan, o'z - o'zini nazorat qilishga, refleksiyaga, ichki xavotirlikka moyil bo'ladi. Albatta, o'ta introvertlar bilan ekstravertlar favkulodda hodisa bo'lib, individlar bu ikki cheki nuqtalar o'rtasidagi oraliqda joylashadilar. Dalkashlik ko'proq ekstravert tiplarga, odamlarga aralashmaslik esa introvert tiplarga xosdir.

Tarbiyachilar bilan munosabatlar sohasidagi eng muhim ijtimoiy yo'l yo'riqlarning ayrimlari ana shulardan iboratdir. Tarbiyachida ularning mavjudligi uning pedagogik nazokatiga rioya qilishining zaminini va sharti hisoblanadi.

Endi tarbiyachilarning tarbiyalanuvchilar bilan muomalasi sohasida namoyon bo'ladigan ayrim bir qolipdagi fikrlarni qarab chiqamiz. Bir qolipdagi fikrlar unuman pedagogik faoliyatda va xususan tarbiyalanuvchilar bilan munosabatlar sohasida ijobiy rol o'ynashi mumkin. Ular pedagogning g'ayratini tejaydi, ancha tez pedagogik ta'sir etishga yordamlashadi va hokazo. Shuning uchun ham tarbiyachiga tegishli bir qolipdagi fikrlarning muayyan sistemasi bo'lishi muhimdir, shu tufayli ko'p hollarda deyarli avtomatik ravishda ta'sirlarga javob bera oladi. Gap birinchi navbatda tarbiyachida hosil bo'lgan shunday fikrlar, chunonchi tarbiyachilar bilan albatta xushmuomalada bo'lish, tarbiyalanuvchi shaxsiga printsiptal yondashuvining yuqori darajasini o'zining birorta ham tarbiyalanuvchisi yomon bo'lishi, buning ustiga ishonchsiz bo'lishi mumkin emasligiga ishonch bilan qo'shib ketishi xaqida boradi.

Lekin bir qolipdagi fikrlar salbiy rol o'ynashi ham mumkin.

Tarbiyachilarda ko'pincha shunday fikr ayniqsa tez - tez uchrab turadiki, u ularning tarbiyalanuvchilar bilan o'zaro munosabatlarini yo'lga qo'yishga xalaqit beradi, bu bolalar bilan o'zining maxsus tarzda tutishining, ya'ni hamkasb yoki boshqa kishilar kabi muomala qilmasligi kerakligiga ishonch haqidagi fikrdir. Masalan, darsda kulguli vaziyat vujudga kelganida kulib, unga barham berish o'rninga ba'zi tarbiyachilar "Tarbiyalanuvchisiga" bunga jiddiy, qat'iy javob beradilar hamda ahvolini, shu tariqa murakkablashtirib yuboradilar. Yoki hamkasbi tarbiyalanuvchilar bilan xaqiqatda nazokatiz munosabatda bo'lganiga qarshi turish o'rninga, tarbiyachi uni himoya qila boshlaydi va hokazo.

Ayrim tarbiyalanuvchilarga bir xil munosabatda bo'lish ham tarbiyachiga halaqit beradi. U yoki bu tarbiyalanuvchiga beriladigan baho (ijobiy yoki salbiy) tarbiyachining bu tarbiyalanuvchiga nisbatan va uning tarbiyachiga nisbatan munosabatiga doir hatti-harakatlarini "Mustahkamlashi" va aniqlab borishi mumkin. Bunday holda tarbiyachi o'z tarbiyalanuvchilarining atrofi - tevarakdagi voqe'lik ta'siri ostida muayyan tomonga o'zgarib borishini ko'ra olmay qoladi.

Buning oqibatida u tarbiyalanuvchining tarbiyachi bahosiga mos bo'lib tushmaydigan hatti - harakatlari va xulqini oldindan ko'rishga qodir bo'lmaydi. Agar tarbiyachi yosh insonga beriladigan har qanday baho (hatto ijobiy baho ham) oxirigacha xaqiqiy va adolatli bo'lishi mumkin emasligini tushunsagina mazkur bir qolipdagi fikrni yengishi mumkin. Mazkur baho tarbiyalanuvchi hayotining o'zgarib borishini hisobga olmaydi, uning rivojlanish istiqbollari va har bir tarbiyalanuvchida (u qanday yoshda bo'lmasin) qandaydir ichki tugallanmagan narsa borligini hisobga olmaydi.

Tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlari to'g'risidagi bir xil tasavvur ham tarbiyachiga halaqit berishi mumkin. Ayni vaqtda shu narsa aniqki, har bir yoshda tarbiyachining nuqtai nazaridan u voyaga yetkazishi lozim bo'lgan shaxs qiyofasi uchun yaroqsiz bo'lgan, lekin bu yosh uchun mutlak tabiiy bo'lgan ko'rinishlar ham bo'ladi. Bu ko'rinishlarning juda ko'plari keyinchalik tarbiyachining aralashuvisiz yo'q bo'lib ketadi.

Agar tarbiyachi tarbiyalanuvchilarga nisbatan muayyan holatda tursagina (bu holat ularning yoshiga qarab turlicha bo'ladi) peda-

gogik ta'sir ko'rsatishni muvaffaqiyatli amalga oshira oladi.

Mazkur holat tarbiyalanuvchilar bilan muomala sohasida tarbiyachining asosiy yo'l - yo'riqidan iborat bo'lib, u tarbiyalanuvchilarga psixologik va yosh xususiyatlarga monand bo'ladi.

Tarbiyaning mavjud tajribasini taxlil qilish, tajriba sinov ishi tarbiyalanuvchilarning yoshiga muvofiq ravishda tarbiyachi holati (tug'an yo'lining o'zgarish mezonini aniqlashga imkon beradi).

Bu tarbiyalanuvchilar kollektiviga nisbatan tashqi holatda ma'lum darajada ichki holatga o'tish, tarbiyalanuvchilarga bevosita ta'sir ko'rsatishning kamayishi va bevosita ta'sirining ortishi, kollektivni boshqarish vazifalarini bir qismini tarbiyalanuvchilarning o'z - o'zini boshqarish organlariga berish, har bir bola shaxsning ichki olamiga ko'proq ta'sir ko'rsatishga o'tishdir.

Turli yoshdagi tarbiyalanuvchilarning muomalasiga ta'sir ko'rsatish sub'ekti bo'lgan tarbiyachi tug'an yo'lini umunlashtirilgan tavsifni quyidagicha tasavvur qilish mumkin. Quyi sinflarda tarbiyachi tashkilotchi bo'lib maydonga chiqadi. V.Dalning lug'atiga qaraganda - tuzuvchi, ta'sir etuvchi (tashkil etish - yo'lga qo'yish, belgilash, tartibga keltirish, tuzish, hosil qilish, qat'iy asoslash degan so'zdan) ma'noni bildiradi. Pedagogning kichik yoshdagi tarbiyalanuvchilar hayotiga ta'sir ko'rsatishining asosiy mazmuni uni tashkil etish zaruriyati bilan belgilanadi.

Kichik yoshdagi tarbiyalanuvchilar kollektivlarda talabchan va quvvatli tarbiyachi bo'la oladigan bolalarning faol ijodkorlik bilan to'la hayotini tashkil etib, ular orasida o'zaro xayrixohlik, e'timodlilik vaziyatini, zavqli vaziyatini vujudga keltira oladigan tarbiyachilar katta obro' - e'tibor qozonadilar. Bolalar katta yoshdagi bunday kishilarni o'z do'stlaridek qabul qilishga moyildirlar. Bunday munosabat eng yaxshi munosabatdir, chunki u katta yoshdagi kishiga jo'shqin qulaylik bag'ishlaydi, uning ko'pgina tashkiliy vazifalarini hal etishni osonlashtiradi, tarbiya vazifalarini mohirlik bilan samarali hal etishga yordam beradi.

O'smirlar o'qiydigan sinflarda tarbiyachining holati rahbar degan so'z bilan ifodalanishi mumkin. V.Dal' bu so'zni quyidagicha ya'ni ko'rsatuvchi, murabbiy, ishbo'shi, boshlovchi deb ta'riflaydi. Pedagoglarning o'smirlarga ta'sir ko'rsatishining asosiy mazmuni ularning faoliyatiga rahbarlik qilish zarurati bilan belgilanadi, bu faoliyat

o'z - o'zini tashkil qilishning ko'proq ulushini o'ziga qamrab oladi, bu esa tarbiyachining ta'lim - tarbiya jarayonining rahbari sifatida o'quvchilarga qo'yadigan talablari mazmunini belgilab beradi.

Ko'rinishlarning juda ko'plari keyinchalik tarbiyachining aralashuvsiz yo'q bo'lib ketadi.

O'smirlar pedagogik talablarni ongli va siddiqildan bajarishlari uchun talab mavzuga nisbatan tarbiyachi va tarbiyalanuvchining bir xil yo'l tutishi zarurdir, u bilish nuqtai nazaridan qiziqarli bo'lishi yoki amaliy jihatdan foydali bo'lishi zarur, yoxud hissiyotlarni yengillashtrish va hokazolar uchun kerak, boshqacha so'zlar bilan aytganda, kollektiv faoliyat jarayonini qulaylashtirish uchun zarurdir, aks holda talab samarasiz bo'lib qoladi.

Katta yoshdagi o'smirlarga nisbatan tarbiyachi homiy yoki tarbiyachi holatiga turadi, bu so'zlar V.Dal' lug'atida "Homiylik qiluvchi, g'amxo'r, serharakat" sifatida ta'riflanadi. Bunday holat shuni taqozo qiladiki, tarbiyachi faoliyatining shunday sohalarida, ya'ni bevosita aralashuv kam samara beradigan sohalarida tarbiyalanuvchilarning o'zaro harakatlarga alohida e'tibor berish lozim. Bu esa pedagogdan katta yoshdagi o'smirlarga o'ziga xos xomiylik qilishni talab etadi, bu avvalo ularning bu sohadagi ahvoli yaxshi bo'lishi haqida bevosita g'amxo'rlikni o'z ichiga oladi. Shu munosabat bilan tarbiyachilarning tarbiyalanuvchilar bilan munosabati xarakteri ko'p jihatdan pedagoglarning katta bo'lishga intilishdan iborat yosh xususiyatini qanchalik hisobga olishga bog'liq. Katta yoshdagi o'smirlar ko'pincha tarbiyachilarning ularning katta bo'lib qolishganini e'tirof qilishlariga erishmoqlari qiyin bo'ladi (xususan rahbarlikda demokratik uslubga amal qilmaydigan tarbiyachilar bunday yo'l tutadilar).

Bu hol ishonchli muomalaga erishishda muayyan to'siq hosil qiladi. Tarbiyachilar tarbiyalanuvchilarning katta bo'lib qolganini e'tirof qilishmagach, ularning bir qismi tarbiyachilar bilan o'zlarining chinakam qiyofalarini yashirib muomala qila boshlaydi. Ular ba'zan tarbiyachilarga ma'qul tarzda o'zlarini tutishga intiladilar. Shunday qilib, tarbiyalanuvchilarda moslashuvchanlik va nosamimiylik kabi xususiyatlar shakllanishi uchun zamin yaratiladi. Bu esa tarbiyachining tarbiyalanuvchilarga ta'sirini qiyinlashtiradi, ularni to'lg'inlantirayotgan masalalarni hal qilishda yordam ko'rsatish

ya'ni homiylik pozitsiyasini ro'yogga chiqarish imkoniyatidan maxrum etadi.

Yuqori sinflarda tarbiyachining holati konsul'tant, ya'ni muayyan sohada maslahatlar beruvchi mutaxassis so'zi bilan ifodalanishi mumkin. Tarbiyalanuvchilarga ta'sir ko'rsatgan mazmuni tarbiyachi ularning faoliyati bilan bog'liq ravishda beradigan tavsiyalar bilan belgilanadi.

Tarbiyachi bilan tarbiyalanuvchi ob'ektiv ravishda turli avlod vakillari hisoblanadilar. Har bir yangi avlod oldingi avlodlarga nisbatan bir muncha yangi sharoitda hayotga kirib keladi.


Tarbiyalanuvchilarning o'zlari ham avlod — avlodga o'zgarib boradilar. Buning oqibatida har bir yangi avlod otalar merosini passiv ravishda emas balki faol ravishda o'zlashtiradi. Bu o'zlashtirish katta avlodlar bilan doimiy mulqotda bo'lganidek sodir bo'ladi. Tarbiyachi yuqori sinf tarbiyalanuvchilari bilan mulqot yo'li bilan muomala qilganda o'tmish g'oyaviy merosining muhim ahamiyatini tasdiqlab borishi lozim. Bunday holda u keng muammolar bo'yicha maslahatchi

bo'lib qoladi va yuqori sinf tarbiyalanuvchilarga samarali ta'sir ko'rsatish imkoniga ega bo'ladi.

Bolaning xarakterini, oiladagi tarbiyasini, uning or - nomusini, sharn - hayosi kabi nozik tuyg'ularining tarbiyalanganlik darajasini bilmay turib, birdaniga jamoa orasida uyalitirish, yaxshi o'ylab ko'rmaslik yoki jahl ustida tinimsiz (tan jarohati yetkazish) katalaklash mumkin emas. Sizing tanlagan jazo usuligiz o'quvchini yoki farzandingizni qilgan xatosini tushunishga, boshqa qilmastiligi tarbiyaviy saboq bo'lishi kerak. Jazo adolat mezoniga tayanib qo'llanilmog'i lozim. Zero, bu qo'llagan jazo usuligiz o'quvchilarning shartiga, g'ururiga va uni ruhiy azob uqubatlariga solmasligi nazarda tutilishi kerak. Agar bu jazo usullari o'zingizning samarasini bermasa, u holda ehtiyotkorlik bilan maktab ma'muriyati va jamoa hammkorligida boshqacha choralarini ishlab chiqishi kerak.

O'quvchining kasbiy-pedagogik bilim va ko'nikmalarini gurohlarga ajratib tushuntirish. Ya'ni, o'quvchi uchun shaxsiy xususiyatlarining o'zi yetarli emas, balki pedagogik faoliyat ko'rsatish uchun umumkasbiy va maxsus bilim va ko'nikmalar ham zarurligi aytilib o'tiladi.

O'qituvchining kasbiy pedagogik bilimlari quyidagilarni o'z ichiga oladi: o'qituvchi pedagogika fanining metodologik asoslari, ta'lim va tarbiya jarayonining ichki qonuniyat va qoidalari, maqsad va vazifalar, mazmuni, tashkiliy shakl va usullari; o'quvchi bolalarning yosh psixologiyasi va ularning o'ziga xos xususiyatlarini; bolalar anatomiyasi, fiziologiyasi va maktab gigienasi asoslari; maxsus fanlar nazariyasi va ularni o'qitish metodikasini chuqur bilishi zarur.



8-rasm. Pedagogik konikmalar

O'qituvchi uchun bilimni o'zi yetarli emas, balki u nazariyani amaliyot bilan bog'lay olish ko'nikmasiga ham ega bo'lmog'i lozim. Buning uchun unga pedagogik ko'nikmalar kerak bo'ladi.

Pedagogik ko'nikmalar - bu turli o'zgaruvchan sharoitlarda pedagogik vazifalarni hal yetishga qaratilgan xatti-harakatlar majmuasidir. O'qituvchi pedagogik ko'nikmalarini quyidagi tarkibiy qismlarga ajratish mumkin: tashxislash, loyihalashtirish va rejalashtirish, axborot berish, qadriy - emosional yo'naltirish, muloqot qila olish, tashkilotchilik va refleksiv ko'nikmalar.

Bu pedagogik ko'nikmalarining har bir o'qituvchi faoliyatida alohida o'rin tutadi va bir-ikkinchisini to'ldirib boradi.

1. Tashxislash (diagnostik) ko'nikmasi - o'qituvchining o'quvchilar bilim saviyasi, rivojlanganlik darajalarini aniqlashga qaratilgan hatta-harakatini xarakterlaydi.

2. Loyihalashtirish va rejalashtirish ko'nikmasi - o'qituvchining tashxislash asosida dars loyihasini pedagogik texnologiyalar asosida tuzish, dars konpekti yozish bilan bog'liq ishlarni bajarish.

3. Axborot berish ko'nikmasi - o'quv dasturi materiallarga puxta tayyangan holda o'quvchilarga ravon tilda ma'lumot berish, ular bilan teskari aloqa o'rnatishga qaratiladi.

4. Qadriy - emosional yunaltirish ko'nikmasi - o'quvchilarni umumiyshaxsiy va milliy mafkuraviy, ilmiy, madaniy qadriyatlariga nisbatan qiziqish, ehtiyoj va ijobiy munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan.

5. Muloqot qila olish ko'nikmasi - bu o'qituvchiga har bir o'quvchi, sinf jamoasi, ularning ota-onalari, pedagogik jamoa bilan to'g'ri munosabat o'rnatishni talab etadi.

6. Tashkilotchilik ko'nikmasi - o'quvchilarning turli faoliyatlari (o'yin, o'quv-bilish, mehnat, sport, badiiy) tashkiliy etra olishga qaratilgan xatti-harakatlar.

7. Tadqiqotchilik ko'nikmasi - o'qituvchisidan doim izlanuvchanlikni, o'z ustida ishlashni, sinov-tajribalar o'tkazib turishini talab etadi.

8. Refleksiv ko'nikma - bu o'qituvchining o'z faoliyat jarayoni, uning natijalarini nazorat qilish, baholash, ularga tuzatishlar kiritish bilan xarakterlanadi.

II-MAVZU. O'QITUVCHINING TARBIVA TEKNOLOGIYALARI ASOSIDA FAOLIVAT OLIB BORISHI

Komil insonni tarbiyalash va voyaga yetkazish jarayoni -pedagogik faoliyatning uzluksiz jarayoni bo'lib, pedagogik texnologiyaning so'nggi namunalari doirasida amalga oshiriladigan hamda tarbiyalanuvchilarning ijobiy fazilatlarini shakllantirish va rivojlantirish maqsadlariga qaratilgan tashkiliy faoliyatlardan iborat. Bu faoliyatda o'qituvchi tarbiyaviy jarayonning quyidagi asosiy xususiyatlarini bilishi kerak:

- tarbiyaning yaxlitligi;
- tarbiyaning tizimliliigi;
- tarbiyaning davriliigi;
- tarbiyaning texnologiyaviligi.

Tarbiyaning yaxlitligi tarbiyalash va o'qitish jarayonlarining, shuningdek, o'quvchilarni jamiyat talablari asosida kamolotga yetkazish va shakllantirishga qaratilgan maqsadning ajralmas biriligi tushuniladi.

Tarbiyalash va o'qitish, garchi ilim-fan ularni farqlasada, bir-biriga bog'liq va ko'p umumiylikka ega. Shu ma'noda uzoq tarixga ega millatimiz "Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratmagan" - bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi" (I.A.Karimov). O'qitishning mazmunini asosan dunyo haqidagi ilmiy bilimlar tashkil etadi.

Tarbiyaning mazmunida me'yorlar, qoidalar, qadriyatlar, ma'naviy boyliklar ustunlik qiladi. O'qitish asosan aql-idrokkka ta'sir ko'rsatadi, tarbiyalash esa, birinchi navbatda shaxsning doimiy iste'mol sohasiga aylangan. Ikkala jarayon shaxsning ongi va xulq-atvoriga birday ta'sir ko'rsatadi va ijtimoiy rivojlanishiga zamin yaratadi.

Qanchalik yaqinbo'lishiga qaramay, bu o'ziga xos jarayonlar bo'lib, ilim-fan ularni tarbiya nazariyasida va didaktikada alohida ko'rib chiqadi. Bunda o'qituvchi tomonidan zamonaviy shart-sharoitlarga asoslangan holda uslubiy tamoyil va, ayniqsa, dolzarb hisoblangan butun pedagogik jarayonning yaxlitligi ta'minlanadi.

Tarbiyaning tizimliliigi tarbiyaviy jarayonda umumiylikni tashkil etadi, chunki tarbiyaviy jarayonlar bir nechta tizimlarning turli xususiyatlaridan iborat. Aytish mumkinki, tarbiyaviy jarayonlar —

bu tarbiyaviy tizim holatlarining ketma-ket almashinuvidir. Tarbiyaviy jarayonni tizimli ravishda ko'rib chiqish, tizim va jarayonning tuzilmasi xususiyatlarini, shuningdek, ular o'rtasidagi funktsional aloqalarning ajratib ko'rsatilishini ifodalaydi. O'qituvchi uchun har bir tarbiyaviy uslubning o'ziga xos xususiyatini, mohiyatini, birligining boshqasiga ta'siri natijasida o'zgarishini anglab yetishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik jarayonda tarbiyaning davriliik tuzilishi — bu tarbiya texnologiyalarining asosiy xususiyatlariga muvofiq bo'lgan, uning tarkibiy qismlari yig'indisidir. O'qituvchi buning natijasida uning davriliik tuzilmasini belgilab olishi mumkin:

1. Maqsadni belgilash — tarbiyalashdan kelib chiqadigan maqsadlarni ma'lum bir muddatli jarayonlarga bo'lib chiqish.
2. Mazmunni tanlash — tarbiyalash mazmunini jamiyat talablari darajasida mustaqil ishlab chiqish.

3. Demokratik faoliyatli — tarbiyaviy jarayon ishtirokchilarini tarbiyalashda va o'zaro munosabatlarda erkin fikrlik va umuminsoniylik me'yorlariga rioya qilish qonuniyatlarini.

4. Baholash — tarbiyalash jarayonida erishilgan natijalar samaradorligining o'qituvchi tomonidan baholanib borishi va doimiy tahlil qilinishi.

Pedagogik faoliyat ham o'qituvchi tomonidan tarbiyaviy jarayonning tuzilmasiga muvofiq quriladi: faoliyatning maqsadlari, mazmuni, usullari va turlari ishlab chiqiladi va natijalari taxlil qilinadi.

Tarbiyalash maqsadlarini aniqlash pedagogik aniqlashni (diagnostika) — tarbiyaviy jarayon holati, birinchi navbatda, o'quvchilarning tarbiya ko'rganliklarini, shuningdek, jarayonning boshqa shartlarini o'rganishni talab etadi.

Tarbiyaviy jarayon boshqichlarining o'zaro munosabatida tarbiyaviy jarayonlarning ketma-ketligi uning davriliigini va qaytarilib turishini belgilaydi. Shaxs rivojlanishida tarbiyaviy maqsadlar o'qituvchi tomonidan uning yoshiga qarab belgilanadi va rejalashtiriladi. Tarbiyaviy jarayonning davriliigi shaxsning yosh xususiyatlarini hisobga oladi.

Bunda asosiy e'tiborni quyidagi faoliyatga qaratish kerak:

- shaxsning muayyan bir yoshiga xos bo'lgan anatomik, fiziologik va psixologik xususiyatlarining chukur o'rganilishi;

- davriylik tizimi asosida tarbiyaviy ish faoliyatining tashkil etilishi;

- muayyan bir yoshga xos bo'lgan tarbiyalanganlikning doimo aniqlanib (diagnostika), loyihalashtirilib borilishi;

- ijobiy natijalar beradigan tarbiyaviy o'zaro ta'sirning o'qituvchi tomonidan turli shakl va metodlari darajalari belgilanib (diagnostika) amalga oshirilishi.

Tarbiyaning texnologiyaviyligi ta'lim muassasalarida tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish va unga erishishga sharoit yaratadi, nazariy asoslangan uzluksiz davom etadigan tarbiyalash jarayonining shakllari, metodlari, usullari va vositalarini o'qituvchi to'g'ri tanlab natijalarga erishishni ta'minlaydi. U ilmiy modelashtirish (loyihalashtirishga) asosida amalga oshiriladi, modelashtirishda tarbiyaviy maqsadlar bir xil ma'noda beriladi hamda o'qituvchi tomonidan insonning shaxsiy xususiyatlari va sifatlarini rivojlantirishning muayyan bosqichlarini ob'ektiv ravishda o'lchash va baholash imkoniyatlarini yaratadi.

Tarbiyaning texnologiyaviyligi har qanday pedagogik tizimda — ilmiy muammolar bilan o'zaro munosabatlarda bo'lgan tushunchadir. Biroq, agar ilmiy muammo tarbiyalanuvchiga bilim berish, ilmiy tafakkurini oshirish hamda ko'nikma va malakalarini shakllantirish kabi maqsadlarni ifodalaydigan bo'lsa, u holda tarbiya texnologiyasi o'qituvchiga o'quvchilarni tarbiyalash yo'l-yo'riqlari va ularga erishish vositalarini to'g'ri yo'naltirishga yordam beradi.

Tarbiyaning texnologiyaviyligi tarbiyalashga yo'naltirilgan ilmiy muammo sifatida o'quvchilarda axloqiy sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish uchun lozim bo'lgan va komil insonga xos barcha insoniy fazilatlarini muayyan shart-sharoitlarda uzluksiz tarbiyalash asosida takomillashtirishni nazarda tutadi, bu esa ta'lim mazmunining o'ziga xos xususiyatlarini ham belgilaydi.

Shu munosabat bilan tarbiyaviy jarayonni harakatga keltiruvchi kuch, turki asosan nimada ekanligi to'g'risida savol paydo bo'ladi. Pedagogikada inson tarbiyasiga qo'yiladigan, uning hayotida yuzaga keladigan talablar va uning hukmchisi imkoniyatlari, ijtimoiylashuvi, shaxsiy rivojlanish darajasi o'rtasidagi zidsiyatlarda bunda asosiy manba bo'lib hisoblanadi. Ushbu talablar uning yosh xususiyatlariga muvofiq kelgandagina, insonni tarbiyalash va uni shaxs

sifatida rivojlantirish jarayonining boshlanishiga turki bo'ladi. L.S. Vygotskiy bolaning biror harakatini katgalarning yordamisiz qila olishi mumkin bo'lgan holatini dolzarb rivojlanish hududi deb atagan. Bola o'qish jarayonida biror yanginarsani o'qituvchining yordami bilan salohiyatli tarzda o'zlashtirishga qodir bo'lgan daraja yaqin rivojlanish xududi bilan belgilangan.

O'qituvchining tarbiyaviy maqsadlarni to'g'ri tanlashi **volyuntaristik** (ko'ngilchanlik) xarakterga ega bo'lmashligi lozim. U pedagogikaning ustubiyoti, jamiyatda ro'y berayotgan o'zgarishlar, ushbu jarayon yuzasidan qabul qilingan qonun va qoidalar asosida belgilanadigan maqsadlar va milliy qadriyatlar to'g'risidagi falsafiy tasavvurlar, shuningdek, jamiyat va davlat taraqqiyotining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va boshqa o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi.

Shaxsni shakllantirish, boshqarish, tarbiyaviy faoliyat natijasida yuksak ma'naviy va axloqiy xislatlarga ega bo'lgan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tasodifiy harakatlar orqali emas, balki, oldindan belgilangan va puxta o'yab tuzilgan tarbiyaviy maqsadlar asosida olib boriladi. Tarbiyaviy texnologiyada uning maqsadi, shakl va metodlari, shaxsning o'z o'zini tarbiyalash va qayta tarbiyalash jihatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, o'qituvchining tarbiyalash maqsadlarini to'g'ri belgilashi va yo'lga qo'ya olishiga nisbatan g'oyaviy yondashuv ijtimoiy buyurtma asosida belgilanib, amalga oshirilishida mavjud shart - sharoitlarni yaryaratish talab etiladi.

Tarbiya ko'rganlikni aniqlash (diagnostika)

O'quvchining tarbiya ko'rganligini aniqlash (diagnostika) — bu o'qituvchi tomonidan shaxslararo munosabatlarda tizimda amalga oshiriladigan o'quvchining shaxsiy xususiyatlari va sifatlarining shakllanganlik darajasini belgilash jarayonidir. Uning natijalarini tahlil qilish asosida tarbiyalash texnologiyasi asosiy unsurlarining yo'naltirilganligi va mazmunini aniqlashtirish yoki tuzatish amalga oshiriladi.

Ta'kidlash joizki, hozirgi vaqtda tarbiya ko'rganlikni aniqlash (diagnostika) muammosi pedagogik aniqlashning (diagnostika)

yangi yo'nalishlardan biri bo'lib, nazariy jihatdan ishlab chiqish bosqichi hisoblanadi. Tarbiya ko'rganlikni aniqlash, pedagogik ilmiy adabiyotlarda mukammal darajada o'z aksini topmagan, bu esa uning tarbiyaviy texnologiyalarda ilmiy asoslangan holda amalga oshirilishini murakkablashtiradi. Bir vaqtning o'zida ota-onalar kabi o'qituvchilar va turli toifadagi tarbiyachilar ham, har doim uning yatlilariga yetarlicha sub'ektivlikni kiritgan holda, ushbu muammoni hal etishga harakat qilmogdalar.

Buning natijasida aynan bir xil xarakterdagi o'quvchilarning tarbiya ko'rganlik darajasi har xil o'qituvchilar tomonidan turlicha baholamogda. Hozirgi vaqtda ishlab chiqilgan ilmiynazariy hollarga tayanmasdan turib, ushbu kamchilikni hal etib bo'lmaydi. Eng avvalo, "tarbiya ko'rganlik" tushunchasining mohiyatini anglab yetish zarur. Ko'plab pedagogik tadqiqotlarda shaxsni o'rab turgan ijtimoiy, biologik va geografik muhit, kishilar bilan o'zaro munosabatida namoyon bo'ladigan eng olibjanob shaxsiy xususiyatlar tarbiya ko'rganlikni belgilab berishi ta'kidlanadi. Tarbiya ko'rganlikni aniqlash asosida shaxslararo munosabatlar tceimida amalga oshiriladigan o'quvchining shaxsiy xususiyatlari va sifatlarining shakllanganlik (rivojlanganlik) darajasini ham o'rganishga imkoniyat yaratiladi.

Tarbiya ko'rganlik darajasini aniqlash jarayonining asosiy xususiyatlari pedagogika va psixologiyada, shuningdek, boshqa fanlarda ishlab chiqiladigan maxsus metodlar tizimini qo'llash natijasida belgilanadi. Bir qator pedagog olimlar ularni uch guruhga birlashtiradi: **ommaviy, an'anaviy va diagnostik metodlar.**

Ommaviy metod sifatida dialektikaning asosiy qonuniyatlari — miqdor o'zgarishlaridan sifat o'zgarishlariga o'tish, qarama-qarshiliklar birligi va kurashi, inkorni inkor etish qonuniyatlaridan foydalaniladi.

Uning asosiy xususiyati shundaki, ular hech qanday istisnosiz, ob'ektiv reallikning barcha hodisalarini taxlil qilish uchun qo'llaniladi, biroq o'qituvchilarga faqat so'nggi natijalarni aniqlashtirib olishni talab etadigan va o'rganiladigan ob'ekt to'g'risida aniq ma'lumotlarni beradi.

Tarbiya ko'rganlikni aniqlashning an'anaviy metodni amalga oshirish yanada aniq natijalarni olishga imkoniyat yaratadi. Ular

allagachon yetarli darajada ishlab chiqilgan va turli toifadagi o'qituvchilar tomonidan qo'llanilmogda. Amaliyotning ko'rsatishicha, ularning ichida kuzatish uslubi birmuncha maqbul hisoblanadi. Ushbu metod insonning shaxsiy sohasi xususiyatlarini, ularning tabiiy (ilmiy, o'yinli, kasbiy faoliyat va boshqalar) shart-sharoitlarda namoyon bo'lishini tahlil qilish asosida o'rganib chiqish tushuniladi. U o'quvchilarning tarbiya ko'rganlik darajasi to'g'risida xulosa chiqarishga imkoniyat beradigan xatti-harakatlari, xulq-atvorini muhokama qilishi, shaxsiy xususiyatlarida namoyon bo'lishini tavsifladigan dalillarning tizimli, maqsadga muvofiq jamlanishini ko'zda tutadi.

Tarbiya ko'rganlikning eng ko'p foydalaniladigan uslubi diagnostik metod bo'lib, unda faoliyat individual diagnostik subbat tariqasida olib boriladi. Ushbu metod pedagogik aniqlash (diagnostika) nuqtai nazaridan o'quvchining tarbiya ko'rganlik darajasini o'zi, atrof muhitdagi kishilar va ob'ektiv real hodisalar to'g'risida bildirgan fikrlari asosida baholab mazmunini tahlil qilish asosida o'rganishdan iborat.

Diagnostik metod asosida o'qituvchi nafaqat o'quvchining ichki dunyosi, uning qarashlari, ishonchlari, idealini chuqur anglab yetishi, balki jiboy intilishlarini qo'llab-quvvatlashi, uni mavjud muammolarni hal etishga yo'naltirishi, foydali ishlgizga ruqlantirishi, yo'l qo'yilgan kamchiliklarga e'tibor qaratsini va ularni bartaraf etishga yordam berish imkoniyatiga ega bo'ladi.

O'quvchining tarbiya ko'rganligini aniqlash (diagnostika)da bir qator metodlar ham pedagogik-psixologik adabiyotlarda batafsil yoritib berilgan. Ulardan har biri, umumiy maqsadga ega bo'lgan holda, maxsus hodisalarini tahlil qilish asosida unga erishilishini nazarda tutadi:

- hujjatlarni tahlil qilish metodi — o'quvchi shaxsini o'rganishga oid hujjatlarning mazmuni (tavsifnomalar, takrizlar, tavsiyanomalar va boshqalar);
- tajriba metodi — o'qituvchilarning fikrlariga ko'ra, zarur bo'lgan sifat, apbatta, namoyon bo'ladigan maxsus tashkil etilgan shartsharoitlarda tarbiya ko'rganlikning namoyon bo'lishi;
- anketalashtirish metodi (interv'yuu) — oldindan tayyorlab qo'yilgan savollarga o'quvchi tomonidan beriladigan yozma yoki og'zaki javoblarning mazmuni;

• mustaqil xususiyatlar metodi – boshqa shaxslarni muayyan bir insonning tarbiya ko'rganligi to'g'risida fikr va mulohazalarini baholash va muhokama qilish;

• tarjimai hol metodi – shaxs hayotida oldingi mehnat faoliyati davrining ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan yoritilishi.

Shuni hisobga olish joizki, ko'rib chiqilgan umumiy metodlarni qo'llash o'qituvchiga tarbiya ko'rganlik darajasi to'g'risidagi o'quvchi haqidagi xulosani shakllantirish uchun yetarli darajada mukammal ma'lumotlarni beradi. Biroq, ulardan har biri apohida natijalarning to'liq ob'ektivligini ta'minlamaydi. Mazkur ko'rsatkich ularni tizimli qo'llashda shart-sharoitlarni oshirish mumkin.

Tarbiya ko'rganlikni aniqlash (diagnostika) natijalarining ishonchligini oshirishning yana bir sharti sifatida uchinchi guruh metodlaridan – maxsus xususiy metodlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Ular, ko'pincha, professional psixologlar tomonidan psixologiya tamoyqlaridan biri bo'lgan psixologik diagnostika (psixodiagnostika) doirasida qullaniladi. Ushbu maqsadga, ko'pincha, o'quvchining maxsus ishlab chiqilgan so'rovnomada bayon etilgan savollarga javoblarni taxlil qilish asosida tarbiya ko'rganlik darajasining diagnostikasini ko'zda tutadigan so'rov ushbu qo'llaniladi. Hozirgi vaqtda G.Ayzenk, R.Kettel, D.J.Teylor, YA.Streyayau kabi xorijlik psixologlarning har bir millat mentalitetiga moslashtirilgan shaxsiy so'rovnomalari hamda mahalliy psixologlarning bir qator ishlanmalari keng tarqalgan.

Shuningdek, ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda komp'yuter texnologiyalari yordamida amalga oshirilayotgan so'rov uslubiyotlari ishlabchilmoqda va amaliyotga tabiiq etilmoqda. Bu ularga kira olish va uning natijati professional psixologlar, balki turli toifadagi o'qituvchilar tomonidan qo'llanilishi imkoniyatini kengaytiradi. Ulardan o'z-o'zini diagnostika qilishda ham qo'llanilishi mumkin.

Yuqorida bayon etilgan fikr-mulohazalarga tayangan holda o'qituvchi tarbiyachi sifatidagi faoliyatida quyidagi jarayonlarni bilishi lozim:

1. Tarbiya muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama rivojlantirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib topitirish jarayoni bo'lib, har qanday tuzum va zamonda ijtimoiy munosabatlar mazmunini aniqlash, ular-

ni tashkil etish asosi bo'lib kelgan.

2. Yosh avlod tarbiyasi turli makon va zamonda muayyan maqsad asosida

tashkil etiladi. Ijtimoiy tarbiyani yo'lga qo'yish jarayonida bir qator vazifalar hal etiladi. Tarbiyaning maqsad va vazifalari ijtimoiy tuzum mohiyati, taraqqiyot darajasi, ijtimoiy munosabatlar mazmun, shuningdek, jamiyat fuqarolarining dunyoqarashi, intilishlari, orzu-niyatlari asosida belgilanadi.

3. Tarbiya jarayonining xususiyatlarini chuqur anglash va ularni inobatga olgan holda tarbiyani tashkil etish oldinga qo'yilgan maqsadga erishish, shuningdek, belgilangan vazifalarni ijobiy hal etish imkoniyatini beradi.

4. O'qituvchi pedagogik texnologiya bilan bir qatorda tarbiya texnologiyasiga ega bo'lishi lozim: xatti-harakatlarning algoritmi, tarbiyalash shakllarini bilishi, har qanday tarbiyalash metodini amalga oshirish bo'yicha barcha operadialarni bajara olishi lozim.

Sinfda o'quv - tarbiya ishlarining samaradorligini oshirishda tarbiyachi mahorati

Sinfidagi pedagogik jarayon o'quvchilarning har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan. Har bir pedagog va sinf faoli ushbu umumiy vazifaning muayyan qismini bajaradi. Sinf rahbarining asosiy vazifasi o'zi birlashtirilgan sinfdagi barcha tarbiyaviy ta'sirni tashkil qilish, rag'batlantirish va muvofiqlashtirishdan iboratdir. U o'z faoliyatini doirasida o'quvchilarning tarbiyaviy ishlarida kompleks yondashishni amalga oshiradi.

- sinf rahbari sinfdagi dars beruvchi o'qituvchilarni o'quv - tarbiyaviy ishlarini kamsuqumlik va xushmuomalilik bilan o'zaro ke-
lilshiradi;

- o'quvchilar jamoasini shakllantiradi va uni ishini yo'naltiradi;
- o'quvchilar va o'quvchilar jamoasi birlashtirilgan faoliyatini muvofiqlashtiradi;

- o'zlarining kuchlari hamda chetdan barcha o'qituvchilar va mu-
tassislarni jalb qilgan holda sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni olib boradi;

- sinfdagi tashqi dunyo bilan, ko'pgirrali aloqasini uyushtiradi

va boshqaradi. Sinf rahbari ishining mazmunli tomoni tarbiyaning umumiy vazifasi bilan belgilanadi.

Sinf murabbiysi o'z tarbiyalanuvchisida dunyoqarashni faol hayotiy nuqtai nazarini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga, mehnatga havas uyg'otadi va ularni ongli ravishda o'z taqdirini o'zi belgilashga o'rgatadi. Sinf rahbarining eng muhim vazifasi o'quvchilarga o'qishga mas'uliyat bilan yondashish va mustaqil qobiliyatini tarbiyalashdir. U o'quvchilarning estetik qiziqishlari va badiiy didini o'stirishda juda katta imkoniyatlarga ega.

Sinf rahbarining alohida vazifasi shundaki, ota - onalarning ham pedagogik madaniyatini oshirib, tarbiyaviy faoliyatida maktab va oila birligiga erishadi. Shunday qilib, sinf rahbari ham tarbiyaviy faoliyatini uyushtiruvchisi, ham o'quvchilarning murabbiysi sifatida xizmat qiladi.

Sinf rahbarining asosiy vazifalari o'rta umumta'lim maktablarining ustavida belgilab berilgan. Ushbu vazifalar doirasiga boshqa o'quvchilar bilan o'quvchilar qo'mitasi, guruhlar tarbiyachilari, shuningdek, korxonalar va muassasalarning oila va maktablarga yordam ko'rsatish kengashlari bilan yaqindan hamkorlik qilish; o'quvchilarga o'z vaqtida o'quv yordamini ko'rsatish, o'quvchilarning sog'lig'ini mustahkamlashga yordam beradigan tadbirlarni o'tkazish; belgilangan hujjatlarni yuritish (choraklik ish rejasini tuzish, sinf jurnali to'ldirish, sinf o'quv kundaliklarini tekshirish); maktab rahbariyatiga o'quvchilarning o'zlashtirishlari, darsga qatnashishi va xulqi to'g'risida ma'lumot berib borish kiradi.

Sinf rahbari bevosita maktab direktori va uning o'rinbosarlari rahbarligida ish olib boradi. Ular unga zarur bo'lgan tashkiliy - pedagogik yordam ko'rsatadilar. Sinf rahbarining ko'p qirrali faoliyati undan yuqori darajadagi va yaxshi ruhiy pedagogik tayyorgarlikni talab qiladi.

Yaxshi tarbiyachi - bu avvalo yuqori ma'naviyatli inson. U o'zining barcha o'y-lari va harakatlari bilan sof, odil va halodir. Xuddi shunday murabbiygina o'zining tarbiyalanuvchilarining ma'naviy dunyosini tushunadi, ularning shodlik va qayg'ulari bilan yashaydi, ularning ishonchini qadrlaydi, ular bilan muomalada xushmuomala va odobli, shavqati, chidamli, kechirimli bo'ladi.

U o'z tarbiyalanuvchilarining har birini yaxshi ko'radi va chuqur

hurmat qiladi.

Zamonaviy sinf rahbari - nozik psixolog va mohir pedagog. U nazariy bilimlari va pedagogik sezgirligi vositasida o'quvchilar va o'quvchilar bilan oson aloqaga kirishadi. Maktabda, undan tashqari - birgalikdagi faoliyatini mohirlik bilan uyushtiradi, o'quvchilarning fikri, tuyg'usi va irodasini bevosita va bilvosita boshqarish san'atini egallagan bo'ladi. U tadqiqotchi va tashkilotchi, jamoatchi, fan, sport, texnika yoki san'atga mahliyo bo'lgan inson. U o'z qalbini butun boyligini o'quvchilarga hadya etadi.

Sinf rahbari shaxsining yaxshi insoniy va kasbiy sifatlari yosh o'quvchida oliy o'quv yurtidagi faol o'qishi va o'z - o'zini tarbiyalash yo'li bilan muvaffaqiyatli shakllanadi.

Sinf rahbarining ishdagi muvaffaqiyati ko'p jihatdan uning rejali va muntazamliligiga bog'liq. Sinf rahbarining faoliyati umumiy tarbiya jarayonining bir qismini o'zida aks ettiradi, shuning uchun ham uni umummaktab yillik rejasiga mo'ljallab, maktab ishining barcha boshqa bo'g'inlari bilan moslashtirish lozim.

Sinf rahbarining tashkiliy - pedagogik ishi o'quvchilarni doimiy o'rganib borish, o'quvchilar jamoasini uyushtirish va shakllantirish bo'yicha tadbirlar o'tkazish, shuningdek, o'quvchilarning ota - onalari bilan birgalikda ish olib borishni qamrab oladi.

O'quvchilarni o'rganish o'quvchi shaxsining psixologik o'ziga xos xususiyatlarni doimiy o'rganib borish, o'quvchilar jamoasini uyushtirish va shakllantirish bo'yicha tadbirlar o'tkazish, shuningdek, pedagogik tadqiqot printsiplari va usullarini egallashni talab etadi, pedagogik nazariyotchilardan farqli o'laroq sinf rahbari o'zining o'quvchilarini sof amaliy maqsadda tarbiyalash uchun o'rganadi.

Sinf rahbari o'quvchilarning aql - idroki, xarakteri, sog'lig'i va boshqa o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida ob'ektiv ma'lumotga ega bo'lish uchun quyidagi asosiy talablarni bajarishi lozim: o'quvchini tabiiy sharoitda, - uning turmush tarzi sharoiti bilan birgalikda o'rganadi, individual va yosh o'zgarishini doimiy hisobga oladi.

O'quvchi shaxsini o'rganish dasturi, eng avvalo, uning hayoti va oilasi sharoiti bilan tanishishini o'z ichiga oladi: oilaning tarkibi qanday, uning moddiy ta'minlanganligi, oilaviy an'analari, oilasidagi munosabatlari, o'qish uchun sharoiti va boshqalar. Sinf rahbarini shuningdek, o'quvchilar ota - onalarning sog'lig'i, bolalarning ka-

sallikka irsiy moyilligi, tarbiya tipi qiziqitiradi.

Muvaffaqiyatli o'qish ko'p jihatdan o'quvchining iste'dodi va qobiliyatiga bog'liq. Shuning uchun ham uning qanday qobiliyatga egaligini, uning tafakkur va xotirasi tipini, kuzatuvchanligini, o'quv materialini tez yoki sekin o'zlashtirishini, fantaziyasi va zakovati, darsdan tashqari vaqtda nima bilan qiziqishi, o'zining bo'sh vaqtini qanday o'tkazishini aniqlash lozim.

Psixolog o'quvchilarni o'rganish jarayonida shaxsning ikki o'ziga xos xususiyati va sifatini sinf rahbariga tavsiya qiladi:

1) shaxsning umumiy xususiyat va sifatlarining o'ziga xosligi - shaxsning yo'nalishi, uning ahloqiy sifatleri, xarakteri, mijozlari va qobiliyati;

2) ayrim ruhiy jarayonlarning - qabul qilish va diqqatining o'ziga xosligi, psixologiyasining farq qiluvchi qirralari, tafakkuri, xotirasining emosional - irodaviy o'ziga xosligi.

O'quvchining intilishi o'rganilganda quyidagi savollarga javob izlanadi:

(U nimani xohlaydi?), uning qobiliyatini o'rganish;

(U nimani qila oladi?), savoliga xarakterini o'rganish;

"U kim?" savollariga javob beradi.

O'quvchilarni o'rganish birtan - bir maqsad emas. U sinf rahbariga o'quvchining rivojlanishini oldindan ko'ra bilish, uning o'qishdagi qiyinchiliklarni ko'ra bilish va ogohlantirish, uning rivojlanishi uchun eng qulay sharoitlar yaratib berish imkoniyatini beradi.

O'quvchining ruhiy rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini, uni o'qitayotgan o'quvchilar va ota-onalari bilishlari lozim.

Shaxsni jamoada tarbiyalash - pedagogikaning yetakchi tamoyili. Dastlabki jamoa mulqotida, o'z - o'zini namoyon qilishda, o'z fikrini ifodalashda o'smirlar va yuqori sinf o'quvchilarining ma'naviy ehtiyojini qondirish quvvatiga ega bo'lgan ulkan tarbiyaviy kuchdir. Jamoa har bir o'quvchiga jamoatchilik hayoti uchun zarur tajribaga ega bo'lish va o'zining eng yaxshi individual sifatlarini rivojlantirish imkonini beradi.

Jamoa tirik jittimoiy organizm kabi tug'iladi, rivojlanadi, yashaydi. Ilk jamoani vujudga keltirish, birlashtirish va butun faoliyatini tashkil qilishda sinf rahbari asosiy rol o'ynaydi.

Jamoani, o'quvchilarni jipslashtirishning umumiy nazariyasi-

ga amal qilgan sinf rahbari ishini ular faoliyatini tashkil qilishdan boshlaydi. Pedagog sinf oldida jittimoiy ahamiyatli va o'quvchilarni jalb qiladigan maqsadni qo'yadi: ular uchun birgalikdagi hayotning qiziqarli va mazmunli istiqbolini ochib beradi.

Shu bilan bir vaqtning o'zida sinf rahbari o'quvchilarga jamoa ichida o'z - o'zini boshqarish organini yaratishlariga yordam beradi. Dastlabki vaqtda u o'quvchilar bilan shaxsan va hujjatli organi ilk taniilib, o'quvchilarning u yoki bu ishlari uchun javobgarni (sinfkom, navbatchi) o'zi tayinlashi mumkin.

Mana shu qisqa tashkiliy bosqichda sinf faollarini aniqlash va boshlang'ich jamoaning barcha organlarini shakllantirish lozim. Jamoa birgalikdagi faoliyat va mulqot jarayonida jipslashadi. Unda, avvalo, ishchanlik munosabati, bir - biriga bog'lanish ma'suliyati munosabati yuzaga keladi. Ular jamoada asosiy kuch hisoblanadi.

Biroq, tezda o'quvchilar o'rtasida, ularning o'zaro manfaatlariga asoslangan shaxslararo o'rtog'lik munosabatlari yuzaga keladi. Asta - sekinlik bilan shaxslararo munosabatlarning yana bir turi: sinfda shaxsiy sifatlariga mutanosib ravishda do'stlar o'rtasida tanlab munosabatda bo'lish paydo bo'ladi.

Sinf rahbari ularning o'zagini, o'quvchilarning amaliy munosabatlarni ko'zda tutgan holda sinfdagi munosabatlarning barcha turlarini qo'llab quvvatlaydi, rag'batlantiradi va sezdimasdan kuzatib boradi.

Faollar nisbatan barqaror bo'lishiga qaramasdan, sinf rahbari rejali ravishda bajaruvchanlik va boshqarish mahoratining birgalikda shakllanishi uchun o'z - o'zini boshqarishda o'quvchilarga topshirgini rejali almashlab bajarishlari uchun sharoit yaratadi.

Sinf an'analari umummaktab an'analariga zid bo'lmagan uni to'ldirishi lozim. Maktab an'anasi boshlang'ich jamoani ma'naviy ishlari bilan bog'lab turadi.

Biroq tarbiyaning bu real qudratini shakllantirish va boshqarish anhangina qiyinchilik tug'diradi. O'smirlar bahs bog'lashda ko'pincha sezgilarga suyanishadi va bu to'liq anglamaydi. Bundan tashqari, ular ba'zan maxfiy, sezdimasdan yuzaga kelishi, ildiz otgach esa, o'quvchilar ongida mustahkam o'rnatilib qolishi mumkin.

Ijobiy jamoa fikrini shakllantirish asosan umumiy muammolarni bajarilgan ishlar natijalarini, jamoaning ayrim a'zolarining hujjat - at-

vorini jamoa bilan muhokama qilishda amalda oshiriladi. Muhokama qatnashchilarining bir - biriga ishonch va hurmat bilan munosabatda bo'lishlari, shuningdek, yorikin namunalar, loyiq faxrlanishlar paydo bo'ladigan kishilar harakatlarining psixologik baholanishi bu ishdagi muvaffaqiyatning zaruriy sharti hisoblanadi.

Buning natijasida o'quvchi o'ziga mos axloq tipini tanlab oladi. Jamoa fikrining shakllanishida sinf devoriy gazetasi va oqilona bezzatligan ko'rgazmali material faol yordam beradi. Devoriy gazeta bu jamoa fikrining ifodachisi, yuqori ma'naviy printsiplarni va normalarning targ'ibotchisidir. Sinf rahbari tahrirat hay'ati ishlarini shunga yo'naltiradiki, devoriy gazeta sinfni to'liqlantiradigan muammolarni aks ettirsin. Jamoa hayoti va o'quvchilar faoliyatini rag'batlantirsin.

Boshlang'ich jamoaning o'quvchiga talabchanligi, o'quvchilarda bir - biri bilan munosabatlardagi do'stlik, e'tiborlilik, sezgirlilikni tarbiyalash bilan qo'shiib ketadi.

Sinf rahbari o'quvchilarning turli shakldagi mulqotlarini tashkil qiladi. O'zaro qiziqishlari va bir - birini ma'naviy boyitishlarga yordam beradi. Bu o'quvchilarning umumiy ishini bajarishdagi hamkorligini taqdirlash, o'qishdagi ixtiyoriy o'zaro bir - biriga yordamlashish, rag'batlantirish, jamoa maqsadi doirasidan chetga chiqmaydigan do'stlikni ma'qullash yo'li bilan amalga oshiriladi. Shu bilan birgalikda, jamoa fikriga suyang'an holda sinf rahbariga lagab qo'yish, ig'vo va nosog'lom guruhlarning paydo bo'lishini ogohlantiradi va yo'llini to'sadi.

Maktabning o'z - o'zini boshqarishida o'quvchi qo'mitalari muhim rol o'ynaydi. O'quvchi qo'mitasi bilan sinf jamoasi o'rtasidagi aloqa, sinf yig'ilishida saylangan sinfboshi orgali amalga oshiriladi. Sinfboshi sinf murabbiysining bevosita pedagogik rahbarligi ostida ishlaydi.

Sinf yig'ilishi - bu sinfda o'quvchilarning o'z - o'zini boshqarishining jamoa organidir. U kamida oyiga bir marta o'tkaziladi. Yig'ilish sinfboshining o'quvchilar qo'mitasining qarori to'g'risidagi axborotini eshitadi. Bu qarorni amalga oshirish bo'yicha aniq tadbirlar belgilaydi. O'quvchilarning sinfdagi navbatchilik jadvalini tasdiqlaydi. Sinf rahbari sinfboshiga o'quvchilar orasida jamoa topshiriqlarini taqsimlash, sinf va maktabda navbatchilikni

tashkil qilish sinfining navbatdagi yig'ilishini tayyorlash va boshqalarga yordamlashadi.

Ota - onalar bilan ishlash - sinf rahbari ish tizimining ajralmas qismidir. Bu ish muntazam va ilmiy asoslangan bo'lsa, yutuqlarga olib keladi, sinf rahbarining umumiy pedagogik faoliyatiga organik ravishda qo'shiib ketadi.

Quyidagilar ota - onalar bilan ishlash tizimining elementlari hisoblanadi. Oila uning tartibini, mikro iqlimini, tarbiyaviy faoliyatining xarakterini o'rganish, bolalarni tarbiyalashda maktab va oilaga yagona talabni belgilash va tutib turish, ota - onalarga izchillik bilan psixologik - pedagogik bilimlar berib borish; o'quvchining aqliy rivojlana borishi to'g'risida doimiy yordam beruvchi qarorlarni qabul qilish, zarur bo'lgan holda ota - onalarga amaliy pedagogik yordam ko'rsatish; bolalar bilan aloqa bog'lashga yordamlashishi; ota - onalar o'quvchilarning sinfdan tashqari o'quv - tarbiyaviy ishlarga jalb qilish.

Ota - onalar bilan ishlash sinf rahbaridan ular bilan ishonchli va ishchan munosabatlarni o'rnatish, pedagogik nazokat, chidam, izchillik va qat'iy e'tiborni talab qiladi.

Uning ota - onalar bilan ishlashdagi asosiy printsiplaridan biri oliyaviy tarbiyadagi ota - onalarning ijobiy va shaxsiy sifatlariga tayanishdir.

Ota - onalar deyiladi «sinf rahbarining ishi to'g'risida»gi ustlabiy xatda, o'ziga xos, doimiy harakatdagi va jamoatchilik asosida tashkil qilingan jamoasidir. Har kaday jamoada bo'lganidek, u o'zining tashkiloti, majburiyatlarini taqsimlash vakolatiga ega bo'lgan boshqarish organiga ega bo'lishi lozim. Sinf rahbari o'zining barcha ishlarda ana shu jamoaga, eng avvalo uning yuqori organ ota-onalar yig'ilishiga tayanadi. Ota - onalar qo'mitasi saylaydi.

Maktab va oilada yagona tarbiya maqsadi - bolalarni har tomonlama rivojlantirish. Ularda tarbiyaga yondashish, umumiy, pedagogik ta'sir ko'rsatishning usul va vositalari jihatidan umumiy, tarbiyaning natijalari to'g'risidagi tasavvurlari umumiy oila pedagogikasi sinf rahbarining tarbiyaviy faoliyati oldida qator ustunliklarga ega: ota-onalik muhabbati, munosabatlarning yaqinligi, ma'naviy va moddiy rag'batlantirishni birgalikda qo'llash imkoniyatining kengligi, shuningdek, tarbiyaviy maqsadda bo'sh vaqtdan birgalikda

foydalanish.

Ota-ona o'quvchining o'z-o'zini tarbiyalashga amaliy yordam ko'rsatish imkoniyatiga ega.

Pedagogning asosiy vazifasi o'quvchilarni tarbiyalashda maktab va oilaga yagona talablarni o'rnatishdir. Talablarning yagonaligi ularning o'xshashligini bildirmaydi. Bunda gap ish tartibiga, o'quvchining o'qishiga, mehnatga, jamoat ishi va bo'sh vaqtiga munosabati to'g'risida ketyapti. Eng muhimi, bu talablar o'quvchi tomonidan unga qarshi "yagona front" sifatida qabul qilinmasligi kerak.

Tarbiyaning umumiy vazifalari ota - onalar jamoasi organi muvaffaqiyati hal qilinadi. Shuning uchun ham sinf rahbari o'zining butun g'ayratini ushbu jamoani jipslashtirishga va uning muntazam faoliyat ko'rsatishiga qaratadi. U ota - onalar yig'ilishini tayyorlash va o'tkazishga katta ahamiyat beradi, chunki undan tarbiyalashning umumiy taktikasini ishlab o'qish, shuningdek, ota - onalarni pedagogik bilim bilan qurollantirish uchun foydalaniladi. Sinf yig'ilishlari tashkiliy, mavzuiy, yig'ilish - munozara, amaliy yig'ilishlar, yakuniy choraklik yig'ilishlari bo'lishi mumkin. Ota - onalar bilan o'quvchilarning intizomiy ishlar va o'quvchilarning o'zlashtirishi ahvoli ni tahlil qilish shaklidagi birgalikdagi yig'ilishlarni, ko'rgazmalarni tashkil qilishlari, ota - onalari oldida badiiy havaskorlik chiqishlar qilishlari mumkin. Barcha holatlarda ham o'quvchilarning o'qish va mehnatdagi muvaffaqiyatlarini qo'pol qiyoslashga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Ota - onalar har doim bolaning har qanday muvaffaqiyatsizligini og'ir oladi.

Hozirgi ota - onalarni bilim darajasi bolalarni tarbiyalash bo'yicha umumiy tavsiyalar, shuningdek, oilaviy tarbiya amaliyotidan elementar namunalar bilan chegaralanmaydi, balki, ota - onalar oldida pedagogik jarayonning qonuniyatlarini ochib beradi, ta'lim - tarbiya yuzasidan psixologiyani yutuqlari bilan tanishtiradi, chuqur sanitariya - gigienik, fiziologik va oilada bolalarni to'liq tarbiyalash uchun zarur boshqa bilimlarni beradi.

Sinf rahbarining ota - onalar bilan shaxsan aloqada bo'lishi nihoyatda katta ahamiyatga ega. Ularning natijaligi avvalo o'zaro hamkorlik qilish istagi, o'zaro hurmat ishonchi va o'zaro talabchanlik bilan bog'liq. Ular munosabatlarning uslubini, odatda sinf rahbari belgilaydi. Ota - onalarni maktabga taklif qilish (chaqirtirish

emas) va ularning uyiga borish oldindan kelishib olinishi bo'yicha amalga oshiriladi. Sinf rahbari ota - onalarni ularning e'tiborini ijobiy tomonga jalb qilgan holda o'quvchining muvaffaqiyatlaridan xabardor qiladi, o'quvchining oldida turgan qiyinchiliklar va muvaffaqiyatsizliklari to'g'risida gapiradi, o'qishda bo'sh shahib ketganligining sabab va asoslarini tushuntirishga harakat qiladi, pedagogik yordam ko'rsatishning usullarini birgalikda belgilaydi. Ota - onalar bilan uchrashishdan pedagog oilani o'rganish uchun foydalanadi.

4. Guruhdagi ish ma'naviy juda serqirra va rejali bo'lishi lozim. Unda tarbiyachi - tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlari, imkoniyatlari, kasb - hunar yoki tanlagan yo'nalishtirish hisobga olishi lozim.

5. O'quvchilar tarbiyalanganlik darajasini aniqlash va tarbiya samaradorligini oshirishda guruh rahbarining ishlari.

Tarbiyalanganlik - milliy urf - odatimiz mezoniga kirmagan, o'zgalarning nafratini qo'zg'atadigan hatti - harakatlardan o'zini tiya bilish va ishini rejalashtirishdan buni hisobga olishi lozim.

Axloqiy tarbiyalanganlik - shaxsning asosiy fazilatlarining (mehnatsevarlik, to'g'riso'zlik, jamoaviylik) yoki axloqchilikning asosiy belgilarining rivojlanishi darajasiga qarab aniqlanadi. Aqliy, zehniy tarbiyalanganlik - aqliy va zehniy sifatleri, fazilatlarining rivojlanganlik darajasiga shaxsning yoshiga ko'ra hamma davrlarda intellektual tarbiyalanganligi haqida xulosa chiqarish mumkin. Aqliy tarbiyaning maktab yillaridagi mezoniy fazilati mantiqiylik hisoblanadi. Balog'at yoshida esa, aqlning qobiliyatlari yangi ma'lumotlarni vujudga keltiradi. Maktab o'quvchilarning aqliy rivojlanishini bosqichlar uchun uch jihat bo'yicha ma'lumotlarni olish kerak: bilishlilik, faollik, aqlning rivojlanganligi (fikrlanchilik).

Demak, tarbiyachi o'quvchilar bilan olib boriladigan ma'naviy ma'rifiy ishlarni rejalashtirishda ko'proq baho - munozara usulida olib boriladigan tadbirlarni belgilashi lozim.

Fan o'quvchilari bilan hamkorlikda bo'lib, aniq va tabiiy fanlar sinfdan tashqari tadbirlarida mantiqiy masalalarni ko'proq olishni maslahat bersa, balog'at yoshida referatlar, ijodiy ishlar, ilmiy maqolalar yozishga da'vat etish lozim.

Tarbiyachi - murabbiyning faoliyat mahorati va pedagogik odobi

Mahorat so'zining lug'aviy ma'nosi haqida gapiradigan bo'lsak – bu ma'lum ishni a'lo darajada bajarimodir. Mutaxassis - murabbiy mahorati deganda esa chuqur bilimli, talabalar ruhiyatini yaxshi biladigan, o'qituvchilikning g'ururi, yuqori darajada bo'lgan insonlar faoliyati tushuniladi. Aslida bizning kasbda mayda ish yo'q. Har bir harakatimiz katta ahamiyatga ega. Bola eng toza, eng nafs va eng buyuk mavjudotdir. Shuning uchun hali u, bu yoshda gunoh qilishga ulgurmagani bo'ladi. Hamma narsaga hayrat va hayajon bilan boqadi. U kattalarni juda aqlli, ishonchli, ibratli deb biladi. Bolarostu yolg'oningizga chippa-chin ishonadi. Bola shuning uchun ham naftski, u hali aldovga yo'lliqmagan, zarbaga duchor bo'lmagan-bir aldov uning ming ishonchini poymol qilishi, bir zarba uning mur'ak dunyoqarashini alg'ov-dalg'ov qilib yuborishi mumkin.

Aytingchi, shunday toza, nafs va buyuk zot qoshiga qanday qilib taraddudsiz, shunchaki ro'baro'y kelib bo'ladi? Bu bokira olamga bo'yinda la'nat, ko'nglida loqaydlik bilan kirish gunohi azim-ku! Bir noqobil shifokor umriga kushanda bo'lishi, no'noq muhandis muhim mexanizmini ishdan chiqarishi mumkin. Noqobil muallim esa har gal o'tiz nafar bolaning ma'naviy dunyosini qorong'i qilib chiqaveradi.

Haqiqatdan ham hayotda turli xil murabbiylarni uchratamiz. Ba'zilar talabalarni joni dildan ortiq sevadi, biroq bilimi sayoz, ba'zilar chuqur bilimga ega bo'lsada talabalar bilan muomala qilishni bilmaydi, ba'zilar o'rta miyona. Sanasangiz muqsonlar ko'payaveradi.

Xo'sh, pedagogik mahorat nima o'zi? U hammada ham bormi? Albatta, mahoratni hammada shakllantirish mumkin. Buning uchun avvalambor sabr - bardosh, qunt bilan o'qish, o'z ustida ishlash, talabalarining ruhiyatini, ularning rivojlanish xususiyatlarini chuqur o'rganib, tahlil qila olish va yana eng asosiy narsalar talabalarga mehr va o'qituvchining o'zida pedagogik g'urur mujassam bo'lmog'i lozim.

Demak, pedagogik mahorat bu-o'qituvchining kasbiy faoliyati jarayonida shaxs sifatidagi xususiyatlarini yuqori darajada tashkil qila olish mahoratidir.

Mutaxassis - murabbiyning mahorati bir qator komponentlardan tarkib topadi.

U pedagogika va psixologiya bo'yicha ilmiy bilimlarni, ya'ni kasbiy bilimlar, kasbiy qobiliyat, pedagogik etika va pedagogik texnikani o'z ichiga oladi.

O'qituvchilar mehnat faoliyati jarayonida o'z ishlarning chinkam ustalariga aylanadilar.

Mutaxassis - murabbiylik mahorati – bu avvalo o'qituvchiga pedagogik vaziyatni ta'lim tizimi oldida turgan siyosiy va pedagogik vaziyatlarga muvofiq tarzda hal etish imkonini beradigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni egallashdir.

Mutaxassis - murabbiylik mahoratining nazariy asosi kasbga oid bilimlardir. Tarbiyaning birinchi galdagi vazifalarini konkret aniqlab, yuzaga kelgan pedagogik vaziyatda pedagogik bilimlarni qo'llashni, tarbiyaviy ishda maqsadga qat'iy va zo'r g'ayrat bilan intilish talab qilmadi. Bu nimaga erishmoqchi bo'lganimizni bilishimiz va buni hech qachon unutmasligimiz kerak. Ammo, pedagogika, psixologiyaga doir bilimlar konkret tarbiyaviy momentlarda yuzaga keladigan barcha vazifalarga tayyor javoblar berolmaydi. Mutaxassis - murabbiyning faoliyati - ijodiy faoliyati va aynan bilimlarini ijodiy qo'llash, mohir - pedagogning o'ziga xos xususiyatini ko'rsatib turadi.

Murabbiyning pedagogik odobi. Mutaxassisning pedagogik odobi - yuksak madaniyati va ma'naviyatida bilimadi. Ochiq ko'ngil, qat'iylik, turli vaziyatlarda o'zini tuta bilishi, talabalarga nisbatan talabchan va mehribon, tamoyilli va g'amxo'r, ota-onalar, talabalar, kasbdoshlar bilan ijodiy mulohazada bo'la oladigan, fikrlovchi va dunyoqarashi keng bo'lishi lozim.

Kasb odobining tarkibi-axloqiy bilim, axloqiy his-tuyg'u, axloqiy e'tiqod, axloqiy idealdan iborat.

Axloqiy bilimlar - insonning hulgini tartibga soluvchi xulq-atvor to'g'risidagi tushunchalar, qoidalar, talablar, tamoyillardir.

Xulq-atvor tushunchalari: yaxshilik, adolat, mas'uliyat, burch, vatandorlik, mehnatsevarlik, kasbga sodiqlik.

Axloqiy qoidalar - umuminsoniy va axloqiy qadriyatlar, diniy, dunyoviy axloqiy bilimlarga ega bo'lishlik.

Axloqiy his-tuyg'u-o'z kasbdan faxrlanish, zavqlanish, g'urur-

va ularning to'g'ri tavsifnomasini tuzishgagina emas, balki talabalar jamoasi va uning har bir a'zosining rivojlanish istiqbollari ham belgilash imkonini beradi. Mutaxassis – murabbiyning amaliy faoliyati – bu ko'plab pedagogik vazifalarni beto'xtov hal qilishdir.

O'zining kasbga doir bilimlari boyligidan ijodiy foydalangan pedagoggina, ularni muvaffaqiyatli hal etishi mumkin. Pedagogik mahoratni egallashi uchun murabbiy talabani rivojlantirish va shakllantirishning hozirgi bosqichida nimalar erishmoqchi ekanligini aniq tasavvur qilishi lozim. Bunda u mafkuraviy tarbiyaning umumiy maqsadlariga asoslanishi kerak.

Pedagog o'quv yuritidavoyq ilmiy bilimlar tizimini puxta egallab olishi kerak. Pedagogik mahoratni egallashda psixologiya - pedagogika fanlariga doir bilimlar katta rol o'ynaydi.

Pedagog, ko'pincha rus tili, matematika bo'yicha bilimlarni egalagan bo'lishi, ammo ularni talabalarga yaxshi tushuntira olmasligi mumkin. Fan asoslarini egallagan ayrim pedagoglar guruh bilan aloqa o'rnatolmaydilar, talabalar bilan to'qnashuvlarga duch keladilar. Bularning barchasi pedagogning tarbiyaviy jarayon, tarbiyaviy malakalar haqida yetarli darajada bilimlarga ega emasligidan dalolat beradi.

Pedagogik mahoratni egallashi uchun mutaxassis – murabbiyga faqat o'z predmeti yuzasidan bilimlarga ega bo'lish kifoya qilmaydi, u pedagogika va psixologiyaga doir bilimlarni o'zlashtirishi va ularni muntazam ravishda kengaytirishi lozim.

Muammoli savollar:

1. Tarbiyaviy ish jarayonida o'qituvchining o'z psixik holatini boshqarish vazifalari nimalardan iborat?
2. O'zining psixik holatini qanday usullar bilan boshqarish mumkin?
3. O'z-o'zini hissiyot jihatdan tarbiyalashni qanday qilib yaxshiroq tashkil etish mumkin?
4. Tarbiyaviy ish jarayonida o'zining ijodiy kayfiyatini qanday qilib yaxshiroq boshqarish mumkin?
5. O'qituvchining ta'lim-tarbiya ishiga psixik rag'batini qanday qilib amalga oshirish mumkin?
6. Tarbiyachi mahorati qaysi komponentlardan iborat?

7. Tarbiyachi mahoratining mohiyati nimalardan iborat?

8. Guruhda tarbiyaviy ishlar rejasini tuzishda nimalar etibor berish lozim?

9. Mehnatni ilmiy tashkil etishda tarbiyaning ilmiy o'rni haqida gapirib bering?

10. Talabalar bilan ishlash shakllari nimalardan iborat?

11. Mutaxassis mahorati nimadan iborat?

12. Mutaxassis mahoratining mazmuni haqida gapirib bering?

13. O'z-o'zini boshqarishda mutaxassis nimalar e'tibor berishi lozim?

14. Mutaxassisning pedagogik odobi, nazokati deganda nima tushuniladi?

Mustaqil ishlar uchun topshiriqlar

1. Pedagogik mahorat, odobning mohiyat - mazmunini o'rganib chiqing va o'z fikringizni bayon eting.
2. Tarbiyachi ruhiy holatini tartibga solish uchun o'z ustida qanday usullar bilan ishlaydi? Misollar orqali izohlang.
3. Insondagi odob sifatlarining o'lchamli mezon bormi? Fikringizni dalillar orqali bayon eting.
4. Mutaxassis mahoratining mazmunini hayotiy misollar bilan ochib bering.

12-MAVZU. O'QITUVCHI PEDAGOGIK FAOLİYATIDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Yangi texnologiyalar kun sayin rivojlanib, axborotlashirish jarayoni tez sur'atlar bilan o'sib borayotgan hozirgi davrda ta'lim sohasida axborot resurslarini tashkil etish va ta'limda foydalanishga mamlakatimizda ham alohida e'tibor qaratilmogda.

Dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida ta'limni axborotlashirish, shu jumladan elektron ta'limni joriy etishga alohida e'tibor qaratilmogda. Elektron ta'limni rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish yo'llari izlanmogda, ta'limda yangi axborot texnologiyalarini joriy etish ta'lim sohasidagi islohotlarning diqqat

markazidan o'rin olgan. Ta'limning fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasining asosi mexanizmlarini ishlab chiqish, uni amaliyotga joriy etish, o'qishni, mustaqil bilim olishni individuallashtirish, masofaviy ta'lim tizimi texnologiyasi va vositalarini ishlab chiqish va o'zlashtirish, yangi pedagogik hamda axborot texnologiyalari asosida elektron ta'limdan foydalangan holda talabalar o'qishini jadallashtirish ana shunday dolzarb vazifalar sirasiga kiradi. O'quv jarayonini elektron ta'lim asosida tashkil etish, shu jumladan, o'quv materiallarini bayon etishni takomillashtirish tamoyillariga ma'lum o'zgartirishlar kiritish zarur bo'ladi. Bunda ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish va ulardan foydalanish maqsadga erishishdagi eng samarali yo'l hisoblanadi. Ta'lim tizimiga elektron axborot ta'lim texnologiyalarini tatbiq etish, ta'lim muassasalarining moddiy texnik bazasini holatini tanqidiy baholash va takomillashtirishdagi asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

- elektron ta'limni o'quv jarayoniga tatbiq etish uchun lozim moddiy-texnika bazasini yaratish;
- o'quv jarayoni uchun elektron ta'limga mo'ljallangan ta'lim texnologiyalarini yaratish va qo'llash;
- talabalarni zamonaviy elektron ta'lim texnologiyalari sohasida bilim va ko'nikmalarini shakllantirish;
- elektron ta'limni joriy etish orqali ta'lim tarbiya va o'qitish jarayonining samaradorligini oshirish.

Elektron axborot resurslari ta'limga oid axborotlarni yig'ish, saqlash, uzatish, qayta ishlash usul va vositalari majmuidan iborat bo'lib, u ta'limga oid turli axborotlarning yaratilishini belgilovchi ichki va tashqi omillarga bog'liq:

- ichki omillar – bu axborotlarning yaratilishi, turlari, xossalari, axborotlar bilan turli amallarni bajarish, ularni jamlash, uzatish, saqlash va h.k.
- tashqi omillar – bu elektron ta'limning texnika-uskunaviy vositalari orqali axborotlar bilan turli vazifalarni amalga oshirishini bildiradi. Elektron ta'limdan foydalanish esa, ular bilan mulqotda foydalanuvchilarning ko'nikma va malakalariga bog'liq. Shuning uchun, dastlab zamonaviy telekommunikatsiya vositalarining o'zini o'zida olish muhim sanaladi. Zamonaviy telekommunikatsiya vositalari imkoniyatlari juda keng tizim bo'lib, unga ma'lum

bo'lgan komp'yuter, mul'timedia vositalari, komp'yuter tarmoqlari, Internet kabi tushunchalardan tashqari qator yangi tushunchalar ham kiradi.

Bularga axborot tizimlari, axborot tizimlarini boshqarish, axborotlarni uzatish tizimlari, ma'lumotlar ombori, ma'lumotlar omborini boshqarish tizimi, bilimlar ombori kabilar misol bo'lishi mumkin. "XXI asr - axborotlashtirish asri" da ta'lim sohasiga elektron ta'limni joriy etish, har bir ta'lim muassasasi faoliyatini boshqarish, o'qitish va o'qish jarayonini axborotlashtirishni talab qiladi. Ta'lim muassasasi elektron ta'lim muhitini tashkil etish bosqichlari psixologik axborot muhitini yaratishdan boshlanadi. Texnologik va ilmiy natijalar, yaratilgan dasturiy mahsulotlar asosida zamonaviy vositalar va metodlardan foydalanishga ehtiyoj shakllantiriladi. Bunda har bir ta'lim muassasasi individual va maslahat mashg'ulotlar asosida pedagoglarni mustaqil va komp'yuter ta'limi tizimini tashkil etish kerak. Respublikamizda boshqa ilg'or mamlakatlar qatori zamonaviy axborot texnologiyalaridan ta'limda faol foydalanishga kirishildi. Lekin, elektron ta'limni joriy etishda qator qiyinchiliklar mavjud bo'lib, u quyidagilardir:

- elektron ta'limni joriy etishga pedagogik jamoalarning yetarli tayyor emasligi;
- elektron ta'lim imkoniyatlari haqida tasavvurlarning ozligi, ularni qo'llash bo'yicha metodik ishlanmalarining kamligi;
- elektron ta'limda foydalaniladigan komp'yuter texnologiyalari vositalarining qimmatligi;
- elektron ta'lim bo'yicha mutaxassislarining yetishmasligi. Elektron ta'limni joriy etish keng ma'noda ta'lim sohasini metodologiya, o'qitish maqsadlarining psixologik-pedagogik tadbiqiga yo'naltirilgan yangi axborot texnologiyalari vositalarini samarali foydalanish va qayta ishlash amaliyoti bilan ta'minlash sifatida qaratiladi.

Ta'lim – shaxsning jismoniy va ma'naviy kamol topish jarayoni, uning barkamollikka intilish jarayoni tushuniladi. Tarbiya – ma'naviy manbalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlarini nazarda tutgan holda o'quvchining o'quvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o'zaro ommaviy va nazariy mulqotidir. Ta'limdan ko'zlanadigan maqsad bu davlat ta'lim standartlarida belgilangan bilim va ko'nikmalarini o'quvchiga yetkazishdan iborat.

Qachonki o'quvchi tomonidan bilim qabul qilinsa va tushunib yetilsa yoki o'quvchi malaka oshirish uchun mo'ljallangan topshiriqlarni amalda namoyish etib bera olsagina ta'lim berish muvaffaqiyatli kechdi deb hisoblanadi.

Ma'lumki, ta'lim olish (ma'lumot olish) jarayoni - bu ma'naviy va aqliy kobilyatlarni tizimli rivojlantirib borish, bilim va tushunchalarni shakllantirish va olingan bilimdan foydalana olish qobiliyatini tarkib topirishdan iborat jarayondir. Bu jarayon ta'lim oluvchining o'zi orqali yoki boshqa bironing ta'lim beruvchining ko'magida amalga oshirilishi mumkin.

Axborot texnologiyalari- Biron ob'ekti holati haqidagi yangi, sifatli axborotga ega bo'lish uchun, birlamchi axborotni yig'ish, qayta ishlash va uzatish vositalari yig'indisidan foydalanish jarayoni.

Axborot qanday ko'rinishda ifodalanishidan qat'iy nazar, uni yig'ish, saqlash, qayta ishlashda axborot texnologiyalaridan foydalanish, standart (an'anaviy) tizimga nisbatan o'quv jarayonini jadal-lashtirib, talabada ilimga qiziqishni oshiradi, ular ijodiy faoliyatini o'stiradi, bilim berishga differentsial yondashish, olingan bilimlarni takrorlash, mustahkamlash va nazorat qilishni yengillashtiradi, o'quvchini o'quv jarayonining sub'ektiga aylantiradi.

Respublikamizda komp'yuterlashtirish va axborotlashtirish shu qadar katta tezkir bilan amalga oshirilmog'daki, inson o'z faoliyatida bu qadar yuqori ko'tarinkilikni qabul qilishi shartligi davr taqozasi ekanligi yaqqol ko'zga tashlanmog'da.

Hozirgi kunda jamiyatimiz taraqqiyoti va tarixini aks ettirish uchun qog'ozli hujjatning o'zi yetarli emas. Har kuni yaratilayotgan qog'ozli hujjatlarning tashkil etilishi uchun qancha katta hajmda qog'oz ishlab chiqarilishi va qancha o'rmonlar yakson qilinib, ekologiya buzilib ketayotganligi, vaqt, mehnat sarflanayotganligi kabi shunday vaziyatlarda ilmiy-texnika taraqqiyoti mahsuli bo'lgan zamonaviy axborot texnologiyalari va uning moddiy asosi - komp'yuterlar xizmatidan keng foydalanib elektron hujjatlar tashkil etish davr taqozasi bo'lib qolmog'da. Ta'limda axborot texnologiyalari predmetining asosiy vazifalaridan biri ta'lim jarayonida elektron hujjatlar yaratish ko'nikma va malakasini yaratishdan iborat.

Hozirgi zamon tarmoqlar texnologiyasi qog'ozli hujjatlarni elektron hujjatga o'tirish

masalalarini hal qilishga kirishadi. Butun jahon banklari elektron tarmoqlar bilan bog'langan va moliyaviy qog'ozli hujjatlar asosan elektron ko'rinishga ega bo'lib bormog'da.

Yoshlarimiz bugungi kun talabiga mos bilimli bo'lishlari uchun turli vazifani bajaruvchi ofislar ishini avtomatlashtirish jarayonidan to'la-to'kis xabardor bo'lishlari zarur bo'lib bormog'da. Ya'ni axborot almashuvini ta'minlovchi magistrallar internet yordamida dunyo bilimlar manbaga kirish, kiska vakt ichida ma'lumotlar yig'ish, ishlab chikish, uzatish va uning texnik vositalarini masofadan turib boshqarish kabi ta'lim jarayonida zamonaviy avtomatlashtirilgan ish o'rinishida ishlashni tashkil etish lozim. Ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanishning asosiy vazifalaridan biri ta'lim jarayonida komp'yuter tarmoqlarida ishlash va ish joylarini avtomatlashtirish ko'nikma va malakasini yaratishdan iborat.

Jamiyatning informatsiyalashuvi ijtimoiy taraqqiyotning asosiy qonunlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Bu inson faoliyatining barcha sohalariga intellektual mehnat quroli sifatida axborotlarni tezkorlik bilan yig'ish, qayta ishlash, jarayon va hodisalarni modeldashirish, ularni tahlil qilish imkonini beruvchi komp'yuterlashtirilgan tizimlar va informatsion texnologiyalar kirib kelishini bildiradi.

Ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanishda ta'lim jarayonida elektron darslik, audio va video darsliklar, on-layn darslar (Internet saxifa), elektron kutubxona, testlar, mul'timedia- elektron darslik va albatta axborot texnologiya vositalari ko'nikma va malakasini yaratishdan iborat.

Axborot texnologiyalaridan foydalanishda:

• Axborot-kommunikatsion texnologiyalari mazmuni va mohiyatini bilib oladi;

• Zamonaviy komp'yuterlar bilan bog'liq muammolarni yechishni o'rganadi;

• Ta'limda Internet muhitini biladi;

• Mul'timedia vositalarini biladi;

• Axborot va loyiha menedjmentidan foydalanishni izoxlay oladi;

• Axborot-kommunikatsion texnologiyalarini ta'lim muassasasi jarayonini tashkil etish va boshqarish jarayoniga tatbiq eta oladi;

• Axborot-kommunikatsion texnologiyalarining samoradorligini baholay oladi.

Bunda:

- axborot-kommunikatsion texnologiya tushunchasi izohlar;
- axborot texnologiyasiga berilgan izohlarni qiyoslash;
- axborot texnologiyasining mazmuni va mohiyati;
- zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish;

- zamonaviy komp'yuter muammolari;
- komp'yuterni zararlantiruvchi dasturlardan qutish yo'llari
- internet kommunikatsion muxitidan foydalanish;
- mul'timedia vositalari; komp'yuter grafikasi; komp'yuterli o'qitish usullari;
- mul'timediyadan o'quv jarayonida foydalanish;
- ta'lim muassasalarida elektron uslubiy vositalar tayyorlash usullari;

• ta'lim texnologiyalarini ta'lim muassasasi jarayonini tashkil etish va boshqarish jarayoniga tatbiq etish kabilar zarur.

Yangi asrni axborot asri deb atashganlari bejiz emas. Insoniyat hayoti kundan kunga murakkablashib bormoqda, bunda axborot texnologiyalarisiz bo'lmaydi. Hayotning o'zi murakkab, muammolarni hal etmasdan turib taraqqiyotga yo'l yo'q. Buning uchun axborot texnologiyalarini rivojlantirish kerak.

Ilm-fan cheksiz narsa, uning hammasini bilish, egallash mushkul. Shuning uchun malaka oshirishlar mobaynida bir-birimizning bilimimizni to'ldiramiz, muammolarni o'rganamiz, ularni barta'raf etish yo'llarini qidiramiz. Fikr almashamiz, bilimlarimizni rivojlantirib, kengaytirib boramiz.

Xo'sh, axborot texnologiyasining o'zi nima? Har qanday yangilikning avvalambor nazariyasi ishlab chiqiladi, uning asosida amaliyotda sinab ko'riladi. Xuddi shuningdek, axborot texnologiyasining nazariy qismi nima? Inson yer yuzida tabiat bilan kurashib, uni o'ziga buysundirib, o'ziga yashash uchun sharoit yaratib boradi. Masalan: insonni paydo bo'lishi haqidagi fikrlarga to'xtalib o'tsak, insonni kimdir tabiatning bir mavjudoti deb, kimdir uni Xudo yaratgan deb, xullas har xil ta'limotlarda turlicha talqin qilinadi. Diniy talqinga nazar tashlasak, uni Xudo yaratgan deb uqitiradi, agar Qur'oni Karimga nazar solsak unda "Ey, bandalar, men sizlarni shu dunyoda yashash uchun zarur bo'lgan hamma narsani aniq o'lgan"

bilan berib qo'yganman" degan Xudoning so'zlari keltirilgan. U nimaning bergan bo'lsa cheklab qo'ygan.

Ko'rish, eshitish, mehnat qilish, aql zakovat berilgan, lekin ular ham cheklangan. Qanday ma'noda, masalan yosh o'tgan sari ko'rish, eshitish kabi qobiliyatlarning yo'qolishi, yoki ma'lum chegaradan so'ng yo'qolishi kabilar, masalan jism 1 sekundda 11 kilometr tezlikda harakat qilsa siz uni ko'rmay qolasiz, uni ko'zingiz ilg'ay olmaydi. Ko'zni ko'rish chegaralarini optikadan ham bilasiz... quiloqning ham ma'lum chastotasi bor... inson miyasining ham hajmi bor. Uning hajmi 10 darajasi 27 bit. Inson miyasiga 1027 bitdan ortig'i kallaga sig'dira olmas ekan. To'lib qolgan ma'lumotlar o'chib o'tmiga boshqa ma'lumotlar yozilar ekan, ya'ni miya xotirasi chegaralangan. Lekin u o'z aql zakovatidan unumli foydalanishni bilishi kerak.

Masalan: vrach bemorning kasalligini o'rganish, unga tashxis qo'yish uchun uning kasallik varaqasini, qon analizlari, kardiogramma, tomografiya kabi bir necha tekshiruvlar natijalarini o'rganib chiqishi va nihoyat diagnoz qo'yishi kerak. Buning uchun u ko'p axborotlarni o'rganib chiqishi lozim. Inson bir sekundda 11 ta amal bajarar ekan. Bemorga to'g'ri tashxis qo'yish uchun esa juda ko'p amallar bajarilishi, axborotlar tahlil qilinishi lozim, bunga inson miyasi cheklab qo'yilgan. Ishni tezkor bajarish, ish samarasini oshirish uchun unga yordamchi vositalar zarur. Ularni esa inson zakovati bilan topishi, yaratishi lozim, u hayotda muammolarni yechib borishi kerak. Inson taraqqiyotni istaydi, u hech qachon bir joyda to'xtab qolgan emas. U har doim yangilikka intilib boradi. Bunda albatta uning oldida muammolar tug'ilib boradi. Ularni yechimini topish uchun ilm-fan bilan shug'ullanib, mehnatni o'zgartirish, mehnat qurolini kasf qilish, uni yengillashtirish, mehnat samarasini oshirish ustida ishlaydi. U og'ir mehnatni yengillashtirib boradi. Taraqqiyot shungacha yetib boradiki, u sun'iy intellekti kasf qildi. U insonga xos bo'lgan ko'p aql zakovatli ishlarni bajara boshlaydi. Inson o'zini jismoniy mehnatdan ozod qilib, sun'iy otni takomillashtirib taraqqiyotni shunday rivojlantirib boradiki, u otni jilovlay olmay qolibdi. Inson uning muammosini hal qilmay qolibdi. Sun'iy chavandozni olib tashlab yangi chavandoz ishlab chiqib buni sun'iy intellekti dedi. Fanda shunday sun'iy intellekti ishlab chiqilganki u

aql zakovatli, aqliy mehnat samarasini oshirsin. Uni yaratish natijasida axborot texnologiya yaratilib, mo'jizalar yaratishga olib keladi. Bu zamonaviy komp'yuterlar ortexnikalar bo'lib ularni yordamida sun'iy intellekt yaratishimiz kerak. Insonga Xudo aql zakovat bergan. Ekologiya, rel'eflar, o'simliklarga oid muammolar, ofatlar va hokazolar sodir bo'lmogda. Ular oldida inson o'zini.

Inson qonuniyatlarini tushunishga, ularni o'z foydasiga o'rganib undan o'z foydasiga o'g'irish boshlanib, tabiatdan ko'p narsani o'g'irib borib shunday taraqqiyot darajasiga yetib, hamma ilmi bir qilib, tabiat fani qilib uni tarmoqlarga bo'lib ilm fanni taraqqiy ettirib keldi. Dunyoda XIX asrning o'rtalariga kelib 1200 dan ortiq fan paydo bo'lgan edi. Bu tarmoqlanish shu qadar rivoj topdiki, olimlar tomonidan qilingan kashfiyotlarni o'zlari tushunmay qola boshladilar, uni tushunishni bilishi uchun tarmoqdagi hamma ilmi bilishi lozim.

Chunki bitta olim bitta tarmog'iga biladi. Agar boshqa tarmog'ni ham yaxshi bilsa shunda samara bo'lar ekan. Shuning uchun hamma ilmi yig'ib ilm-fan integratsiyasiga olib kelish kerak degan fikrga kelindi. Olimlar hamma ilmlarni qo'shishi muammosi turibdi. Sun'iy intellektni yaratish va ilm-fan integratsiyasini yaratish uchun XIX asrning o'rtalariga kelib Amerikalik olim Nobel Vinner 1938 yilda dunyoga mashhur bo'lgan olimlarni o'z atrofiga to'playdi va ikkita muammoni yechish masalasini ko'rib chiqadi.

1. Ilm-fanni integratsiyalashtirish;
2. Sun'iy intellekt hosil qilish.

Shu ikki masala yuzasidan ish olib boriladi. 1941-43 yillarda ular buyuk izlanishlar olib borganlar, buyuk kashfiyotlar qila boshladi. Ular butun dunyoni larzaga sola boshladi. 1948 yilga kelib N.Vinner natijalarni to'plab bitta ilmiy asar yozdi. Uni **kibernetika** deb atab dunyoga e'lon qildi. Bu so'z yunoncha so'zdan olingan bo'lib u "**qayiqni boshqarish**" degan ma'noni anglatadi. Har bir olim bu yangi nazariyani o'rganib o'z sohasiga kiritishga harakat qila boshladi. Natijada davlat arboblari qarorlar ishlab chiqara boshladi. Uni hayotga tadbir etish hozirgacha ham davom etib kelmogda. Kibernetika fanining tamal toshini **al-Xorazmiy** qo'ygan bo'lib, uning otasi bo'lib **Vinner** tan olingan.

1938 yilda yirik olim Aleksandr Borisov Kontorovich Sankt-Pe-

terburg shahrida kibernetika o'ld nazariy ta'limotni kashf qilgan edi. Lekin ular dunyoga yoygan emas. Sabab, ixtiro qilingan yangilikni tadbir etish uchun ruxsat so'rab Markazqo'mga yozma murojat qilini yordam so'raladi.

U yerdagilar uni o'rganib chiqib Markscha-Lenincha filosoflar shunday talqin qilishdiki, guvoki bu Marksizm-Leninizm g'oyalarga zid bo'lib, u kommunizm qurish g'oyasiga zid deb baholaydilar va bu o'ta xavfli taqiqlanishi shart deb qaror chiqariladi. Ixtiroda qatnashganlarga qat'iy chora ham ko'riladi. Hatto uning asoschilari chet elga qochib ketishga majbur bo'lishadi. U yerda Vinner atrofida birlashadi va unga g'oyalarni beradi. Rossiyada bu taqiq 20-25 yil davom etadi. Bu fan Marksizm-Leninizm falsafasiga to'g'ri kelmaydi, deb qarab kelingan. Amerikada kibernetikaning orqasidan katta rivojlanishlar bo'lavergach, bizda ham ochib berishgan. Hozirgi kunda Amerika kosmosda ustun, shuning uchun hech kim bilan hisoblashmaydi. U kibernetikaning orqasidan rivojlanib ketdi. Xitoy unga yaqinlashmogda.

Darhaqiqat, kibernetika borligida sodir bo'layotgan barcha jarayonlarni o'rganuvchi, boshqaruvchi qonuniyat haqidagi fandir. Vinner kibernetikaga shunday ta'rif bergan: **kibernetika** — tirik organizmlardagi va mashinalardagi boshqarishlar va bog'lanishlarning umumiy qonuniyatlari haqidagi fandir. Viktor Mixaylovich Glushkov sovet akademigi, kibernetigi esa shunday ta'rif bergan: kibernetika — o'ta murakkab boshqariladigan sistemalardagi ma'lumotlarni yig'ish, saqlab qo'yish, masofaga uzatish va ularga qayta ishlov berishning umumiy qonuniyatlari haqidagi fandir. Kibernetikaning davomchisi bu axborot texnologiyalaridir. Axborot texnologiyalari buyuk kashfiyotlarni amalga oshirib berdi. Uning nazariyalari quyidagilar:

1. Boshqarishning umumiy nazariyasi;
2. Sistema degan nazariya;
3. Axborot nazariyasi;
4. Bog'lanishlar nazariyasi;
5. Sun'iy intellekt;
6. Matematik modellashirish;
7. Algoritmilar;
8. Dasturlash va h.k.

Bular axborot texnologiyalarining nazariyalari bo'lib, ular yan-
gi ilmiy nazariyalardir. Masalan: sistema so'zining ma'nosiga
ko'pchilik e'tibor bermaydi. Ba'zi ilmiy ishlarda hatto noto'g'ri
taqin qilinadi. Sistema – tarkiblangan o'zaro bog'langan va umumiy
birgalikda funktsiyalarni bajarish bir butunlik demakdir. Tabiatda,
tirik organizmlardagi ko'p qonuniyatlarni biz yaxshi tushunmaymiz,
tabiat, ekologik holatlar buzilib qolmoqda. Muammolar ko'payib
ketmoqda. Har bir narsaga sistema-tizimiy qarab chiqish kerak. Asl-
ida ularning barchasining zamirida sistema yotadi. Azon yemirilish
bormoqda. Kosmosdan kelayotgan radiatsiya yerga yetib kelmoqda.
U butun tirik mavjudotni o'ldirishga qodir. Teshik kundan kunga
kattalashib bormoqda. Tirik mavjudotlar qirilib ketish xavfi ham
yo'q emas hatto. Bularning barchasi sistemaning buzilishida...

Yuqorida keltirilgan AT nazariyalarini bilimdan turib AT haqida
tasavvurga ega bo'lish qiyin. Ularning har biri chuqur bilim talab
etadi.

Boshqarishning umumiy nazariyasi kibernetika boshqaruvchi va
boshqariladigan sistema bo'lishi kerak, deb tushuntiradi. Boshqaruv-
chi ob'ekt boshqariluvchi sub'ekt to'g'ri va teskari bog'lanishga ega
bo'lishi kerak deyiladi. Ya'ni masalan, ma'lumotlarni olish, saqlab
qo'yish, ishlov berish tartibiga keltirish, tahlil qilib ob'ektning hola-
tini aniqlash, boshqarish, nazorat qilish kerak deyiladi.

Sun'iy intellekt juda katta ishlarni qilishga qodir. Sistema o'zaro
birgalikda umumiy funktsiyani bajaruvchi elementlar to'plami
bo'lib bitta maqsadni amalga oshiradi.

Sistema – tizim deb tartiblangan, o'zaro uzviy bog'langan va bir-
galikda umumiy funktsiyani bajaruvchi elementlar to'plamiga ayti-
ladi. Masalan, inson organizmi. Uning ichki organlarining har birini
o'z funktsiyasi bor. Hammasi bir-biriga bog'liq. Bir vaqtning o'zida
ishlaydi va umumiy funktsiyani bajaradi. Organizmning yashashini
ta'minlaydigan sistema deb qarashimiz mumkin. Har bir organ eng
kam energiya sarf qilib samarali ish bajarishini original komp'yuter-
lar sun'iy intellekt emas, u – texnika, qachonki uni biz boshqargan.
Uni maqsadli boshqarilsa, amalga oshirilsa, ilmiy ma'lumotlar ish-
lab chiqilsa shunda komp'yuter sun'iy intellekt bo'ladi.

Axborotni ba'zan ma'lumot deb qo'ya qoladi. Bu noto'g'ri.
AQShlik Sherman degan olim axborot degan nazariyani ishlab

chiqqan. Har xil tushunchalar, ma'lumotlar bitta axborotga olib kel-
moqda.

Matematik model komp'yuterda matematik til, hisob-kitob mod-
el bo'lishi kerak. Komp'yuterda matematik model orqali optimal
yo'llar, eksperimentlar ishlab chiqilib hayotga tadbir etiladi.

Algoritmolar matematik modellar asosida quriladi. Bu ham katta
nazariya, o'z tarmoqlariga ega. (Sikllar, oddiy, murakkab, qaytari-
luvchi va h.k.). Al Xorazmiy asos solgan.

Dasturlash. Turli xil dasturlashlar mavjud (sanab o'tiladi). Har
biri alohida vazifalarni bajaradi va alohida o'qitiladi. Axborot tex-
nologiyalariga O'zbekistonda S.G'ulomov ta'rif bergan:

Axborot texnologiyasi ob'ekt, xodisa va jarayonlarning holati
haqida yangi sifat axborotlarni olish uchun ma'lumotlarni yig'ish,
saqlab qo'yish, masofaga uzatish va ishlov berish vosita, usullar
jamiyasidan foydalanish jarayonidir.

Professor H.Qodirov esa shunday ta'rif beradi: Axborot tex-
nologiyasi deb tabiatdan turlicha bo'lgan ob'ekt, xodisa va jaray-
onlarni maqsadli boshqarishda zarur bo'lgan yangi sifat axborotlarni
ishlab chiqarish uchun ma'lumotlarni yig'ish, saqlab qo'yish, ma-
sofaga uzatish va qayta ishlov berishning vosita, usullari sistemasi
yaratish va amaliyotga tadbir qilish jarayoniga aytiladi.

Vosita bu – texnika u yordamida ma'lumotlar yig'iladi, ishlov
beriladi. Qayta ishlash texnikasi bu komp'yuter. Ussullar bu ishlov
berish yo'llari. Komp'yuter orgali ishlov beriladi. + - * / mantiqiy
qo'shuv va mantiqiy ayiruv kabi oltita arifmetik amalni komp'yuter
bajaradi.

Zarur bo'lgan har qanday murakkab vazifalar uchun matematik
modellashtrish, algoritm, dasturlash amalga oshirilib, komp'yuterga
yuklanisa shunda u vazifani bajaradi. Yangi sifat axborot yordamida
ob'ekt holatini aniqlash kerak.

Komp'yuterda ishlab chiqarishda matematik amallar bajaradi.
U matematikani tushunmaydi. Buning uchun algoritm kerak. Uni
algoritmga o'girish kerak. Uni esa komp'yuter tushunadigan pro-
grammaga aylantirish kerak. Menga zarur bo'lgan hamma yangi
sifat axborotlarni komp'yuterga yuklab uni boshqarsam u sun'iy
intellektga aylanadi, u yordamchi ishchiga aylanadi. Yangi sifat ax-
borot olish uchun ming-minglab amal bajarish kerak. Buning uchun

